ISSN 2181-7839

# XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

# PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

## 2022

## 6-son

(Noyabr-Dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

# MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| | | **TAHRIRIYAT** |
| | 4 | Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot madaniyati |
| | | **TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI** |
| **U. Sharifxodjaev** | 6 | Xalq ta'limi rahbar xodimlarining moliyaviy faoliyati va kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari |
| **T. Komilov** | 13 | Ta'lim sifatini oshirishda maqsadli moliyalashtirishning o'rni |
| **M. Qalandarova**<br>**S. Boymurodova** | 18 | Ta'lim jarayonida o'quv maqsadlarini amalga oshirishda didaktik vositalarining o'rni |
| **A. Usmonova** | 22 | Umumta'lim maktablarida jamoatchilik bilan aloqalar faoliyatini tashkil qilish masalalari |
| **F. Maxamatova** | 28 | Intellektuallashtirilgan o'qitish tizimlari negizidagi bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash |
| | | **TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI** |
| **Z. Sangirova**<br>**K. Suyarov** | 32 | Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quv-loyiha ishlarining o'rni |
| **D. Abduraxmanova** | 38 | Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozma ishlarni tashkil etish usullari |
| **N. Xamrayeva** | 42 | O'quvchilar intellektual qobiliyatini rivojlantirish metodlari |
| **H. Qoraboyev** | 45 | 4-sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda uyga vazifalardan foydalanish metodikasi (o'qish darslari misolida) |
| | | **TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT** |
| **E. Murodov** | 50 | Bitiruvchi o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalarni shakllantiruvchi o'qitish-o'rganish modellari |
| | | **ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI** |
| **A. Qayumov** | 55 | Ta'limda virtual texnologiyalar |
| **Sh. Ro'zaliyev** | 58 | Talabalarning bo'lajak kasbiy malakalarini rivojlantirishda geymkifikatsiyadan foydalanish |
| **Z. Mamatova** | 62 | Informatikani o'qitishda axborot ta'limiy resurslardan foydalanishning pedagogik jihatlari |
| **M. Tayirova** | 67 | Informatika fanini o'qitishda multimedia texnologiyalarini qo'llashning nazariy va amaliy ahamiyati |
| **D. Azizova**<br>**S. Rasulova** | 74 | Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar bilim va dunyoqarashini kengaytirish, savod o'rgatish davrida innovatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni tashkil etish |
| | | **JISMONIY TARBIYA VA SPORT** |
| **S. Ibraximov** | 79 | Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak sport murabbiylarini guruh a'zolari orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga tayyorlashda qo'llaniladigan strategiyalar |
| **A. Nurullaev** | 85 | Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarda chidamlilikni rivojlantirishga asoslangan o'quv jarayonini loyihalash bosqichlari |
| | | **TA'LIMDA IQTISODIYOT VA MOLIYALASHTIRISH** |
| **E. Qurbonov** | 91 | Ta'limni moliyalashtirish: xalqaro modellar, usullar, tajriba va natija |
| | | **MAKTABGACHA TA'LIM** |
| **N. Abduqodirova** | 95 | Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash shakllari va metodlari |

| | | |
|---|---|---|
| **N. Abdusamatova** | 100 | Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish pedagogik zaruriyat sifatida |
|  **ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR** | | |
| **M. Usmonova** | 104 | Ta'limda raqamli texnologiyalar: muammolar, yechimlar |
| **G. Berdaliyeva** | 107 | Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishning axborot-ta'lim muhitini tashkil etish strategiyasi |
|  **ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK** | | |
| **Sh. Mamajonov** | 112 | Ekologik tarbiya texnologiyalarini didaktik jarayonga tatbiq etish |
|  **MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI** | | |
| **Sh. Usanov** | 115 | O'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ota-onalarning pedagogik madaniyatini takomillashtirishning ayrim jihatlari |
| **M. Bakiyeva** | 118 | Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda milliy an'analarning o'rni |
|  **KORREKSION PEDAGOGIKA** | | |
| **D. Nazarova** | 121 | Koxlear implantli bolalar kommunikativ malakalarini shakllantirish – inklyuziv ta'limga jalb etishning zaruriy omili |
|  **PSIXOLOGIYA** | | |
| **G. Davurova** | 125 | Harbiy xizmatchi ayollarda qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir etuvchi psixologik omillar |
| **A. Radjabov** | 131 | Stress holatining mamlakatimiz psixologlari tomonidan yoritilishi |
|  **AXBOROT TAHDIDLARIDAN HIMOYA** | | |
| **D. Xo'jamberdiyeva** | 135 | O'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetentligi ta'limning asosiy mezoni |
|  **МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ** | | |
| **З. Каримова** | 139 | Развитие языковой активности студентов в процессе изучения иностранного языка |

# IJTIMOIY TARMOQLARDA MULOQOT MADANIYATI

Kompyuter texnologiyalarining shiddatli taraqqiyoti dunyoning milliardlab foydalanuvchilariga butunjahon tarmog‘iga kirish imkoniyatini berdi. Natijada, har kuni minglab odamlar internetga ulanib, uning manbalaridan faol ravishda foydalanmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ma’lumotlarning katta qismini yoshlar ma’naviyatining tubanlashuviga turtki bo‘luvchi, milliy va diniy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabarlar, urf-odatlar tashkil etadi. Bu esa, Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa zamonaviy telekommunikatsiya yutuqlaridan foydalanish tizimini tartibga solish, ularning imkoniyatlaridan oqilona istifoda etish, muayyan odob-axloq qoidalarga amal qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Avvallari yoshlar qalbidagi nozik kechinmalarni aks ettirgan va eng kamida savod talab qilgan xatlar bugunga kelib harflar, so‘zlar, tinish belgilaridan iborat qisqa va hissiz xabarlarga aylanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi yozma muloqotlarda so‘zlarni iloji boricha qisqartirish, yangi so‘zlar va iboralarni “kashf qilish”, til me’yorlarini qo‘pol ravishda buzish odati avj olmoqda. Vaqtni tejash bahonasi bilan grammatik butunlikka putur yetkazib, so‘zlarni ma’nosi buzilishigacha bo‘lgan xatolarni sodir qilish ayni davrda aksariyat yoshlarni savodsiz bo‘lishiga xalq tili bilan aytganda “chalasavod” bo‘lishiga olib kelmoqda.

Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o‘sib ulg‘aymoqda. Bu quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me’yori bo‘lmog‘i zarur. Yoshlar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba’zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo‘lib qoladilar.

Ruhshunoslar qisqa matnchalar yordamida ko‘p muloqot qilish salbiy oqibatlarga olib kelishini aytishmoqda. Ayniqsa, inson quloqlari ostida doimiy telefon signalining jarang sochishi yoki mobil aloqaning vibratsiyasini muntazam his qilis ruhiy xastalikning dastlabki belgilari hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarga mukkasidan ketish ayniqsa, yoshlarda bezovtalik bilan izohlanadi. Yaqinlari mehri va e’tiborini ulardan kelayotgan sms xabarnomalar bilan o‘lchaydi.

Ijtimoiy tarmoqlar vazifalari ustida ishlayotgan kishilar ularni kundan-kunga yaxshiroq, qiziqarliroq, rang-barang qilishga urinmoqda: kirgan odam iloji boricha ko‘proq vaqtini o‘tkazsin, pul sarflasin, nimadir xarid qilsin va hokazo.

Odamlarni bir biridan uzoqlashtirayotgan va ijtimoiy tarmoqlar orqaligina yaqinlashtirib qo‘yayotgan yana bir omil bu smartfon egalarini ko‘payayotganidir. Britaniyalik tadqiqotchilarning izlanishlariga qaraganda, smartfon egalarining yarmi ijtimoiy tarmoqlar hamda elektron pochta orqali muloqot qilishni afzal ko‘rishadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda shunday guruhlar ham paydo bo‘lganki, foydalanuvchilar bir-birini maqtab ko‘kka ko‘tarishlari, shuningdek, kimlarningdir nomini loyga chaplashlari, obro‘sini to‘kish, yerga urish, buning uchun bor imkoniyatidan foydalanishga harakat qilishadi. Bu holat bilan ular muloqotning eng tuban yo‘lini tanlashadi. G‘iybat ular uchun oddiy holga aylangan. Qarashlar shu qadar bahsli, shu qadar qutbliki, uni o‘qigan sog‘lom fikrli inson yoshlar tarbiyasi va dunyoqarash madaniyati transformatsiya qarshisida turibdi degan fikrga boradi. Shu sabab ko‘pchilik bu tarmoqlarni yoqtirish-

maydi. Lekin shunga qaramay, statistik ma'lumotlarga nazar solsak, dunyo yoshlarining 96 foizi ijtimoiy tarmoqlar vositasida o'zaro muloqotga kirishishmoqda.Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o'sib ulg'aymoqda. Bu quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me'yori bo'lmog'i zarur. Yoshlar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba'zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo'lib qoladilar.

Yangilik va axborot xurujlari avj olayotgan zamonamizda ijtimoiy tarmoqlardan madaniyat bilan foydalanmaslik insonning o'zi va yaqinlari uchun ham qimmatga tushishi mumkin. Chuqurroq o'ylab qarasak, ijtimoiy tarmoqlar qabih niyatda yaratilmaydi balki imkoniyat va yengillik yaratish, uzoq masofani yaqin qilish uchun kashf etiladi. Zamonaviy matematika, dasturlash, iqtisodiyot asoslari, psixologiya, chet tillar kabi bugunning eng dolzarb, talab yuqori bo'lgan fan yo'nalishlari bo'yicha ham istalgancha videodarslar, qo'llanmalar topish mumkin. Virtual auditoriya uchun tashkil etiladigan onlayn darslarda qatnashsa bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy tarmoqlar arzon va bepul ta'lim olish uchun imkoniyat eshiklarini juda keng ochgan. Bu nafaqat ilm olish, balki ilm tarqatishda ham qo'l keladi. Turli soha mutaxassislari o'z pedagogik mahoratlarini namoyish etishi, virtual o'quvchilar yig'ishi mumkin. Ular kun kelib bu mutaxassisning hayotdagi real talabalariga aylanishi ehtimoli ham yuqori. Ammo ba'zi insonlarning ichki buzg'unchiligi sababli kutilgan natijadan teskari javob qaytadi.

Internet imkoniyatlarini suiste'mol qilib, soxta akkauntlar ochib, yolg'on xabarlar, surat va videolavhalar tarqatishadi. Hatto birovning noqulay vaziyatini ham kulgu qilib muhokamaga qo'yib muloqot qiladigan guruhlar ham ijtimoiy tarmoqlarda kam emas. Holbuki, moddiy kamchilikni berkitish, misol uchun badanni berkitish uchun kiyim olib berish bo'lsa, ma'naviysi esa yomon ish qilganini ko'rib bekitish, hech kimga aytmaslikdir.

Bu da'vat dinimizda ham asosiy mezon hisoblanadi. Shu sababli ham bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish madaniyatini to'g'ri yo'lga qo'yish suv va havodek nihoyatda dolzarblik kasb etmoqda. Sababi insoni sha'ni or nomusi birgina internet orqali toptalsa turgan gapki u uchun yashash ham muammodek tuyuladi. Albatta bunda davlat siyosatining to'g'ri yo'lga qo'yilishi bo'lsa, ikkinchidan va eng asosiy sharti bu oilada tarbiyaviy muhitning mukammalligidir.

Oilada yoshligidan go'zal va axloqiy tarbiya olgan farzand ijtimoiy tarmoq bo'ladimi, jonli muloqot bo'ladimi ma'lum odob va axloq chegarasini aslo hatlab o'tmaydi. Pichoqni qotil ham, oshpaz ham o'z maqsadi yo'lida ishlatar ekan, gap qurolda emas, uni tutgan qo'lda. Ijtimoiy tarmoqlarning hayotimiz va oilamizga ta'sirini tartibga solish uchun internetdagi axborotlarga munosabatimizni o'zgartirishimiz lozimligini tushunishimiz kerak.

Bu virtual obrazlar jamlanmasi, xolos. Ulardan qanchasidir haqiqat-u qanchasi ro'yo bo'lishi mumkinligini hamisha yodda tutish lozim. Oynai jahonda bot bot ko'tarilayotgan muloqot madaniyati tushunchasi shunchaki qurbon bo'ladigan atama bo'lib qolmasligi, balki har birimiz uchun mustahkam qonun bo'lishi kerak. Sababi endi zamonaning ilg'or ijtimoiy tarmoqlari orasida o'z madaniyatimiz, e'tiqodimiz va tilimiz aslini yo'qotib qo'ymasligi, o'sha yuqorida saviyasi quyilar uchun suyqasi chiqqan, aslida, bebaho muloqot madaniyatiga nihoyatda bog'liq.

**Usman SHARIFXODJAEV,**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Marketing" kafedrasi dotsenti

# XALQ TA'LIMI RAHBAR XODIMLARINING MOLIYAVIY FAOLIYATI VA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

**Annotatsiya**

Maqolada ta'limni moliyalashtirishning umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbar xodimlarining moliyaviy faoliyati samaradorligiga ta'siri, moliyaviy kompetentni rivojlantirish mexanizmlari bo'yicha yondashuvlar, ta'lim faoliyati uchun byudjet va byudjetdan tashqari qo'shimcha mablag'larni jalb qilish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, direktorlarda maktab moliyaviy faoliyatini rejalashtirish, maktab sarf-xarajatlarini optimallashtirish orqali moliyaviy barqarorligini ta'minlash ko'nikmalarini shakllantirish, umumta'limda ehtimoliy o'g'irlik va korrupsiyaviy holatlarni bartaraf etish yo'llarini qidirish bo'yicha xorij tajribalari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar.** Ta'limni moliyalashtirish va samara, moliyaviy faoliyat, moliyaviy kompetentlik, shaffof va ochiq moliyaviy faoliyat.

В статье анализируется влияние финансирования образования на эффективность финансовой деятельности управленческого персонала организаций общего среднего образования, подходы к механизмам развития финансовой компетентности, механизмы привлечения бюджетных и внебюджетных дополнительных средств на образовательную деятельность. Также директора изучили зарубежные эксперименты по планированию финансовой деятельности школы, формированию навыков обеспечения финансовой стабильности путем оптимизации школьных расходов, поиску путей устранения возможного воровства и коррупции в системе общего образования.

**Ключевые слова.** Финансирование образования и эффективность, финансовая деятельность, финансовая компетентность, прозрачная и открытая финансовая деятельность.

The article analyzes the impact of education financing on the effectiveness of the financial activities of management personnel of organizations of general secondary education, approaches to mechanisms for the development of financial competence, mechanisms for attracting budgetary and extra-budgetary additional funds for educational activities. The directors also studied foreign experiments on planning the financial activities of the school, developing skills to ensure financial stability by optimizing school expenses, finding ways to eliminate possible theft and corruption in the general education system.

**Key words.** Financing and control of education, financial activities, financial competence, transpare.

Ta'limning sifati va natijadorligida muhim rol o'ynaydigan moliyaviy manbalar va ularni samarali ishlatish masalasi ta'lim tadqiqotchilari orasida keng o'rganilmoqda va tadqiq etilmoqda. Ta'limga ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanishda ko'plab omillar haqida fikr yuritish mumkin. Shulardan biri shubhasiz, xalq ta'limi rahbar xodimlarining moliyaviy kompetentligidir.

Ta'lim tadqiqotchilari qanday qilib cheklangan moliyaviy resurslardan samarali

foydalanish mumkinligi haqida bosh qotirarkan, bunda xalq ta'limi rahbar xodimlarining moliyaviy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari borasida muhim fikrlarni va yondashuvlarni ilgari surmoqda.

Jumladan, Janubiy Afrika respublikasida olib borilgan tadqiqotlarda asosiy muammo maktab direktorlarida moliyaviy kompetentlikning yetishmasligidan qattiq shikoyat qiladi. J.Afrika respublikasi qonunchiligiga ko'ra, maktablarni moliyalashtirish davlat byudjetidan to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilib, maktab direktorlari ushbu mablag'lar uchun ham mas'ul ham javobgar shaxs hisoblanadi. O'z vaqtida aparteíd tizimidan qutilgan ushbu davlat keyingi rivojlanishida boshqaruvni nomarkazlashtirishga qaratarkan, ta'limni moliyalashtirishda ham nomarkazlashtirish tizimiga o'tgandi. Ammo mazkur davlatdagi ko'plab maktab direktorlari moliya-xo'jalik to'g'risidagi qonunlarni yaxshi bilmasligi, iqtisodiy-moliyaviy bilimlarining pastligi va samaradorlik, ustuvorlik va shaffoflikka amal qilmasligi natijasida maktab mablag'lari talon-taroj bo'lishi yoki samarasiz sarflanishiga sabab bo'layotganligi ta'kidlanmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf qilish va umumta'lim maktablari direktorlarining moliyaviy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagi masalalarga jiddiy e'tibor qaratish kerakligini ilgari suradi:[1]

– maktab direktorlarini moliyaviy menejment kursi bo'yicha muntazam o'qitib borish;

– ta'lim sohasi yoki iqtisod-moliya yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarni direktor qilib tayinlash;

– maktab moliyaviy ishlarida Kuzatuv Kengashining (J.Afrikada Ijroiya Kengashi deb nomlanadi) vakolatlarini kengaytirish;

– maktab moliyaviy ishlarida oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash uchun o'qituvchilar va ota-onalarning keng ishtirokini ta'minlash va ularning ham bu boradagi mas'uliyatini oshirish;

– ta'lim tashkilotlarini nazorat qiluvchi davlat tashkilotlari va inspeksiyalarning faoliyatini takomillashtirish va moliyaviy huquqbuzarliklar bo'yicha javobgarlikni kuchaytirish.

Turkiyada olib borilgan tadqiqotlarda umumta'lim maktablari rahbarlarining moliyaviy kompetentini takomillashtirish borasida juda ko'plab ilmiy fikrlar berilgan. Turkiya G20 va OECD kabi nufuzli siyosiy-iqtisodiy uyushma va tashkilotlarga kiradigan va sanoati ancha rivojlangan davlat bo'lishiga qaramay ta'limni moliyalashtirishda ko'plab muammolar borligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu davlat ta'lim tadqiqotchilari ta'limni moliyalashtirish muammolari va maktab direktorlarining moliyaviy kompetentini oshirish masalalari bo'yicha izlanishlarida asosiy muammo maktablarning o'z byudjeti yo'qligiga urg'u beradi. Turkiyada xuddi O'zbekistondagi kabi ta'lim markazlashgan holda moliyalashtiriladi va byudjet mablag'lari uchun respublika, viloyat, tuman va shahar ta'lim boshqarmalari javobgar hisoblanadi.

Bundan kelib chiqqan holda, tadqiqotchilar buni ta'lim sifati va samarasiga salbiy ta'sir qilayotgan omillarni ko'rsatib o'tadi. Shunday omillardan maktab uchun zarur bo'lgan ish va o'quv qurollari, mebel jihozlari, org-texnikalar va boshqa ta'lim vositalarini o'z vaqtida ta'minlash imkoniyatining yo'qligi, maktab uchun qo'shimcha xarajatlarda ota-onalardan mablag' yig'ish ota-onalar va farzandlarining maktabdan uzoqlashishiga sabab bo'layotganligi, qo'shimcha daromad va xarajatlarda ham shaffoflikning yo'qligi

[1] Bush T., va boshq., 2006; Mestry R., 2004; Xaba and Dumisane Ngubane, 2010, yuqoridagi manbalar.Education, South Africa Yearbook 2015/16.

va boshqalarni keltirib o‘tish mumkin.

Ushbu muammolardan kelib chiqib, tadqiqotchilar mazkur muammolarni hal qilish va maktab direktorlarining moliyaviy kompetentini rivojlantirish borasida quyidagi takliflarni berib o‘tadi:[2]

– maktablarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish;

– maktab direktorlarining moliyaviy mablag‘lardan foydalanish kompetensiyasini oshirish;

– maktablarda qo‘shimcha daromadlarni topishni takomillashtirish;

– maktab moliyaviy ishlariga o‘qituvchi va jamoatchilikni keng jalb qilish;

– byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning bir qismini maktab ehtiyojlari uchun sarflashda direktorlarga vakolat berish;

– maktab byudjetini shakllantirishda direktor, yordamchilari va o‘qituvchilarning ishtirokini ta’minlash va ularning istaklarini inobatga olish va b.

Xalq ta’limi rahbar xodimlarining moliyaviy kompetentini rivojlantirish mexanizmlari bo‘yicha boshqa xorijiy tadqiqotlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ularda ham tabiiy holatda ko‘plab farqli fikr va yondashuvlarni ta’kidlayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, tadqiqotchi Monika Kirya bu borada farqli yondashuvni ilgari suradi. Monika Kiryaning fikricha, cheklangan ta’lim resurslarini tejashning yo‘li tizimdagi o‘g‘rlik, talon-taroj, yo‘qotish va samarasiz ishlatishlarni oldini olish bilan erishish mumkin. Garchi buni ko‘pchilik bilsa ham uni bartaraf etish yo‘llarini bilmaydi, deb hisoblaydi tadqiqotchi. Shu bois tadqiqotchi Kirya buni yechimi sifatida avvalo ta’limdagi korrupsion holatlarga olib keladigan risklarni aniqlab olish kerakligini ma’lum qiladi. Unga ko‘ra, dunyo tajribasi o‘rganilganda ta’limda quyidagi korrupsion holatlar kuzatilgan:[3]

Maktab ta’limi sohasida korrupsion holatlarning ko‘rinishi (dunyo tajribasi)

1-Maktabga ro‘yxatdan o‘tish varaqalari uchun, ular bepul bo‘lishlariga qaramay, noqonuniy to‘lovlar qo‘llaniladi.

2-Maktabdagi o‘rindiqlar kim oshdi savdosida eng yuqori narxda qatnashgan ishtirokchiga beriladi.

3-Muayyan jamoalarning bolalari kirish uchun imtiyozli, boshqalari esa qo‘shimcha to‘lovlarga ega.

4-Yaxshi baholar va imtihon natijalari o‘qituvchilarga va ma’muriyat rahbarlariga pora berish yo‘li bilan olinadi. Narxlar ko‘pincha oldindan ma’lum va nomzodlar buni to‘lashlari kutiladi.

5-Imtihon natijalari faqat to‘lov amalga oshirilgandan keyingina chiqariladi.

6-Maktab imtihonlarini muvaffaqiyatsiz yakunlanishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilarni yolg‘on ism bilan qabul qilish yoki qayta qabul qilish orqali imtihon natijalarini bekor qiladi.

7-O‘quv materiallari, maktab binolar va boshqalar uchun mo‘ljallangan mablag‘larni o‘g‘irlash mavjud.

8-Sifatsiz o‘quv materiallari ishlab chiqaruvchilarining porasi orqali, o‘qituvchilarning mualliflik huquqlari va boshqalar sotib olinadi.

9-Maktablar yoki siyosiy aloqador kompaniyalar ovqatlanish va forma bilan ta’minlashni monopoliyalashtiradi, natijada past sifat va yuqori narx paydo bo‘ladi.

10-Davlat tarafidan oylik oladigan o‘qituvchilar o‘quvchilarga darsdan tashqari

[2] Kayikchi ve Akan, 2014, o‘sha manba; Hosgorur V. ve Arslan I.,o‘sha manba; Mentese, Ustun, Gondelen, 2012, o‘sha manba.

[3] Monica Kirya, 2019, o‘sha manba, 6-7 betlar.

vaqtlarda xususiy o‘qitishni taklif qiladi. Bu o‘qituvchilarning oddiy darslardagi motivatsiyasini pasaytirishi va shaxsiy mashg‘ulotlari uchun majburiy mavzularni zaxiralashi mumkin, bu esa to‘lamaydigan yoki to‘lay olmaydigan o‘quvchilarga zarar yetkazadi.

11-Maktab mulki xususiy tijorat maqsadlarida (direktor va uning sheriklarining shaxsiy manfaatlari uchun) foydalaniladi.

12-O‘quvchi va o‘qituvchilar haq to‘lamaydigan mehnatni amalga oshirishga majburlanadi.

13-O‘qituvchilarni ishga qabul qilish yoki lavozim berishda qarindoshchilik, favoritizm, pora berish yoki shahvoniy munosabat ta’sir ko‘rsatadi.

14-Imtihon savollari oldindan sotiladi.

15-Imtihon natijalari yuqori baholarni aks ettirish uchun o‘zgartiriladi yoki imtihonchilar pora evaziga o‘zboshimchalik bilan baho beradi.

16-Imtihonga pul evaziga boshqasi kiradi.

17-Ish haqqi “arvoh o‘qituvchilar” uchun olinadi – turli sabablarga ko‘ra ishlamaydigan (yoki hech qachon ishlamagan) xodimlar, shu jumladan, vafot etganlar. Bu amalda o‘quvchi-o‘qituvchi nisbatlariga ta’sir qiladi va ishsiz o‘qituvchilarning bo‘sh lavozimlarga joylashishiga yo‘l qo‘ymaydi.

18-O‘qituvchilar ko‘pincha o‘quv soatlari davomida xususiy biznes bilan shug‘ullanib, darslar nomiga vaqt o‘tkazishga aylanadi. Absenteizm, “tinch korrupsiya”ning bir shakli bo‘lib, o‘quv natijalariga va amalda o‘quvchi-o‘qituvchilar nisbatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

19-Turli tadbirlar uchun o‘quvchi va o‘qituvchilardan pul yig‘ib olinadi.

20-O‘qitish uchun litsenziyalar va ruxsatnomalar yolg‘on asoslarda (pul va tanish evaziga) olinadi.

21-Yaxshi mablag‘ olish uchun o‘quvchilar soni (shu jumladan, ehtiyojmand o‘quvchilar soni) oshirib yuboriladi.

22-Auditorlarga mablag‘larning maqsadsiz ishlatilishini oshkor qilmaganlik uchun pora beriladi.

23-Hukumat tomonidan ajratilgan yoki mahalliy nodavlat tashkilotlar (NNT) va ota-onalar tashkilotlari tomonidan jalb qilingan mablag‘lar o‘g‘irlanadi yoki samarasiz ishlatiladi.

24-Maktab boshqaruvi va faoliyatiga siyosiy manfaatlarga asoslangan norasmiy kelishuvlar ta’sir qiladi.

Yuqorida ko‘rib chiqqanimiz 24 ta (aslida bundan ko‘p) korrupsion holatlar ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va ta’lim sifatini tushirishi bilan birga, ta’lim uchun qiynalib topilgan kam sonli resurslarni talon-taroj bo‘lishiga yoki samarasiz sarflanishiga sabab bo‘lmoqda. Tadqiqotchilarga ko‘ra, mazkur muammolarni bilish va uni oldini olish orqali nafaqat maktab moliyaviy holatini yaxshilash mumkin, balki maktab rahbariyatining mas’uliyatini ham oshirish mumkin.

Tadqiqotchi Monika Kirya fikriga ko‘ra ta’limdagi korrupsion xavflarni aniqlab olgandan keyin uni oldini olish bo‘yicha strategik vositalarni ishlab chiqish kerak. Ta’lim sohasidagi korrupsiyaga qarshi kurashning yagona rejasi yo‘q, ammo resurslarni talanishini kamaytirish va ta’lim natijasini xavf ostiga qo‘yadigan jinoiy va axloqsiz xatti-harakatlarga qarshi kurashda yutuqlarga erishish mumkin va erishilgan. Buning uchun kamida quyidagilarni amalga oshirish kerak:[4]

Birinchidan, byudjet shaffofligini oshirish, tekshirish (audit) ishlarida inson omili-

[4] Monica Kirya, 2019, ўша манба.

ni kamaytirish va tizimni raqamlashtirish lozim. Bu uchun axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali ijtimoiy tarmoqlarni yaratish ham mumkin. Hindiston bu borada ko‘plab yutuqlarga erishgan. Shaffoflikni oshirish uchun esa davlat xarajatlari bo‘yicha so‘rovnomalarni yo‘lga qo‘yish kerak. Masalan, sarflangan 1 so‘m qayerga va nima maqsadda ishlatildi, kabi platforma.

Ikkinchisi, maktab direktori va o‘qituvchilarning hisobdorligini oshirish lozim. O‘qituvchilarning obod-axloq qoidalari, jamoatchilik nazorati, shikoyatlar mexanizmi, ish haqi islohoti va boshqalar. Shu bilan birga, o‘qituvchilarni rag‘batlashtirish, mavqeyini oshirish, oylik maoshlarini yaxshilash ishlarini olib borish lozim. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun duch kelayotgan muammo va qiyinchiliklarini bayon qiladigan ijtimoiy platformalar joriy qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunda tizimdagi muammolar aniq ko‘rina boshlanadi va muammolar kanallashtirilib, yechimi bo‘yicha chora-tadbirlar olib borilishi mumkin bo‘ladi.

Uchinchisi, xalqaro va ikki tomonlama hamkorlikni keng yo‘lga qo‘yish. Ular ta’lim islohotlarini rejalashtirish, xavflarni baholash, ijtimoiy-iqtisodiy va tizimli tahlil va yondoshuvlarni o‘tkazishda texnik yordam ko‘rsatishi mumkin. Umuman, ta’lim global tendensiyalar bilan hamohang rivojlanishi ta’lim islohoti uchun juda ahamiyatlidir.

Boshqa bir tadqiqotda maktab moliyaviy ishlarini ochiqlik va oshkoraligini va samaradorligini ta’minlash uchun inson omilini kamaytiradigan AKT tizimini keng joriy qilishni taklif qiladi. Ushbu tadqiqotchilarga ko‘ra, maktab direktorlari odatda bilib-bilmay moliyaviy xatoliklarga yo‘l qo‘yadi. Shu bois, ular har bir ishini AKT orqali amalga oshirishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish kerak. Shunda moliyaviy shaffoflik bilan birga, samaradorlik ham ortadi[5].

Maktab moliyaviy ishlarida shaffoflik va samaradorlik haqida gap ketganda tadqiqotchi Kyun (Kuehn) quyidagi mexanizmlarni taklif qiladi:[6]

1. O‘qituvchilarga maktabning qarashlari, missiyasi va asosiy qadriyatlarini aniqlashda ishtirok etish imkoniyati berilishi kerak.

2. O‘qituvchilar qaror qabul qilish jarayonida hamkorlik va muloqotga ochiq bo‘lishi kerak.

3. O‘qituvchilarga byudjetni shakllantirish jarayonida (byudjetni rejalashtirish va boshqarish) ishtirok etish imkoniyatini berish kerak.

4. Maktabga yo‘naltirilgan boshqaruvni amalga oshirish uchun, ayniqsa, moliyaviy yordam ko‘rsatilishi kerak.

Ta’lim tashkilotlari rahbarlarining muhim iqtisodiy kompetenti moliyaviy menejmentdir. Maktab moliyaviy menejmenti – moliyaviy rejani rejalashtirish va amalga oshirish, aktivlarni yo‘qolishi, buzilishi va firibgarliklardan himoya qilish uchun buxgalterik hisob-kitobini yuritishdir [7].

Tadqiqotchi Tatyana Xorvat maktab moliyaviy boshqaruvini ichki qoidalar bilan tartibga solish kerakligini, agar ichki qoidalar mavjud bo‘lmasa, ichki nazorat o‘rnatilmasligi xavfi paydo bo‘lishi haqida ogohlantiradi[8]. Unga ko‘ra, ichki nazorat uchun direktor ja-

[5] Issac Paul and Dhiresh Kulshrestha, Development of financial management skills through ICT based Interactive Instructional Module: An Experimental Study. Strad Research, VOL. 7, ISSUE 6, 2020, p. 19-31.

[6] Kuehn, Larry. “School-based Budgeting/Site-based Management”, BTCF Research Report, Section XII, 9,1996.P. 12.

[7] HorvatTatjana, Leader Accountability for School Financial Management. 20th Annual World ICSEI, International Congress for Effectiveness and Improvement, p. 153-168.https://www.fm-kp.si/zalozba/ISBN/978-961-6573-65-8/153-168.pdf

[8] Horvat Tatjana, o‘sha manba.

vobgar hisoblanadi.

Tadqiqotchining yozishicha, maktab moliyaviy menejmentining asosiy mahsulotlari bu moliyaviy reja va yillik hisobotdir. Hisobot jarayoni rejalashtirish jarayoni, maqsadlarni aniqlash va o‘lchash bilan chambarchas bog‘liqdir. Ammo, Sloveniya maktablari misolida olib borgan tadqiqotlarida maktablarda moliyaviy menejmentning ikkita xususiyatini ko‘rsatadi: birinchi xususiyat Sloveniyada maktab rahbarlarining moliyaviy javobgarligi Sloveniya qonunchiligiga binoan juda yuqori, ammo maktab rahbarlarining faoliyati shuni ko‘rsatadiki, maktab rahbarlari bu hisobdorlik haqida faqat xabardor bo‘lishgan. Sloveniyadagi moliyaviy menejmentning ikkinchi o‘ziga xos xususiyati shundaki, maktablarda Sloveniya qonun qoidalarida ko‘zda tutilganidek rejalashtirish va hisobot berish uchun hech qanday tayyor qoidalar mavjud emas [9]. Bunday vaziyatning asosiy sababi maktab rahbarlarining moliyaviy menejment bo‘yicha bilimlarining yetishmasligidir. Shundan kelib chiqib, tadqiqotchi izlanishlari natijasida Sloveniya qonunchiligi qoidalari asosida idividual maktabni moliyaviy boshqarish qoidalarini belgilaydigan yo‘riqnomani ishlab chiqadi. Unda maktab moliyaviy menejmentining asosiy qoidalari: rejalashtirish (maktabning yillik moliyaviy rejasi), hisobot berish (yillik hisobot maktabning aktidir) va ichki nazorat va auditdir (bu maktab moliyaviy ishlarini qonuniylik, shaffoflik, samaradorlik va tejamkorlik tamoyillariga muvofiqligini ta’minlaydi).

O‘zbekistonda ham xalq ta’limi rahbar xodimlarining moliyaviy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari haqida gapirganimizda, avvalo, umumta’lim va moliyaviy-xo‘jalik sohasiga oid qaror va qonunlarni yaxshi bilishi va ularga amal qilish nazarda tutiladi. Boshqa so‘z bilan aytganda, ta’lim sohasida olib borilayotgan makrosiyosatdan (islohotlardan) xabardor bo‘lishi va ushbu islohotlarga o‘zini dalxdor his qilishidir. Xususan, oxirgi 4-5 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ta’lim sohasida tub islohotlar boshlab yuborildi. Prezidentning 2017-yil 7- fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-son “Tibbiyot va ta’lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”,2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-son “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 23-sentabrda kuchga kirgan yangi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-fevraldagi155-son qarori asosida “Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Xalq ta’limini rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Nizom, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-apreldagi 243-son qarori bilan “Xalq ta’limi tizimidagi tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi Nizom va boshqa xujjatlar ta’lim siyosatini yuritishda va xalq ta’lim muassasalarini boshqarishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatlarni, qonun va qarorlarni bilish xalq ta’limdagi rahbar xodimlarga qo‘yiladigan birinchi darajali kompetentlik talablardandir.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbar xodimlarining moliyaviy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari davlat darajasida ta’limni moliyalashtirishni takomillashtirib borish bilan birga, umumta’lim maktab direktorlarida

[9] Horvat Tatjana, o‘sha manba..

moliyaviy kompetensiyalarni (maktabning moliyaviy holatini o‘rganish, yillik byudjetni rejalashtirish, barcha daromad va xarajatlarning hisobini yuritish, maktabning sotish va sotib olish komissiyasini tuzish, hisobdor bo‘lish va boshqalardan, xususan buxgalterdan hisob olishni bilish, moliya-xo‘jalik faoliyatiga oid me’yoriy hujjatlarni tushunish, maktabning moddiy ahvolini yaxshilash uchun choralar ko‘ra olish), iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarni (maktabning daromad manbalarini ko‘paytirish yo‘llarini topish, tasarrufli va tejamkor bo‘lish, statistik ma’lumotlar va dalillardan maksimal darajada foydalana olish, tadbirkor va ishbilarmon bo‘lish, resurslarni boshqara olish) va kommunikativ kompetensiyalarni (barcha moliyaviy ishlarda shaffof bo‘lish va unda o‘qituvchilar va Kuzatuv Kengashi a’zolarining ishtirokini ta’minlash, davlat tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlari bilan aloqa o‘rnata olish, qat’iyatli va sabr-toqatli bo‘lish, ishontira olish va rag‘batlantirishni keng yo‘lga qo‘yish va b.)o‘zlashtirish va bu borada muntazam o‘qitish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish orqali takomillashtirish lozimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Xalq ta’limi tizimidagi tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” Toshkent sh., 2021-yil 27-aprel, 243-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi ‘‘Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida’’gi PQ-3931-son qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi ‘‘Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida’’gi PQ-3931-son qarori T.:2006; Mestry R., 2004; Xaba and Dumisane Ngubane, 2010, юқоридаги манбалар.Education, South Africa Yearbook 2015/16.

4. Horvat Tatjana, Leader Accountability for School Financial Management. 20th Annual World ICSEI, International Congress for Effectiveness and Improvement, p. 153-168.https://www.fm-kp.si/zalozba/ISBN/978-961-6573-65-8/153-168.pdf

5. Issac Paul and Dhiresh Kulshrestha, Development of financial management skills through ICT based Interactive Instructional Module: An Experimental Study. Strad Research, VOL. 7, ISSUE 6, 2020, p. 19-31.

6. Kayikçi Gıyasettin, Akan Durdağı, Technologic Leadership Self-Efficacy of School Administrators. Akademik Sosyal Araştırmalar Dergisi, Yıl: 2, Sayı: 1, Mart 2014, pp. 237-255

7. Kuehn, Larry. “School-based Budgeting/Site-based Management”, BTCF Research Report, Section XII, 9,1996.P. 12.

8. Monica Kirya, Education sectorcorruption: How to assessit and ways to address it. CMI, U4 Issue 2019:5, p. 1.

**Temurjon KOMILOV,**
Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

# TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAQSADLI MOLIYALASHTIRISHNING O'RNI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda maqsadli moliyalashtirish tushunchalari, turlari va ahamiyatlari o'rganildi. Bunda xorijiy tajribalar va milliy amaliyotlar bayon qilinib, ta'limda maqsadli moliyalashtirishning ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir qilishi ko'rsatib o'tildi va bu boradagi ishlarni takomillashtirish uchun taklif va xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim sifati, maqsadli moliyalashtirish, qo'shimcha ta'lim dasturlari.

В данной статье были изучены понятия, виды и значение целевого финансирования в повышении качества образования. Описан зарубежный опыт и отечественная практика. Показано, что целевое финансирование в образовании положительно влияет на качество образования, даны предложения и выводы по совершенствованию работы в этом направлении.

**Ключевые слова.** Качество образования, целевое финансирование, программы дополнительного образования.

In this state of knowledge, the concept, type and significance of targeted financing in improving the quality of education are studied. Foreign experience and domestic practice are described. It is shown that targeted financing in education has a positive effect on the quality of education, the prepositions I introduce on the perfection of work in this direction are given.

**Key words.** Quality of education, targeted financing, additional education programs.

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi globallashuv va texnologik o'zgarishlarning jadallashuvi ta'lim talablari va maqsadlarini ham takomillashtirib bormoqda. Ta'lim barcha o'zgaruvchanlarga tez va qamrovli bir shaklda javob qaytara olmaydi. Shu bois, ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik o'zgarishlarga moslashish va ularni nisbatan tezroq o'zlashtirish uchun maqsadli ta'lim dasturlari va shunga muvofiq maqsadli moliyalashtirish ishlari olib borilmoqda. Bu bir jihatdan ta'limda natijalardagi farqlarni kamaytirish uchun (masalan, shahar va qishloqdagi maktablar orasida, o'quvchining kelib chiqishi, ijtimoiy holati va b. sabablarga ko'ra ta'limda orqada qolishini oldini olish kabi) tenglikni ta'minlaydi.

Maqsadli moliyalashtirish tushunchasi rus tilida "селевое финансировани", ingliz tilida "targeted funding" deb nomlanib, bu – tashkilotning qat'iy belgilangan maqsadlar uchun (belgilangan xarajatlar shartlari, tasdiqlangan rejalar va smetalar bo'yicha va boshqalar) oladigan mablag'laridir. Ular subsidiyalar, byudjet va maqsadli jamg'armalardan ajratmalar, gumanitar yordamlar, jismoniy va yuridik shaxslarning badallari shaklida bo'lishi mumkin[1].

Ta'limda maqsadli moliyalashtirish nima degani? Umuman olganda, ta'lim butun dunyoda asosan davlat byudjetidan moliyalashtiriladi. Moliyalashtirishda o'quvchi soni, sinf soni va o'qituvchi oyligi hamda stajlariga qarab mablag' ajratiladi. Dunyoda ko'p tarqalgan metod o'quvchi boshiga moliyalashtirishdir. Ammo maqsadli moliyalashti-

[1] Дзюба Наталия, Серьезный дар: получили целевое финансирование. Журнал Налоги & бухучет, апрель 2015, № 35.

rish biroz farqli bo‘lib, u ta’limda biror maqsadni amalga oshirish uchun qo‘shimcha moliyalashtirish turidir.

Ko‘pgina o‘quvchilarda maqsadli individual yordam beradigan maxsus ta’limga ehtiyojlari mavjuddir. Ushbu yordamni moliyalashtirish orqali maktablarga o‘quvchilarning qo‘shimcha ta’lim ehtiyojlariga javob berishga imkon beradi. Masalan, Avstraliyada ta’limni qo‘shimcha moliyalashtirish modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, u resurslarni taqsimlash modeli (The Resource Allocation Model – qisqacha RAM) deb nomlanadi. RAM individual yordamga muhtoj o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash uchun maqsadli mablag‘larni taqdim etadi.

RAM o‘z ichiga olgan quyidagi komponentlarni maqsadli moliyalashtiradi:

 Avstraliya maktablarida uch yildan kamroq vaqt davomida o‘qiyotgan qochqin (maqomidagi) oilalarning bolalari;

 Ingliz tilini qo‘shimcha til yoki dialekt sifatida (EAL/D) ingliz tilini bilishning dastlabki va yuqori bosqichlarida yangi kelgan o‘quvchilar;

 O‘rtacha yoki yuqori darajadagi moslashishni va integratsiyani talab qiladigan oddiy sinflarda nogironligi tasdiqlangan o‘quvchilar[2].

Masalan, qochqinlarning farzandlarini akademik ko‘rsatkichlardan ortda qolmasligi uchun maktab va jamiyat hayotiga tezroq moslashishi va kirishib ketishini ta’minlashda quyidagi ta’lim dasturlari yo‘lga qo‘yilgan:

– ikki tilli o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash;

– maslahatchi (psixolog) yordami;

– qo‘shimcha ingliz tilini o‘rganish va savodxonlikni qo‘llab-quvvatlash;

– qochqin o‘quvchilarga maktab jamiyatida faol ishtirok etishiga yordam berish;

– qochqin o‘quvchilarni ishga yoki qo‘shimcha ta’limga o‘tishlarida qo‘llab-quvvatlash uchun murabbiylik[3].

Shu o‘rinda, maktablar ushbu ta’lim dasturlarini tashkillashtirish uchun moliyalashtirishni qanday va qayerdan oladi degan savol tug‘iladi. Maktablar mablag‘larni o‘zlashtirish uchun o‘zlarining har yilgi strategik takomillashtirish rejasiga kiritishi va jamoatchilikka bu bo‘yicha ma’lum qilib maktab fondidan mablag‘ so‘rashi kerak bo‘ladi. Agar maktab fondida yetarlicha mablag‘ topilmasa unda ta’lim inspetsiyasiga (tuman/shahar ta’lim boshqarmasiga) murojaat qilishlari kerak. Moliyalashtirish o‘qituvchi va mutaxassis xodimlarga oylik ish haqi sifatida beriladi va bunda o‘qituvchining qo‘shimcha dars soati ikki soatdan oshmasligi kerak. Maktab direktori qo‘shimcha moliyalashtirishning eng maqbul shaklini joriy qilish bo‘yicha mas’uldir va maktab har yili qo‘shimcha ta’lim dasturlarining borishi va natijalari haqida hisobot berish bilan birga, qo‘shimcha moliyalashtirishning ta’sirlari bo‘yicha ham o‘z fikrlari va natijalarini bayon qilish kerak bo‘ladi[4].

Ushbu qo‘shimcha dasturning maqsadi nima? Avvalo, qochqin oilalarning farzandlarini ta’limda orqada qolishini oldini olish orqali ta’limda tenglikni ta’minlashdir. Qolaversa, ularning jamiyatga moslashishini osonlashtirish va tezlashtirish hamda kasbiy bilimlar orqali biron professiya egasi bo‘lib yetishiga ko‘maklashishdir. Buni amalga oshirish uchun murabbiylik, repetitorlik, tengdoshlarni qo‘llab-quvvatlash,

[2] Targetedfunding, https://education.nsw.gov.au/public-schools/schools-funding/resource-allocation-model/targeted-funding.Last updated:21-Apr-2022.

[3] Refugee student support, https://education.nsw.gov.au/public-schools/schools-funding/resource-allocation-model/targeted-funding/refugee-students. Last updated: 21-Apr-2022.

[4] Integration funding support, https://education.nsw.gov.au/public-schools/schools-funding/resource-allocation-model/targeted-funding/integration-funding-support. Last updated: 21-Apr-2022.

ikki tilda yordam berish, kasbga tayyorlash, maktab faoliyati va jamiyat hayotida faol ishtirok etishni rag‘batlantirish uchun zarur jihozlar bilan ta’minlash ishlari olib boriladi[5].

Amerika Qo‘shma Shtatlarida ham ta’limni qo‘shimcha moliyalashtirishborasida juda ko‘plab ilmiy va amaliy ishlar olib borilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, tadqiqotchilar Genri, Fortnerva Tompson AQShning Shimoliy Karolina shtatidagi maktablar misolida qo‘shimcha moliyalashtirishning o‘quvchilar yutuqlariga ta’sirini o‘rganadilar. Tadqiqotchilar shtatdagi eng qoniqarsiz maktablarni tanlab oladilar va 2 yil davomida qo‘shimcha moliyalashtirish dasturi doirasida har bir o‘quvchiga 250 dollar va akademik jihatdan qaloq o‘quvchi uchun 840 dollar miqdorida qo‘shimcha mablag‘ oladi. Regressiya uzluksizligi dizayni va keng qamrovli nazoratga ega ko‘p darajali modellardan foydalangan holda, mualliflar qo‘shimcha mablag‘larning o‘rtacha ijobiy ta’siri 0,133 standart og‘ish birliklari va ta’lim ko‘rsatkichlari past darajadagi o‘quvchilarga ta’siri 0,098 standart og‘ish birliklari ekanligini tahmin qilishadi. Ijobiy ta’siri yuqori natijalarga erishgan va past natijalarga erishgan maktablardagi o‘rtacha ball orasidagi farqning taxminan uchdan bir qismini tashkil qilishini ma’lum qiladi [6].

Boshqa bir misol, AQShning Kaliforniya shtatida yo‘lga qo‘yilgan mexanizm bo‘lib, u boy va kambag‘al hududlardagi ta’lim tengsizligini oldini olish uchun qo‘shimcha moliyalashtirishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Kaliforniya shtatida ta’limni moliyalashtirishda yangi mexanizm ishlab chiqildi va amaliyotga qo‘yildi. Bu mahalliy nazoratni moliyalashtirish formulasi (The Local Control Funding Formula - LCFF) deb nomlanib, shtatdagi barcha mahalliy ta’lim tashkilotlarining (maktablarning) qanday moliyalashtirilishi, natijalar qanday baholanishi va barcha o‘quvchilarga muvafaqqiyatga erishish uchun ular oladigan xizmatlar va yordamlarni tubdan o‘zgartiradigan o‘ziga xos qonunchilikdir. Unga ko‘ra, maktablar o‘rtacha kunlik davomad birligiga davlatdan bazaviy grant (mablag‘) oladi, bu sinf darajasiga qarab biroz farq qiladi. Shu bilan birga, “yuqori ehtiyojli” (kambag‘alligi, nogironligi bor va b.) o‘quvchilarga xizmat qiladigan maktablar asosiy grant ustiga qo‘shimcha mablag‘ oladilar. Bunday “ehtiyojli” o‘quvchilarga ega bo‘lmagan maktablar okruglar miqiyosida qo‘shimcha mablag‘ olmaydi. Bu kambalag‘ okruglar bilan boy okruglar orasidagi ta’lim tengsizligini kamaytirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. LCFF tizimi yo‘lga qo‘yilmasidan oldin moliyalashtirishda okruglar orasida juda katta tafovut bo‘lgan bo‘lsa, ushbu tizimdan keyin u ancha qisqargani ma’lum bo‘lgan[7].

O‘zbekistonda ham ta’limni qo‘shimcha moliyalashtirish borasida muhim amaliy ishlar yo‘lga qo‘yilganligini ta’kidlash lozim. Bu borada malakali o‘qituvchilarni kambag‘alroq yoki olis hududlarga ishga jalb qilish mexanizmi diqqatga sazovor ekanligini ta’kidlash joiz. 2021-yil 11-yanvar kuni imzolangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Olis hududlardagi byudjet tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4940-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabr “Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarda ta’lim berish uchun boshqa hududlardan o‘qituvchi-pedagoglarni jalb etish tartibi to‘g‘risida”gi 646-son qaroribilan Nizom qabul qilinadi [8]. Vazirlar Mahkamasining 646-son qarorida, 2021-yil

[5] Refugee student support, ўша манба.

[6] Henry Gary T., Fortner C. Kevin, Thompson Charles L. Targeted Funding for Educationally Disadvantaged Students: A Regression Discontinuity Estimate of the Impact on High School Student Achievement. Educational Evaluation and Policy Analysis, vol. 32 No 2. 2010, pp.183-204.

[7] LafortuneJ. Targeted K–12 Funding and Student Outcomes: Evaluating the Local Control Funding Formula. Public Policy Institute of California. Report, October 2021.

[8] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarga malakali o‘qituvchi-pedagoglarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Toshkent sh.,2021-yil 15-oktyabr, 646-son.

1-martdan boshlab ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarda dars berish uchun boshqa hududlardan jalb qilingan oliy va birinchi toifaga ega o‘qituvchi-pedagoglarning bazaviy ta’rif stavkalariga maxsus ustamalar joriy qilinganligi, bunda bir ma’muriy-hududiy birliklar doirasida boshqa tuman va shaharlardan kelib faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi-pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga 50 foiz; boshqa ma’muriy-hududiy birlikdan kelib faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi-pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga 100 foiz maxsus ustamalar to‘lanishi, belgilab qo‘yiladi [9].

Ta’lim sifati yaxshi bo‘lmagan olis maktablarda ishlash uchun arizalar ustozfondi.uz elektron platformasi orqali qabul qilinishi, og‘zaki va yozma imtixonlardan keyin tanlab olingan o‘qituvchilarning yuqorida aytib o‘tilgan ustamalardan tashqari, olis hududga ko‘chib borishiga bir martalik boshlang‘ich 12 mln 250 ming so‘m, har oylik ijara uchun 490 ming so‘m ajratilishi, loyihani uzoq muddat davom etishi ko‘zda tutilganligi ma’lum qilinadi [10].

Mazkur mexanizm o‘z samarasini berishi mumkin. Chunki, olis hududlarga odatda malakali o‘qituvchi-pedagoglar kam ishga boradi. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati, ish faoliyat va mehnatga ta’siri nuqtayi nazardan olis hududlar yoki kambag‘alroq hududlar o‘z kuchi bilan malakali mutaxassisni ishga jalb qila olmaydi hamda yetishtirib ham bera olmaydi. Shu bois, hukumat ushbu holatga e’tibor qaratishi, ta’limda tenglikni ta’minlashi, ta’lim standartlarini barcha hududlarda yaxshi natijalarga olib chiqarish va ta’lim sifatini yaxshilash kabi bir qancha masalalarni hal bo‘lishiga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda, YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Sasha Graumann fikrlarini keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir: “Kam ta’minlangan oilalarning farzandlari ta’lim oladigan maktablarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi pastligi kuzatiladi va bu maktablarni qo‘llab-quvvatlash kerak. Barcha bolalar sifatli ta’lim olish uchun teng imkoniyatlarga ega bo‘lishlari uchun bunday maktablarni zarur o‘quv materiallari va yuqori malakali o‘qituvchilar bilan ta’minlash zarur” [11].

Darhaqiqat, ta’limda tenglik juda muhim. Ta’limda tenglik mamlakat miqiyosida davlat ta’lim standartlarini bir xil darajaga yaqin bajarilishini ta’minlaydi. Shu bilan birgalikda, ta’limda tenglik prinsipi bilan sifatni muvozanatda ushlash kerak. Bu esa ta’limdagi kamchilik va muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bilan bog‘liq. Ushbu kamchilik va muammolar odatda tizimli va individual ko‘rinishda bo‘ladi. Tizimli muammolar yirik islohotlar va strategiyalar bilan hal qilinsa, individual muammolar maxsus va qo‘shimcha dastur va qarorlar orqali hal qilish mumkin. Individual muammolarga olis hududlardagi maktablar, qoniqarsiz maktablar, kambag‘al hududdagi maktablar, biron fan bo‘yicha orqada qolayotgan maktablar, nogiron o‘quvchilari bor maktablar va boshqa shu ko‘rinishdagi maktablar bo‘lib, bularning kamchilik va muammolari individual o‘rganish orqali maxsus va qo‘shimcha ta’lim dasturlari ishlab chiqilishi va ularning realizatsiyasi uchun maxsus moliyalashtirishni yo‘lga qo‘yish kerak bo‘ladi.

Maxsus moliyalashtirish kambag‘al hududlarda yoki ta’lim jihatdan qoloq (qoniqarsiz) maktablarda ta’lim sifatini yaxshilash uchun, nogironligi bo‘lgan bolalarni ta’lim jarayoniga jalb qilish va ularni o‘z tengdoshlaridan qolishmagan ta’lim imkoniyatlariga erishishi, ularning aqliy va jismoniy holatini rivojlantirish, biron darslikni (masalan,

[9] O‘zR VMning 646-son qarori.

[10] XTV “qizil maktab”larga malakali o‘qituvchilarni jalb etadigan yangi loyiha e'lon qildi, 09.04.2021. https://kun.uz/32954899

[11] O‘zbekistondagi ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari: Dalillar mamlakatda ta’lim sifatini takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko’rsatmoqda, 26-Iyun 2019. https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/press-releases/ozbekistondagi-talim-sifatini-oshirish-imkoniyatlari

matematika yoki til) o‘zlashtirishni yaxshilash uchun qo‘shimcha repetitorlik (to‘garak) ta’lim dasturlarini moliyalashtirish va hakozo ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Buni har bir maktab o‘z holatidan kelib chiqib, maktablarning yillik rejasiga kiritgan holda maqsadli ta’lim dasturi uchun qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilishda moliyalashtirishni so‘rab (iloji boricha onlayn) murojaat qilish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish darkor. Mablag‘lar maktablarning o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib ya’ni byudjetdan tashqari mablag‘lar, homiylik, tadbirkorlik ko‘rinishida jalb qilinishi, yetarlicha mablag‘ topilmaganda davlat byudjetidan qoplanishi kerak. Shuningdek, bu borada maktab direktorlari o‘z maktablarida o‘quvchilarning ta’lim ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlashning eng yaxshi usulini aniqlash uchun xodimlar, ota-onalar va vasiylar bilan maslahatlashishlari va yillik reja ishlab chiqishlari kerak. O‘quvchilarning o‘qishini yaxshilash uchun qo‘shimcha mablag‘lardan samarali foydalanish uchun javobgarlik yillik hisobot orqali amalga oshirilishi kerak. Qo‘shimcha moliyalashtirish natijalari monitoring qilib borilishi, ta’lim sifatiga ta’sirini o‘rganib borish, natijadorlikning o‘lchov birliklarini ishlab chiqish kerak bo‘ladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ta’limni maqsadli moliyalashtirish ta’lim natijalarida qoniqarsiz ko‘rsatkichlarga ega maktablarda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratiladi. Bu ta’lim natijalariga va sifatiga ta’sir ko‘rsatadigan turli salbiy omillarni bartaraf etish uchun eng muhim va qulay metod hisoblanadi. Chunki, ko‘p holatda ta’lim natijalariga va sifatiga ta’sir ko‘rsatayotgan lokal va maxsus muammolar bo‘lish mumkin, ushbu muammolarni umumiy yondashuv bilan emas, maxsus yondashuvlar bilan hal qilish ham samarali ham tejamkordir. Ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun mablag‘lar ta’limni maqsadli moliyalashtirish shaklida amalga oshiriladi. Ammo, ushbu faoliyat uzoq muddatli bo‘lishini inobatga olgan holda tizimli mexanizm ishlab chiqish talab qilinadi. Bu uchun qo‘shimcha moliyalashtirishning natijadorliklarini belgilovchi va ko‘rsatuvchi o‘lchov birliklarini (masalan, o‘quvchilarning o‘zlashtirish ballari, yakuniy imtixon natijalari, milliy yoki xalqaro test natijalari, oliy ta’limga kirishi va boshqalar bo‘lishi mumkin) ishlab chiqish va baholash muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Henry Gary T., Fortner C. Kevin, Thompson Charles L. Targeted Funding for Educationally Disadvantaged Students: A Regression Discontinuity Estimate of the Impact on High School Student Achievement. Educational Evaluation and Policy Analysis, vol. 32 No 2. 2010, pp.183-204.

2. Integration funding support, https://education.nsw.gov.au/public-schools/schools-funding/resource-allocation-model/targeted-funding/integration-funding-support.

3. LafortuneJ. Targeted K–12 Funding and Student Outcomes: Evaluating the Local Control Funding Formula. Public Policy Institute of California. Report, October 2021.

4. O‘zbekistondagi ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari: Dalillar mamlakatda ta’lim sifatini takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko’rsatmoqda, 26 Iyun 2019. https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/press-releases/ozbekistondagi-talim-sifatini-oshirish-imkoniyatlari

5. Refugee student support, https://education.nsw.gov.au/public-schools/schools-funding/resource-allocation-model/targeted-funding/refugee-students

**Mehribon QALANDAROVA,**
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Geografiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi v/b dotsenti p.f.f.d.
**Sarvinoz BOYMURODOVA,**
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Geografiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

# TA’LIM JARAYONIDA O‘QUV MAQSADLARINI AMALGA OSHIRISHDA DIDAKTIK VOSITALARNING O‘RNI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ta’lim jarayonida o‘quvchilarni individual tafakkur uslubi, o‘zini o‘zi rivojlantirish tayanch kompetensiyasini shakllantirishda, o‘quv maqsadlarini amalga oshirishda didaktik vositalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Individual yondashuv, intellektual rivojlantirish, individual tafakkur, didaktik ta’minot, didaktik vositalar, o‘quv maqsadlari, o‘quv amaliyoti, o‘quv topshiriqlari, tashkiliy-boshqaruvchilik ko‘nikmalar, didaktik o‘yinlar.

В данной статье анализируется роль и значение дидактических средств в формировании у учащихся индивидуального стиля мышления, базовой компетенции саморазвития в процессе обучения, реализации целей обучения.

**Ключевые слова.** Индивидуальный подход, интеллектуальное развитие, индивидуальное мышление, дидактическое обеспечение, дидактические средства, цели обучения, учебная практика, учебные задания, организационно-управленческие навыки, дидактические игры.

This article analyzes the role and importance of didactic tools in the formation of students' individual style of thinking, basic competence of self-development in the learning process, the implementation of learning goals.

**Key words.** Individual approach, intellectual development, individual thinking, didactic support, didactic means, learning goals, educational practice, training tasks, organizational and managerial skills, didactic games.

Bugungi kun ta’lim jarayonida shaxsiy-insonparvarlik yondashuvi asosida o‘quvchilarda individual tafakkur uslubi, o‘zini o‘zi rivojlantirish tayanch kompetensiyasini shakllantirish, intellektual-madaniy rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari, ularning intellektual rivojlanishiga xizmat qiluvchi muammoli va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalardan foydalanishning didaktik ta’minotini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘quvchilarga individual yondashuv asosida ularni intellektual rivojlantirishda muayyan vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vositalar o‘quv jarayoni maqsadini amalga oshirishda kafolatlangan natijaga erishish imkonini beradi. Chunki o‘quv maqsadlarini amalga oshirishda didaktik vositalar alohida o‘rin egallaydi.

Didaktik vositalarning o‘quv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– didaktik vositalar o‘qituvchilar uchun o‘quv-biluv vazifalarini qo‘yish hamda ularni o‘quvchilarga yetkazish;

– o‘qituvchilarga bilim berish va ularni o‘quvchilarga taqdim qilish;

– o‘quv amaliyoti mahsuldorligini ta’minlash;

– o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish uchun zarurdir. Demak, didaktik vositalar pedagogik instrumentariy sifatida o‘quvchilarning intellektual taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadi.

Didaktik vositalarning muhim tarkibiy qismi o‘quv topshiriqlaridir. O‘quvchi o‘quv jarayonida topshiriqlar vositasida izlanishga safarbar etiladi. Bu esa o‘quv jarayonida uning intellektual jihatdan muvaffaqiyatli rivojlanishini ta’minlaydi.

Topshiriqlarni bajarish davomida o‘quvchilarda o‘zlari uchun notanish bo‘lgan narsani aniqlash ehtiyoji vujudga kelib, turli o‘quv axborotlarga murojaat qiladi, mavjud bilimlarni yangi sharoitga ko‘chiradi. O‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonini o‘qituvchi boshqaradi va uning natijalarini nazorat qiladi.

O‘quvchilarni intellektual rivojlantirish va ularning o‘ziga xos qobiliyatlarini aniqlash uchun, o‘quv topshiriqlaridan unumli foydalanish lozim. O‘quv topshirig‘ini bajarish natijasida o‘quvchining intellektual darajasi o‘zgaradi. Bu uning aqliy faoliyat usullarini qo‘llashida namoyon bo‘ladi. Dars jarayonida o‘quv topshiriqlaridan foydalanishning asosiy maqsadi, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish, mashq va masalalarni yechish usullarini egallashlarini tezlashtiradi. O‘quvchilarni intellektual rivojlantirishni ta’minlash maqsadida, qo‘llash uchun quyidagi mazmundagi o‘quv topshiriqlarini tanlash maqsadga muvofiqdir:

– o‘quvchilarga beriladigan savollar yashirin tarzda ifodalangan topshiriqlar;

– to‘liq ifodalanmagan vazifalar, bunday topshiriqlar yordamida o‘quvchilarning abstraksiyalash, topshiriq tarkibidan asosiy muammoni ajratib olish ko‘nikmalari shakllanadi;

– o‘quvchilarning tezkor fikrlashlari uchun qulay sharoit yaratadigan topshiriqlar;

– ko‘plab o‘quv axborotlarini qamrab olgan topshiriqlar;

– tanlov imkonini beradigan topshiriqlar;

– turli yo‘llar va usullar yordamida yechiladigan topshiriqlar;

– o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi topshiriqlar;

– ma’lum usullarni yangicha qo‘llash imkonini beradigan mujassamlashgan topshiriqlar;

– umumlashtiruvchi strategiyalarni qo‘llagan holda yechiladigan topshiriqlar;

– yechimlari aniq isbotni talab qiladigan topshiriqlar;

– xatolarni topish va ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan topshiriqlar;

– taqriz yozishni talab qiladigan topshiriqlar;

– javoblari noaniq va turli-tuman bo‘lgan topshiriqlar;

– farazlarni ilgari surishga mo‘ljallangan topshiriqlar;

– yechimlarni rejalashtirishga mo‘ljallangan topshiriqlar;

– bir necha yechimlarga ega bo‘lgan topshiriqlar;

– o‘zaro ziddiyatli yechimlarga ega bo‘lgan, to‘liq tuzatib bo‘lmaydigan topshiriqlar;

– yechimlarning ishonchlilik darajasini aniqlashga mo‘ljallangan topshiriqlar;

– xatolarni hosil qilishga olib keluvchi topshiriqlar va h.

Bunday o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarga juda ko‘plab intellektual vazifalarni bajarish usullarini egallash imkonini beradi. Ular o‘quvchilarga axborot beruvchi, rivojlantiruvchi va tashkiliy-boshqaruvchilik ko‘nikmalarini hosil qilish vazifalarini bajaradi. O‘quv topshiriqlarining o‘quvchilarga axborotlarni taqdim etish imkoniyati ularning haqqoniy hamda axborotli-evristik xarakteridagi ma’lumotlarning egallashlarini ta’minlaydi. O‘quvchilarni intellektual rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari esa, o‘quv vositasi sifatida ularning shaxsiy bilish faolligini namoyon etish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Bu faoliyat quyidagi shakllarda: bilish, tezkor fikrlash hamda ijodiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. O‘quv vazifalarini bajarish davrida o‘quvchilarning shaxsiy tajribalari muntazam boyib boradi, ularning bilim zahiralari jadal rivojlanadi. O‘quvchilarning moddiy borliq va unda o‘z o‘rinlarini anglash imkoniyatlari kengayadi. O‘quv vazifalarining tashkiliy-boshqaruvchilik jihati, o‘quvchilarning bilimlarini boyitish, qo‘llash va mustahkamlash jarayonini tashkil etish imkoniyati sifatida namoyon bo‘ladi. Ular o‘quv-biluv jarayoni maqsadlarini amalga oshiruvchi asosiy vosita sifatida alohida didaktik qimmatga ega. Bularning barchasi o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishning asosiy vositasi ekanligini ko‘rsatadi.

O‘quvchilarni intellektual rivojlantirishda o‘quv topshiriqlari bilan bir qatorda, didaktik o‘yinlar ham muhim o‘rin egallaydi. Didaktik o‘yinlar jarayonida o‘quvchilarda bir qator intellektual ko‘nikmalar shakllanadi. Jumladan, vaziyatlarni tahlil qilish, voqea-hodisalarni qiyoslash, vujudga kelgan holatlarni tushuntirish, sharhlash hamda xayol surish kabilar. O‘quvchilarni intellektual rivojlantirishda imitatsion, ishchan, rolli, tashkiliy-faoliyatli o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilarni intellektual rivojlantirish uchun o‘qituvchilar o‘quv-biluv jarayonida mazkur didaktik o‘yinlardan samarali foydalanishlari lozim.

O‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik o‘yinlarda muayyan syujetga asoslangan rollar va o‘yin harakatlaridan tashkil topadi. O‘quvchilarga dastlab didaktik o‘yinlar oldiga qo‘yilgan maqsadlar bayon qilanadi. Mazkur jarayonda o‘quvchilar his-hayajonlar, kechinmalarga boy bo‘lgan o‘yin holatiga kiradilar. O‘qituvchi esa, didaktik o‘yin maqsadiga erishish yo‘llarini rejalashtiradi. O‘yin jarayonida asosiy vosita sifatida o‘quv materiallaridan foydalaniladi. Didaktik o‘yinlarning natijalari o‘quvchilarning intellektual faoliyatini tashqaridan turib baholashda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham, ba’zi o‘quvchilarda turli kechinmalar, his-hayajonlar kuzatiladi.

Bugungi kunga kelib yangi pedagogik texnologiyalar bilan bog‘liq holda didaktik o‘yinlarni turlicha tasniflash mumkin. Didaktik o‘yinlar o‘zining tashqi belgilariga ko‘ra:

– imitatsion-jarayonli, bunday o‘yinlar sirasiga mashqlantiruvchi o‘yinlarni kiritish mumkin. Ular davomida o‘quvchilar o‘zlari o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniq, maqsadga muvofiq tarzda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

– syujetli, hayotiy haqiqatlarni aks ettiruvchi tayyorgarliksiz topshirilgan mavzu doirasidagi o‘yinlar;

– qoidalarga asoslangan o‘yinlar mavjud.

O‘quvchilarni intellektual rivojlantirishda o‘qituvchilar bir qator didaktik o‘yinlardan foydalanishlari mumkin. Ular o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

– hayotiy dalillarni ifodalovchi o‘yinlar, bunday didaktik o‘yinlarning syujetlari yordamida o‘quvchilar muammolarni yechishga harakat qiladi. O‘yin yakunida o‘quvchilarning qo‘lga kiritgan natijalari hayotiy dalillar bilan qiyoslanadi, ular hayotdagi aniq shaxslarning rollarini bajarishga muvaffaq bo‘ladi;

– vaziyatli o‘yinlar, bunday o‘yinlar davomida muammolarning aniq yechimi taklif qilinadi;

– sahnalashtirilgan o‘yinlar, bunday o‘yinlarda oldindan, maxsus tayyorlangan dialoglar va manbalardan foydanalaniladi. Mazkur o‘yindagi voqealar hayotda ahyon-ahyonda uchragan yoki hech qachon uchramagan bo‘lishi mumkin;

– g‘oyalarning tug‘ilishini ta’minlovchi didaktik o‘yinlar, bunday o‘yinlar

o‘quvchilarning ichki sezgilari va tasavvurlariga asoslangan holda tashkil etiladi.

O‘yinlardan faqatgina o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiq emas, chunki ular ko‘p imkoniyatli didaktik hodisadir. Ularning axborot berish imkoniyati o‘yinlarning mazmuniga bog‘liqdir. Buni o‘qituvchilar yaxshi bilishlari talab etiladi. O‘quvchilarning intellektual faolligini ta’minlash imkoniyati esa, ular oldiga muayyan muammolarni yechishga oid topshiriqlar qo‘yish, muloqot va bahs-munozara orqali amalga oshiriladi. Tashkiliy-boshqaruvchilik imkoniyati nostandart o‘quv jarayonlari orqali ro‘yobga chiqadi.

Ushbu jarayonda o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatadigan guruhlari tashkil topishiga ko‘maklashishdan iboratdir. Guruhlarni shakllantirishda har bir o‘quvchida tarkib topgan intellektual ko‘nikmalar hisobga olinadi. O‘quvchilar guruhlarga mustaqil tarzda bo‘linadilar. Har bir o‘quvchining intellektual taraqqiyotiga tayangan holda ularning birgalikdagi hamda individual faoliyatiga mo‘ljallangan o‘quv topshiriqlari o‘qituvchilar tomonidan maxsus tanlanadi va o‘quvchilar mazkur topshiriqlarni bajarish davomida intellektual faoliyatga yo‘naltiriladilar. Shundan keyingina muayyan bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan intellektual harakatlarni amalga oshiradilar.

Xulosa qilganda, bularning barchasi o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini texnologik qurilishini boyitish imkonini beradi. Shuningdek, mazkur jarayonni tashkil etishga asos bo‘ladigan didaktik materiallarni maqsadga muvofiq tarzda tanlashga ko‘maklashadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Safarova R.G., Qalandarova M.K., va boshqalar “Istiqboldagi ta’lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik asoslari”. – T.: Fan, 2009.

2. Xodjaev B.X. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2008.

3. Qalandarova M.K. O‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish // Monografiya. – T.: Fan, 2019.

**Aziza USMONOVA,**
Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

# UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR FAOLIYATINI TASHKIL QILISH MASALALARI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada umumta’lim muassasalarining PR faoliyatini tashkil qilish masalalari haqida ma’lumot beriladi. PR olib borish dasturlarini tashkil qilish tamoyillari, ta’lim muassasasi hayotida PRxizmatlarini jadallashtirish orqali nafaqat muassasa, balki ta’lim tizimida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** PR, dastur, jadallashtirish, tamoyil, daraja, imij, faoliyat.

В данной статье представлена информация по вопросам организации PR-деятельности общеобразовательных учреждений. Освещаются принципы организации программ PR-сопровождения, вопросы решения проблем, возникающих не только в учреждении, но и в системе образования, путем активизации PR-служб в жизни образовательного учреждения.

**Ключевые слова.** PR, программа, ускорение, принцип, уровень, имидж, активность.

This article provides information on the organization of PR activities of educational institutions. The principles of organizing PR support programs, issues of solving problems that arise not only in the institution, but also in the education system, by activating PR services in the life of an educational institution are highlighted.

**Key words.** PR, program, acceleration, principle, level, image, activity.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini boshqarish, ayniqsa, umumta’lim tizimini boshqarishda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar tizimdagi jiddiy va og‘riqli muammolarni yechishga qaratilmoqda. Ma’lumki, umumta’lim maktablarida ta’lim berish samaradorligi, o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichining talab darajasida emasli, o‘qituvchilar, maktabning jamiyatdagi o‘rni va nufuzining qoniqarli esamligi kabi bir qator muammolarni bartaraf etish uchun hukumatimiz tomonidan ko‘p yillarga mo‘ljallangan strategik qarorlar va loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. Bularga O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida"gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3304-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasining 2013-2017-yillarda ta’lim sektorini rivojlantirish rejasi va shu kabi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar, shuningdek,

umumta'lim maktablari pedagog xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir amalga oshirilayotgan ishlar ma'lum darajada bo'lsada umumta'lim muassasalarining jamiyatimizdagi nufuzini oshirishga asos bo'ldi. Ammo, aytish mumkinki, davlatimiz tomonida olib borilayotgan islohotlarga qo'shimcha ravishda jamoatchilik vakillarining maktab faoliyatini rivojlantirishga nisbatan tegishli mas'uliyatni his qilishlari, o'qituvchiga nisbatan hurmatga asoslangan munosabatini kuchaytirish, umumta'lim sifat-samaradorligini oshirishda o'zlarining munosib hissalarini qo'shishlari ayni zaruriy masaladir.

Umumta'lim maktablarining jamiyatdagi imijini oshirish bilan uning faoliyat darajasini rivojlantirish mumkin. Chunki aynan maktab imijini shakllantirish va oshirish jarayoni bevosita ta'lim menejmentining maqsadlaridan biri bo'lgan ta'lim-tarbiyani ilmiy asosda tashkil etish va strategik maqsadlariga erishishda, raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlashda, muassasa bilan jamoatchilikning aniq maqsadga qaratilgan hamkorlik faoliyatida muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

Maktab imijini shakllantirish mexanizmlari sifatida muassasa PR faoliyatini yo'lga qo'yish asosiy o'rinda sanaladi. Mazkur maqolada ham umumta'lim muassasasi PR faoliyatini shakllantirish masalasi tahlil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4366-sonli Qarorida ham davlat organlari va tashkilotlarining ijobiy imijini shakllantirish va ilgari surish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va boshqa shakllarda jamoatchilik fikrini o'rganish masalasi kiritilgan. Umumta'lim muassasalari ham davlatning bir tashkiloti, xalq ta'limi tizimining muhim bo'g'ini sifatida o'z jamoatchiligi bilan faol ishlashi, hamkorlikni keng yo'lga qo'yishi lozim. Aynan bu orqali maktabning ijobiy imijini oshirishga erishiladi.

Shu o'rinda ta'lim muassasasining jamoatchilik bilan aloqalarini (PR) shakllantirish nimani anglatadi:

– PR bu jamoatchilik bilan hamkorlikda oqilono ish olib borish, PR aksiyalari o'tkazish;

– PR bu jamoatchilik e'tiborini jalb qilishda maqsadga yo'naltirilgan (ya'ni ham tashkilot, ham jamoatchilik manfaatlarini ifoda etuvchi) maqsadli axborotlarni bera borish;

– PR bu ma'lum inson, tashkilot yoki jamoaning o'z faoliyat turini keng jamoatchilikka tanitadigan axborot, ma'lumotlarni turli tadbirlar ko'rinishida berib borishga aytiladi.

Jamoatchilik bilan aloqalar do'stona munosabatlarni o'rnatish va saqlashga qaratilgan uzoq muddatga rejalashtirilgan va amalga oshiriladigan harakatlar, o'zaro munosabatlar va o'zaro tushunish, ijtimoiy tarbiya va jamiyat predmetidir. PR texnologiyalar o'zining falsafiy mohiyatiga ko'ra, ma'lum subyektning kommunikativ munosabatlari; metodologik yondoshuvga ko'ra, muloqotga kirishuvchanlik; xarakter xususiyati va tuzilishiga ko'ra, ijtimoiy-tarbiyaviy; uslubiy jihatdan, tushuntirish va tasvirlash; tashkiliy holatda, yakka shaxs, guruh va jamoaviy ko'rinishda PR vositalari bilan ifodalanadi[1].

Ta'lim muassasasining PR faoliyati esa, muassasa va mijozlar, ota-onalar maqsadli jamoatchilik vakillari, davlat tashkilotlari bilan samimiy, jo'shqin munosabatlarni yo'lga

[1] С.Г. Толкачёва "PR-технологии на рынке образовательных услуг" номли мақоласи. PR-технологии на рынке образовательных услуг (cyberleninka.ru)

qo‘yish.

Har bir umumta’lim muassasasi o‘z faoliyatida jamoatchilik bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yishi, buni o‘z faoliyatdan kelib chiqadigan maqsad bilan amalga oshirishi, ikki tomonlama manfaatli munosabatlarni olib borishi lozim. Bu faoliyat bilan nimalarga erishiladi:

► Pedagogik jamoa uchun: pedagoglar o‘zlari olib borayotgan ishlar, pedagogik jarayondagi muvaffaqiyat, muammo, islohot, umuman olganda kundalik dars jarayoni, o‘quvchilar faoliyati kabi masalalar yuzasidan jamoatchilikka axborotlar bera borish va o‘z navbatida ular tomonidan olib borilayotgan ishlarga nisbatan munosabatni o‘rganishi, jonlantirishi va o‘zi uchun tegishli xulosa va qarorlar qabul qilishi uchun muhimdir.

► Jamoatchilik vakillari uchun esa, farzandlarini ta’lim olishlari, ta’lim xizmatlaridan foydalanishlaridan ko‘zlangan maqadga qanchalik erisha olishmoqda, ularning talab va ehtiyojlari qanchalik darajada qondirilayotgani yuzasidan ma’lumotga ega bo‘ladi va o‘zlarining xolisona munosabatlarini ifoda etadilar.

Umumta’lim maktablarida yuzaga kelayotgan ayrim muammolar, o‘quvchilar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar, ta’lim berish sifati va samaradorligining talab darajasida emasligi sababli umumta’lim muassasalarining mavqei bir oz tushib borayotgani sir emas, ota-onalar esa farzandlariga sifatli ta’lim berilishi talabgori va bu talablariga nodavlat ta’lim muassasalaridan javob olayotganlari haqidagi ma’lumotlar bugun tez-tez quloqqa chalinayotganini ham kuzatishimiz mumkin. Bu xuddi iqtisodiyotdagi qonuniyatga o‘xshaydi: talab taklifni yuzaga keltiradi va biz nodavlat ta’lim muassasalarining soni ortib borayotganini bunga misol sifatida ko‘rsatishimiz mumkin. Ta’lim xizmatlari bozorining ishtirokchilarini raqobatchilar sifatida aytish mumkin bo‘lsa, bu o‘rinda davlat, nodavlat umumta’lim muassasalari, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tahlil qilish mumkin. Bu holatda ta’lim oluvchi talabgorlarning e’tiborini ishonarli va aniq ma’lumotlar berish bilan jalb qilish lozim. O‘quv jarayonini tashkil qilishda nafaqat fanlar jamlanmasi, balki, o‘quv reja, o‘quv faoliyatining tashkil qilinishi va muhim jihatlardan biri sifatida ta’lim muassasasining ma’naviy, psixologik muhitining qay darajada ekanligi kabi masalalar ayni e’tiborda bo‘ladi. PR tadbirlari va faoliyat doirasidagi ichki o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish umumta’lim muassasasining o‘ziga xosligini shakllantirishga yordam beradi. Shuning uchun PR texnologiyalarini ta’lim muassasasi faoliyatida qo‘llash muhim ahamiyatga ega, ammo, aytish mumkinki, hozirgacha bo‘lgan davrda mamlakatimiz xalq ta’limi tizimida bu masala yetarlicha o‘rganilmagan va tatbiq etilmagan.

Ta’lim umumjamiyat bilan o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy aloqalari orqali uni rivojlantiradigan muhim omillardan biridir. So‘nggi vaqtlarda aholining ta’lim muassasalari, yoxud ta’lim xizmatlarining ko‘rsatilishiga ko‘ra tanlovi o‘sib bormoqda, bu ularning davlat yoki xususiy maktab, akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji, yashash joyga yaqin bo‘lgan maktab yoki boshqa tumandagi maktabni tanlash holatidagi murakkab jarayonlar bilan keng kuzatilmoqda. Nega bunday holat kuzatiladi, bu ko‘p jihatdan ta’lim muassasasi faoliyatining samarali rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ayrim sabablar bilan yuzaga keladi. Bunga ta’lim muassasasi faoliyati haqida keng jamoatchilik uchun yetarlicha axborotlarning berib borilmasligini ham kiritish mumkin, chunki, kengjamoatchilik vakillarining ma’lum maktab faoliyati haqida ma’lumoti yetarlicha bo‘lmasligi ham muassasa rivojiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri. Ma’lumotlarning yetarlicha berib borilmasligi ta’lim muassasasini yaqin bo‘lgan

hududdagi jamoatchiligi tomonidan ham uning faoliyati va maqsadini amalga oshirish jarayonini qo‘llab-quvvatlanmasligiga olib keladi. Natijada ta’lim muassasasida yuzaga kelayotgan, bu pedagogik jamoa vakillari, muassasasi ishchi xodimlari, o‘quvchilar, ularning ota-onalari va qolaversa, hamkor tashkilotlar bilan bir qator muammolar ko‘paya borishi, bu esa yon atrofda o‘z ta’sirini ko‘rsatish holatlari avj ola borishiga olib kelishi mumkin. Jamoatchilik e’tiborini jalb qilish, uning fikrini o‘rganishning samarali usuli bu ommaviy axborot vositasi (OAV), yoxud axborot xizmati ko‘rinishidagi muassasa mutaxassislari ishi orqali PR faoliyatinidan unumli foydalanishdir. Hozirgi kunda ta’lim muassasasida PR faoliyati juda muhim. Jamoatchilik bilan aloqalar (PR) umumta’lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish bilan birga uning jamiyatdagi nufuzini oshishiga xizmat qiladigan, shu bilan birga atrofdagilar, boshqa tashkilotlarning (ta’lim tizimiga mazmunan aloqador bo‘lgan) maktabga, undagi ta’lim xizmatlarining ko‘rsatilishiga nisbatan qiziqishini oshishi va bu haqda OAVning ma’lumot tarqatishga bo‘lgan harakatini yuzaga keltiruvchi o‘ziga xos tadbir, jarayondir. Ammo, bugungi kunda umumta’lim muassasalari ichida PR faoliyatiga, OAV xodimlari bilan hamkorlik jarayoniga, bu borada mutaxassislar tayyorlash masalasiga e’tibor qaratadigani kam uchraydi. Bu masalada xususiy umumta’lim muassasalari nisbatan faolroq ekanini kuzatish mumkin. Vaholanki, ta’lim muassasasi hayotida bo‘layotgan har bir, kichik bo‘lsa ham voqelik jarayonni jonlantirish bilan birga maktab imijini oshirishda samarali reklama ham bo‘la oladi.

Ta’lim xizmatlarining ko‘rsatilishi, umumta’lim maktablari o‘rtasida o‘zaro raqobatga asoslangan holda faoliyat olib borilishi ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Shunday ekan, umumta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlikka asoslangan sog‘lom raqobat muhitini yaratish muhim, shu bilan birga biroz murakkab jarayondir.

So‘nggi vaqtlarda ta’lim muassasasining ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatiga u qadar e’tibor berilmayotgandek, nazarimizda. Ya’ni, maktab ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi maskan emas, bu faoliyat alohida e’tiborga molik emasdek. Vaholanki, xususiy ta’lim muassasalarining vujudga kelishi, ayni ta’lim xizmatlari ko‘rsatilishining zaruratini yuqori o‘ringa olib chiqqan-u va bu faoliyat ularning asosiy faoliyat turi sifatida izohlanmoqda. Sifatli ta’lim har doim ham zaruriy masala bo‘lib kelgan, ayniqsa, bugungi rivojlanish davrida buning ahamiyati yanada oshgan, axir maktabning boshlang‘ich ta’limidan berilgan chuqur va sifatli bilim ertangi kun jamiyat sohalari rivojini ta’minlaydi.

Ta’lim sohasida PR bu eng avvalo, falsafa, strategiya, o‘zaro munosabatlar taktikasi, ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi va ishlab chiqaruvchilari bilan talabgorlari o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarga asoslangan ustuvor harakatlardir. PR faoliyatining natijaviyligi bu ta’lim muassasasi faoliyatiga nisbatan qiziqishlarni samarali qondirish; ta’limda o‘ziga xoslik; o‘quv jarayoniga nisbatan jamoatchilikning ijobiy fikri; ta’lim muassasasi xodimlarining shaxsiy rivojlanishi va moddiy farovonligining osha borishidir.

Mutaxassislarning fikricha, ta’lim muassasasi hayotida PR xizmatlarini jadallashtirish orqali nafaqat muassasa, balki ta’lim tizimida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish mumkin. Agar biz muassasa imijini yatarishini aniq maqsadlarga muvofiq yo‘naltirmas ekanmiz, u jamoatchilik fikri asosida, balki, o‘ziga xos mazmunda yuzaga kelishi mumkin va bu imij balki biz istagandek bo‘lmasligi ham ehtimoldan holi emas. Aynan shuning uchun ham keng jamoatchilik vakillari bilan ommaviy aloqalarni yo‘lga qo‘yishda PR faoliyatidan foydalanish va bu orqali muassasasining ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi raqobatbardoshligini oshirishga erishish samarali

omil sanaladi.

Har bir faoliyatni tashkil etishda o‘ziga xos jihatlarga e’tibor qaratish, bir faoliyat ikkinchi bir faoliyatni olib borishga xalaqit berishiga yo‘l qo‘ymaslikka e’tibor qaratish lozim. Ta’lim muassasasi tomonidan ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlarining muvaffaqiyatini ta’minlashda PR faoliyatidan foydalanish samarali yo‘l bo‘la oladi, ya’ni taklif qilinayotgan ta’lim xizmatlari bozorida maktabning o‘z brendiga ega bo‘lishiga erishish birinchi galdagi vazifa sanaladi. Agar bunga xususiy ta’lim muassasalarini misol qilib oladigan bo‘lsak (ma’lumki xususiy ta’lim muassasalari o‘rtasida raqobat sezilarli darajada kuchli), ularning o‘z brendlarini ta’lim xizmatlari bozoridagi o‘rnini mustahkamlash uchun quyidagi harakatlarini kuzatish mumkin:

► sifatli ta’lim xizmatlari bozorida biznes uchun barcha talablarni (moliyaviy, moddiy va nomoddiy resurslar) qondirish;

► yangi ta’lim loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish;

► ta’lim xizmatlari iste’molchilarining talablari ko‘paya borgani sari ta’lim xizmatlari bozoridagi o‘rinni mustahkamlay borish;

► byudjetdan tashqari mablag‘ topish imkoniyatlarini kengaytirish[2].

Ta’lim muassasasi jamoatchilik uchun yaratayotgan brendini, avvalo, o‘zi uchun yaratib olishi lozim, ya’ni, ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlari sifati va samaradorligiga erishishda o‘ziga xos yo‘liga ega bo‘lishi kerak. Chunki, brend sifatida ko‘rsatilayotgan xizmatlarning aslida aytilgani kabi bo‘lmasligi, “antibrend” holatni yuzaga keltirishi, natijada jamoatchilikning ishonchi yo‘qola borishi (qayta tiklash qiyin kechishi) kuzatiladi. Xo‘sh, ta’lim muassasasiga munosib brend yaratish uchun nima kerak? Aslida moddiy tovarlar yaratishdagi brend texnologiyasi ta’lim muassasasi brendini yaratishdan u qadar farq qilmaydi. Aytish mumkinki, bu jarayon bir oz uzoq davom etishiga qaramasdan ta’lim muassasasi marketing faoliyati bo‘yicha bir qator ishlarni to‘laqonli bajarishni talab etadi, xususan:

1. Iste’molchilar talablarini hisobga olgan holda raqobatbardosh sifatdagi ta’lim xizmat (tovar)larini saqlab qolish, garchi, talabgorlarning o‘zgarib turishi mumkin bo‘lgan talablari va raqobatchi ta’lim muassasalarining taklif qilayotgan ta’lim xizmatlariga qaramasdan.

2. Ta’lim muassasiga xos bo‘lgan atributlar (masalan, muassasa nomi, logotipi, o‘ziga xos imiji va b.)ni yaratish. Shu bilan bir qatorda muassasa faoliyatidagi ishtirokchilar uchun ham tegishli jihatlar, muassasaning turar joyga yaqinligi, muassasadagi qulaylik va gigienik soflik, xodimlarning samimiyligi, dars jadvali, o‘quv dasturlarining o‘ziga xosligi, shuningdek, “muassasalararo sarasi”, maktabning mazkur hududdagi obro‘si, reytingi haqidagi taassurotlar yaratish. Shu bilan birga, zaruriy ommaviy aloqalarni o‘rnatish bilan PR tadbirlari tizimini rivojlantirish.

Navbatda ta’lim muassasasida PR olib borish dasturlarini tashkil qilish tamoyillarini keltirib o‘tamiz. Bunda asosiy qo‘llaniladigan formula RACE (Research, Action, Communications, Evaluation)[3] bo‘lib, uning ma’lum bosqichini ko‘rib o‘tamiz.

Birinchi bosqich – o‘rganish bosqichi. Ta’lim tizimiga bog‘liq holda:

1. Me’yoriy hujjatlarni, instruksiyalarni, mavjud holat, ta’lim boshqaruvidagi yuqori tashkilotlar yozma manbaalari, ta’lim xizmatlari bozori tahlilini o‘rganish. Bu o‘rganish

[2] О.А.Сухарева “Потенциал и перспективы деятельности«Связь с общественностью» а российском образовании”

[3] О.А.Сухарева “Потенциал и перспективы деятельности«Связь с общественностью» а российском образовании”.

bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etishining sababi, ta’lim xizmatlari sohasida normativ bazaning to‘liq shakllanmaganligi, ta’lim sohasi doimo yangi islohotlarni talab etib turishidadir.

2. Mehnat bozorini tahlil qilish: mavjud holatni prognozlash. Masalan, bo‘lajak talabalarga mutaxassisliklar haqida ma’lumot bera olishda oliy ta’lim muassasalarining faoliyat yo‘nalishlarini o‘rganish. Agar tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, hozirda mehnat bozoriga kadrlar yetishtirib berish tizimida bir qator muammolar mavjud. Masalan, mavjud, faoliyat yuritayotgan jamiyat sohalari, ta’lim, tibbiyot, ishlab chiqarish, sanoat va b. sohalarda kadrlarning yetishmasligi, yohud, ishsizlik masalasi hali hamon dolzarb masala bo‘lib turibdi. Keling, xalq ta’limi tizimini olib ko‘raylik, har yili maktab (11-sinf hisobida), kasb-hunar kolleji, akademik litseylarni necha sonli o‘quvchi tamomlab chiqadi. Aksari, bitiruvchilar oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom ettirish istagini bildiradilar. Shu joyda, o‘qish talabgorlarida jamiyatda ehtiyoj mavjud bo‘lgan, istiqboli yuqori kasb-hunar sohalari haqida qanchalik ma’lumot mavjud ekan, degan haqli savol tug‘iladi. O‘ylantiradigan jihati shundaki, oliy ta’lim muassasalarining ayrim yo‘nalishlarini tamomlab, ish topa olmay yurgan yoshlar kammi, yoki bugungi kunda umumta’lim maktablarida fanlar kesimida o‘qituvchilar yetishmasligi, ayniqsa, aralash tilli maktablarning rus sinflari, rus tilida ta’lim beruvchi maktablarda fanlar kesimida mutaxassislarning yetishmasligi achinarli xolat emasmi? Demak, kadrlar tayyorlash tizimida ma’lumot almashinish, ehtiyojlarni o‘rganish va bo‘lajak kadrlarni yo‘naltirish faoliyati talab darajasida ishlamayapti, degan xulosaga kelish mumkin.

3. Mavjud ta’lim xizmatlari haqida talabgorlarning ehtiyoj va talablarini o‘rganish, bunda kuzatuv, anketa so‘rovlari, ekspriment o‘tkazish.

4. Xalq ta’limi sohasidagi ijtimoiy davlat tashkilotlari faoliyatini tahlil qilish.

5. Ommaviy axborot vositalari (OAV) bilan ishlash, xalq ta’limi tizimi faoliyati va tizim muassasalarida kechayotgan jarayonlar haqida mutasaddilarning intervyulari, xabarlarni tahlil qilish. Shuningdek, PR tabdirlari orqali OAVda faoliyat yuritish, bunda turli tadbirlar, konferensiyalar haqida, umumta’lim muassasalari o‘rtasidagi raqobatli faoliyat natijalari tahlili haqida ma’lumotlarning berib borilishi ko‘zda tutiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalari faoliyatiga doir qarorlari.

2. Ларионова Дарья Сергеевна “Специфика PR-технологий в образовательной сфере” Электронная версия:studylib.ru – Документы для учеников и учителей

3. Агунович Ольга Николаевна “Организация PR-деятельности образовательного учреждения во внешней среде”. Электронная версия:Социальная сеть работников образования nsportal.ru. 2013

4.Коваль Татьяна Эдуардовна “Виды PR-деятельности в управлении муниципальным образовательным учреждением”«Открытый урок. Первое сентября» 2013. Электронная версия:https://открытыйурок.рф/статьи/579136

5. Eshbekov To‘lqin Usmonovich “Axborot xizmati: nazariya va amaliyot” o‘quv qo‘llanma (Toshkent. O‘zMU – 2015)

**Feruza MAXAMATOVA,**
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
“Pedagogika ta’limi nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

# INTELLEKTUALLASHTIRILGAN O‘QITISH TIZIMLARI NEGIZIDAGI BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INTELLEKTUAL FAOLIYATGA TAYYORLASH

**Annotatsiya**

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash va takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish haqida fikr mulohaza bayon etilgan. Shuningdek, muallif zamonaviy ta’limda intellektual mulkdan foydalangan holdagi jarayonni shakllantirish masalasi buyicha o‘z takliflarini aytib o‘tgan.

**Kalit so‘z.** Intellektual faoliyat, aqliy salohiyat, intellektual faoliyatga tayyorlash masalalari, intelektual faoliyatga tayyorlash yo‘llari.

В статье изложена разработка путей подготовки и совершенствования будущих педагогов к интеллектуальной деятельности. Сформулирован вопрос формирования процесса с использованием интеллектуальной собственности в современном образовании.

**Ключевые слова.** Вопросы интеллектуальной деятельности, психического потенциала, подготовки к интеллектуальной деятельности, пути подготовки к интеллектуальной деятельности.

The article provides development of ways to prepare and improve future teachers for intellectual activity. The question of the formation of the process using intellectual property in modern education is formulated.

**Key words.** Questions of intellectual activity, mental potential, preparation for intellectual activity, ways of preparation for intellectual activity.

O‘zbekiston milliy davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin ta’lim davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylanib, ushbu sohada tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor, o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida mehnat qilayotgan zamonda yashamoqdamiz. Bu jamiyatning buguni va ertangi kundagi istiqboli uchun nafaqat iqtisodiy muammolarni hal etish, mamlakatning ishlab chiqarish qudratini jadal rivojlantirish, balki ijtimoiy hayotda yosh avlodni ma’naviy yetuklik darajasini ko‘tarish bilan ham bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yilning 28-dekabrida Oliy Majlisga taqdim qilingan va mamlakatimiz hayoti uchun tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan Murojaatnomasida asoslangan konseptual xulosalar va tashabbuslarda harakatlar strategiyasini izchil rivojlantirishning eng zamonaviy asoslari o‘zining chuqur aksini topdi.

Murojaatnomada, hozirgi davrning eng yetakchi talablari, mamlakatimizni taraqqiy ettirish va yangilashning dolzarb ehtiyojlarini o‘zida mujassam etgan innovatsion davlat siyosatini amalga oshirish va bunda demokratiyaning zamonaviy mexanizmlari va

prinsiplariga tayanilgan holda, ulkan samaraga erishishi bilan bog‘liq ulug‘vor vazifalar ifodalandi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Xalqimizda ta’lim va tarbiya beshikdan boshlanadi” degan hikmatli bir so‘z bor. Faqat ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash ko‘laminii kengaytirish – eng muhim masalalardan biridir.

Darhaqiqat, XXI asr – intellektual avlodlar asri sifatida talqin etilmoqda. Bu g‘oyaning zamirida chuqur ma’no-mazmun ifodalanadi. Intellektual salohiyat esa bugungi kunda jamiyat va inson faoliyatining barcha yo‘nalishlarida namoyon bo‘lmoqda. “Intellekt” – so‘zi bir necha ma’noni anglatadi, birinchidan, insonning aqliy qobiliyati, hayotni va atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o‘zgartirish, fikrlash, o‘qish-o‘rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyatini, aks ettirsa; ikkinchidan, shaxsning aql-idroki, zakovati, tashqi dunyoni idrok etish va ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish darajasini ifodalaydi. Xatima Shayxovaning ta’kidlashicha, “intellekt insonning zakovati, ma’naviyatini belgilovchi tushunchadir. ...insonning intellektual salohiyati, hissiy, ma’naviy, axloqiy faoliyati orqali bilim, aql-zakovatga erishadi. Bu jarayon faqat tarbiya, bilim, tajriba, qadriyatlari, hayotdan olingan ijobiy saboqlar orqali salohiyat asosiga aylanadi. Salohiyat esa insonning ko‘p qirrali qobiliyati, chidami, ishonchi, shijoati, iqtidori, izlanishi va intilishi, kurashi orqali rivojlanadi”.

Intellektual taraqqiyotni jadallashtirishda zamonaviy yondashuvlar bilan bir qatorda tarbiyaning milliy-ma’naviy negizlariga ham tayanish zarur. Shuning uchun ham o‘zbek xalqining milliy-madaniy merosi, tarixi, buyuk ajdodlarimiz hayoti va faoliyatini, ularning boy g‘oyaviy, mafkuraviy merosini bilmay turib buyuk maqsadlarga erishib bo‘lmaydi. Chunki ajdodlar tajribasi hozirgi kun avlod uchun bebaho maktab vazifasini o‘taydi. Bugungi kunda ilm-fan va ta’lim inson faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish, mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirish, turmush darajasini ko‘tarishning muhim shartiga aylanib bormoqda. Ilm-fan va ta’lim sohasidagi institutsional o‘zgarishlar, birinchi navbatda, o‘qitish sifati, ilmiy salohiyat darajasini oshirishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchidan innovatsiyalarni rivojlantirish negizida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi. Yuqorida ko‘rsatilgan imkoniyatlarni amalga oshirish uchun mamlakatimizda intellektual salohiyatni oshirishga ta’sir etuvchi omillarni tizimli tadqiq etish zarur. Intellektual salohiyatni oshirishda oliy ta’lim tizimi, ilmiy faoliyat hamda intellektual mulk tizimini rivojlantirish nuqtayi nazaridan bir nechta ilmiy taklif hamda tavsiyalar shakllantirildi.

Intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlari va vositalari negizida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash borasida bir qator olimlar tadqiqot ishlari olib borgan. Jumladan, xorijiy olimlardan Endryu Berdjes, Brussard Meredit, Djiff Xokins, G.S.Osipov, Styuart Rassel, Peter Norvich va boshqalarning tadqiqot ishlari intellektuallashtirilgan ta’lim masalalariga qaratilgan va ulardan zamonaviy intellektual salohiyatli, innovatsion rivojlangan kadrlar tayyorlashda didaktik asos sifatida foydalanish mumkin.

Shuningdek, intellektual salohiyat – bu tizimli xossa bo‘lib, u aniqlanishining ko‘pgina yo‘nalishi va turli darajasiga ega. Inson intellektual salohiyatining mohiyatini intellektning – hayotiy faoliyat va intellektning – shaxs o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish asosida ochib berish mumkin. U insonning individ, shaxs va faoliyat subyekti sifatida rivojlanishi davomida shakllanadi.

Qachonki, shaxsning intellektual qobiliyati to‘g‘ri shakllantirilsa va unga o‘z salohiyatini namoyon qilishga imkon berilsa, shaxs intellektual salohiyatini namoyon qiladi.

Qanday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarni intellektual salohiyatli o‘qituvchi qilib tarbiyalash lozim? Bu savollarga quyidagicha javob bersak maqsadga muvofiq hisoblanardi.

Birinchi o‘rinda, talabalarni badiiy adabiyotga oshno qilish lozim. Chunki badiiy adabiyot insonning ruhiy olamini kengroq ochishga yordam beradigan asosiy omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, talabani faol ta’lim muhitiga olib kirish lozim. Shuni bilishimiz lozimki, har bir oliy ma’lumotga ega bo‘lgan odam ziyoli emas, balki o‘z ustida tinmay ishlagan, intellektual salohiyatni ostirishga harakat qilgan, kreativ qobiliyatini namoyon qila oladigan inson ziyoli insondir.

Uchinchidan, to‘g‘ri tarbiya hisoblanadi. Agar talaba uzluksiz ta’lim jarayonida boshqa odamlarga hurmat, boshqalarni tinglash qobiliyati, har bir shaxsning nuqtayi nazariga oqilona munosabatda bo‘lish qobiliyatini tarbiyalasa, u o‘zidagi aql va idrokni rivojlantira boshlaydi.

To‘rtinchidan, harakatlarning so‘zlardan ajralmasligi. Intellektual salohiyatli va ziyoli bo‘lishga intilgan inson, albatta, o‘z so‘zi va harakati uchun javobgar bo‘ladi. Endi siz aqlning mohiyati nima ekanligini bilasiz. Odamlar aql-zakovat ruh madaniyati ekanligiga ishonishlari kerak. Bu ta’lim darajasining ko‘rsatkichi emas, bu axloqiy tamoyillarga mos keladigan harakatlardir.

Intellektual salohiyat – bu tizimli hossa bo‘lib, u aniqlanishining ko‘pgina yo‘nalishi va turli darajasiga ega. Inson intellektual salohiyatining mohiyatini intellektning – hayotiy faoliyat va intellektning – shaxs o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liklikni tahlil qilish asosida ochib berish mumkin. U insonning individ, shaxs va faoliyat subyekti sifatida rivojlanishi davomida shakllanadi va jamg‘arilib boradi.

Intellektual salohiyat tushunchasi inson faoliyatiga tegishli bo‘lib, uning tashuvchisi bo‘lib subyekt hisoblanadi. Salohiyat subyekt holatini ma’lum turdagi va sifatdagi faoliyatni amalga oshirish imkoniyati nuqtayi nazardan tavsiflaydi. Bunday imkoniyatlar jamiyat tomonidan uning tarixiy rivojlanish davomida yaratilib, turli omillar birligi va o‘zaro aloqadorligining majmui bilan belgilanadi.

Inson faoliyati salohiyatni ishga solish jarayonidir. Inson qachonki, zaruriy bilim va malakaga, ya’ni unga o‘z ishini sifatli bajarish imkonini beruvchi salohiyatga ega bo‘lsa, shundagina u mutaxassis va o‘z kasbining ustasi bo‘lib hisoblanadi. Bu o‘ta muhim holat. Chunki, intellektual salohiyat doim sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan jarayonlarni kutishi bilan bog‘liq. Eng oddiy holatda, agar odam unga bo‘lgan ishonchni oqlamasa, bu shuni anglatadiki, yoki unga xalaqit berishgan, yoki uning salohiyati noto‘g‘ri baholangan.

Ta’kidlash lozimki, intellektual salohiyat o‘ta mazmunli va yetarlicha murakkab tushunchadir. Oldinlari undan ijtimoiy bilim kategoriyasi sifatida emas, balki ko‘p hollarda boshqa ma’noda, ya’ni metafora sifatida foydalanishgan. Hozirda vaziyat o‘zgardi. Postindustrial dunyoda aynan integrativ butunlik sifatida tan olinayotgan yuqori intellektual salohiyatga ega bo‘lgan mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Hozirgi zamondagi jamiyat hayotida intellektual salohiyatga aloqador bo‘lgan fan, ta’lim, yangi axborot texnologiyalarining roli oshib bormoqda. Iqtisodiyotlari bilimga asoslangan (intellektual iqtisodiyot) rivojlangan mamlakatlarning industrialdan yangi industrial, axborotlashgan jamiyatga o‘tishlari, birinchi qatorga inson faoliyatining intellektual jihatlarini olib chiqmoqda. Jamiyatning intellektual salohiyati mamlakatning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu nafaqat alohida insonning, balki butun jamiyatning intellektual salohiyatini o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Jamiyatning intellektual salohiyatini mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish omillari tizimiga kiritishni asoslash uchun uning mazmuni, tarkibi,

funksiyalari va hajmini o‘lchash uslublari bo‘yicha tegishli nazariy, metodologik va metodik ishlanmalarni yaratish lozim. Biroq, hozirgi kunga qadar bu masalalarga yetarli darajada e’tibor berilmagan, jamiyat intellektual salohiyatining mazmuni, shakllanishi va undan foydalanish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan.

So‘nggi yillarda intellektual salohiyat tushunchasi turli ijtimoiy subyektlar va darajalar: jamiyat, hududlar, ijtimoiy-iqtisodiy tizim-osti bo‘g‘inlar, tashkilotlar jamoalar va boshqalarga nisbatan qo‘llanib kelinmoqda. Intellektual salohiyatli avlod tarbiyasining yuqorida qayd etilgan ketma-ketligiga O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining beshta tamoyili asos qilib olingan bo‘lib, u bo‘lajak mutaxassislarning amaliy faoliyatigacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga olgan va o‘z xususiyatiga ko‘ra, intellektual salohiyatli avlodni shakllantirishga kompleks yondashuv hisoblanadi.

Shuning bilan birga ta’lim jarayonini intellektuallashtirish shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasiga o‘qitilishiga ijobiy ta’sir qilib, samaradorlikni oshirishga, intellektual rivojlangan shaxs tarbiyasida keng imkoniyatlarni yaratmoqda. Bu borada Sh.S. Sharipovning quyidagi fikri ahamiyatlidir: “Shu paytga qadar mavjud ta’lim tizimida o‘qitish ustuvor sanalgan bo‘lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik o‘qishga o‘rganishga yo‘naltirilgan. Shu sababli ta’limning o‘qituvchi-darslik-talaba paradigmasi talaba-darslik-o‘qituvchi paradigmasi bilan o‘rin almashishi zarur. O‘qituvchi bunday maqsadlarda o‘qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashlari kerakki, ular talabalarga nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan mustaqil egallashlari, o‘zlarida shaxsiy nuqtayi nazarning shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlardan yangi malakalariga ega bo‘lishlari lozim”. Ushbu sohada olib borilgan izlanishlarimiz va kuzatishlarimiz natijalarining ko‘rsatishicha, ta’lim oluvchilarning yangi bilimlarni egallashida ta’lim mazmunini intellektuallashtirish, intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlari va shu kabilar fundamental – didaktik asoslar bo‘lib hisoblanar ekan va tabiiyki, ta’lim oluvchining yangi bilimlarni egallashi negizida ulardagi intellekt tarkib topa boshlaydi.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ta’lim mazmunini intellektuallashtirish, intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlari negizidagi ta’lim-tarbiyada ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati rivojlanishi ularga o‘zini qurshab turgan borliqni yanada mukammalroq o‘rganish imkoniyatini beradi. Shu sababli zamonaviy ta’limda intellektual mulkdan foydalangan holdagi jarayonni shakllantirish masalasi yanada dolzarblik kasb etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2018-yil 29-dekabr.

2. Shayxova X. Intellektual salohiyat – taraqqiyot mezoni. – T.: “O‘zbekiston”, 2011 – 12 b.

**Zamira SANGIROVA,**
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi aniq va tabiiy fanlar bo'limi boshlig'i
**Kusharbay SUYAROV,**
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, ''Fizika va astronomiyani o'qitish metodikasi'' kafedrasi mudiri

# TABIIY FANLARNI O'QITISHDA O'QUV-LOYIHA ISHLARINING O'RNI

**Annotatsiya**

Maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda loyiha ishi orqali o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni, kompetensiyani shakllantirish hamda mazkur faoliyatni tashkil etishning psixologik-gigiyenik talablari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar.** Tabiiy fanlar, o'quv-tadqiqot ishi, loyiha ishi, tabiiy-ilmiy savodxonlikni kompetensiyasi, pedagogik omillar, Blum toksonomiyasi.

В статье исследовано развитие у учеников начальных классов компетенций по естественно-научным знаниям посредством проектной деятельности, а также исследованы психологические и гигиенические требования к этому виду деятельности.

**Ключевые слова.** Эстественные науки, исследования и разработки, проектная работа, педагогические факторы, токсномия Блюма.

The article provides development of elementary school students' natural science competencies through project work is investigated, and the psychological and hygienic requirements for this type of activity are investigated.

**Key words.** Natural sciences, research and development, project work, pedagogical factors, Blum's toxnomia

Fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlari globallashuv sharoitida barcha sohalarda kuchli raqobat muhiti shakllanib, o'z navbatida ta'lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo'ymoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan tadqiqotlar markazida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida o'qitishning zamonaviy shakllari ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasiga oid olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar bo'lajak mutaxassislarda nafaqat bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi bilan birga ularda izlanuvchan, ixtirochi, loyihalashtirish kabi sifatlarga ega bo'lishni ham taqozo etmoqda. Shu bois, o'quvchilarni o'quv-loyiha faoliyatiga jalb qilish orqali ularda (mantiqiy, verbal, tanqidiy, kreativ) fikrlash va izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida qaralishi lozim.

2000-yillarning boshidan buyon Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari tomonidan maktab o'quvchilarni faol ijodiy faoliyatga yo'naltirish bo'yicha keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilmoqda, masalan, A.V.Leontovich o'quv-loyiha ishlarini tashkil etish, A.S.Obuxov o'quvchilarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish,

V.G.Razumovskiy o‘quvchida ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, A.I.Savenkov o‘quvchining tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirish, L.E.Osipenko ilmiy-amaliy o‘qitishni loyihalashtirish, A.V.Stepanchenko tomonidan o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik asoslari o‘rganilgan.

A.V. Leontovich o‘quv-tadqiqot ishini quyidagicha tavsiflaydi “agar ilmiy-tadqiqot haqiqatni aniqlash, yangi bilimlarni qo‘lga kiritishga mo‘ljallangan bo‘lsa, o‘quv tadqiqoti o‘quvchilar tomonidan tadqiqotchilik faoliyati ko‘nikmasini egallash, tafakkurning tadqiqotchilik turini o‘zlashtirish, ta’lim olish jarayonida faol yondashuvni shakllanishidir”.

Bunday ish loyiha bilan o‘xshashlikka ega. Ammo tadqiqot – bu loyihali ishning faqat bir bosqichi, xolos. Loyiha muayyan muammoni hal qilish, oldindan rejalashtirilgan natijaga oqilona usul bilan erishishga mo‘ljallangan ishdir. Loyiha o‘z ichiga o‘quvchilarning referatlari, tadqiqotlari hamda mustaqil ijodiy ishining har qanday boshqa ko‘rinishlarini olishi mumkin.

O‘quvchi uchun loyiha – bu o‘zining ijodiy salohiyatini imkon qadar ochib berish imkoniyati. Bunday faoliyat shaxsan yoki guruhda o‘zini namoyon etishga, o‘z kuchini sinab ko‘rishga, o‘z bilimlarini qo‘llashga, erishilgan natijani ommaga ko‘rsatishga imkon beradi.

Loyihaning yana bir farqi – ishni oldindan rejalashtirishdir. Loyiha maqsadini amalga oshirishga qadar bo‘lgan boshlang‘ich muammoning barcha yo‘lini bularning har biri uchun o‘z oraliq vazifalariga ega bo‘lgan alohida bosqichlarga: mazkur vazifani hal qilish usullarini belgilash hamda buning uchun zahiralarini topish; har bir bosqichni amalga oshirish muddatlari ko‘rsatilgan ishning batafsil chizmasini ishlab chiqishning alohida bosqichlariga bo‘lish zarur.

Loyihaning muammosini hal qilishning topilgan usulini amalga oshirish uchun loyiha mahsuli yaratiladi. Loyiha mahsuli muayyan iste’molchilik xususiyatlariga ega bo‘lishi, ya’ni ushbu muammoga duch kelgan har qanday insonning ehtiyojlarini qondirishi va mazkur loyiha yo‘naltirilgan yechimga ega bo‘lishi lozim.

“Faqat faol faoliyat jarayonida shaxs har tomonlama shakllanadi va rivojlanadi” deb ta’kidlaydi V.P. Bespalko. O‘quvchi o‘quv faoliyati davomida turli axborot manbalariga murojaat qilishadi. Shu bois, ta’limda faol faoliyat – samarali bilim olish shakli hisoblanadi.

Umumta’lim maktablarida boshlang‘ich sinflarida “Tabiiy fanlar”ni o‘qitishda kichik tadqiqot, amaliy ish, loyiha ishi kabi ta’lim berish shakllari joriy etilmoqda. Har qanday yondashuv ta’lim sohasiga taqdim qilinganda quyidagilar nazarga olinishi lozim. Birinchidan, taklif qilinayotgan, masalan, loyiha ishining qo‘yilishida o‘quvchining yoshi va uning psixologik xususiyatlarini inobatga olish, bajarishda gigiyenik qoidalarga amal qilinishi (uning sog‘ligiga zarar yetkazmaslik); *ikkinchidan*, o‘tilgan mavzularga mosligi va uzviylikning ta’minlanishi; *uchinchidan,* u ta’limiy natijani berishi, ya’ni o‘quvchida bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishni ta’minlashi.

Biz kichik yoshdagi o‘quvchini loyiha ishiga olib kirishda rus olimi L.S.Vigotskiyning yaqindan rivojlantirish g‘oyasiga tayandik. Yaqindan rivojlantirish g‘oyasiga ko‘ra o‘quvchi bilan hamkorlikdagi faoliyatning yakuniy natijalarni 1-jadvalda keltirilgan.

O‘quvchining o‘quv loyiha faoliyati bugun (A1, B1,C1), hamkorlik natijasiga ko‘ra ertaga (A2, B2, C2) faoliyat mahsuli sifatida quyidagicha izohlanilgan. Bunda:





• A1–A2 – agar o‘quvchi ishning bir qismini o‘zi mustaqil, qolgan (qiyin yoki murakkab) qismini u kattalar bilan (yoki o‘qituvchisi rahbarligida) birgalikda ish to‘liq bajarilsa (A1), u ertaga shunday ishni o‘zi mustaqil to‘liq bajara oladi (A2).

• B1–B2 –bugun o‘quvchi to‘liq ishni o‘zi bajardi, hattoki murakkab bo‘lgan qismini ham, ammo ishni xatolar bilan bajardi to‘liq ijobiy natijaga erisha olmadi (B1), ertasiga ham u shu ishni xuddi shunday (yoki kamroq) qismini bajaradi, chunki unda bu faoliyatga bo‘lgan motiv yo‘qoladi (B2).

• C1–C2 – bugun o‘quvchi o‘ziga tanish bo‘lgan qismini mustaqil bajardi, ammo qolgan qismini kattalar (oila a’zolari) bajarib berdi, ish to‘liq bajarildi (C1), ertaga ham o‘quvchi yana o‘zi uchun tanish bo‘lgan qismini bajaradi (C2). Demak, hamkorlikda olib borilgan faoliyat o‘quvchiga yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, amaliy ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi.

*1-jadval*

O‘qituvchi hamkorligida yaqindan rivojlantirish

| Bugun | Ertaga |
|---|---|
| **A 1**<br> | **A 2**<br> |
| **B 1**<br> | **B2**<br> |
| **C 1**<br> | **C2**<br> |

O‘quvchilar bilan hamkorlikda loyiha ishini tashkil etish jarayonida hisobga olinishi zarur bo‘lgan bir qator holatlar mavjud. O‘quvchi biron bir bilim yoki ko‘nikmalarga ega bo‘lmasa unga biror ishni loyiha ishi sifatida o‘quvchilarga taqdim etib bo‘lmaydi. Chunki unda loyiha ishi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashi uchun biron bir manbaa ham yo‘q. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, loyiha ustida ishlash uchun o‘quvchida tayyorlikning muayyan dastlabki(muammoni ko‘ra bilish, kuzatish vositalari va usullarini o‘zlashtirish, ishni rejalashtirish kabi)bosqichlarini egallagan bo‘lishi lozim. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari amaliy kompensiyalarni reproduktiv usulda o‘zlashtiradilar.

Loyiha ishining qo‘yilishining ijobiy tomonlari – bu bolalarda tahliliy fikrlashni va tabiiy fanlarga qiziqishni orttiradi, bolalarni nafaqat individual, balki jamoa bilan ishlashga o‘rgatadi.

O‘quvchilarga taqdim etilayotgan loyiha ishi Blum toksonomiyasida keltirilgan harakat ketma-ketligida bajarilsa ta’limiy natijalarga samarali erishiladi. Blum toksonomiyasi bo‘yicha harakatlar mazmuni 2-jadvalda keltirilgan.

*2.-jadval*

Blum toksonomiyasiga ko‘ra loyiha ishini tashkil bosqichlar

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Eslab qolish | Asosiy tushuncha, harakat, shakl yoki ko‘rinishlar kabilarni eslab qolish |
| 2. | Tushunish | Voqea yoki hodisalarga oid tushunchalarni tushunish, tushunish orqali ma’lumotlarga ega bo‘lish, muhokamada ishtirok etish, tushuntirib berish |
| 3. | Qo‘llash | Yangi vaziyatlarda ma’lumotlardan foydalanish, qo‘llash va izohlab berish |
| 4 | Tahlil qilish | Tajriba qilish orqali solishtirish, ajratish,o‘zaro bog‘liq tomonlarni ko‘rsatadi, nazorat qilish |
| 5. | Baholash | O‘z qarorini qabul qiladi, muhokama qiladi, himoya qiladi, qo‘llab-quvvatlaydi yoki tanqidiy munosabat bildiradi |
| 6. | Yaratish | Yasash, yig‘ish, ishlab chiqarish |

Kichik yoshdagi bolalarga keng axborot oqimidan asosiy ma’lumotlarni ajratib olish qiyin bo‘ladi. Ular hissiyotlarga berilib faoliyatini tahlil qila olmaydi, o‘z yutuqlarini ham xolis baholay olmaydi. Ularda loyiha ishi bo‘yicha natijalarni taqdim etish va o‘zini ko‘rsatish ko‘nikmalari hali shakllanmagan bo‘ladi. Bularning barchasi loyiha ustida ishlashda katta hajmini o‘qituvchi bolalar bilan ularni muntazam qo‘llab-quvvatlagan va ilhomlantirgan holda amalga oshirishiga to‘g‘ri keladi. Ammo loyiha, eng avvalo, mustaqil ish ekanligini unutmaslik zarur, bunday ishda o‘quvchi o‘zining natijalarini ehtimol o‘qituvchi qarashlariga to‘g‘ri kelmaydigan nuqtayi nazarini bayon qilishi mumkin.

I. P. Podlasiy o‘qitishda didaktik jarayonning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi quyidagi to‘rt omilni ajaratib ko‘rsatgan: o‘quv materiali; tashkiliy-pedagogik ta’sir; o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi; vaqt.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda “Tabiiy fanlar” darsliklariga kiritilgan o‘quv-loyiha ishlarining mavzulari 1-, 2-, 3-sinflar kesimi bo‘yicha 3-jadvalda keltirilgan. Bu o‘quv-loyiha ishlari o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda vosita sifatida qaralgan.

*3 - jadval*

“Tabiiy fanlar” darsliklariga kiritilgan o‘quv-loyiha ishlari.

| | **Loyiha ish mavzusi** |
|---|---|
| 1-sinf | O‘simliklarni ekish va parvarishlash |
| 2-sinf | Urug‘ning unib chiqish jarayonini o‘rganish |
| 3-sinf | Urug‘ va mevani o‘rganish |
| 3-sinf | Kunlik suv sarfini hisoblash |
| 3-sinf | Ob-havoni kuzatish |

**“O‘simliklarni ekish va parvarishlash”** mavzusida loyiha ishi o‘tkazish metodikasini keltiramiz. ***Loyiha ishining umumiy maqsadida*** quyidagilar belgilangan: xona o‘simliklarining xilma xilligini (turlari) o‘rganish; o‘simliklarni ekish uchun nimalar zarur hamda o‘simliklar o‘sishi uchun qanday sharoitlar bo‘lish kerakligini o‘rganish; xona o‘simliklarini parvarish qilishni o‘rganish; o‘simliklarga parvarish qilishda ularga oqilona munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish.

O‘quvchi tomonidan bajarilganda o‘quv loyiha ishi natijalari baholanishi loyiha ishining umumiy maqsadidan kelib chiqib o‘quvchilarning erishishi lozim bo‘lgan ya-

kuniy natijalarga tayaniladi. O‘quvchilarning erishishlari lozim bo‘lgan yakuniy natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

*4-jadval*

O‘quvchilar erishishlari lozim bo‘lgan yakuniy natijalar.

| **Yakuniy kichik natijalar Barcha o‘quvchilar...** | **Yakuniy kichik natijalar Aksariyat o‘quvchilar…** | **Yakuniy kichik natijalar Ba’zi o‘quvchilar…** |
|---|---|---|
| Xona o‘simliklariga misol keltiradi. | Xona o‘simliklariga misol keltiradi va ularni ta’riflaydi. | Xona o‘simliklariga misollar keltiradi, ularni tavsiflaydi va ahamiyatini izohlaydi. |
| Xona o‘simliklarini yaxshi parvarishlashni biladi. | Xona o‘simliklarini yaxshi parvarishlash uchun zarur jihozlar va ozuqni tanlay oladi. | Xona o‘simliklarini ekish ketma-ketligini va parvarish qilishni tushuntiradi, tanlab olingan jihozlarni izohlaydi va xulosa qiladi. |
| Xona o‘simligini ekadi va parvarishlaydi. | Xona o‘simlikni ekadi, o‘simlik uchun doimiy zarur sharoit bo‘lishini ta’minlaydi va parvarish qiladi. | Xona o‘simliklarini ekib, ma’lum vaqt davomida rivojlanishini kuzatadi, kuzatishdagi o‘zgarishlarni izohlaydi. |
| O‘simliklarga parvarish qilishda oqilona munosabatda bo‘lish fikrini bildiradi. | O‘simliklarni parvarish qilish va ularga yaxshi munosabatda bo‘lishi haqida fikrini misollar orqali izohlaydi. | Xona o‘simliklarini parvarish qilishda to‘g‘ri munosabatda bo‘lish haqida fikrini bildiradi hamda uning oqibatlarini izohlaydi va xulosa qiladi. |

O‘qituvchi loyiha ishini bajarishni sinf jamoasi bilan hamkorlikda tashkil etadi. Bunda o‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilarning e’tiborini bir joyga fokuslanganda sinf jamoasi darsda faol bo‘ladi. Sinfdagi o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi va ularga o‘simlikni ekish ketma-ketligi keltirilgan rasmli yo‘riqnoma beriladi. O‘quvchilar berilgan rasmga qarab gulni ekish ketma-ketligini bajaradilar. O‘qituvchi o‘quvchilarning faoliyatini kuzatib boradi. “Gul ekish” mavzusidagi video lavhaning o‘quvchilarga taqdim etilishi loyiha ishini bajarish samaradorligi oshishini ta’minlaydi, ya’ni *birinchidan,* video lavha o‘quvchilar diqqatini jamlaydi, *ikkinchidan* sinfdagi barcha o‘quvchilarni hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi. Kichik loyiha ishi orqali o‘quvchilarning xona o‘simliklarini ekish va parvarishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakllanadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga savollar berish va ularning javobiga ko‘ra, yakuniy natijalarning shakllanganlik darajasini aniqlaydi.

**Savollar.**

1. Xona o‘simligini ekish uchun nimalar zarur?
2. Xona o‘simligini ekish uchun zarur jihozlarni bilasizmi?
3. O‘simliklarning yaxshi o‘sib rivojlanishi uchun nimalar kerak edi?
4. Ekilgan tuvakdagi o‘simlikni qayerga joylashtirasiz?
5. Ekilgan o‘simlikni bir kunda necha marta sug‘orasiz?

O‘simliklarning yaxshi o‘sib rivojlanishi uchun yorug‘lik, issiqlik, suv, tuproq va oziq moddalar kerakligini aytadi. Ekilgan tuvakdagi o‘simlikni yorug‘lik yaxshi tushadigan joyga qo‘yishini aytadi. Hozir qaysi fasl ekanligini aytadi. Ekilgan o‘simligini fasllarga qarab kamroq yoki ko‘proq sug‘orish kerakligini izohlaydi. O‘quvchilar mavzu yuzasidan o‘rganganlarini tushuntira oladi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.

O‘qituvchi daftaridagi topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatmalar beradi va topshiriqlarning bajarilishini nazorat qiladi. O‘quvchilarga gul ekish ketma-ketligi aralash berilgan bo‘lib, xona o‘simliklarini ekish ketma-ketligini to‘g‘ri belgilash beriladi.

Xona o‘simligi o‘sishi uchun qanday sharoitlar kerakligini izohlash, tahlil qilish, taqqoslash orqali o‘quvchida tabiiy-ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalar shakllantiriladi. Shu bilan birga xona o‘simliklariga oqilona munosabatda bo‘lishni o‘rganadi va fikrini misollar orqali izohlash ularda munosabat va qadriyatlarni shakllantiradi.

Loyiha ishi bo‘yicha hisobot olishga o‘qituvchi tavsiyalarini beradi, ya’ni o‘simlikni parvarish qilishni va uning rivojlanishini kuzatib borish. O‘simlik turiga ko‘ra uning rivojlanishini kuzatish vaqti belgilanadi (masalan 1 oy yoki 2 oy). O‘quvchilar shu davr davomida o‘zlari hisobotga tayyorlanishadi va sinf o‘quvchilari oldida hisobotni taqdimot qilishadi.

*Tadqiqot orqali ilm – fanlarni o‘qitish va o‘rgatishning qanday xususiyatlari mavjud?* degan savolga didaktik nuqtayi nazaridan qaralsa, tadqiqotga asoslangan ta’lim javobgarlik darajasi bilan tavsiflash mumkin. Bunda o‘quvchi o‘z oldiga muammo qo‘yib tadqiqot g‘oyasini shakllantiradi va o‘quv-tadqiqot yoki biror o‘quv loyiha ustida ish olib boradi, muammoga javob izlaydi, o‘z bilimini baholab tadqiqoti haqida ma’lumot yig‘adi (o‘quvchi boshqaradigan tadqiqot). O‘qituvchi tomonidan o‘quvchini tadqiqotga jalb etilganlik darajasi (o‘qituvchi boshqaradigan tadqiqot, ta’limiy natija) bilan taqqoslanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari loyiha ustida ishlash uchun ular tayyorlikning muayyan dastlabki(muammoni ko‘ra bilish, kuzatish vositalari va usullarini o‘zlashtirish, ishni rejalashtirish kabi)bosqichlarini egallagan bo‘lishi lozim. Aksariyat o‘quvchilarda loyiha ishlarini bajarishda kattalarning ko‘magiga muhtoj bo‘lishadi. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari loyiha ishlarini reproduktiv usulda o‘zlashtiradi.

Loyiha ishida o‘quvchining ishtiroki unga bilim, ko‘nikma va mustaqil faoliyat tajribasiga ega bo‘lish imkonini beradi. Maktab o‘quvchilarining loyiha faoliyatida hamkorlik yondashuvidan foydalanish, o‘quv jarayonining resurslari imkoniyatlarni oshirish hamda ularda amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Леонтович А. В. Об основных понятиях концепции развития исследовательской и проектной деятельности учащихся // Исследовательская работа школьников. - 2003. - №4. – С.12-17.

2. Обухов А.С. Исследовательская позиция и исследовательская деятельность: что и как развивать? // Исследовательская работа школьников. − 2003. − №4. − С.18-23.

3. Обухов А.С. Развитие исследовательской деятельности учащихся. − М.: Издательство, ‘‘Прометей’’, МПГУ, 2006, − С. 224 .

4. Ниязова Г. Б. Развитие основ исследовательской компетентности учащихся начальной школы //Проблемы современного образования. − 2017. − №1. – С. 90-98.

5. Разумовский В. Г. O‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni o‘stirish. – T.:‘‘O‘qituvchi’’, 1978. – 286-b.

**Dinora ABDURAXMONOVA,**
Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

# BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA IJODIY YOZMA ISHLARNI TASHKIL ETISH USULLARI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ijodiy yozma ishlarni tashkil etishga o‘rgatish usullari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar.** Ona tili, darslik, matn, yozma ish, ijodiy yozma ish, so‘z, so‘z birikmalari, gap tuzish, bayon.

В данной статье рассматриваются способы обучения учащихся начальных классов организации занятий по творческому письму на родном языке и обучению грамоте чтения.

**Ключевые слова.** Родной язык, учебник, текст, письменная работа, сочинение, слово, словосочетание, построение предложения, высказывание.

This article discusses ways to teach primary school students to organize classes in creative writing in their native language and teaching reading literacy.

**Key words.** Native language, textbook, text, written work, composition, word, phrase, sentence construction, statement.

Boshlang‘ich sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida mashqlar, topshiriqlar, asosan matn asosida bajariladi. O‘quvchilar savod o‘rgatish davridan boshlab nutqiy malakalarni bajarish mashqlarini bajaradi. O‘qituvchining savollariga javob berish orqali mustaqil gap tuzadilar. Alifbe kitobidagi matnlar bolaning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish vazifasini bajaradi. Birinchi sinfdan boshlab o‘qituvchi o‘quvchilarni ma’lum mavzuga oid mustaqil gaplar tuzishga o‘rgatadi. Birinchi sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligining 1-bo‘limida “Mening oilam” mavzusi berilgan. Bo‘limdagi har bir sahifada o‘quvchilarni o‘ylashga mushohada yuritishga undovchi o‘nlab savol va topshiriqlar keltirilgan. Masalan, Qanday ismlarni eshitdingiz? Qaysi kasblar haqida aytildi? Oila a’zolarini bildiruvchi qaysi so‘zlar ishlatildi? Kabi savollarga javob bera turib o‘quvchilar o‘zlari biladigan ismlarni aytishadi, o‘zlariga tanish kasblar nomini va oila-a’zolarining nomlarini bildiruvchi opa, singil, oyi, aka singari so‘zlar bilan javob berishadi.

O‘g‘zaki va yozma topshiriqlarning o‘quvchilar avval og‘zaki, keyin yozma bajarishga o‘rganadilar. O‘qish jarayonida topshiriq ustida ishlash murakkablashib boradi. O‘quvchilar berilgan matndagi gaplarning chegarasini ajratishga o‘rganib, o‘qituvchi yozma matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar e‘tiborini o‘rni bilan ishlatilgan tinish belgilari va matn talaffuziga qaratishga ham harakat qiladi. Topshiriqlar ustida ishlash ko‘proq grammatik savodxonlikni o‘qitish bilan ham bog‘lanib ketadi.

Tadqiqot metodologiyasi

1-sinfdan boshlab o‘quvchilar o‘qilgan matn mazmunini berilgan savollarga javob topish bilan gapirib berishga o‘rgatiladi. Buning uchun o‘qituvchi ona tili va o‘qish savodxonligi darsligidagi yoki proyektorda ko‘rsatilgan matnning har bir gapiga savol berishni o‘rganadilar. Bolalar savollar yordamida matn mazmunini o‘rganadilar. Masa-

lan, matn doskadan yoki proyektorda o‘chiriladi yoki kitob bekitib qo‘yiladi. O‘quvchilar doskaga yozilgan savollarga javob beradilar. O‘quvchilar doskaga yozilgan gap va jumlalarni (Hoshimjonning oila-a’zolari bilan bog‘liq jumlalar) tuzishga, Hoshimjonning oilasida kimlar bor? Ota-onasining kasbi nima? Hoshim demay, Hoshimjon desak, nima o‘zgaradi? Oyshaxonning oiladagi vazifasi nima? Nega Donoxondan shifokor chiqmas ekan? Kabi savollarga javob topib matn mazmuni bilan mukammalroq tanishadilar.

Shunga o‘xshash mashqlarni rasmlar asosida o‘tkazish ham mumkin. O‘qituvchi nutq o‘stirishga oid rasmni doskaga osadi yoki darslik sahifasi ko‘rsatiladi. O‘quvchilar diqqati rasmdagi har bir qismga qaratiladi. Avval rasmda tasvirlangan kim haqida (yoki nima haqida), keyin yana nimalar haqida gap tuzish kerakligi tushuntiriladi. O‘quvchilar kichik matn tuzadilar. Ular tuzgan matnlarini o‘qituvchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda yozadilar.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida darslikdagi mavzulardan tashqari integratsiyalash asosida tabiatni kuzatish va ekskursiyalar bilan bog‘liq holda, ma’lum bir mavzuda bir necha gap tuzish va o‘qituvchi yordamida kichik bog‘lanishli matn – hikoya tuzishga o‘rgatish ham samarali natija beradi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘qilgan matnni qayta hikoya qilish, matnga reja tuzish bilan bog‘liq holda kichik hikoya tuzish topshiriqlari ustida ham ishlanadi. O‘quvchilar savollarga javob berish, kichik matn yaratish mashqlarini bajarishib keyinchalik kichik bayon va insho yozishga o‘rgatish jarayoniga ham o‘tishadi.

Boshlang‘ich sinf Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida bayon yozishga o‘rgatish og‘zaki qayta hikoya qilishdan boshlanadi. Bu o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stiradi.

Bayon yozishga o‘rgatishda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi: 1) o‘qilgan matn mazmunini savollar yordamida o‘zlashtirish; 2) o‘qilgan matnni qayta hikoya qilish; 3) matnga sarlavha topish; 4) o‘qilgan matnga reja tuzish; 5) matndagi lavhalarni to‘ldirish, davom ettirish, o‘qilganlar yuzasidan ijodiy ishlarni tashkil qilish.

Boshlang‘ich sinfda matn mazmunini savollar yordamida yoritish, mazmuni sodda, hajm jihatidan katta bo‘lmagan matnlar ustida ishlash yaxshi samara beradi. 1-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligidagi “Suvning vatani” matnini bayon yozish uchun olamiz.

Tahlil va natijalar

Suvning vatani

Baland tog‘lar etagida bir buloq bo‘lgan ekan. Uning suvlari toshib, irmoqqa aylanibdi. Irmoq yurgan yo‘llarda gullar o‘sar, yam-yashil o‘tloqlar paydo bo‘larkan. Odamlar, o‘simliklar, hatto yo‘lda o‘tlab yurgan echkilar ham unga rahmat aytisharkan.

Irmoqning osmonga chiqib, atrofni tomosha qilgisi kelibdi. Quyoshdan yordam so‘rabdi.

Quyosh uni qattiq qizdirgan ekan, bug‘lanib bulutga aylanibdi. Bulut yurib-yurib zerikibdi. Hech kimga foydasi ham tegmabdi.

– Esiz, yerda maza qilib yurgan ekanman. Hammaga foydam tegardi, – deb yig‘lab yuboribdi bulut. Shu payt u yomg‘irga aylanibdi. Yomg‘ir suvlari yana irmoq bo‘lib oqa boshlabdi. Uni sog‘ingan barcha jonzotlar behad xursand bo‘lishibdi.

O‘qituvchi matnni o‘qib bergach, uning mazmunini o‘quvchilar to‘g‘ri tushunganliklariga ishonch hosil qilish uchun bir necha savolga javob oladi: Irmoq qanday paydo bo‘ldi? Unga kimlar rahmat aytisharkan? Nima uchun? Nega irmoq osmonga ko‘tarilishni istab qoldi? Irmoqning suvi qanday qilib bulutga aylandi? U nega yig‘ladi? Nima deb o‘ylaysiz, hikoyadagi voqealarda qanday tabiat hodisalari haqida gap bormoqda?

Yuqoridagi savollarga javob topish uchun o‘quvchilar diqqati hikoyaning eng asosiy o‘rinlariga qaratiladi. Natijada ular matn mazmunidagi asosiy qismni ajratishga o‘rganadilar.

Matn mazmunini o‘quvchilar hikoya qilganlaridan so‘ng, doskadagi reja asosida bayon yozishga o‘tiladi. Yozilgan bayon qayta hikoya qilingan mazmunning aynan o‘zi bo‘lishi shart emas, qisqaroq bo‘lishi mumkin. Lekin u reja asosida, qismlari o‘zaro izchil bog‘langan bo‘lmog‘i lozim.

Reja tuzish ham o‘qilgan matn mazmunini o‘zlashtirishga va uni umumlashtirishga xizmat qiladi. Reja tuzish malakasi o‘qilgan matn qismi mazmunini 2-3 so‘z bilan umumlashtira olishni talab etadi. Matn qismlariga yoki sarlavhasiz matnlarga sarlavha topish, rasm mazmunini anglatuvchi yoki matn qismiga sarlavha bo‘la oladigan gaplarni matn ichidan topish mashqlari shu maqsadda bajariladi.

Reja ustida ishlash o‘quvchilarni aqliy jihatdan ham o‘stiradi. U o‘quvchilarni analiz va sintez qilishga, umumlashtirishga, asosiyni ikkinchi darajali narsalardan ajrata olishga o‘rgatadi. Rejaning ahamiyati yana shundaki, u o‘quvchiga o‘qilganlardan qaysilarini oldin gapirish, qaysilari haqida keyinroq so‘zlash, qaysilarini gapirmaslik haqida yo‘llanma beradi. O‘qilgan matnni qayta hikoya qilish uchun reja tuzish o‘quvchilarni bayon yozishga tayyorlaydi.

“Suvning vatani” matni uchun quyidagi soda reja yetarli hisoblanadi.

Reja:

1. Irmoq yashagan joy.
2. Irmoqning sayohati.
3. Irmoqning qaytishi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning bayonni oson bajarishlari uchun darslikda berilgan topshiriqlar tizimidan ham foydalanishi mumkin.

Darslikda “Suvning vatani” matnini o‘rganish uchun bir nechta audio, rasmli va tabiat mavzusiga oid topshiriqlar berilgan.

Darslikning 4-sahifasida “Rasmga qarang. Joylar va tabiat hodislarining nomlarini bilib oling” deb nomlangan topshiriqda chaqmoq, yomg‘ir, jala, okean, dengiz, daryo, bo‘ron, do‘l, qor kabi narsa va hodislarning rasmlari tasvirlangan.O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida savollarga javob yoza turib, so‘zlarni rasmda tasvirlangan narsa va holatlarga moslashtiradilar. Bu topshiriqni bajarish o‘quvchilarni mustaqil hikoya va bayon yozish mahoratlarini oshirish uchun xizmat qiladi.

Keyingi topshiriq rasmli diktant bo‘lib, bu topshiriqda sakkizta tabiat hodisasi tasvirlangan rasm berilgan. O‘quvchilar rasmda tasvirlangan yomg‘ir, qor, shamol va boshqalarning nomlarini to‘g‘ri yoza olishliklari kerak bo‘ladi.

Navbatdagi topshiriqda O‘quvchilardan rasmlarga qarab “Suvning vatani” hikoyasidagi voqealarni so‘zlab berish so‘ralgan. O‘quvchilar rasmlar seriyasidan foydalanib hikoyani qayta so‘zlab beradilar. Bu jarayon o‘quvchilarning fikrlash va yozma mushohadakorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bayon o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda katta ahamiyatga ega, chunki u bolalar nutqini turli adabiy normalar bilan boyitadi, ularni insho yozishga o‘rgatadi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, 1-sinfdan boshlab o‘quvchilar qurilishi sodda hikoyalar yoza olishlari va shu hikoyalar asosida bayon yozish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bayon uchun matn tanlash muhim masaladir. Bayoni uchun hikoya va xabar tarzidagi matnlar yaxshi samara beradi. Dastlab ayrim kichik lavhalardangina tuzilgan matn tanlanadi. Bunday matn sodda va tushunarli, qismlarga oson ajraladigan bo‘lishi zarur. O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini bu matnlarning avvalgi matnlardan farqiga: qat-

nashuvchilar soni, voqealar ko‘pligiga jalb etadi.

Bayon yoziladigan matnni o‘quvchining o‘zi o‘qiydimi yoki o‘qituvchi o‘qib beradimi, muhimi tushunish jarayoni asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda kuzatishlarning ko‘rsatishicha, matn mazmunini eshitib esda qoldirish ancha qiyin. Shuning uchun bayon yozishga o‘rgatishning dastlabki davrlarida o‘quvchi matnni avval o‘zi o‘qiydi, keyin bir nafar o‘qituvchi o‘qiydi, so‘ngra kitob yopib qo‘yiladi. Ayrim hollarda ba’zi so‘zlarni o‘quvchilar kitobdan ko‘rib olishlariga ruxsat etiladi. Matnni necha marta o‘qib berish masalasi sinfdagi o‘quvchilar, ularning bilim saviyasi, qabul qilish qobiliyatiga bog‘liq. O‘quvchilarni bir-ikki marta o‘qib bergandan so‘ng bayonni yozishga odatlantirish maqsadga muvofiq.

Hikoya o‘qilgach, o‘qituvchining savollar asosida uning mazmuni qisqa tahlil qilinadi. Bunda o‘quvchilar matn mazmunini qaydarajada tushunganliklarini aniqlash uchun bir nechta savol berilsa, yetarli. Keyin o‘qituvchi rahbarligida reja tuziladi va doskaga yoziladi. O‘quvchilar reja asosida bayon matnini og‘zaki tuzadilar va, nihoyat, bayonni yoza boshlaydilar. O‘qilgan matn mazmuni yuzasidan og‘zaki hikoya qayta-qayta takrorlanmasligi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. Ona tili (1-11-sinf). 170-b.

2. G‘ulomov. X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. Oily o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma – T.: “Iqtisod-moliya” 2007. – 76-b.

3. Ona tili vao‘qish savodxonligi. 1-qism. Darslik. 1-sinf uchun. I.Azimova [va boshq]. T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 104-b.

4. Azimova I. [va boshq.] 1-sinf uchun mashq daftari. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 72-b.

5. Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili oqitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. –T.: Noshir, 2009. – 352-b.

**Nazira XAMRAYEVA,**
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
“Pedagogika ta’limi nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

# O‘QUVCHILAR INTELLEKTUAL QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

**Annotatsiya**

Maqolada o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan vositalar, metodlar haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, ularning aqliy rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiluvchi, faolligini ta’minlovchi pedagogik usullar tahlili yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Test, fikrlash, topshiriq, aqliy rivojlanish, qobiliyat, bilim, baholash, intellekt.

В статье дается обзор средств, методов, используемых в развитии интеллектуальных способностей учащихся. Также освещается анализ педагогических методов, обеспечивающих их активность, служащую важным фактором их психического развития.

**Ключевые слова.** Тест, мышление, задание, умственное развитие, способности, знания, оценка, интеллект.

The article provides an overview of the means and methods used in the development of students' intellectual abilities. It also highlights the analysis of pedagogical methods that ensure their activity, which serves as an important factor in their mental development.

**Key words.** Test, thinking, task, mental development, abilities, knowledge, assessment, intelligence.

IQ so‘zi ingilizcha “Intellectual quotent” olingan bo‘lib, bor bilimlar va aqliy rivojlanish darajasini turli metodik testlar orqali ifodalanishini bildiradi.

Bolalarda intelektual rivojlanish darajasini bilish uchun birinchi IQ test fransuz psixologi A.Bine tomonidan 1903-yil ishlab chiqilgan. Har bir yosh uchun bilim va ko‘nikmalar darajasi 100 deb qabul qilingan. Shu standartga monand aqliy rivojlanish yoki rivojlanishdan ortga qolish. IQ termini Avstraliyalik psixolog V.Shtern tomonidan 1911-yil kiritilgan. Masalan: AQShda harbiy xizmatga chaqiriluvchilar sotsial psixologik tayyorlik darajasiga IQ topshirganlaridan so‘ng qabul qilinadilar. IQ darajasini aniqlovchi testlar savollariga og‘zaki javob berishni talab qiluvchi va manipular masalalar (rasmning yetishmayotgan qismini to‘ldirish) kiritilishi mumkin. Berilgan savollarga aniq belgilangan vaqt oralig‘ida javob berish o‘ta muhim hisoblanadi. Javoblar oldindan belgilangan shkala bo‘yicha baholanadi. Ballarning umumiy yig‘indisi avvaldan ishlab chiqilgan IQ ko‘rsatkichlari bo‘yicha belgilanadi. Baholash paytida sinaluvchining yoshi inobatga olinadi.

Ko‘pchilik psixologlar fikricha, IQ test sinaluvchining mavjud bilimini baholaydi.

Har bir test uchun qat’iy vaqt 30 minut belgilangan. Baholash to‘g‘ri belgilangan javoblar soni bilan belgilanadi.

Test natijalari maksimal darajada to‘g‘ri belgilanishi uchun vaqt belgilash o‘ta aniq bo‘lishi lozim. Qo‘shib berilgan bir necha soniya baholash jarayoniga salbiy ta’sir qiladi. Test paytida sinaluvchi chetdan hech qanday yordam olmasligi talab qilinadi.

Har bir to‘g‘ri topilgan savol uchun bir balldan beriladi. Ballar yig‘indisi qanchalik yuqori bo‘lsa sinaluvchining shu kundagi aqliy darajasi va qabul qilish qobiliyati

shunchalik yuqori.

| № | Javob | № | Javob | № | Javob | № | Javob |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | | 2. | | 3. | | 4. | |

Baholash.

12 balldan kam holatda sizning natijangiz test qoidalariga rioya etmaslik yoki ularni yaxshi tushunmaslik oqibatida bo‘lishi mumkin, bu sizning qaysidir sohaga noloyiq yoki psixologik siqilishingizga sabab bo‘lmaydi.

13-19 ball – o‘rtacha aqliy qobiliyat:

20 va undan yuqorisi – istalgan amaliy san’at turiga oid sohani egallashi mumkin:

26 va undan yuqori ball – o‘z natijasi bilan faxrlansa bo‘ladi. Yuqori intellektual solohiyat egasi.

Test natijalarini past bo‘lishi bir yoki bir necha omillarga bog‘liq.

1. O‘z aqliy qobiliyatiga ishonchsizlik yoki savollarga yetarlicha e’tibor qilmaslik.

2. Materiallar tahlilida yetarlicha tajribaga ega bo‘lmaslik. Ta’sviriy taassurotning yetarli emasligi.


3. Mavjud bilimlarning va so‘z boyligining kamligi.

4. Fikrlash tezligining kamligi va uzoq aqliy mehnatga ko‘nikma yo‘qligi.

So‘z boyligini orttirish, matematik fikrlash va tasviriy taassurotingizni kengaytirish insonning o‘z qo‘lida.

1-2-sinf uchun rasmlarda tezkor test:

Namunadagi chizmalarni bosh kataklarda takrorlang.




1. Qatorli raqamni hisoblang.


18 20 24 32 ?

Javob: 48


2. Qaysi son yetishmayapti?




Yetishmayotgan raqamni kiriting.




Vizual obrazli test. (5-6-sinf uchun)
Ortiqchasini chiqaring.




Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o‘sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash hamda intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Zamonaviy ta’limda har bir o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol, qobiliyatli, intellektual salohiyati yuqori qilib tarbiyalashdan iborat. O‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan vositalar o‘quvchilarning darsdagi faolligini ta’minlaydi. Ularning fikrlash qobiliyatini oshirib, analiz va sintez qilish(tahlil va umumlashtirish)ga o‘rgatadi, iqtidorlarini, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 18-son, 352-modda 3.05.2019-y. PQ-4306.

2. Ishmuhamedov R.Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar(ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). –T.;– 2008. 87-bet.

3. Mavlonova R. A. Raxmonqulova N. X, VoxidovaN. X. “Pedagogika” Darslik, 2010-yil.

4. Rahmatova F.A. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tafakkurini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. –145-bet.

5. Rahmatova F.A. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tafakkurini takomillashtirish. Ped. fan. fal. dok. (PhD) ...dicc. – Chirchiq: ChDPI, 2019. –130-b.

6. Rahmatova F.A. Talabalarda matematik tafakkurni shakllantirish omillari // Xalq ta'limi jurnali. –Toshkent, 2015. – 4. – 128–130-b.

**Husniddin QORABOYEV,**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

# 4-SINF O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISHDA UYGA VAZIFALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

## *(O‘qish darslari misolida)*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslaridan tashkil etiladigan uyga vazifalarning turlari va uyga vazifalarni tashkil etishning ilmiy-nazariy jihatlari o‘z aksini topgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda uyga vazifalarning o‘rni asoslab berilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirishda uyda bajariladigan topshiriqlarni tashkil etishning didaktik va metodik jihatlari chuqur tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Boshlang‘ich ta’lim, o‘qish, ta’lim, tarbiya, o‘qituvchi, mustaqil fikr, savol-topshiriq, faoliyat, tizimli yondashuv, samaradorlik.

В этой статье рассматриваются типы домашних заданий, которые будут организованы из уроков чтения в начальной школе, и научно-теоретические аспекты организации домашних заданий. Обоснована роль домашних заданий в обучении начальных классов самостоятельному мышлению. Проанализированы дидактико-методические аспекты организации домашних заданий по развитию навыков логического мышления начальных классов.

**Ключевые слова.** Начальное образование, учеба, воспитание, учитель, самостоятельное мышление, вопрос-задание, деятельность, системный подход, результативность.

This article highlights the types of home-based tasks that are taught in primary school classes and the theoretical aspects of homework management. The role of homework in teaching elementary students to think independently is justified. The didactic and methodological aspects of the development of logical thinking of elementary school students are analyzed.

**Key words.** Primary education, reading, education, upbringing, teacher, question-task, activity, systematic approach, effectiveness.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro dastur PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot)da O‘zbekiston Respublikasining doimiy ishtirokini ta’minlash asosiy ustuvor maqsadlardan biri ekanligi takidlangan. O‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot (PIRLS) da qatnashishiga va samarali natijaga erishishida boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslaridan tashkil etiladigan uyga vazifalarning ham o‘rni beqisyodir.

O‘quvchi uy vazifasiga keyingi darsda o‘qituvchi nimani so‘rashi mumkinligidan kelib chiqib yondashadi. Ko‘pchilik o‘quvchilar og‘zaki uy vazifalarini tayyorlashda berilgan matnni bir-ikki marta qayta o‘qiydilar. Ba’zilari hatto o‘qimaydilar ham. Darslikda matn qanday berilgan bo‘lsa, shunday qayta hikoya qiladilar. Darsga tayyorlikning o‘lchovi

matnni qayta hikoyalashdan iborat bo‘lib qoladi. O‘qilgan matn ustida mulohaza yuritilmay, matn mazmunini eslab qolishgagina harakat qilinadi.

Uy vazifasini ma’lum reja asosida tayyorlash ham o‘quvchilarning faol fikriy mustaqilligini oshiradi. Uy vazifasini tayyorlashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya bilgan o‘quvchi undan mustaqil mulohaza talab qiladigan mashg‘ulotlarga o‘ziga ishongan holda qatnashadi. Uy vazifalarini ma’lum reja asosida bajarish bolalardan o‘quv materialiga ongli ravishda yondashishni talab qiladi. Yaxshi tuzilgan reja o‘quvchining faoliyatini tizimga soladi, zarur materialni ajratib olishga o‘rgatadi, muhim jihatlarni ochishga va to‘g‘ri xulosalar chiqarishga undaydi. O‘z fikrini muayyan tizimda bayon etishga o‘rgatadi. Uy vazifalarini og‘zaki tarzda bajarishda o‘quvchilar matn yuzasidan darslikdagi savol-topshiriqlarga murojaat qilmaydi va ular bilan ishlamaydilar. O‘qituvchilar ham uy vazifasini so‘rashda ko‘pda bunga e’tibor qilishmaydi. O‘quvchilardan uy vazifasini so‘rash jarayonida nafaqat ularning olgan bilimlarini aniqlash, balki bu bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va tizimga solish bo‘yicha keyingi ishlar ham tekshirilishi kerak. Bu bilan o‘quvchilarning mustaqil ishlashlari va o‘qiganlari asosida mulohaza yuritishlariga keng imkoniyat yaratiladi.

Uy vazifalarini og‘zaki so‘rashning faqat o‘quvchi xotirasiga tayanib javob berishi talab etiladigan tarzda tashkil qilinishi natijasida vazifa so‘rash o‘qituvchi bilan bitta o‘quvchi orasidagi alohida suhbatga aylanib qolib, sinfdagi boshqa o‘quvchilar unda ishtirok etmaydilar. Uy vazifalarini darsda ko‘tarilgan asosiy savol muhokamasi natijasiga qarab shakllantirish o‘quvchilarni darsda o‘rgangan bilimlarini mustaqil ravishda guruhlashga, undan muhimini ajratishga, o‘qituvchining talablariga mos keladigan dalillar topishga o‘rgata boradi. Ularning oldida mustaqil mulohaza yuritishni talab qiladigan yangi savollar paydo bo‘ladi. Dalillar keltirish uchun nafaqat faktlar izlashga, balki ularni o‘z so‘zlari bilan etkazishga ham harakat qiladilar. Bu holat ham ta’limiy, ham tarbiyaviy jihatidan o‘ta muhim hisoblanadi. O‘quvchilar fikrlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalagan joyda tafakkur faoliyati mustaqilligi tarbiyalanmasligi mumkin emas.

Agar darslarda uy vazifalarini so‘rash darsning ijodiy qismiga aylantirilsa, ya’ni o‘quvchining hodisa tahlili va u bilan bog‘liq faktlarni umumlashtirishga bo‘lgan qiziqishlari, imkoniyatlari hisobga olinsa, uy vazifasini so‘rash jarayonining samaradorligi ham sezilarli darajada ortadi. Uy vazifasini so‘rash jarayonida o‘quvchilar ko‘pincha u yoki bu hodisani bayon qiladi, lekin unga baho bermaydilar. Bu shundan dalolat beradiki, o‘qituvchi ulardan shunday bahoni, munosabatni hech qachon talab qilmagan. Sababi, buni o‘qituvchining o‘zi ham bilmaydi. O‘quvchilarda voqea-hodisani baholash, unga o‘z munosabatini bildirish ko‘nikmasi shakllantirilmagan. Uy vazifalarini so‘rash paytida o‘quvchiga mustaqil mulohaza yuritish talab qilinadigan savollar berilishi uning aqliy faoliyatini tezlashtiradi. Berilgan savollarga o‘quvchilar yaxshi tanlangan dalillar orqali javob berishga erishsa, bunday savollar ularning o‘zlariga ham katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinflar “O‘qish kitobi” darsliklarida badiiy asar ustida ishlash uchun o‘quvchilarga matn asosida reja tuzish va o‘qilganlarini reja asosida qayta hikoyalash ko‘p taklif qilinadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarda reja tuzish ko‘nikmalari shakllanishiga e’tibor qaratishi, ular asar qismlarining mantiqiy aloqasini qanday o‘zlashtirganliklarini aniqlab borishi kerak. Odatda, o‘qituvchilar topshiriqning ikkinchi qismiga, reja asosida asar matnini qayta hikoyalatishga ko‘proq urg‘u beradilar. Shuning uchun o‘quvchilar yuqori sinfga borganda ham insho yozish uchun reja tuzishga qiynaladi. Asar matnini qayta hikoyalash, ayniqsa, yuqori sinflarda, hatto, u ijodiy xarakterda bo‘lsa ham,

o‘quvchining ma’naviyati uchun yetarli manba bo‘lolmaydi. U boshlang‘ich sinflarda o‘quvchining nutqini o‘stirishi mumkin, xolos. Reja tuzishni o‘rgatishdan maqsad o‘quvchining tasavvuri va tafakkurini uyg‘otish, uni muhimni nomuhimdan ajratishga, bilganlarini tizimga solishga o‘rgatishdir.

O‘quvchilar ongini faollashtiradigan bunday ish turlari nafaqat asar matnining chuqur o‘zlashtirilishini ta’minlaydi, balki ularda har qanday badiiy asarni mustaqil muhokama qilishga qodir kitobxonni tarbiyalaydi. Qolaversa, o‘quvchilar tuzgan reja o‘quv materialini ular tomonidan chuqur va mustahkam o‘zlashtirilishiga imkoniyat yaratadi va bilimlar nisbatan ongli o‘rganilishiga erishiladi.

Adabiy ta’limning boshlang‘ich bosqichida o‘qilgan asarlar yuzasidan uy vazifasi sifatida:

– sinfda o‘tilgan mavzuni uyda qayta o‘qish;
– o‘qiganlarining rejasini tuzish va reja asosida qayta ijodiy hikoyalash;
– asar yuzasidan uning matnini takrorlashga emas, mustaqil mulohaza yuritib, o‘z fikrini aytishga undovchi mantiqli savollar tuzish va ularga javob berish;
– sinfdan tashqari o‘qiladigan asarlar ustida ishlash uchun topshiriqlar berish;
– mustaqil ishlar;
– lug‘at bilan ishlash;
– yozma va og‘zaki insho;
– matnni bo‘laklarga ajratish va ularning mazmuniga mos sarlavha topish;
– asar matni qismlari bo‘yicha sarlavhalar tavsiya etib, mavjud matnni shu sarlavhalarga mos tarzda bo‘laklarga bo‘lishni talab qilish;
– har bir bo‘lakning rejasini tuzish va shu reja asosida gapirishga tayyorlanish;
– ertak, topishmoq, she’r, tush va hikoyalar to‘qish;
– asarlar matni yuzasidan tayyorlangan suratlar ustida ishlash;
– matn yuzasidan berilgan savol-topshiriqlar bo‘yicha og‘zaki va yozma ishlar berish mumkin.

Bunday topshiriqlarni sinfda va uyda almashtirib bajarish ham o‘quvchining tafakkuri hamda faoliyati mustaqilligini ta’minlaydi. Ma’naviyatini boyitadi.

Yod olish uchun beriladigan uy vazifalarining nomi va soni o‘qish fani dasturida va darsliklarda aniq ko‘rsatilgan. Pedagogika ilmida bir darsda yod olish uchun beriladigan uy vazifalari 1-sinfda to‘rtdan sakkiz qatorgacha; 2-sinfda sakkizdan o‘ntagacha; 3 – 4-sinflarda 16 misra atrofida bo‘lishi tavsiya etilgan. Biror asarning to‘liq matni yoki asardan parcha yod olishni uy vazifasi sifatida topshirishdan avval uning mazmuni o‘quvchilar tomonidan yaxshilab tushunib olinishiga erishiladi. Asarni yod olishdan oldin u darsda sharhlab o‘rganilishi, she’r matni o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishi shart. Asarning yoddan, ifodali o‘qilishi darajasi uning qanchalik anglashilganligini ko‘rsatadi. Adabiy ta’lim davlat standarti talabi bo‘yicha yod olinishi lozim bo‘lgan asarlarni barcha o‘quvchilar yod olishlari shart. Lekin dasturda ham o‘quvchilar yodlashlari uchun ma’lum miqdorda qo‘shimcha o‘quv materiallari taqdim etilgan. Ularni yod bilish darsliklardagi she’rlar yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar ustida ishlashni osonlashtiradi. Dasturda va darslikda yod olish talab qilingan barcha she’riy asarlarni o‘quvchilarning hammasidan birday talab qilish ham unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu o‘rinda o‘quvchilarning xohish-istak va imkoniyatlarini inobatga olish kerak.

Suratlar bilan ishlash bo‘yicha uy vazifalari. Boshlang‘ich sinflarda asar matni yuzasidan chizilgan suratlar ustida ishlash topshirig‘i ko‘proq uchraydi. Bunday suratlar o‘quvchilarga asar qahramonlarini tiniqroq tasavvur qilishga ko‘maklashadi. Lekin

bugungi ta’lim amaliyotida, o‘qish darslarida rasmlar ustida ishlash juda no‘noqlik bilan tashkil etilgan. O‘qituvchilar rasmlardagi faqat yuzaki jihatlarni ochishni talab qiladilar.

Asar matni yuzasidan ishlangan suratlar ustida ishlash o‘quvchilar ma’naviy kamolotiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Suratlar bilan ishlash bo‘yicha berilgan uy vazifalarida ranglarning o‘rni, ularning surat uchun umumiy ahamiyati, o‘zaro mutanosibligi, nega aynan shu rangning qo‘llanilganligi, suratda yoritilgan narsalarning o‘rni, ularning umumiy tasvirga ta’siri bilan bog‘liq vazifalar topshiriladi. Sinflar yuqorilab borgan sari suratlar ustida ishlash bilan bog‘lab berigan uy vazifalarida rasmdagi shaxslarning yuz ifodasi, yuzidagi, ko‘zlaridagi, turishi yoki holatidagi ifodalar tahliliga, har birini tasvirlashda qo‘llangan ranglarga o‘quvchilarning e’tibori tortiladi.

Bu o‘quvchida rangni his qilish, undan ta’sirlanish, tasvirni, ranglardagi musiqiylikni o‘qish mahoratini shakllantiradi. Uy vazifasini bajarishda suratda ifodalangan har bir predmetni ajratish, uning rasmdagi vazifasini izohlash, rasmda tasvirlangan hodisaning boshi yoki oxirini o‘ylab topish, hikoyalab berish, kabi topshiriqlar hikoya bayonida fikrdan fikrga o‘rinsiz sakrab ketmaslik ko‘nikmasini shakllantiradi. Olamni, odamni ranglar ko‘magida baholashga o‘rgatadi. Qahramonning ko‘zlari, yuz ifodasi, holati tahlili o‘quvchini suvrat va siyratni farqlashga odatlantiradi.

Savol-topshiriqlar bilan ishlash bo‘yicha uy ishlari. Boshlang‘ich sinflarning “O‘qish kitobi”da taqdim etilgan adabiy matnlar ustida ishlash uchun ma’lum savol-topshiriqlar berilgan. Boshlang‘ich maktabning 3 – 4-sinflarida o‘quvchilarga uy vazifasi sifatida asar matni yuzasidan beriladigan savol-topshiriqlarning soni to‘rttadan oshmasligi kerakligi ma’lum. Darsliklarda taqdim etilgan ayrim savol-topshiriqlar tavsiflashni talab qilsa, ba’zilari umumlashtiruvchi xarakter kasb etadi. Ayrim savollar avval o‘zlashtirilgan bilimlarni eslashga ehtiyoj uyg‘otsa, boshqasi har tomonlama o‘ylashni va tahlilni talab qiladi.

Darslikdagi asar matni yuzasidan berilgan savol-topshiriqlarga uyda javob tayyorlashda o‘quvchilar ko‘pincha umumiy qonuniyatni to‘g‘ri topadilar, biroq buni o‘zlari asardan misollar keltirib asoslab berishga qiynaladilar. Ulardan nega shundayligini tushuntirish yoki aytganlarini isbotlash talab qilinganda, mazkur holatga tegishli ko‘pgina faktlarni bilsalar ham, o‘zlarini yo‘qotib qo‘yadilar. Gap shundaki, javob beradigan o‘quvchi o‘zi bilgan dalillarni, bilimlarni yangi tizimga, o‘qituvchi tomonidan belgilangan, uning savoli talab qilayotgan yangi yo‘nalishga solishi kerak bo‘ladi. Dastlab o‘quvchini aynan shu narsa qiynaydi. Keyinchalik, faktlar aniqlanib, topshiriq aqliy imkoniyati darajasidan uncha uzoq emasligi ma’lum bo‘lgach, tafakkuri faollashadi.

O‘quvchilar faoliyati mustaqilligini uyg‘otishga intilgan o‘qituvchi uyga beriladigan savol yoki topshiriqni mavzuga moslagan tarzda shakllantiradi. Shuning o‘zi o‘quvchining aqliy faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi. O‘qituvchi o‘quvchini materialni shunchaki qayta bayon qilmay, qarashlarini ma’lum tayanch fikr atrofida umumlashtirishga, undan javob uchun zarurini ajratib olishga, fikrini qolipga tushgan siyqa iboralarda emas, o‘z so‘zlari bilan bayon qilishga undaydi. Bu o‘quvchidan ma’lum hodisa sabablarini tushuntirish, fikrlarini qat’iy ilmiy-mantiqiy asoslarga qurish, voqealarni xolis baholash va kuzatganlarini umumlashtirishni talab qiladi. Uy vazifalarini bajarish bilan bog‘liq bunday vaziyatlarda qo‘shimcha savollar juda qo‘l keladi. Qo‘shimcha savollarning kuchi shundaki, ular avval o‘rganilgan bilimlarga tayanganidan o‘quvchilar ishini yengillashtiradi. Bu o‘rinda avval o‘zlashtirilganlarni takrorlash emas, balki o‘rganilgan bilimdan yangi yo‘nalishda foydalaniladi. Bu o‘quvchilarni yangilik qidirishga, noma’lumni aniqlashga yo‘naltiradi.

O‘quvchilarning uy insholarini tashkil etish. O‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini tarkib toptirishda uy insholarining ham o‘rni katta. Insholar inson tafakkurini charxlash, dunyoqarashini kengaytirish, fikrlarini, qarashlarini qat’iylashtirish va ma’naviyatni shakllantirish omili hisoblanadi. O‘quvchining hayotiy tajribasi kattalarnikiga nisbatan ancha kam, atrof-muhitga munosabati ham sodda va jo‘nroq. O‘quvchini ijodkorlikka yo‘naltirish uning ruhiyatini bezovta qila oladigan, qiziqtiradigan mavzuda yozishga, eng muhimi, tuyg‘ularini, munosabatini so‘z bilan ifodalab berishga qiziqish uyg‘otilganda yengil amalga oshadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insho yozish ko‘nikmasini tarkib toptirish va uni muntazam ravishda rivojlantirib borishda o‘qituvchi yuqorida ta’kidlangan masalalarga e’tibor berishi kerak. Insho o‘quvchi ma’naviyati va ma’rifati ko‘zgusidir. Unda o‘quvchining bilimlari, his-tuyg‘ulari, fikrlarini bayon eta olish, ko‘nikma va malakalari o‘z aksini topadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularni insho yozish qoidalari bilan tanishtirishda mavzuga mos materialni to‘g‘ri tanlay olish, uni tartibga solish, so‘zlar ma’nodorligi va izchilligini aniqlash, eng zarur materiallarni ajratish va eng, avvalo, mavzuni to‘liq yoritib bera oladigan reja tuzishga o‘rgatish lozim. Bunda o‘qituvchi insho yozish jarayonida o‘quvchini juda qattiq nazoratga olmasligi, aksincha, unga qulay shart-sharoit yaratib berishi lozim.

O‘quvchida ijodkorlik tuyg‘usi paydo bo‘lsa, darsda o‘rganganlariga munosabat bildirishga odatlansa, unda insonlik, shaxslik kurtaklari shakllanadi. O‘quvchini faqat o‘zi yaxshi bilgan narsasi haqida yozishga o‘rgatish kerak. Yaxshi bilmagan, tushunmagan mavzu haqida yozishdan azobli narsa yo‘q. Bolaga bunday topshiriq berish unda quruqlik, yuzakilikni tarbiyalash demakdir. O‘quvchi shaxsida ijodkorlikni, bezovta, uyg‘oq qalbni tarbiyalash uchun, avvalo, unda atrof-muhitga, tabiatga, hayvonot va nabotot olamiga, insonga kuchli qiziqish uyg‘otiladi. Bolani o‘zi yaxshi bilmaydigan, yaxshi ko‘rmagan, qiziqmagan mavzuda yozishga majbur qilmagan ma’qul. Boshlang‘ich sinflar adabiy ta’limida uyga insho yoki bayon yozishga berilsa, o‘sha kuni o‘quvchi boshqa o‘quv fanlari bo‘yicha oshiqcha yuklamalardan xalos etilishi kerak. Dunyo ta’lim tizimidagi barcha jihatlarni ko‘r-ko‘rona ko‘chirish o‘rniga ular erishgan yutuqlarning o‘zbek o‘quvchisi milliy xususiyatlari, ruhiy o‘ziga xosligiga mos keladigan tomonlarini o‘zlashtirish kerak. Aks holda, chet el pedagogikasidagi tashqi jihatlargina o‘zlashtirilib, qilingan harakatlar samarasiz ketadi. Tajriba almashishlar ko‘rsatdiki, chet el ta’lim tizimida har qanday o‘quv fani bo‘yicha esselar yozish etakchilik qiladi.

O‘quvchining erkin va mustaqil mulohazasiga asoslanadigan bunday uy insholari o‘quv yilining boshida, badiiy asar tahliliga bir oz o‘rganilgandan keyin, o‘quv yili o‘rtalarida va oxirida olish bolalarning mustaqil fikrlashini o‘stirishga xizmat qiladi. O‘quvchilardagi fikr mustaqilligining o‘sishini nazorat qilishga imkon beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. – T.; 2019. – 32-b.

2. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 167-b.

3. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.; Kamalak, 2016. – 462-b.

**Erkin MURODOV,**
Abdulla Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

# BITIRUVCHI O'QUVCHILAR EGALLASHI LOZIM BO'LGAN KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRUVCHI O'QITISH-O'RGANISH MODELLARI

**Annotatsiya**

Maqolada maktab o'quvchilarida bo'lishi kerak bo'lgan asosiy ko'nikma va kompetensiyalar hamda mazkur kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan milliy malaka standartlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, umumiy ta'lim tizimi va xususan, har bir ta'lim muassasasi natijalarining o'ziga xos ideal ifodasi hisoblangan maktab bitiruvchisining modeli hamda o'qitish-o'rganish modellarini shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar.** Ko'nikma, kompetensiya, bitiruvchisi modeli, mexanizmlar, standart, tavsiya

В статье анализируются основные навыки и компетенции, которыми должны обладать школьники, а также национальные квалификационные стандарты, направленные на формирование этих компетенций. При этом были разработаны модель выпускника школы, которая считается уникальным идеальным выражением результатов работы системы общего образования и, в частности, каждого образовательного учреждения, и методические рекомендации по формированию учебно-методических моделей.

**Ключевые слова.** Навыки, компетенции, модель выпускника, механизмы, стандарт, рекомендация.

The article analyzes the basic skills and competencies that schoolchildren should have, as well as national qualification standards aimed at the formation of these competencies. At the same time, a model of a school graduate was developed, which is considered a unique ideal expression of the results of the work of the general education system and, in particular, of each educational institution, and methodological recommendations for the formation of educational and methodological models.

**Key words.** Skills, competencies, graduate model, mechanisms, standard recommendation.

O'rta maktab bitiruvchilarining yangi hayot tarziga o'tishlarida ular egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalarni[1] o'zlashtirishlari talab qilinadi. O'quvchilarning bitiruvchi sifatida qanday kompetensiyalarga ega bo'lishlari kerakligi borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, bu borada turli yondashuv va fikrlar mavjud. Albatta, bu tabiiy holat. Chunki, shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda maqsad-vazifalar va shart-sharoitlar orasida farqlar mavjuddir. Shunday bo'lsa-da, ko'plab olib borilgan tadqiqotlarda maktab bitiruvchilarining kompetensiyalari

[1] Kompetensiyaga ta'rif juda ko'pligi sababli, ikki ta'rifni keltiramiz:1. "Kompetensiya" atamasi lotincha "competere" - muvofiq bo'lmoq so'zidan kelib chiqib, keng ma'noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli o'laroq amaliy faoliyatsiz namoyan bo'lmaydi va uni baholay olish mumkin emas. Manba: Umarova M.X. va boshqalar. "Pedagogikaning taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent, 2017. 149-151. 2. "Kompetentlik"inglizcha "competence" ya'ni, "qobiliyat" ma'nosini ifodalab, faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni anglatadi. Manba: "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik"moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T.: TDPU huzuridagi PKQTMOTarmoq markazi, 2016. 5,-b

borasida umumiy talablarni va jihatlarni ko‘rish mumkin.

Partnership for 21st Centuryning 2009-yilgi tadqiqotida o‘quvchilarda bo‘lishi kerak bo‘lgan asosiy ko‘nikma va kompetensiyalarni “tanqidiy fikrlash”, “ijodkorlik”, “muammolarni hal qilish”, “hamkorlik”, “universal savodxonlik”, “moslashuvchanlik” va “global kompetentlik” ekanligini ilgari suradi[2].

O‘rta maktab o‘quvchilari va bitiruvchilarining egallashi kerak bo‘lgan kompetensiyalarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan voqea 2011-yil Qo‘shma Shtatlarda (AQSh) oralarida American Association of School Librarians, National Education Association kabi fondlar va Microsoft, Lego, Pearson, ETS, İntel, HP, Dell, Apple, Crayola, Cisco kabi texnologiya kompaniyalarining ishtirokida, ta’lim sohasi olimlari jami 32 kishilik a’zodan iborat ishchi guruh “XXI asr kompetensiyalari” nomli tadqiqot olib bordi va tadqiqot natijalari bo‘yicha ma’ruza tayyorlandi. Ushbu ma’ruzada o‘quvchilarning kelajakda biznes va hayotda muvaffaqiyatli va namunali fuqaro bo‘lishlari uchun qanday bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘lishlari kerakligi ta’kidlandi va bu malakalarni egallashlari borasida barcha xalqlarga da’vat qilindi. Hisobotga ko‘ra, XXI asr kompetensiyalari: ijodkorlik, muammolarni hal qilish, innovatsiya, tanqidiy fikrlash va axborot texnologiyalari savodxonligi deb ta’riflangan va bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarning muvaffaqiyatli ta’lim islohotlariga ishora qilingan[3].

Partnership for 21st Century tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, o‘rta maktab o‘quvchilari va bitiruvchilarining egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalar quyidagilardir:

| Asosiy darslar | Innovatsion kompetensiya | Axborot, media va texnologik kompetensiya | Hayot va karera kompetensiyasi |
|---|---|---|---|
| Matematika | Ijodkorlik va innovatsiya | Axborot savodxonligi | Moslashuvchanlik |
| Xorijiy tillar (ingiliz tili) | Tanqidiy fikrlash | Mediya savodxonligi | Tashabbus va o‘z-o‘zini boshqarish |
| Adabiyot va san’at | Muammolarni hal qilish | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligi | Ijtimoiy va madaniyatlararo kompetensiya |
| Iqtisod va moliyaviy bilimlar | Muloqot va hamkorlik | Axborot xavfsizligi | Mahsuldorlik va javobgarlik |
| Tarix va geografiya | Biznes va tadbirkorlik savodxonligi | | yetakchilik va mas’uliyat |
| Fuqarolik (huquqiy) savodxonligi | Global ong | | Yaratuvchanlik |
| Salomatlik savodxonligi | | | |
| Ekologik savodxonligi | | | |

[2] Partnership21. Curriculum and Instruction: A 21st Century Skills Implementation Guide. The Partnership for 21st Century Skill, 2009. http://www.p21.org/storage/documents/p21-stateimp_curriculuminstruction.pdf.

[3] P21Partnership for 21st CenturyLearning http://www.battelleforkids.org/networks/p21 (Маълумотга эришилган тарих: 11.12.2021)

Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, o‘rta maktab bitiruvchilari egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalar bo‘yicha turli institutlar va tadqiqot markazlari tomonidan berilgan taklif va tavsiyalari orasida o‘xshashlik juda ko‘p. Aslida, buning sababi oddiy: dunyo miqiyosidagi o‘quvchi bitiruvchilarni keyingi ta’limlarida va ish hayotida qulaylik va teng imkoniyatlar yaratishdir.

Bu maqsadlarda yevropa Ittifoqi parlamenti va kengashi tomonidan 2008-yilda qabul qilingan va 2017 yilda yangilangan turli mamlakatlar va tizimlardagi malakalarni yanada tushunarli va shaffof qiladigan, milliy malaka standartlarini yevropa malakaviy doirasiga (European Qualifications Framework-EQF) havola qilish (referans) tavsiflari bo‘yicha qaror qabul qilgan edi[4]. EQF tufayli ish beruvchilar xorijiy malakalarni milliy malakalar bilan solishtirishlari va nomzodlarning malaka profillarini yaxshiroq tushunishlari mumkin. EQF qo‘shimcha o‘rganish yo‘lini osonlashtirish va mehnat bozorida ko‘nikmalarni yaxshiroq moslashtirishni rag‘batlantirish orqali odamlarga o‘z iste’dodlaridan foydalanishga yordam beradi”[5].

Umuman olganda, ingliz tilidagi tadqiqotlarda “Model Profile of a Future Graduate”(Kelajak bitiruvchisining namunaviy profili), rus tilidagi tadqiqotlarda “Модель выпускника” (Bitiruvchi modeli) ko‘rinishida uchraydigan tadqiqotlarda bitiruvchining qanday kompetensiyalarga ega bo‘lishlari kerakligi haqida fikr va yondashuvlar ilgari suriladi.

Yuqoridagi kompetensiyalarning barchasi muhim ahamiyatga ega, shu bilan birga, eng muhimi muammoni yechish/tanqidiy fikrlashdir. Ikkala ko‘nikma alohida yoki birgalikda ko‘rib chiqilishi mumkin, lekin ko‘pincha muammoni hal qiluvchi ayni paytda buyuk bir tanqidchi hamdir. Har qanday muammoning ikkita umumiy xususiyati bor: yechim va to‘siq. Tanqidiy fikrlaydigan kishi muammoni hal qilish uchun to‘siqni metodik ravishda yengib o‘tishga qodir bo‘ladi. Ehtimol, shuning uchun ish beruvchilar muammolarni hal qilish qobiliyatlarini juda yuqori baholaydilar. Muammoni hal qilish va uning asosiy tarkibiy qismlari, masalan, tanqidiy fikrlash deyarli har qanday ish yeriga mos keladi. Yozuvchi Luyus Eshman shunday deydi: “Sektor, sanoat yoki ish funksiyasidan qat’iy nazar, siz hal qilishingiz kerak bo‘lgan qiyinchiliklar va muammolar muntazam ravishda yuzaga keladi va ko‘pincha roldagi muvaffaqiyatingiz o‘lchovi bo‘ladi”. Dunyo tez o‘zgarib borayotgan bir paytda, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kelajak uchun asosiy ko‘nikmalar hisoblanadi[6].

O‘zbekistonda Xalq ta’limi vazirligi va A.Avloniy nomidagi ilmiy tadqiqot instituti tomonidan TALIS-2018 doirasida olib borilgan tadqiqotlarida ham tanqidiy fikrlashga alohida urg‘u berilganligini ta’kidlab o‘tish lozim. Unda tanqidiy fikrlash zamonaviy shaxsning juda muhim va kelajakdagi professional ko‘rinishi sifatida e’tirof etiladi. Ona tili o‘qituvchilari o‘quvchilardan tanqidiy fikrlashni talab qiladigan vazifalarni TALIS-2018 tadqiqotlaridagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan biroz kamroq berishi haqida ma’lum qilishgan bo‘lsa-da, aniq javoblari bo‘lmagan chalg‘ituvchi vazifalar berish bo‘yicha TALIS-2018 ko‘rsatkichlaridan 20% yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin (Qarang: Diagramma 1):[7]

Diagramma 1.O‘qituvchilar har doim yoki tez-tez o‘quvchilarga turlivazifalar berishi

[4] The EuropeanQualificationsFramework:supporting learning, work andcross-border mobility. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2018, p. 5.

[5] The EuropeanQualificationsFramework, o‘sha manba, 4 бет.

[6] Lauri King, Top 5 Skills o‘sha manba.

[7] RadjievA., KarimovF. va boshqalar. TALIS-2018 xalqaro tadqiqotlar talablari asosida o‘tkazilgan so‘rovnoma va tadqiqotning hisoboti. 1-qism. T.;, 2021. – 53-b.





Diagramma 1.da ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekistonda so‘rovnomada ishtirok etgan o‘qituvchilarning 60 foizi tanqidiy fikrlash muhim deb hisoblasa, bu Kolumbiyada 88 foizni ammo Yaponiyada 13 foizni tashkil qilmoqda. TALIS-2018 o‘rtacha ko‘rsatkichi 61 foizni tashkil etmoqda.

MDH davlatlari miqiyosida olib borilgan ilmiy ishlarda bitiruvchilar egallashi lozim bo‘lgan kompetensiyalar borasida ko‘plab fikr va yondashuvlar berilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Ularda bitiruvchi kompetensiyasining mazmun-mohiyati, bitiruvchi modeli, bitiruvchilarga qo‘yiladigan talablar va ularni o‘zlashtirish usullari kabi ko‘plab metodik ilmiy ishlar bajarilgan[8].

Bitiruvchi model – bu maktab faoliyatining asosiy yo‘nalishlari doirasida o‘quvchilarning harakatlanish darajasini belgilash[9], bitiruvchilar egallagan kompetensiyalarni hayotda tadbiq qilish ko‘nikmalarini ta’minlashdir.

Ta’lim tizimidagi har qanday ta’lim muassasasi bitiruvchisining modeli – bu umumiy ta’lim tizimi va xususan, ma’lum bir ta’lim muassasasi natijalarining o‘ziga xos ideal ifodasidir. Bu ma’lum bir ta’lim darajasiga mos keladigan ma’lum bir kasbiy va shaxsiy xususiyatlar va fazilatlarga ega bo‘lgan bitiruvchining sintezlangan qiyofasidir[10].

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, bitiruvchi modeli yaratilishi kerak. Modelni ishlab chiqish birinchi qadamdir. Keyingi qadam – bu modelni amalga oshirish mumkin bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish. Albatta, yuqori darajadagi bilimni ta’minlash, bu bilimlarni kompetensiyaga aylantirishi kerak. Maktab bitiruvchiga hayotning turli sohalariga

[8] СолодоваТ.Е. От компетентностной модели выпускника к компетентному выпускнику. Вестник ВолГУ. Серия 6. Вып. 11, 2008-2009. – С. 34-39; Носко Ирина В., Модель выпускника как основа формирования компетенций студентов в процессе вузовской подготовки. Автореф. дисс. на к.п.н., Владивосток, 2007.

[9] Деревянченко И.А., Модель компетентного выпускника современной образовательной организации, https://ik-ptz.ru/dictations-on-the-russian-language--class-3/model-vypusknika-sovremennoi-shkoly-vypusknik-shkoly-kakov-on-rol.html (Маълумотга эришилган тарих: 17.01.2021)

[10]Бирченко Е. В., Бондарь Т.И.и др. Интегрированная модельвыпускника инновационногоучебного заведения: Методическое пособие для преподавателей общеобразовательной и высшей школы ХГУ «НУА». Харьков: Издательство НУА, 2017. – С. 3.

moslashishga yordam beradigan malaka darajasini ta’minlashi kerak[11].

Voqelik va ko‘plab tadqiqot tajribalari shuni ko‘rsatadiki, asosiy (tayanch) bilimlar bilan birga, kommunikativ, ijtimoiy, huquqiy, psixologik, axborot va boshqa kompetensiyalarni o‘zlashtirgan shaxs jamiyatda o‘zini fuqaro, oila boshlig‘i, kasb egasi, madaniyat tashuvchisi sifatida muvaffaqiyatli namoyon eta oladi.

Shu bois, har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘zlari uchun “namunali bitiruvchi modeli” loyihasini ishlab chiqish taklif qilinadi. Loyihalashtirilayotgan modelda bir qator vazifalarni hal qilish ko‘zda tutilishi kerak: tanqidiy fikrlashni faol rivojlantirish, o‘quvchilarning bilim qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘z bilimlarini mustaqil nazorat qilish qobiliyatini shakllantirish, o‘quvchilarni ishontirish va o‘z dalillarini taqdim etish texnikasini o‘zlashtirish, samarali muloqot qilish, muzokaralar olib borish, muammo va nizolarni zo‘ravonliksiz hal qilish usullarini o‘rganish, jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish, o‘zlarini jamoa a’zosi sifatida his qilish, mas’uliyatni o‘z zimmalariga olish, mas’uliyat va javobgarlikni boshqalar bilan bo‘lisha olish, faoliyat natijalarini tahlil qilish, axborot manbalari bilan ishlash, munozaralar o‘tkazish, mulohaza yuritish, shaxsiy fikrlarni himoya qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish kerak bo‘ladi. Bu loyiha faoliyati natijasida, tanqidiy fikrlash, tashabbuskorlik, mustaqillik, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini rag‘batlantiradi[12].

Umuman olganda, ko‘plab davlatlarda umumiy o‘rta maktab bitiruvchilarining qiziqishlari va istaklari bilan ta’lim standartlari orasida tafovut mavjud. Bu bir tomondan zamonaviy davrda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan texnologiya va o‘quvchilarning qiziqishi va katta vaqtini olayotgan sotsial-media (Facebook, YouTube, Instagram, Tik Tok va boshqalar) muhitida eskirgan, standartlashtirilgan ta’lim tizimining jarayonlarni quvib yeta olmayotganligini bildirsa, boshqa tomondan zamonaviy texnika va texnologiyalarni tushunadigan kadrlarni yetishmasligi, global o‘zgarishlar asosida ta’lim islohotlarini vaqtida olib borilmasligi, davlatlar, mintaqalar orasida shart-sharoitlarning farqliligining ta’sirini ko‘rsatadi.

Shu bois, bugungi bitiruvchi, eng avvalo, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash uchun katta salohiyatga ega ijodkor shaxsdir. Shu sababli, umumta’lim tashkilotining kompetentli bitiruvchisining o‘ziga xos modelini yaratishda maktab, mahalliy va xorijiy (ta’kid muallif) olimlarning metodologiyasi asosida ishlab chiqishga tayanadi[13].

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: TDPU huzuridagi PKQTMO Tarmoq markazi, 2016. – B. 5-b.

2. Lauri King, Top 5 Skills Needed When Graduating from High School, March 7, 2020. https://maxpt.net/blog/top-5-skills-needed-when-graduating-from-high-school/

3. Partnership21. Curriculum and Instruction: A 21st Century Skills Implementation Guide. The Partnership for 21st Century Skill, 2009. http://www.p21.org/storage/documents/p21-stateimp_curriculuminstruction.pdf.

[11]Родоманченко И.И., Модель выпускника современной школы. Выпускник школы, каков он? Роль классного руководителя в развитии социально-адаптированной личности через формирование общечеловеческих ценностей. https://ik-ptz.ru/dictations-on-the-russian-language--class-3/model-vypusknika-sovremennoi-shkoly-vypusknik-shkoly-kakov-on-rol.html (Маълумотга эришилган тарих: 17.01.2021)

[12]Rodomanchenko I.I., o‘sha manba.

[12] Derevyanchenko I.A., o‘sha manba.

**Asqarbek QAYUMOV,**
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

# TA'LIMDA VIRTUAL TEXNOLOGIYALAR

**Annotatsiya**

Maqolada oliy ta'limni isloh qilish axborot, virtual va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida amalga oshirilayotgani bayon qilingan. Ta'lim ma'lumotlarini uzatish vositasi sifatida faol kompyuterlashtirish an'anaviy o'quv jarayonini takomillashtirishga yordam berishi hamda virtual texnologiyalarni o'z ichiga olgan ta'lim modelini boshqarishi xususida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar.** Oliy ta'lim, virtual texnologiya, islohotlar, model, kommunikatsiya, axborot, biokompyuter, virtual haqiqat.

В статье объясняется, что реформа высшего образования происходит в условиях стремительного развития информационных, виртуальных и коммуникационных технологий. Высказывались мнения, что активная компьютеризация как средство передачи образовательной информации может помочь улучшить традиционный процесс обучения, а также управлять образовательной моделью, включающей виртуальные технологии.

**Ключевые слова.** Высшее образование, виртуальные технологии, реформы, модель, коммуникация, информация, биокомпьютер, виртуальная реальность.

The article explains that the reform of higher education is taking place in the context of the rapid development of information, virtual and communication technologies. Opinions were expressed that active computerization as a means of transmitting educational information can help improve the traditional learning process, as well as manage an educational model that includes virtual technologies.

**Key words.** Higher education, virtual technologies, reforms, model, communication, information, biocomputer, virtual reality.

Oliy ta'limni isloh qilish axborot, virtual va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida amalga oshirilmoqda. Zamonaviy jamiyatning muhim omillari nafaqat kompyuter va boshqa axborot manbalarini bilish va ulardan foydalanish qobiliyati, balki ularni tahlil qilish va kundalik hayotda o'z rivojlanishi uchun qo'llash qobiliyatidir. Axborot texnologiyalarining ta'siri bugungi kunda yoshlar hayotida ayniqsa, muhimdir.

Zamonaviy ta'lim, xususan, oliy ta'lim axborotdan teng foydalanishni ta'minlash, oliy ta'lim tizimini uni olish uchun xavfsiz va zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlashga qaratilgan.

Yuqoridagi texnologiyalarni samarali integratsiyalashuvi ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, yangi bilimlarni uzluksiz egallashga intilishlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, o'rganish usullari, ta'lim jamoalari a'zolarining o'zaro ta'siri, ta'lim sikllarining mazmuni va o'quvchilarning roli o'zgaradi.

Ta'lim ma'lumotlarini uzatish vositasi sifatida faol kompyuterlashtirish an'anaviy o'quv jarayonini takomillashtirishga yordam beradi degan fikr zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlariga mos kelmaydi. Kvant kompyuterlari va nanotexnologi-

yalardan foydalanish tufayli ma’lumotlarning mavjudligi keskin ortib bormoqda.

Ta’lim sohasini isloh qilishning birinchi bosqichida zamonaviy virtual, axborot texnologiyalarini keng joriy etish o‘quv texnologiyasini yangilash orqali mumkin. Uning asosini insonning o‘ta ongli funksiyasining didaktik imkoniyatlarini dasturlarda loyihalash tufayli ta’lim texnologiyalari sohasida yutuqqa olib keladigan biokompyuter texnologiyalari tashkil etadi.

Virtual texnologiyalar va virtual haqiqatni o‘z ichiga olgan ta’lim modeli bilimlarni o‘zlashtirishni interaktiv boshqarishni ta’minlaydi. Turli materiallarni qo‘llash: bilim bazalari (ma’ruza gipermatnlari); ma’lumotlar banki (nazorat va sertifikatlash testlari), fikr-mulohazalar bilan o‘qitish va sinov dasturlari, o‘quv vazifalarini o‘rganish va loyihalashdan virtual haqiqatdan foydalangan holda mustaqil ish.

E’tibor bering, virtual texnologiyalardan foydalanish talabalarning faol mustaqil ishlariga asoslangan; o‘quv dasturlari; virtual ta’lim maydoni va virtual haqiqat.

Biokompyuterdan foydalangan holda virtual ta’lim jarayonlari real obyektlarning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida ifodalanishi mumkin va agar ulardan biri yoki bir nechtasi o‘zaro ta’sir subyekti sifatida harakat qilsa, u holda bunday o‘zaro ta’sir virtual holatning manbai bo‘ladi. Haqiqiy subyektlarning virtual holati natijasida yuzaga keladigan ichki sifatlarning o‘zgarishi ta’lim jarayonini tavsiflaydi.

Virtual ta’lim jarayoni tegishli virtual makonda sodir bo‘ladi, uning xususiyati aniqlanadi: birinchidan, unda virtual obyektlar mavjudligi; ikkinchidan, o‘zaro ta’sir subyektlari uchun oldingi aniqlik; uchinchidan, u yaratgan o‘ziga xos virtual ta’lim maydonidagi har bir o‘zaro ta’sirning o‘ziga xosligi. Virtual ta’lim maydonining mavjudligi o‘qituvchilar va talabalar va ta’lim muassasalarining muloqoti bilan mumkin.

Virtual ta’lim makonida muloqot ishtirokchisini barqarorlashtirish omili bo‘lgan subyektning ijobiy ijtimoiy o‘ziga xosligini izlash va qo‘llab-quvvatlash amalga oshiriladi. Virtual holatlarni aniqlash va yoritishning asosiy usuli – bu obyektlar dunyosining shaffofligini, obyektga yaqinlik, ilhomni his qilish, tushunish, his qilish. Virtual holatlar subyekt va uning psixikasi, tanasi va ruhi o‘rtasidagi vositachilardir.

Virtual ta’lim jarayoni – o‘qituvchilar, talabalar va o‘rganilayotgan obyektlarning odatiy o‘zaro ta’sirida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ta’lim shakllaridan biri. Ta’limning axborot mazmuni jihati: bilim - ko‘nikma - tajriba biokompyuterning didaktik komponentlarini va sxema bo‘yicha o‘zaro ta’sir qiluvchi virtual modellarni bog‘laydi; xabardorlik - tushunish - konkretlashtirish - qo‘llash.

Virtual ta’lim modeli asosiy komponent sifatida ma’lumotni maxsus ta’lim axborot muhitida (virtual) uzatishni ta’minlaydi.

Har bir subyekt tomonidan mustaqil ravishda quriladigan individual virtual ta’lim ijtimoiy tarmog‘i sotsializatsiya omiliga, psixologik muammolarni yaratish va hal qilish vositasiga, muloqotning yangi madaniy normalarini ishlab chiqish vositasiga aylanadi.

Virtual ta’lim jarayoni o‘zi tanlagan sohalarda o‘zining individual mohiyatiga nisbatan rivojlanadigan shaxsning shaxsiy ta’lim salohiyatidan foydalanadi. Fanning virtual ta’lim maydoni – bu uning tashqi dunyoga tarqaladigan darajalarining o‘zaro bog‘liqligi: intellektual, hissiy tasavvur, madaniy, tarixiy, ijtimoiy va boshqalar. Kengayish jarayoni o‘zining jismoniy his-tuyg‘ularini, o‘z-o‘zini bilishini, tashqi va ichki o‘zaro kirib borishini ishlatadigan subyektning faoliyati natijasida yuzaga keladi.

Virtual haqiqat subyektning o‘zini namoyon qilishiga erkinlik beradigan va o‘zgartiradigan asosiy tushunchalarning jarayoni va tuzilishi bilan o‘zaro ta’sirni ta’minlaydi. U barcha his-tuyg‘ularga, tasavvurlarga, ijodiy imkoniyatlarga ta’sir qiladi va intellektning sifat

jihatidan yangi rivojlanishiga yordam beradi. Virtual voqelik sohasida ong polimentallik xususiyatiga ega bo‘lib, oddiy reallikdan virtual voqelikka va aksincha doimiy o‘tishlar natijasida borliq ikki tomonlama bo‘ladi.

Axborot jamiyati o‘ta ongli funksiyadan foydalanib, inson ongi va hayotiga tubdan ta’sir qiladi. Uning uchun virtual texnologiyalar mavjud va u o‘ta ong va ong yordamida o‘z ustida ishlashga qodir. Axborot jamiyati o‘ta ongli funksiyadan foydalanib, inson ongi va hayotiga tubdan ta’sir qiladi. Uning uchun virtual texnologiyalar mavjud va u o‘ta ong va ong yordamida o‘z ustida ishlashga qodir.

Virtual texnologiyalar, virtual voqelik ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida uchinchi ming yillik shaxsining aqliy dunyosi, madaniyati va ma’naviyatiga ta’sir etuvchi kognitiv faoliyatning muhim vositasidir.

Ta’lim islohoti yangi bioaxborot, virtual texnologiyalar tufayli axborot jamiyatiga o‘quvchilar o‘rtasida aql-zakovatni shakllantirish va ijodkorlikni rivojlantirishni joriy etish imkonini beradi. Ammo bugungi kunda, virtual texnologiyalar rivojlanishining dastlabki bosqichlarida ularni ijtimoiy va ma’naviy nazorat ostiga olish kerak. Yangi ta’lim strategiyalari hamda virtual va bioaxborot texnologiyalarining jamiyatdagi o‘rni va rolini anglash o‘quvchilarning ta’lim olish davrining qisqarishiga, ta’lim mazmunining o‘zgarishiga olib keladi.

Virtual haqiqat (VR, inglizcha virtual reality, VR, sun’iy reallik) – texnik vositalar yordamida yaratilgan, insonga uning sezgilari: ko‘rish, eshitish, teginish va boshqalar orqali uzatiladigan dunyo. Virtual haqiqat ham ta’sir qilishni, ham ta’sirga javoblarni simulyatsiya qiladi. Haqiqat tuyg‘ularining ishonchli kompleksini yaratish uchun real vaqt rejimida virtual haqiqat xususiyatlari va reaksiyalarining kompyuter sintezi amalga oshiriladi.

Virtual haqiqat obyektlari odatda o‘zini moddiy voqelikning o‘xshash obyektlarining xatti-harakatlariga yaqin tutadi. Foydalanuvchi ushbu obyektlarga fizikaning haqiqiy qonunlariga (tortishish kuchi, suv xossalari, jismlar bilan to‘qnashuv, aks ettirish va boshqalar) muvofiq ta’sir qilishi mumkin. Biroq, ko‘pincha ko‘ngilochar maqsadlarda virtual olam foydalanuvchilariga real hayotda mumkin bo‘lganidan ko‘ra ko‘proq ruxsat beriladi (masalan: uchish, har qanday obyektlarni yaratish va h.k.).

Virtual haqiqatni kengaytirilgan haqiqat bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Ularning asosiy farqi shundaki, virtual haqiqat yangi sun’iy dunyoni quradi, to‘ldirilgan reallik esa real dunyoni idrok etishda faqat individual sun’iy elementlarni kiritadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mamatova Ya., Sulaymonova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. 2015-y.

2. Александр Федоров МЕДИАОБРАЗОВАНИЕ: ИСТОРИЯ И ТЕОРИЯ УЧЕБНОЕ ПОСОБИЕ ДЛЯ ВУЗОВ. 2015 г.

**Sherzodjon RO‘ZALIYEV,**
Farg‘ona davlat universiteti, “Matematika” kafedrasi o‘qituvchisi

# TALABALARNING BO‘LAJAK KASBIY MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA GEYMIFIKATSIYADAN FOYDALANISH

**Annotatsiya**

Maqolada talabalarning bo‘lajak kasbiy malakalarini rivojlantirishda geymifikatsiyadan foydalanish, ularga informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish masalalari yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Uzluksiz ta’lim, raqamli texnologiyalar, shaxs, geym, kompyuterli o‘yin, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

В статье представлена информация по вопросам использования геймификации в развитии будущей профессиональной квалификации студентов, повышения эффективности образовательного процесса при обучении их информатике и информационным технологиям.

**Ключевые слова.** Непрерывное образование, цифровые технологии, личность, геймплей, компьютерные игры, информационные и коммуникационные технологии.

The article presents information on the use of gamification in the development of future professional qualifications of students, improving the effectiveness of the educational process in teaching them computer science and information technology.

**Key words.** Continuing education, digital technologies, personality, gameplay, computer games, information and communication technologies.

Dunyodagi oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichi mazmuni va metodikasiga, uning samaradorligini oshirishga sifat jihatdan yangi talablar qo‘ymoqda. Xususan, Bolonya jarayoni doirasida o‘qitishning faol va interfaol shakllari variantivligini ta’minlash, kompetentli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirish muammosini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Sarbon deklaratsiyasi (Sorbonne Declaration), Ta’lim barcha uchun (yeducation For All(EFA)), Ming yillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals (MDGs)), Jahon ta’lim forumi (World Education Forum) va Lissabon Konvensiyalari kompetentli yondashuv asosida malakali ijodkor kadrlar tayyorlash yo‘nalishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalarning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan keng foydalanish, ta’lim jarayoniga ularni tatbiq qilish orqali tahsil oluvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini oshirish hamda fan-texnologiyalarning so‘nggi yutuqlarini ta’lim jarayoniga joriy etishni talab etmoqda. Shuningdek, yangi mazmundagi didaktik shakllardan foydalanish, innovatsion tavsifdagi ta’lim vositalarini amaliyotga qo‘llash, tahsil oluvchilarda motivatsion va kognitiv qiziqish doiralarini kengaytirishga ehtiyoj mavjud. Bu esa, ta’lim jarayonida akademik bilimlarni o‘zlashtirishga mo‘ljallangan geymifikatsiya texnologiyalarini tashkil etishni taqozo etadi.

Tahsil oluvchilarda axborotlar bilan ishlash, “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan kompetensiyalarni shakllantirish, ushbu o‘quv kursining boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligini ilmiy nuqtai nazardan asoslab berish fanni o‘qitishning nazariy, amaliy va metodik asoslarini mustahkamlash bo‘yicha ham ilmiy tadqiqotlarga alohida

e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim jarayonini tashkil etishda ilg‘or pedagogik uslub va texnologiyalar, multimedia taqdimotlarini qo‘llashga katta e’tibor qaratilib, ilg‘or xorij tajribalarini chuqur o‘rganish, ta’lim jarayonini yangi mazmunda loyihalashtirish uchun yangi o‘quv rejalari va dasturlarini qaytadan ishlab chiqish va shu asosda informatikani o‘qitishda salmoqli vazifalar ijrosini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta’lim tizimidagi pedagogik jarayonning bosh xususiyatlaridan biri uning raqamlashtirilishi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-sonli qarorda ham pedagog kadrlar salohiyati, ularning ta’lim tizimidagi innovatsion o‘zgarishlarni amalga oshirishga tayyor bo‘lishi zarurligi masalasi ta’kidlanadi. Shuningdek, mazkur hujjatlarni amalga oshirish bo‘yicha ta’lim tizimida rejalashtirilgan ishlar va tadbirlar majmui raqamli texnologiyalarning mamlakatimiz hayotiga keng kirib borayotganligidan dalolat beradi. Informatikani o‘qitishda raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi talabalarda o‘quv-biluv faoliyatga motivatsiyani kuchaytiruvchi stimul bo‘lib hisoblanadi.

Geymifikatsiya yordamida informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishda asosiy e’tibor kompyuterli o‘yin shaklidagi o‘quv faoliyatiga yo‘naltiriladi va o‘quv materialini to‘liq idrok qilish, topshiriqlar, misollar yordamida nazariy materialni yaxshiroq o‘zlashtirish va tushunishga, talaba tomonidan nazariyani amaliyotga qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratiladi.

Geymifikatsiya yordamida informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishda talabalarning bo‘lajak kasbiy malakalarini rivojlantirisho‘quv-bilish vaziyati xarakteriga ko‘ra muntazam, rivojlanuvchi, jarayonli faoliyat bo‘lib hisoblanadi. Ushbu pedagogik jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlash uchun o‘qituvchi va talabalarning xohish-irodasi, ongliligi, faolligi muhim ahamiyatga ega.

Shaxsning kasbiy malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish didaktik muammo bo‘lib, ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan uzluksiz davomli jarayondir. Shunga ko‘ra, informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishda geymifikatsiya samarali ekanligi nazariy tahlillar asosida aniqlandi.

Geymifikatsiya texnologiyalari asosida didaktik jarayonlarni metodik tashkil etishda individual yondashuvning asosiy vazifalaridan biri informatika o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini bosqichma-bosqich rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘qituvchi uchun individual maqsadlarni va ularga erishish bosqichlarini belgilash, ularni o‘z faoliyatlarini muvaffaqiyatli tashkil qilishga sabab bo‘ladi.

“O‘qituvchi ishini boyitish prinsipi kasbiy qiziqishni uyg‘otish va uning professional ishonchini qo‘llab-quvvatlash orqali o‘qituvchining kasbiy faoliyatini diversifikatsiya qilishga intilishini kuchaytirishdir. Ushbu prinsipning ba’zi talablari quyidagilar bilan izohlanadi. Bular:o‘qituvchilarga hozirgi va kelajakdagi kasbiy ehtiyojlari to‘g‘risida maslahat berish; o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga jalb qilish uchun sharoit yaratish; ta’lim muassasalarida ijodiy ishlaydigan o‘qituvchilar mashg‘ulotlariga tashrif buyurishni tashkil qilish; o‘quv faoliyati uslublari muammolari bo‘yicha seminarlar, ‘‘davra suhbatlari’’ o‘tkazish; o‘qituvchilarning malakasini oshirishni nazorat qilish”.

Geymifikatsiya texnologiyalari asosida didaktik jarayonlarni metodik tashkil etishda shaxsiy rag‘batlantirish prinsipi ta’lim subyektlarining mehnatga bo‘lgan shaxsiy qiziqishi-

ni ta’minlaydi, o‘quv muassasasi va jamoaga ma’lum majburiyatlarni qabul qilishga yordam beradi. Buni ushbu prinsipdan kelib chiqadigan ba’zi talablar tasdiqlaydi:

– pedagogik jarayonlarni boshqaruvchi har bir rahbar moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishni o‘z ichiga olgan puxta o‘ylangan rag‘batlantirish tizimiga ega bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, shuni esda tutish kerakki, xushmuomalalik, tabassum, rahbarning e’tiborli va sezgir munosabati ham xodimlar uchun juda samarali rag‘batdir;

– informatika o‘qituvchisining ta’lim subyektlari bilan olib boradigan barcha ishlari ularning faoliyatini rag‘batlantirishga asoslanishi kerak: o‘qish uchun sharoit yaratish, o‘zaro qoniqish muhitini yaratish, ijodiy faoliyat tizimini yaratish, o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun sharoit yaratish va boshqalar.

Geymifikatsiya texnologiyalari asosida didaktik jarayonlarni metodik tashkil etishda konsensus prinsipini amalga oshirish talabalarga mustaqil fikrlar va turli nuqtayi nazarlarni shakllantirish sharoitida jamoani kelishib olishga, ta’lim subyektlarini qarama-qarshilikdan yiroq bo‘lgan hamkorlikdagi faoliyat olib borishga imkon beradi. Ushbu prinsipning ba’zi talablari: konsensus muammoni muhokama qilish yoki qaror qabul qilishda jamoa a’zolarining nuqtai nazarlarini obyektiv baholashga asoslanishi kerak; o‘z fikrini jamoada “tanqidiy ko‘pchilik” tomonidan qabul qilinishi uchun aniq va mantiqiy ravishda bahslashishi kerak.

“Jamoaviy qarorlarni qabul qilish prinsipi pedagoglarning faqat ijrochilar sifatida emas, tashkil eta olish layoqatiga ega xodim sifatida tan olinishlari, boshqaruvni demokratlashtirish vositalari asosida tashkil qilishni bildiradi”. Prinsipning ba’zi talablari:

– har qanday qarorni jamoaviy ravishda qabul qilish shart emas (bu operatsion holatlarga, odatiy va takroriy holatlarga tegishli). Birgalikda, ta’lim muassasasining hayotida muhim rol o‘ynaydigan (mashg‘ulot maqsadini, rejasini muhokama qilish, ish tartibini belgilash, rivojlanish dasturini qabul qilish va boshqalar) jamoaning deyarli har bir a’zosiga tegishli qarorlar qabul qilinadi;

– jamoaning har bir a’zosi bunday qaror qabul qilinadigan ma’lumotlar bilan tanishishi kerak.

Oliy ta’lim muassasalarida didaktik jarayonlarni metodik tashkil etishda gorizontal aloqalar prinsipi barcha professor-o‘qituvchilar tarkibidagi aloqalarni o‘rnatishni, ma’lumot, tajriba almashishni ta’minlaydi.

Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishning nazariy-metodologik asosini tizimli, funksional, sinergetik, faoliyatli, vaziyatli, refleksiv va natijaga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi.

Ta’kidlash joizki, olimlar tomonidan Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitish modellarini ishlab chiqishda qaysidir yondashuvlar alohida qo‘llanilmasdan, ularning turli kombinatsiyalari ishlatiladi, chunki mazkur yondashuvlarning har biri ta’lim tizimidagi jarayonlar mohiyatini tushunib yetishda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning muayyan bir jihatlarini yoritishga yordam beradi.

Bugungi kunda Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishda quyidagi didaktik tizimlar mavjud:

1. Klassik ma’ruza mashg‘ulotlari.
2. Audiovizual texnik vositalar yordamida o‘qitish.
3. “Dasturiy ta’minotni o‘qitish", buning uchun oldindan tuzilgan dastur mavjud.
4. “Maslahatchi” tizimi.
5. O‘quv kitobi yordamida o‘rganish.
6. Kompyuterli o‘qitish.

7. “Repetitor” tizimi – individual mashg‘ulotlar.

8. Maqsadlar bilan mashq qilish va boshqalar.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, bilimlarni tizimli va izchil o‘zlashtirish qoidasi ta’limning izchil va tushunarliligi qoidalari bilan bog‘liq.

Shunday qilib, geymifikatsiya yordamida informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishda talabalarda bo‘lajak kasbiy malakalarni rivojlantirish uchun ularning bilish faoliyatini rivojlantirish, qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalari (ZTT), kompyuter, Internet, EAR imkoniyatlaridan foydalanish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish; taqdim qilingan o‘quv materialidagi muhim g‘oyalarni saralash, tahlil qilish, qiyoslash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish; dars samaradorligini oshirish, o‘rganilayotgan o‘quv faniga ZPT orqali motivatsiya hosil qilishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil-oktabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-4851- sonli Qarori // https://www.lex.uz/acts/3893445

2. Abdullaev F., Shavkiyeva D. Ta’lim tizimiga geymifikatsiyani tatbiq qilish. Monografiya. – T.: Moliya, 2019, – 102-b.

3. Djuraev R.X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. –T., 2010. – 87-b.

4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma –T., 2015. – 208-b.

5. Ro‘zaliyev Sh.A. Geymifikatsiya texnologiyalari asosida didaktik jarayonlarni modellashtirish. “Tillarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash zamonaviy ta’lim muhitini tashkil etish vositasi sifatida: muammolar va yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy ishlar to‘plami. – T., 2022. – 307-309-b.

**Zilolaxon MAMATOVA,**
Farg‘ona davlat universiteti, ‘‘Amaliy matematika va informatika” kafedrasi o‘qituvchisi

# INFORMATIKANI O‘QITISHDA AXBOROT TA’LIMIY RESURSLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

**Annotatsiya**

Maqolada informatikani o‘qitishda elektron ta’lim resurslari, zamonaviy raqamli elektron qurilmalar, interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanish, shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning malakalarini o‘stirishni ta’minlash haqida ma’lumotlar keltirilgan.
**Kalit so‘zlar.** Axborot-kommunikatsiya, ta’lim jarayoni, informatikani o‘qitish, tahsil oluvchi, axborot, bilim, ko‘nikma, malaka, rivojlanish.

В статье представлена информация о задачах обучения информатики с помощью электронных ресурсов, применении информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе; развитии компетентности студентов в обучении информатике, обеспечивающая развитие будущих навыков по специальности.
**Ключевые слова.** Информация, коммуникация, образовательный процесс, обучение информатике, обучающийся, знание, умение, навыки, развитие.

The article provides information about the tasks of teaching informatics with the help of electronic resources, the use of information and communication technologies in the educational process; development of students' competence in teaching computer science, ensuring the development future skills in their specialty.
**Key words.** Information, communication, educational process, teaching computer science, student, knowledge, skill, skills, development.

Dunyo hamjamiyati ta’lim tizimini barqaror tarraqqiyot tendensiyalariga moslashtirish sharoitida Informatikani o‘qitishning interaktiv ta’lim strategiyalari va mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jadal olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar kelajakda yangi fan yo‘nalishlarining hosil bo‘lishida, mavjud ta’limiy jarayonlarni axborotlashgan ta’lim muhiti bilan integratsiyalashning pedagogik-psixologik muammolarini yechishda alohida dolzarblik kasb etadi.

Informatikani o‘qitishda elektron ta’lim resurslari, zamonaviy raqamli elektron qurilmalar, interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanish, shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning malakalarini o‘stirish, kreativ ijodiy qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Har qanday mexanizm obyekt o‘zgarishiga olib keluvchi jarayonni hosil qiladi. Demak, bu jarayon uzoq muddatli, ko‘p xususiyatlilik tavsifiga ega bo‘lib, tarkibiy tuzilishiga ko‘ra, bir tuzilma ikkinchisini to‘ldiradi. Obyektning o‘zgarishigi ta’sir etuvchi muqobillarni harakatga keltiruvchi mexanizm o‘zi o‘zgarmasdan yaxlit jarayonni o‘zgartirishi, muayyan tizimga yangilik kiritishi mumkin. Demak, informatika va raqamli texnologiyalardan mashg‘ulotlarda talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda axborot ta’limiy resurslardan foydalanish ta’lim subyektlarining sifatli ta’lim olishiga ta’sir etuvchi muqobillarni harakatga keltiruvchi mexanizm sifatida qaraladi.

Mamlakatimiz OTMlarida axborotlashgan ta’lim muhitini yaratish, o‘quv fanlariga mo‘ljallangan multimediali ilovalarni keng joriy etish va yangi avlod o‘quv-metodik adabiyotlar bazasini xalqaro ta’lim standartlariga, ta’lim sifatini baholashning xalqaro

dasturlari tizimiga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ‘‘Ta’limda multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo‘llash jarayonini tizimli tashkil etish choralarini ko‘rish’’ kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa OTMlarda auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni interaktiv elektron ta’limiy resurslar vositasida tashkil etilishini ta’minlaydi.

“Resurs” iborasi hozirgi vaqtda juda keng ma’noda ishlatiladigan atamalar sirasiga kirib bormoqda. Ya’ni axborot texnologiya vositalari orasida maqbul atamadan keng foydalanilmoqda. Shu bilan birga “Ta’lim resursi” atamasi ham hozirda tez-tez qo‘llaniladigan pedagogik atama sifatida ishlatilmoqda. U o‘quv jarayoni davomida bilim olishda foydalaniladigan turli xil ko‘rinish va shakllardagi o‘quv materiallari manbasi tushuniladi. Boshqacha aytganda, ta’lim resursi – o‘quv jarayonida foydalaniladigan axborotlar manbasi sifatida ham tan olish to‘g‘riroq bo‘ladi.

Zamonaviy axborot yoki elektron ta’lim resurslari, o‘rganish, mustaqil ta’lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus dasturlar birgalikda ‘‘Elektron ta’lim resurslari’’ni tashkil etadi. Elektron ta’lim resurslari deganda, foydalanuvchi, ya’ni ta’lim oluvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda avtomatik rostlanish imkonini beruvchi, egallangan bilimni avtomatik nazorat kilish tizimi bilan birlashgan o‘quv materiallarini uzatish (yetkazish) tizimi tushuniladi.

Elektron resurslarni ta’lim bosqichlarida foydalanish ko‘rsatkichlariga qarab tasniflash xarakterlidir. Elektron ta’lim resurslari (ETR) tasnifiy bosqichlariga ko‘ra an’anaviy bosma nashrlardan farq qiladi. Ularni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

Birinchi guruh – ETR bu – matnli usul bo‘lib, asosiy matndan farqi – tayyorlangan matn yoki illyustratsiya qog‘ozda emas, balki kompyuter ekranida namoyon bo‘ladi va materiallarni oson chop etish imkoniyati mavjudligi bilan farqlanadi.

Informatika va raqamli texnologiyalar o‘quv kursida o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha namoyish dasturlarida, o‘quv matnining belgilarini rasm, grafika, tasvir, animatsiya holatida ifodalash bilan birgalikda kompyuter ekranida namoyish etilishi va undagi namoyish kadrlarini zaruriyat tug‘ilganda chop etish mumkin bo‘ladi.

Ikkinchi guruh ham matn mazmunidagi material bo‘lib, ko‘rsatkichli yo‘nalish asosida elektron ta’limiy resurs (ETR) hisoblanadi. Bu usulda matnli asosli va mazmunli bo‘lishi uchun adabiyotlarga qilingan havolalardan foydalanish har doim ham qulay foydalanish imkoniyatini yaratmaydi. Lekin shunday bo‘lsa ham, pedagogika oliy ta’lim muassasalarining 2-bosqichida o‘qitilayotgan Informatika va raqamli texnologiyalar o‘quv kursida mavzular bo‘yicha berilgan matndagi ma’lumotlarni, belgilarini o‘rganish, xilma-xilligi, turkum va turlarining axboriy belgisi bilan bog‘liq ma’lumotlarni ETR larida jamlash muhimdir.

Ilmiy manbalar, darslik, metodik qo‘llanmalardan berilgan havolalar bilan boyitilgan elektron ta’lim resursi talabalarga mavzuga oid o‘quv materiali mazmunidagi BKM o‘zlashtirishi, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni egallashiga yordam beradi.

ETR ning uchinchi guruhi – resurs to‘liq vizual va ovozli fragmentlardan tashkil topadi. Bunda yuqorida ta’kidlangan matnli resurslardan tasvir effektlari mavjudligi bilan farq qiladi. Bu holatda Informatika va raqamli texnologiyalar o‘quv kursida mashg‘ulotlar uchun tasvirlar, grafika, rasmlar jamlanmasi talabalarning o‘rganilayotgan o‘quv materialini to‘liq o‘zlashtirish imkonini beradi. Mazkur jarayonda matn bilan birgalikda audio-video materiallarni mo‘jassam tashkil etish multimedia resurslarini yaratish imkoniyatini beradi. Bu guruhga mansub ETRi vositasida ovozli, harakatli, rasmli jamlanmani talabalarga yetkazish imkoniyati vujudga keladi. Unda mavzu bo‘yicha mazmunan qiziqarli va ko‘p ma’lumotlarni berishga imkoniyat yaratiladi.


Raqamli ta’lim resurslari – zamonaviy texnik vositalar bo‘lib, ular talabalarning bilimlarini oshirish va sifatini oshirishga mo‘ljallangan. Ushbu manbalarni o‘quv jarayoniga kiritish talabalarning ijobiy o‘rganish motivatsiyasini shakllantiradi, ijodiy bilish

faoliyatini, mustaqil ta’limga bo‘lgan ehtiyojini rag‘batlantiradi (1-rasm).

Biz tadqiqot doirasida (2019-2020 yy.) 2-bosqich talabalarining 1-o‘quv semestrida kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda axborot (elektron) ta’limiy resurslar mazmuniga turli interfaol metodlarni kiritishga muyassar bo‘ldik.

Informatika va raqamli texnologiyalar o‘quv kursi bo‘yicha tashkil etilgan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda axborot ta’limiy resurslar mazmuniga singdirilgan turli elektron tarzda amalga oshirilgan grafik organayzerlardan foydalanish uchun talabalar kichik guruhlarga biriktirildi. Guruhlar o‘zlariga berilgan topshiriqni bajarib, guruhlar muammo yuzasidan bajargan topshiriqlarni jamoa hukmiga havola etdi. Shuningdek, talabalarning kelgusidagi kasbiy layoqatini rivojlantirish uchun auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda “SWOT-tahlil”, “T-jadval”, “Munosabat”, “Nilufar guli”, “Rezyume” kabi metodlari

1-расм.




1-rasm. Informatika va raqamli texnologiyalar o‘quv kursida axborot (elektron)

Rasmda ifodalanganidek, o‘rganilayotgan matn imitatsion modeli raqamli holatda talabalarga taqdim etilsa, malaka talablarida belgilangan kompetensiyalarni egallashga imkoniyat yaratiladi.

Shuningdek, ta’lim jarayonidagi kompetensiyaviy yondashuv ham o‘rganilayotgan jarayonda talaba shaxsini operativ aloqaga kirishishi, elektron resurs mahsulotlaridan foydalanish va qo‘llash ko‘nikmalarini oson o‘zlashtira olishga yo‘naltirilishiga olib keladi. Talabalarning elektron mahsulotlardan ta’lim jarayonida foydalana olishlari natijasida axborotlar bilan ishlash kompetensiyalari ham rivojlanib boradi.

Interfaol metodlar talabalar tomonidan mavzu bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o‘z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘quv jarayonida ushbu metodlardan foydalanish o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha muayyan masalalarni hal etish, ma’lum jarayon (voqelik, hodisa) ning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo‘llarini topish asosida ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikma, malakalarini hosil qiladi. Ushbu metodlar kasbiy auditiv layoqatni rivojlantirish uchun samarali bo‘lib hisoblanadi. Masalan, ETR negizida “Nilufar” metodi nilufar guli sxemasi ko‘rinishida taqdim etiladi. Asos, unga birikkan to‘qqizta “gulbarg” (kvadrat, to‘rtburchak yoki aylanalar)larni o‘z ichiga oladigan bu sxema yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi. “Rezyume” metodi ta’lim oluvchilar tomonidan muayyan bo‘lim yoki informatikani o‘qitish bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llash ta’lim oluvchilardan o‘rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o‘zlashtirish, asosiy g‘oyalarni umumlashtirish, ma’lum tizimga solish layoqatiga ega bo‘lishni taqozo etadi. Metod ta’lim oluvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi. Uni ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo‘llash yanada samarali hisoblanadi. Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, ta’lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, informatika sohasi mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.

“SWOT-tahlil” strategiyasi muammoning asosiy to‘rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Ta’lim oluvchilar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o‘rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

“T-jadval” tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko‘ra batafsil yoritish maqsadida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda grafik organayzer mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo‘llaniladi.

Shunday qilib, Informatika va raqamli texnologiyalar o‘quv kursida talabalarning layoqatini axborot ta’limiy resurslar vositasida rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiya samarali ekanligi tajriba-tadqiqotlar mobaynida o‘z tasdig‘ini topdi. Talabalarning mazkur texnologiya asosida o‘qitish natijasida ularda mavzular yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyati shakllantirildi. ETRni qo‘llash natijasida talabalarning kasbiy layoqati rivojlandi hamda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma’lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil

qilish ko‘nikmalari shakllantirildi.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimidagi amaldagi axborotlashgan ta’lim muhitining alohida komponentlari bo‘lgan axborot tizimlari, ma’lumotlar banklari, pedagog va talabalarning veb-saytlari, axborot resurs markazlari, elektron axborot-ta’lim resurslari, virtual laboratoriyalar, media va videodarslar, elektron hujjatlar almashinuv tizimi, videokonferensiya aloqalari, intranet tarmog‘idagi onlayn tanlovlar tizimdagi barcha ishtirokchilarni faol foydalanuvchilarga aylanishiga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga keng joriy etilishiga xizmat qildi.

Talabalarning kelgusidagi kasbiy malakalarini rivojlantirish uchun mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan axborot ta’limiy resurslar mazmuniga singdirilgan turli elektron tarzda amalga oshirilgan grafik organayzerlar, metodlar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. Shuningdek, ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Unga ko‘ra, mashg‘ulotlarda talabalarda kasbiy layoqat rivojlantiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 5-martdagi Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani Isoqxon Ibrat nomidagi maktab-internatiga tashrifidagi nutqi. Elektron resurs: http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-okhon-t-ra-ibrat-mazhm. Murojaat sanasi: 05.07.2019 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019-y.

3. Abdullayeva Sh.A. Use of Pedagogical Diagnostic Methods in Secondary Education/ International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 09,2020 ISSN:1475-7192.

4. Абдуллаева Ш.А.Совершенствование качества образования в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров. -Белгород: Ж.:Практическая психология и педагогика, 2019.– №4. С.– 17-20.

**Muhabbat TAYIROVA,**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
Toshkent iqtisodiyot va sanoat texnikumi o‘qituvchisi

# INFORMATIKA FANINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

**Annotatsiya**

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim tizimida informatika fanini o‘qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanishning nazariy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Multimedia o‘quv qurollarining tasniflarini va ulardan foydalanishning pedagogik shartlarini yetarlicha batafsil ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Multimedia, multimedia ta’limi, multimedia resurslari, elektron ta’lim tizimlari, vizual materiallar, avtomatlashtirilgan ta’lim tizimlari, multimedia ta’lim vositalari.

В статье рассматриваются теоретические аспекты использования мультимедийных технологий в обучении информатике в системе общего среднего образования. Достаточно подробно излагаются классификации мультимедийных средств обучения и педагогические условия их применения.

**Ключевые слова.** Мультимедиа, мультимедийное образование, мультимедийные ресурсы, системы электронного обучения, наглядные материалы, автоматизированные образовательные системы, мультимедийные образовательные инструменты.

The article examines the theoretical aspects of the use of multimedia technologies in teaching computer science in the general secondary education system. The classifications of multimedia teaching aids and the pedagogical conditions for their use are explained in sufficient detail.

**Key words.** Multimedia, multimedia education, multimedia resources, e-learning systems, visual materials, automated educational systems, expert educational systems, multimedia educational tools.

Respublikamizdagi media-ta’lim holatini o‘rganar ekanmiz, biz axborot jamiyati davrida yosh avlodni hayotga tayyorlash muammosi umumiy va kasbiy ta’lim kontekstida kam yangilangan degan xulosaga keldik.

Mavjud vaziyatni quyidagi sabablar tushuntiradi:

► media-ta’lim mazmuni va vazifalarini belgilash bo‘yicha kelishmovchiliklar, muammoni hal qilishda texnik yondashuvning keng tarqalganligi;

► muammoni hal etishda uslubiy yordamning yetishmasligi;

► ko‘plab o‘quvchilarning yangi axborot voqeliklari va media ta’lim g‘oyalarini idrok etishga tayyor emasligi;

► o‘quvchilarni media ta’lim vazifalarini amalga oshirishga tayyorlash tizimning yo‘qligi.

O‘quvchilarning media madaniyati va uning rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan nazariy ishlanmalar yetarli emas. Ilmiy adabiyotlarda media-madaniyat elementlarini rivojlantirishning alohida yo‘llari ko‘rib chiqiladi, ammo tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, yaxlit yondashuv ko‘rsatilmagan.

Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining bir necha asosiy turlari qo‘llaniladi. Ular orasida:

► avtomatlashtirilgan ta’lim tizimlari (ATT);
► ekspert ta’lim tizimlari (ETT);
► o‘quv ma’lumotlar bazalari;
► ta’lim bilimlari bazalari;
► multimedia tizimlari;
► virtual reallik tizimlari;
► o‘quv kompyuter telekommunikatsiya tarmoqlari.

Avtomatlashtirilganta’limtizimlari (ATT) – o‘quvchi bilan faol muloqotni ta’minlovchi dasturiy, texnik va ta’lim vositalari majmuasi (muloqotni tashkil etishning didaktik va psixologik jihatlari hisobga olinadi). ATT va foydalanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning asosiy vositasi dialogdir.

Ekspert ta’lim tizimlari (ETT ) ma’lum bir mavzu bo‘yicha bilimlarni o‘z ichiga oladi. O‘quv jarayoniga multimedia vositalarini ommaviy ishlab chiqish va joriy etish ETTning asosiy quyi tizimlarini loyihalashni avtomatlashtiradigan vositalarning keng tanlovi yo‘qligi sababli murakkablashadi, masalan:

► o‘quv jarayonini boshqarishning quyi tizimi;
► o‘quv vazifalarini shakllantirish quyi tizimi;
► ta’lim muammolarini hal qiluvchi;
► o‘quvchilarning xatolarini diagnostika qilish vositalari.

Multimedia ekspert o‘quv tizimlarini (ETT) loyihalash va ishlab chiqish maxsus vositalardan foydalanish asosida mumkin. Bunday vositalarning amaliy ahamiyati shundaki, ular quyidagilarni ta’minlaydi:

► qamrovga qo‘yilgan cheklovlarga javob beradigan ta’limning turli fan yo‘nalishlarida ETTni ishlab chiqish vaqtini va xarajatlarini qisqartirish;

► dasturlash sohasida professional tayyorgarlikka ega bo‘lmagan foydalanuvchi tomonidan ETTda o‘quv jarayonini boshqarish quyi tizimini loyihalash imkoniyati;

► foydalanuvchi tomonidan ko‘rsatilgan turli sharoitlardan ko‘p faktorli va yomon rasmiylashtirilgan o‘quv jarayoni samaradorligini tahlil qilish qobiliyati;

► tarmoq tuzilmasi bilan ETT oilasini yaratishda ishlab chiqish vaqti va narxini qisqartirish, shuningdek, kompyuter xotirasidan samarali foydalanish.

Yangi axborot texnologiyalarining kompyuter tizimlari – qarorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlari, zaif tuzilgan mavzularda foydalanuvchilarga yordam berish uchun mo‘ljallangan. Bunday tizimlar insonning qobiliyatlarini kengaytirishga imkon beradigan yordamchi vazifasini bajaradi, lekin uning fikri yoki imtiyozlar tizimini almashtirmaydi va subyektiv xususiyatlarni hisobga olish zarurati tufayli qaror qabul qilish jarayonida foydalanish uchun mo‘ljallangan, fikrini to‘liq rasmiylashtirish va kompyuter yordamida amalga oshirish mumkin emas.

Pedagogik shart-sharoitlar deganda, berilgan fazilatlarga ega shaxsni shakllantirishni ta’minlaydigan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda maqsadli ta’lim jarayonini yaratish uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq shartlar tushuniladi. Ushbu shartlarga quyidagilar kiradi:

► o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun, AKT vositalaridan foydalanishda mativatsion tayyorligi.

► o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun axborotlashtirish vositalaridan foydalanishga motivatsion tayyorligi.


► o‘z-o‘zini tarbiyalash va pedagogik tadqiqotlar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga refleksli tayyorlik.

► o‘quvchilarning kompyuterlashtirilgan muhitda ishlashga tayyorligi.

► kompyuterlashtirish va axborotlashtirish sohasida o‘quvchilarning bilim saviyasini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

► ta’limni axborotlashtirish jarayonini ushbu masala bo‘yicha ilmiy, o‘quv va uslubiy adabiyotlar bilan ta’minlash.

O‘quv jarayoniga multimedia texnologiyalarini joriy etishni bir necha jihatlardan ko‘rib chiqish kerak (1-rasm).




***1-rasm. O‘quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish jihatlari***

► masalaning pedagogik jihati zamonaviy axborot texnologiyalaridan, shu jumladan multimediya texnologiyalaridan ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyati vositasi sifatida foydalanishning eng muhim maqsadlarini amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni aniqlash zarurati bilan bog‘liq.

► ta’limda AKTdan, xususan, multimedia texnologiyalaridan foydalanishda pedagogik jihatdan tashqari psixologik, fiziologik, realizatsiya jihatlari ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

► psixologik jihat bo‘lajak o‘quvchilarning AKTdan foydalangan holda o‘z-o‘zini tarbiyalash va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirish, o‘z-o‘zini tartibga solish, faollik, motivatsiya, shaxsining kognitiv qiziqishini ta’minlash, aqliy jarayonlarni hisobga olgan holda ko‘rib chiqiladi.

► fiziologik jihat AKTdan foydalanishda tanadagi o‘zgarishlarda sodir bo‘ladigan o‘rganishni bilish qonuniyatlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

► valeologik jihat o‘quvchining kompyuterlashtirilgan muhitda o‘quvchi faoliyati jarayoni davomida sog‘lig‘ini saqlashga yordam beradigan shartlar va talablarni aniqlash bilan bog‘liq.

► amalga oshirish tomoni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘z-o‘zini ta’lim va tadqiqot jarayonlariga joriy etish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash, shuningdek, ulardan foydalanishning pedagogik foydaliligini (maqsadliligi va samaradorligini) bosqichma-bosqich baholash mezonlarini tanlash masalalarini ko‘rib chiqadi.

Xotirani, fikrlashning turli turlarini rivojlantirishga yordam beradigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda pedagogik jarayon subyektlarining birgalikdagi intellektual faoliyati jarayonida to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadigan shaxsni shakllantirish muammosini hal qilish mumkin.

Yu.S. Braun multimediali o‘qitish vositalarini uslubiy maqsadlariga ko‘ra tasniflashni taklif qiladi:


► yangi materialni o‘rganish uchun mo‘ljallangan murabbiylik;

► malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan ta’lim;

► nazorat qilish, assimilyatsiya darajasini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan;

► o‘quv materialini ko‘rgazmali ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan namoyish;
► o‘yin;
► dam olish.

Multimedia vositalarining tasnifi 2-rasmda keltirilgan.




***2-rasm. Multimedialarning tasnifi***

Ta’limda multimediadan foydalanish, quyidagi imkoniyatlarni beradi:

► ta’limni insonparvarlashtirish muammolarini hal etish;
► o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish;
► ta’lim oluvchilarning shaxsiy fazilatlarini (ta’lim olish, o‘rganish qobiliyati, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijodkorlik, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyati, kognitiv qiziqish, mehnatga munosabat) rivojlantirish;
► har bir o‘quvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
► o‘quvchini faol bilish subyekti sifatida aniqlash, o‘z qadr-qimmatini tan olish;
► tinglovchining subyektiv tajribasini, uning individual xususiyatlarini hisobga olish;
► mustaqil ta’lim faoliyatini amalga oshirish, bunda o‘quvchi o‘z-o‘zini o‘rganadi va rivojlantiradi;
► o‘quvchiga zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini singdirish, uning o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun tez o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashishiga yordam beradi.

Biroq, ta’limda multimediadan foydalanishda ko‘p jihatlarni hisobga olish kerak. Zamonaviy dunyoda multimedianing keng tarqalganligini hisobga olsak, o‘quvchilar uchun o‘quv materiallari va texnik vositalarning mavjudligi juda katta farq qilishini bilish kerak. Multimedia texnologiyalarining akademik salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun o‘quvchilar malakali o‘qituvchilarning yordamiga muhtoj. Darsliklardan foydalanish kabi multimediali o‘quv vositalaridan foydalanish o‘qituvchi nafaqat ma’lumotni ‘‘yetkazib beradi’’ (‘‘uzatadi^’, ‘‘efirga uzatadi’), balki o‘quvchiga o‘quv jarayonida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan, qo‘llab-quvvatlagan va yordam bergandagina o‘qitish strategiyasini boyitadi.

Ochiq ta’lim tizimida multimedia ta’lim vositalaridan foydalanishning juda ko‘p umumiy mumkin bo‘lgan salbiy tomonlari mavjud. Bularga chalg‘itish, mumkin bo‘lgan fikr-mulohazalarning yetishmasligi, foydalanish imkoniyati yo‘qligi va boshqa bir qator jihatlar kiradi. Ta’limda multimediadan foydalanishning mumkin bo‘lgan salbiy tomonlari haqida qisqacha ma’lumot:

► o‘z-o‘zini tarbiyalash. Ba’zi o‘quvchilar gipermatnga asoslangan multimedia materiallarida berilgan erkinlikdan foydalana olmaydilar.

► diqqatning tarqalishi. Ko‘pincha chalkash va murakkab taqdim etish usullari foydalanuvchini turli xil nomuvofiqliklar tufayli o‘rganilayotgan materialdan chalg‘itishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, multimedia ma’lumotlarining chiziqli bo‘lmagan tuzilishi foydalanuvchini taklif qilingan havolalarga rioya qilishga duchor qiladi, agar ular noto‘g‘ri ishlatilsa, materialni taqdim etishning asosiy tartibidan chalg‘itishi mumkin. Multimedia ilovalari tomonidan taqdim etilgan katta hajmdagi ma’lumotlar ham o‘quv jarayonida chalg‘itishi mumkin.

► vaqt sig‘imi. Oxirgi foydalanuvchi darajasida multimediadan foydalanish ham, multimedia ma’lumotlarini mustaqil yaratish ham juda katta vaqtni talab qiladi. Ayniqsa, multimediali o‘quv qurollarini yaratish uchun ko‘p vaqt talab etiladi.

► kompyuter ekranidan ma’lumotlarni o‘qish muammolari. Kompyuter ekranidagi ma’lumotlarni o‘qish bosma ma’lumotlar kabi oson emas. To‘liq o‘qilishi kerak bo‘lgan katta hajmdagi matnlarni qog‘ozda o‘qish qulayroqdir. Qog‘oz versiyasi jurnal va kitoblarni o‘qish uchun qulayroqdir. Ko‘pincha multimediali o‘quv vositasi ma’lumot qidirish vositalarini taqdim etadi, shunda foydalanuvchi birinchi navbatda kerakli ma’lumotni topib, so‘ngra uni chop etishi mumkin.

Multimedia dasturiy vositalari quyidagi turdagi ochiq o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi:

► audiovizual ma’lumotlarni ko‘rish;

► amaliy mashg‘ulotlardan foydalangan holda nazariy bo‘yicha o‘qitish;

► ta’lim samaradorligini pedagogik nazorat qilish va o‘lchash;

► atama va tushunchalar lug‘ati bilan ishlash;

► o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv muloqot.

Nazariy materialni ko‘rish to‘quvchiga matn, grafik ekranlar, animatsion qo‘shimchalar, videokliplar va ko‘rgazmali dasturlar ko‘rinishidagi ma’lumotlar sahifalarini taqdim etishdan iborat. O‘quvchilar ma’lumotlar sahifalarini oldinga yoki orqaga aylantirish, nazariyani boshidan yoki oxiridan ko‘rib chiqish va mundarija bo‘yicha kerakli bo‘limni topish imkoniyatiga ega. Bu rejim gipermedia texnologiyasi elementlaridan foydalanadi. Kalit so‘zga ko‘ra, o‘quvchi uning ta’rifini olishi, u bilan bog‘liq har qanday turdagi sahifalarni (matn, grafik va boshqalar) ko‘rishi mumkin. Gipermedia bilan ishlash jarayonida kompyuter malakasi avtomatik tarzda shakllanadi, uning yordamida o‘quvchi nazariyani ko‘rishning istalgan bosqichiga qaytishi mumkin.

Multimedia vositasi yordamida amalga oshirilgan o‘quv rejimi o‘quvchiga mashqlarni taqdim etishni ta’minlaydi (tanlab javobli savol va topshiriqlar, raqamli javobli topshiriqlar, tuzilgan javoblar bilan savollar). Har bir mashq bajarilgandan so‘ng, uni amalga oshirishning to‘g‘riligi to‘g‘risida xabar keladi va o‘quvchiga tegishli sharhlarni ko‘rish imkoniyati beriladi. To‘liq o‘quv mashg‘ulotida multimedia vositasining barcha mashqlari ishlab chiquvchi tomonidan tayyorlangan tartibda taqdim etilishi mumkin. Tanlangan mashg‘ulotlar tasodifiy elementlardan foydalangan holda mashqlarni tanlashni o‘z ichiga oladi. Namunadagi mashqlar soni o‘qituvchi tomonidan belgilanadi. Multimedia vositasi kompyuter bilan interaktiv o‘zaro ta’sirda o‘qitishni ta’minlaydi. Interfaol ta’lim o‘quvchi o‘quv jarayonining asosiy ishtirokchisi bo‘lgan ta’lim faoliyatini amalga oshirishning passiv usulidan faol usuliga o‘tish imkonini beradi.

Ochiq va an’anaviy ta’limda multimedia vositalaridan foydalanish pedagogik faoli-

yatni amalga oshirishning bir qancha asosiy usullarini keltirib chiqarishi mumkin. Qoida tariqasida, ularning barchasini o‘quvchilarning kompyuter o‘qitish vositasi bilan o‘zaro munosabatlari tamoyillariga ko‘ra ikkita asosiy sinfga bo‘lish mumkin. Xususan, ba’zi o‘quv mahsulotlari taqdimot jarayonini boshqarish uchun mo‘ljallangan va shu tariqa o‘quvchilarga faqat ma’lumotni qabul qiluvchi sifatida passiv rol beriladi. Boshqa o‘quv multimedia vositalari ma’lum bir mavzu doirasida bo‘limlarni mustaqil ravishda tanlab, ularni o‘rganish ketma-ketligini aniqlaydigan o‘quvchining faol rolini o‘z zimmasiga olishi ma’nosida interaktivdir.

Belgilangan to‘rt turdagi vositalar (axborotni chiziqli taqdim etish uchun multimedia vositalari; gipermatnli multimedia vositalari; multimedia qo‘llanmalari; multimedia yaratish vositalari) asosida pedagogik faoliyatning tegishli to‘rtta alohida ssenariylari shakllantiriladi. Shu bilan birga, 1–3-ssenariylarda o‘quvchi ochiq ta’lim multimedia vositalari mazmunining oxirgi foydalanuvchisi bo‘lsa, to‘rtinchi ssenariyda o‘quvchi mahalliy multimedia ma’lumotlarini yaratuvchisi rolini o‘ynaydi.

Birinchi ssenariyda chiziqli mediadan foydalanish o‘quvchining multimedia mahsulotining chiziqli mazmunini olishini nazarda tutadi. Bunda multimedia vositalari o‘quvchiga qat’iy ketma-ketlikda materiallar to‘plamini taqdim etadi. O‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan bo‘limlarni tanlashlari mumkin.

Uchinchi ssenariyning o‘quv multimedia mahsulotlaridan foydalanish o‘quvchining ochiq ta’lim bilan bog‘liq multimedia ma’lumotlarini olishni nazarda tutadi. Ushbu mahsulotlar o‘quvchilarga kurs materiallarini boshqarish va o‘rganganlarini baham ko‘rish va tuzishga yordam beradigan turli xil o‘quv qo‘llanmalarini taqdim etadi. Ushbu sinf mahsulotlari odatda fan sohasi va uni o‘qitish usullari haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi, ular ko‘pincha amaliy topshiriqlar shaklida taqdim etiladi, shuningdek, tanqidiy tahlil qilish, o‘quvchi bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish, uning o‘ziga xos ehtiyojlariga yo‘naltirilgan va taxminlarni tasdiqlash, g‘oyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

To‘rtinchi ssenariyga kiritilgan multimediani rivojlantirish vositalari, texnologiyalari va usullaridan foydalanish o‘quvchilarning multimedia ma’lumotlarining mualliflari va yaratuvchilari rolini ochib beradi. Ushbu ssenariy o‘quvchilar tomonidan tegishli komponentlar, shuningdek, matn, grafik, tovush va boshqalar kabi multimedia materiallari bilan ishlash uchun maxsus dasturiy vositalar yordamida o‘zlarining multimedia materiallarini yaratishni ko‘rib chiqadi. Bunda o‘quvchilar faol rol o‘ynaydilar. Axborotni chiziqli taqdim etishning multimedia vositalaridan faol foydalanish usullari. Ba’zi multimedia resurslari yoki o‘quv qo‘llanmalari o‘quvchini o‘quv materiali bilan izchil tanishtiradigan ma’lumotni taqdim etishning chiziqli tuzilishiga ega. Ba’zi multimedia vositalari butun resurs ichida chiziqli navigatsiya qilish imkoniyatini beradi. Bunday multimediya resurslari va an’anaviy bosma kitoblar o‘rtasidagi asosiy farq multimedia ma’lumotlarining har xil turlarini bitta o‘quv vositasi doirasida birlashtirishning ancha keng imkoniyatlaridadir, xususan: matn, nutq, musiqa, animatsion kliplar, vizual diagrammalar, raqamli hisoblar, videokliplar va boshqalar.

Ko‘pgina multimedia resurslari o‘quvchiga ma’lumotlar tuzilmalarini aniq qurishning oddiy va intuitiv vositalarni taqdim etadi. Bu o‘quvchiga o‘rganilayotgan materialning tuzilishi haqidagi bilimlarni amaliyotda qo‘llash, tasniflash uchun asos tanlashda mustaqillikni ko‘rsatish imkonini beradi. Bunday yondashuv bilan chiziqli multimedia resurslari bilan ishlaydigan o‘quvchi tomonidan o‘ynaydigan kuzatuvchining odatiy roli uning tuzilmalarni tuzish va ularni tavsiflash bo‘yicha faol ishiga aylanadi.

Shunday qilib, multimedia ma'lumotlarini chiziqli bo'lmagan taqdim etish texnologiyalari o'qitishda faollik yondashuvlarini rivojlantirish uchun mustahkam asosdir.

Multimedia modellari, qoida tariqasida, universal emas. Matematik modellashtirish texnologiyasiga asoslanib, multimedia modellari nafaqat o'quv sharoitida takrorlash qiyin bo'lgan hodisalarni namoyish qilish uchun, balki imitatsiya qilingan vaziyatga ma'lum parametrlarning ta'sir darajasini interaktiv tarzda aniqlash uchun ham qo'llanilishi mumkin. Bu xususiyat multimedia modellaridan laboratoriya jihozlarining simulyatorlari sifatida foydalanish, shuningdek, simulyatsiya qilingan jarayonlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Zamonaviy multimedia vositalari nafaqat obyektlarning tayyor multimedia modellari bilan ishlash, balki ularni alohida elementlardan qurish imkonini beradi.

Ochiq ta'lim tizimi uchun multimediali o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish va yaratish kasbiy xarakterdagi o'quv ishlarini avtomatlashtirish fanlarini o'qitish bo'yicha o'rganilayotgan obyektlar va jarayonlarning xususiyatlarini yoki simulyatsiya modellari va haqiqiy jismoniy stendlar, parametrik tadqiqot va optimallashtirish uchun chuqur bilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, avtomatlashtirish tizimlaridan mazmunli foydalanish o'quvchilar hali ega bo'lmagan yetarlicha yuqori kasbiy malakani talab qiladi. Ko'pincha ular faqat avtomatlashtirilgan tizimlarning apparat va dasturiy komponentlarini va multimedia o'rganish vositasini muvaffaqiyatli o'zlashtiradilar.

Qo'shimcha ta'limni tashkil etishda o'quv jarayonini asosiysidan sezilarli darajada ajratib turadigan xususiyatlari deyarli barcha sohalarda multimedia texnologiyalariga bo'lgan talabni belgilaydi. Qo'shimcha ta'lim muassasasida o'quv jarayoniga multimedia texnologiyalarini faol joriy etish pedagogik faoliyatning sifat jihatidan yangi bosqichiga o'tishni ta'minlash, uning didaktik, axborot, uslubiy va texnologik imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirish, umuman olganda, mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, o'quvchilarlarning kasbiy mahoratini oshirishga hissa qo'shish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Axborot texnologiyalari/M .Aripov, B. Begalov, Sh. Begimqulov, A 90 M. Mamarajabov. – T.: Noshir, 2009. – 368-b.
2. Ta'limda axborot texnologiyalari: O'quv qo'llanma / R.X. Ayupov Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti. – T.: TPDU, 2020-yil, 580-bet.
3. Xodjayev B., Choriyev A., Saliyeva Z. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasdi. Darslik. // B. Xodjayev va Ы – . T: IQTISODIYOT DUNYOSI nashriyoti, 2018. –190-bet.
4. Браун, Ю.С. Модульное обучение мультимедийным технологиям / Ю.С. Браун // Информатика и образование. 2000. № 2. С. 71–77.
5. Осин, А.В. Мультимедиа в образовании: контекст информатизации / А.В. Осин. М., 2004.

**Dilnoz AZIZOVA,**
**Sanobar RASULOVA,**
Qashqadaryo VPYMO‘MM o‘qituvchilari

# BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILAR BILIM VA DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH, SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA INNOVATSION VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH

**Annotatsiya**

Maqolada savod o‘rgatish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. Savod o‘rgatishda “So‘z”, “Tovush”, “Bo‘gin” terminlari bilan tanishtirish va to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Innovatsion texnologiya, tahlil-tarkib, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiya, mashg‘ulot.

В статье рассмотрено применение инновационных технологий в процессе обучения грамоте. Обучение грамоте включает знакомство с терминами “Слово”, “Звук”, “Слог” и обучение правильному произношению.

**Ключевые слова.** Инновационная технология, анализ-содержание, начальное образование, педагогическая технология, обучение.

The article discusses the use of innovative technologies in the process of teaching literacy. Literacy education includes familiarity with the terms "Word", "Sound", "Syllable" and learning the correct pronunciation.

**Key words.** Innovative technology, content analysis, primary education, pedagogical technology, training.

Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz.

Mirziyoyev Sh.M. ‘‘Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz’’. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” PF-5538-son Farmoni, 2018-yil 5 -sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘grisidagi” PQ-3931-sonli Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda xalq ta’limi xodimlarining boshqaruv, kasbiy va umumiy pedagogik mahoratlarini uzluksiz oshirilishini tashkil etish bo‘yicha qaror qabul qilindi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi haqida. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o‘quvchilarni darsga jalb etish samarali bo‘ladi.

Yurtimizda ta’lim mazmuniga alohida e’tibor qaratilib, DTS o‘quv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari joiy etildi, innovatsion pedogogik texnologiyalar asosida o‘quv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot komminikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda

o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o‘zlashtirish maqsadida innovatsion pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to‘g‘ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O‘qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko‘pgina metodlaridan foydalaniladi.

Hozirgi davrda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ta’limni tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Innovatsion pedagogik texnologiya o‘quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta’lim shakllarini amalga oshirish uchun ko‘zlangan natijaga erishishda eng qulay yo‘l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u haqiqatdan ham ta’lim jarayoning faolligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Savod o‘rgatish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash juda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli yangi bilimlarga bo‘lgan yangi talab yangi “yangilik” ya’ni “innovatsiya”, “innovatsion jarayon” tushunchalarini anglash talabi ortdi.

“Innovatsiya” so‘zi lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, yangilik kiritish degan ma’noni bildiradi.

Savod o‘rgatish jarayonida “So‘z”, “Tovush”, “Bo‘gin” terminlari bilan tanishtirish va to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatadi. Gaplar so‘zlardan tuzilishi haqidagi fikrga olib kelinadi. 2-4 so‘zlardan tashkil topgan gap tuzish, so‘zlarga ajratish o‘rgatiladi. Murakkab so‘zlarni bo‘g‘inga ajratish necha bo‘gin ekanligini aniqlash va bo‘ginlardan o‘zak so‘zlar tuzish o‘rgatiladi.

Savodga o‘rgatishning tahlil-tarkib usuliga ko‘ra, matndan gap, gapdan so‘z, so‘zdan bo‘g‘in va tovush yoki, aksincha, tovush – bo‘g‘in, so‘z – gap – matn uzviy aloqada butundan bo‘lakka, bo‘lakdan butunga qarab tahlil va tarkib qilinadi.

Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar nutqining ravon bo‘lishida savol-javob usuli ham yaxshi natija beradi. Bu usul o‘quvchilarni faollashtiradi, nutqiy vaziyatga soladi. Biz bolalarga beriladigan savollarni shunday tuzishimiz kerakki, ularning javobi “ha” yoki “yo‘q” so‘zlaridan iborat bo‘lib qolmasligi kerak. Ularni o‘ylashga, mantiqiy fikrlashga majbur qiladigan vaziyatga olib kirishimiz kerak.

Savod o‘rgatish darslarida yana ko‘rgazmalilik usuli keng qo‘llaniladi. Bu usulni chex pedagogi Komenskiy ta’limning asosiy qoidasi deb biladi. “Sinfga surat olib kirishing bilan soqov ham tilga kiradi”. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning barcha sezgi organlari ishtirok etishlari lozim: ko‘rish, eshitish, hatto ta’m bilish sezgisi ham. Chunki ular aniq narsa, predmet va hodisaga qarab fikrlaydi.

Savod o‘rgatishda tushuntirish va bayon qilish usuli keng qo‘llaniladi. Bunda o‘qituvchi nutq madaniyatiga e’tibor berishi, sodda ravon, ifodali qilib so‘zlashi kerak. Bola tabiati ortiqcha ko‘p so‘zlilikni yoqtirmaydi. Shuning uchun ularni tinglay olish imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

Savod o‘rgatishda o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularni to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish orqali bolalarda to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish konikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o‘quvchilar lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, bilimini boyitish, mavhum tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o‘stirishda ham bu davr mas’uliyatliligi bilan alohida o‘rin tutadi.

Tayyorgarlik davri o‘qishga o‘rgatish uchun zamin tayyorlaydi. Bu davrda bolalarda o‘zgalar nutqini eshitish, diqqatini to‘plash, til birliklarini ( tovush, bo‘gin, so‘z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllanadi. Bular

o‘quvchilarning o‘qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi. O‘qishga o‘rgatish uchun avvalo, o‘quvchi tovush va harf bilan yaxshiroq tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo‘g‘indan, tovushdan ajratish tamoyiliga rioya qilinadi.

O‘qishga o‘rgatishda bo‘g‘in asos qilib olinadi. Buning uchun o‘qituvchida bo‘g‘in jadvali bolishi lozim. Bo‘g‘in jadvali asosida o‘qish namunasi ko‘rsatiladi, ya’ni harflab emas ichida birinchi harfni ko‘z bilan ko‘rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko‘rish va ikkalasini bog‘lab, unlini mo‘ljallab ulab aytish tushuntiriladi.

O‘qishga o‘rgatishda so‘zlarni va gaplarni to‘ldirib o‘qish ko‘nikmalarini hosil qilish, o‘quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo‘naltiradi. O‘quvchi tushirib qoldirilgan harf va so‘zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e’tibor beradi, o‘rtoqlariga nisbatan tez topib, o‘qituvchining rag‘batiga sazovor bo‘lishga intiladi. Har bir predmetda bo‘lgani kabi o‘qish darslarida ham ta’lim-tarbiya birligiga e’tibor beriladi. O‘qish darslarida tarbiya o‘qilgan matnning ongli o‘zlashtirilishiga bog‘liq. O‘quvchi matnga fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o‘zida shunday xislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan, esa yaxshi inson bo‘lish uchun o‘qishning zarurligini anglaydi. Shuning uchun ongli o‘qishni matn bilan ishlangan namunali rasmlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqat qaratish lozim.

O‘qishning ongliligini va ta’sirchanliligini ta’minlash uchun matn mazmunini o‘quvchilarning ko‘rgan-kechirganlari, taassurotlari bilan bo‘g‘lash lozim. Shunda o‘quvchida o‘qishga, o‘rganishga qiziqish ortadi.

She’r, tez aytish, topishmoq, qo‘shiq, maqol, hikmatli so‘zlardan o‘qitish, yod oldirish ham o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini oshiradi, o‘qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. O‘qish darslarining 3/2 qismi o‘qishni mashq qilishga ajratilishi lozim. So‘zlarni tovushlarga ajratish:

I. So‘zlarni tovushlarga ajratish tahlil qilinayotgan so‘zlar tartibini aniqlash asosida quyidagilar o‘rgatiladi:

– tovushlarga sifatli xarakteristika;
– unlilar;
– undoshlar (jarangli va jarangsiz undoshlar);
– qattiq va yumshoq talaffuzli so‘zlar;
– aytilishi va ishlatilishida farqlash kerak bo‘lgan harflar.

II. Tahlil qilinayotgan so‘zdagi unli bo‘g‘inni topish, o‘rnini aniqlash (bosh, o‘rta, oxiri). Unli harflar bilan tanishtirishni davom ettirib ularni yozilish qoidalarini o‘rgatish: o-a, i-e u-o‘ (lot. grefik.)

III. Undosh tovushlar bilan yozma tanishtirish. Kesma harflar bilan ishlash, so‘zlar tuzish, bo‘g‘inlar hosil qilish (ochiq bo‘g‘in, yopiq bo‘g‘in)

O‘qish. Alfavit matnlari asosida bolalarni sidirg‘a bo‘g‘inlar o‘qishga o‘rgatish. Demak, so‘roq undov gaplarning o‘qilishini o‘rgatish. Ongli ravishda o‘qish malakasini hosil qilish borasida maxsus ish olib borish.

Termin: o‘qitish davrida quyidagi terminlarni kiritish:

1. Gap; 7. Jarangsiz undosh.
2. So‘z; 8. Urg‘uli bo‘g‘in.
3. Tovush; 9. Urg‘usiz bo‘g‘in.
4. Unli; 10. Nuqta.
5. Undosh; 11. So‘roq belgisi.
6. Jarangli undosh. 12. Undov belgisi.

Natijada bolalar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

– o‘qituvchining talabiga ko‘ra, yordamchi so‘zlar ishtirokida 3-4 so‘zli yoyiq gaplar tuzish;

– turli qiyinchilikdagi so‘zlarni talaffuz qilish va tovush tahlili;

– kesma harflar asosida so‘z tuzish;

– alfavit harflarni to‘la bilish;

– kichik matnli tekstlarni bo‘g‘inlab o‘qish.

Grafik malakalar va bosma yozuv.

I. Qo‘l harakatini rivojlantirish, yozuv gegiyenasiga rioya qilgan holda, to‘g‘ri o‘tirish, daftar tutish, qalam ushlash, qog‘oz varag‘ida belgi va so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirishni o‘rgatish davom etadi.

O‘z oldiga maqsad qo‘yish, maqsadiga erishish, vazifani bajarish jarayonini nazorat qilish, natijani baholash, diqqat va esda saqlab qolishni o‘rganish kerak bo‘ladi.

Belgi va nuqtalarga qarab, narsalarni rasmini chiziqlar yordamida (nuqtalarni) birlashtirib, bezak naqshlari hosil qilishni o‘rganish kerak bo‘ladi.

II. Alifbodagi yozma haraflarni yozishni o‘rganish. Bosh va kichik harflarni bosma usulida yozish, harflarni to‘g‘ri joylashtirish, so‘z va gaplarni satr chizig‘iga to‘g‘ri taqsimlab yozish o‘rgatiladi. Mustaqil so‘z va gaplar berilganiga ko‘ra, bosma harfli matn tuzish, diktoura orqali o‘tilgan qoidalar asosida gap yozishni o‘rgatish. Natijada, bolalar katakli va chiziqli daftar varag‘ida to‘g‘ri joylashtirish malakasini hosil qilishlari, chetga chiqib ketmasdan narsa rasmini parallel to‘g‘ri chiziqlar bilan chizish, qo‘yilgan maqsadga erishish, natijani baholash, yozuv gegiyenasiga rioya qilish malakalarini hosil qilishlari kerak. Alfavit harflari barchasini (bosh va kichik) bosma usulda yozish, ulardan so‘zlar tuzish, satr chizig‘iga amal qilishni bilishlari kerak.

Savod o‘rgatish darslari o‘quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o‘stirish bilan bir qatorda, ularda axloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish, nafosat hissini tarbiyalash, mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatish, bilim manbai bo‘lgan kitobni sevish kabi muhim masalalarni ham hal etishini nazarda tutadi.

Shuning uchun ham ta’lim ishiga texnologik yondashuv katta ahamiyatga ega.

Ta’lim ishiga texnologik yondashuv:

– ta’lim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;

– o‘qish-o‘qitish jarayonini uzviy bog‘liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo‘lishni;

– ta’lim jarayonida mo‘ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;

– loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyada ta’lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo‘lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o‘qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Har bir o‘qituvchi, avvalo, o‘zi o‘qitadigan o‘quv predmeti va har bir o‘tiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak. Shuni ta’kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o‘tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayonning samarali o‘tishida motivlar muhim o‘rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlargina samarali bo‘ladi. Motiv kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi da’vat, turtki. Shunday ekan, o‘qituvchilar o‘quvchida o‘qish motivlarini hosil qilishga intilishlari va uni o‘stirishlari kerak. Motivlar o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni oson egallashlariga yordam beradi.

Motiv o‘quvchida bilim olishga ishtiyoq va qiziqish uyg‘otadi. O‘qituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o‘quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan holi bo‘lmaydi. O‘quvchi yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o‘yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o‘yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi. Mavzuning barcha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishish; o‘quvchilarning ravon va to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qishining takomillashuviga erishish; Mashg‘ulotga o‘quvchilarning faol qatnashuviga erishish; ularning o‘qish motivlarini qiziqtirish, o‘quvchilarni faollashtirish yo‘llarini belgilash va qo‘yilgan maqsadga to‘liq erishish; Pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va boshlang‘ich ta’limda uni qo‘llash yo‘llarini izlash va takomillashtirish, o‘z ustida ishlash; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish motivlarini o‘stirish ustida ishlash; darsni hayotiy tajribalar bilan bog‘lash. Turli mashqlar vositasida tez o‘qish malakalari takomillashadi. Vatan haqidagi tushunchalari kengayadi, Vatanga muhabbat shakllanadi, Vatandan g‘ururlanish, ya’ni milliy g‘urur shakllanishiga asos yaraladi. Matn bilan mustaqil ishlashga o‘rganish. O‘z fikrini erkin bayon etishga o‘rganish; o‘rganilganlar asosida ertak, maqol, hikmatli so‘zlar, tez aytishlarni o‘rganish, o‘rtoqlari fikrini ma’qullash yoki yangi fikrlarni aytishga o‘rganish. Metodika bolalarning nutqini boyitishni, sintaktik va bog‘lanishli nutqini o‘stirishni ham ta’minlashi kerak.

Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o‘quvchilarni darsga jalb etish samarali bo‘ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to‘liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o‘quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e’tibor qaratishlari zarur. Darsni tashkil etish jarayonida barcha o‘quvchilarga tushunarli, oson, qiziq bo‘lgan usullarni tanlashi va qo‘llay olishi, ko‘rgazmali qurollardan foydalanishi, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilishi, ta’lim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi, pedagogik texnologiyalardan to‘g‘ri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T., 2010-yil.

2. Ibragimov R. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bilish, faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Diss.– T., 2009-yil.

3. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T., 2008-yil.

**Sanjar IBRAXIMOV,**
O‘zPFITI doktoranti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

# AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK SPORT MURABBIYLARINI GURUH A’ZOLARI ORASIDAGI ZIDDIYATLARNI BARTARAF ETISHGA TAYYORLASHDA QO‘LLANILADIGAN STRATEGIYALAR

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak sport murabbiylarini guruh a’zolari orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga tayyorlashda qo‘llaniladigan strategiyalar haqida fikr yuritilgan bo‘lib, pedagogik jarayonda ziddiyatlarni hal etishga qaratilgan o‘ziga xos jihatlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Pedagogik ziddiyatlar, ko‘nikma, kasbiy mahorat, ziddiyat tushunchasi, vosita, bo‘lajak murabbiylar, strategiyalar.

В данной статье на основе акмеологического подхода обсуждаются стратегии, используемые при подготовке будущих спортивных тренеров к разрешению конфликтов между членами группы, а также описываются конкретные аспекты, направленные на разрешение конфликтов в педагогическом процессе.

**Ключевые слова.** Педагогический конфликт, мастерство, профессиональное мастерство, понятие конфликта, инструмент, будущие тренеры, стратегии.

Based on the acmeological approach, this article discusses the strategies used in preparing future sports coaches to resolve conflicts between group members, and also describes specific aspects aimed at resolving conflicts in the pedagogical process.

**Key words.** Pedagogical conflict, mastery, professional mastery, concept of conflict, tool, future trainers, strategies.

Sportchi o‘quvchi va talabalar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish uchun murabbiy va sportchilar, sportchilar va sportchilar orasidagi muloqot muhim pedagogik ahamiyatga ega. Sportchi o‘quvchi va talabalar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishda muloqot strategiyalari o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Sportchi o‘quvchilar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish o‘ta murakkab pedagogik jarayonni tashkil etishni taqozo qiladi. Buning uchun sport murabbiylari sportchilarni do‘stona munosabatlar va hamkorlikdagi pedagogik jarayonga jalb etish imkoniyatiga ega bo‘lgan strategiyalar bilan qurollangan bo‘lishlari lozim. Buning uchun murabbiylar sportchilarning ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda ma’naviy rivojlanishlari uchun motivatsiya hosil qilishlari talab etiladi.

Har bir sportchi o‘quvchi va talaba o‘z ijodiy imkoniyatlarini pozitiv muloqotga yo‘naltirishi zarur. Bunday pozitiv yondashuv natijasida sportchi o‘quvchi va talabalar o‘z xatti-harakatlari ustida chuqur o‘ylaydilar. Ularning guruhdoshlari bilan do‘stona munosabat va muloqot o‘rnatishlari o‘z shaxsiy tajribalariga tayangan holda to‘g‘ri yo‘l tutishlariga ko‘maklashadi. Hamkorlikdagi faoliyat natijasida guruh a’zolari orasida do‘stona muhit vujudga keladi. Natijada har bir sportchida pozitiv dunyoqarash, shaxslararo ijobiy munosabat tajribasi tarkib topadi. Bo‘lajak murabbiylar mazkur

jarayonni boshqarishga tayyor bo‘lishlari, buning uchun zarur metodikalar va strategiyalar bilan qurollanishlari lozim. Ushbu jarayonda sportchi o‘quvchi va talabalarda shakllantirilishi zarur bo‘lgan shaxsiy sifatlarni bo‘lajak sport murabbiylari yaxshi bilishlari talab etiladi.

Bunday pedagogik faoliyat natijasida sportchi o‘quvchi va talabalar bir mavqe’dan ikkinchi mavqe’ga o‘tadilar. Natijada ular ziddiyatlarni yengish, qarama-qarshiliklardan uzoqlashishiga harakat qiladilar. Bu jarayonda murabbiylar kelishuv strategiyalaridan unumli foydalana olishlari tavsiya etiladi.Sportchilar orasida ziddiyatlar vujudga kelganda uni bartaraf etish kerak degan savol har doim murabbiylar oldida turishi lozim. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, sportchi o‘quvchi va talabalar orasida hamkorlik va ishchan muloqot muhitini vujudga keltirish har doim ham sport murabbiylari faoliyatida yetakchi o‘rin egallamayapti. Bu sport murabbiylarining sportchilar orasidagi ziddiyatlarga nisbatan befarqlik bilan qarashlari yoki ularni o‘ta salbiy hodisa sifatida baholashlari bilan bog‘liq. Bunday yondashuv natijasida sportchilar orasidagi ziddiyatlar keskinlashib, salbiy oqibatlarga sabab bo‘lmoqda.

Sportchilar orasida murakkab vaziyatlar vujudga kelganda murabbiylar unga e’tiborsizlik va bepisandlik bilan qaraydilar. Natijada ziddiyatlarning ko‘lami kengayadi. Aksariyat hollarda esa murabbiylar ziddiyatlarni kundalik tajribalar yoki vaziyatlardan kelib chiqqan holda yechishga harakat qiladilar. Uning kelib chiqish ildizlariga e’tibor qaratmaydilar. Sport murabbiylari uchun qiyinchilik tug‘diradigan holatlardan yana biri sportchilararo ziddiyatlarning xarakterli xususiyatlarini bilmasliklaridadir. Bo‘lajak sport murabbiylari ziddiyatlarning xarakterli xususiyatlari, kelib chiqishi, mohiyati va oqibatlarini chuqur o‘rganishlari lozim. Shundagina ular istiqboldagi faoliyatlarida guruhdagi sportchilararo ziddiyatlarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Sport murabbiylari uchun qiyinchilik tug‘diradigan holatlardan yana biri sportchilararo ziddiyatlarni oldindan ko‘ra olmasliklari bilan bog‘liq. Chunki ularda ziddiyatlarning kelib chiqish sabablari, xarakterini bashorat qilish ko‘nikmasi yetarlicha shakllanmagan bo‘ladi. Sport murabbiylarini tayyorlash jarayonida bunday ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tibor qaratilmaydi. Shunday ko‘nikmalarga ega bo‘lgandagina murabbiy mazkur ziddiyatlarning ijobiy yechimlarini ta’minlash maqsadida pedagogik chora-tadbirlarni qo‘llay oladi.

Sportchilar orasidagi ziddiyatlarning oldini olishga murabbiylarni tayyorlashda ularni o‘ziga xos pedagogik vositalar bilan qurollantirish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

– bo‘lajak murabbiylarda sportchilar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish kompetensiyasini shakllantirish;

– sportchilar guruhda ma’naviy sog‘lom pedagogik-psixologik muhitni qaror toptirish tajribasini hosil qilish;

– bo‘lajak murabbiylarda sportchilarda o‘z xatti-harakatlarini mustaqil tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini boshqarish, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish mahoratini tarkib toptirish;

– ziddiyatlarni bartaraf etish jarayonida sport murabbiylarining sportchilar bilan muloqotga kirishish ko‘nikmalarini tizimli tarzda rivojlantirish;

– bo‘lajak sport murabbiylarining bo‘sh vaqtini sport to‘garaklarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish mahoratini shakllantirishga yo‘naltirish, shu bilan bir qatorda pedagogik amaliyot davrida bo‘lajak sport murabbiylarining e’tiborini guruh a’zolarining ma’naviy axloqiy tarbiyalashga jalb etish;

– bo‘lajak sport murabbiylarini sportchilar orasidagi ziddiyatlarni aniqlash metodikalari bilan qurollantirish;

– bo‘lajak sport murabbiylarini kelishuv, hamkorlik munozara strategiyalarini o‘zlashtirishlariga imkoniyat yaratish kabilar.

Biz kuzatishlarimizga asoslangan holda bo‘lajak sport murabbiylarini guruh a’zolari ora-

sidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga tayyorlash maqsadida pedagogik jarayon mahsuldorligini ta'minlashga xizmat qiladigan tizimni ishlab chiqishga harakat qildik. Mazkur tizim tarkibida akmeologik yondashuv asosida bo'lajak sport murabbiylarini sportchilar guruhi a'zolari orasidagi ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish mahoratini shakllantirishga harakat qildik. Buning uchun ziddiyatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan vaziyatlarni o'ziga xos mexanizm sifatida tashkil etishga intildik. Sportchilarni yangi vaziyatlarga olib kirib, ularda madaniy xulq-atvor, nostandart fikrlash tajribasini shakllantirish ko'nikmasini egallashlari lozim. Ma'lumki vaziyatli yondashuvlar sportchilar hayotiy faoliyatining vaziyatli yondashuv o'quvchilar hayotiy faoliyatini shakllantirishning muayyan usullarini qo'llashni taqozo etadi. Bu jarayonda sportchilar ma'naviy axloqiy jihatdan ham rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ularda shaxslararo ijobiy munosabat, negbinlikka asoslangan dunyoqarashni shakllantirish ham sport murabbiylarining muhim vazifalari sirasiga kiradi. Chunki bunday xulq-atvor modellari sportchilararo ziddiyatlarning vujudga kelmasligiga asos bo'ladi. Buning uchun sportchilar shaxsiy-hayotiy vaziyatlarni his etish ko'nikmasini egallashlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sportchilarning shaxsiy-ma'naviy rivojlanishlarini ta'minlovchi pedagogik vaziyatlar o'ziga xos imkoniyatlarga ega. Bugungi kunda mutaxassislarni kasbiy rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni insonparvarlik, aksiologik, akmeologik va madaniyatshunoslik, faoliyatli yondashuv prinsiplari asosida tashkil etilmoqda. Bu o'z navbatida bo'lajak murabbiylarning sportchilar guruhi a'zolari bilan insonparvarlik asosida muloqot va munosabat o'rnatishga tayyorlashga xizmat qiladi. Chunki insonparvarlikka asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonida murabbiylar va sportchilar o'zaro madaniy muloqotga kirishadilar. Chunki mashg'ulotlar jarayonida murabbiylar va sporchilar o'zaro hamkorlikning turli shakllarini amalga oshirib, o'z mavqe'lariga ega bo'ladilar. Mazkur vaziyatda sortchilar mashg'ulotlar jarayonining subyekti sifatida faoliyat ko'rsatadilar. Murabbiylar esa ularning faoliyatini nazorat qilib, ishchan muloqot va hamkorlikka kirishadilar. Ular orasida do'stona munosabat vujudga keladi. Hamkorlikka asoslangan munosabatlar esa ziddiyatlarning vujudga kelish imkoniyatlarini pasaytiradi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak murabbiylar sportchilar bilan amalga oshiriladigan hamkorlikning turli darajalari va shart-sharoitlaridan xabardor bo'lishlari lozim. Sport murabbiylari sportchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilgan vaziyatlarni tashkil etishni nazarda tutishlari talab etiladi. Bunda ular mavjud kasbiy bilimlari va shaxsiy tajribalariga tayangan holda sportchilarni ma'naviy rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik vaziyatlarni tashkil etadilar.

Bo'lajak sportchilarni ma'naviy jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilgan vaziyatlar ular orasidagi bosimlarni pasaytirib, ziddiyatlarni vujudga kelishiga yo'l qo'ymaydi. Sportchilarni ma'naviy rivojlantirishga yo'naltirilgan vaziyatlar quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

–- ziddiyatlarni bartaraf etishga undovchi vaziyatlar. Bunday vaziyatlarda murabbiy-sportchilarda shaxslararo ijobiy munosabatga kirishish motivatsiyasini shakllantiradi. Guruh a'zolarida bir-biriga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lish kayfiyatini uyg'otadi. Ular orasida simpatiya vujudga keladi;

– sportchilarning ma'naviy dunyoqarashini faollashtiruvchi vaziyatlar. Mazkur vaziyatlar sportchilarda ijodiy xulq-atvor motivatsiyasini shakllantirishga yo'naltiriladi;

– guruh a'zolarida bir-birlariga nisbatan ijodiy fikrni shakllantiruvchi vaziyatlar. Mazkur vaziyatlarda murabbiy turli hayotiy hikoyalar, rivoyatlar, hikmatlar yordamida shaxslararo ijobiy munosabatni shakllantiradi. Ular bir-birlarining qiziqishlari, faoliyatlari natijalarini hurmat qilishga o'rganadilar. Turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarga nisbatan tolerant munosabatda bo'lish ko'nikmasini egallashga muvaffaq bo'ladilar;

– sportchilarda vaziyatlarni baholash, voqea-hodisalarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash faoliyatini shakllantiruvchi vaziyatlar. Ushbu vaziyatlarda murabbiy sportchilar guruhi a'zolarining kundalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan turli voqea-hodisalar, ziddiyatli holatlar, qarama-qarshiliklarni tahlil

qilish, baholash, ularni bartaraf etishga oid fikrlarini bayon qilishga undaydi. Ular tomonidan bildirilgan turli fikrlarni tahlil qilib o‘z munosabatini bildiradi. Sportchilarning maqsadga muvofiq deb hisoblangan fikrlarini qo‘llab quvvatlaydi;

– sportchi o‘quvchi va talabalarning harakatchanlikka undovchi vaziyatlar. Bunda sportchilarni faol fikrlash harakatlarini amalga oshirishga yo‘naltirish nazarda tutiladi. Shu tariqa ularda ratsional fikrlash ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Ajdodlarimiz sportchilar faoliyatiga alohida e’tibor qaratib, ularning harakatida milliy g‘urur ifodasini tuyganlar. Sport har doim davlatni butun dunyoga tanitishga xizmat qilgan. Shu ma’noda sportchilarning ma’naviy qiyofasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Ularning ma’naviy qiyofasini shakllantirish, vujudga keladigan ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, noaniqliklar, o‘zaro dushmanlik kayfiyatlarini bartaraf etib, sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish, sportchilarning dunyoqarashini ma’naviy jihatdan yuksaltirish ustoz-murabbiylarning zimmasidagi asosiy vazifalardan biri bo‘lib kelgan. Hech kimga sir emaski ayrim holatlarda raqiblar bir-biriga dushman sifatida qaragan. Buning natijasida sportchilar orasida turli noxush holatlar, ziddiyatlar vujudga kelgan. Bunday vaziyatlarda sport murabbiylari o‘z shogirdlarida sog‘lom fikrni shakllantirish maqsadida halollik, murosa qilish, kelishuvchanlik, hamkorlik strategiyalaridan foydalanganlar. Bu an’ana ko‘p asrlar mobaynida davom etib, bizgacha yetib kelgan.

Sportchilar orasidagi munosabatlarning mezoni halollik hisoblanadi. Ular bir-birlari bilan halollik, haqqoniylik asosida raqobatlashishlari lozimligini murabbiylar muntazam tushuntirib borishlari talab etiladi. Ajdodlarimiz bu mezonlarga qat’iy amal qilganlar. Bu haqda turli rivoyatlar, afsonalar, maqollar vujudga kelgan bo‘lib, ko‘p asrlar maboynida sportchilarni ma’naviy jihatdan tarbiyalashga xizmat qilgan. Bugungi kunda ham sport murabbiylari ushbu vositalardan sportchilar guruhi a’zolari orasida qarama-qarshiliklar, tushunmovchiliklar, ziddiyatlarning oldini olish maqsadida samarali foydalanishlari lozim. Murabbiylarni mazkur faoliyatga oliy pedagogik ta’lim jarayonidayoq tayyorlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bo‘lajak sport murabbiylariga sportchilarda tahliliy faoliyat tajribasini shakllantirish kompetensiyasini hosil qilish oliy pedagogik ta’lim tizimida alohida ahamiyatga ega. Tahliliy faoliyatga o‘rgatish sportchilarni ma’naviy rivojlantirish sari yo‘naltirishning muhim mexanizmi hisoblanadi. Shuning uchun ham mazkur mexanizm sportchilarda ma’naviy sifatlarni shakllantirishni jadallashtiradi. Bu esa o‘z navbatida ziddiyatlarning vujudga kelmasligini ta’minlaydi yoki ularning ijobiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Buning uchun bo‘lajak sport murabbiylari sportchilarning ijtimoiy tajribalarini boyitish mexanizmlarini har tamonlama puxta o‘zlashtirishlari talab etiladi. Sportchilarning ijtimoiy tajribalari, kechinmalarining shakllanishiga ushbu mexanizm kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Bunday tajribani bo‘lajak sport murabbiylari o‘quv mashg‘ulotlari va pedagogik amaliyot jarayonida o‘zalashtiradilar. Bo‘lajak sport murabbiylarining mashg‘ulotlar jarayonida vujudga keladigan alohida hodisalar, vaziyatlarga munosabatlari ularning istiqboldagi pedagogik faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak sport murabbiylarining tahliliy faoliyat tajribasi unda bir qator kasbiy sifatlar – vaziyatlarni tezkorlik bilan tahlil qilish layoqati, bu sohada “akme”ni egallashi, muvaffaqiyat qozonishga moyilligi, o‘z kasbiy darajasini munosib baholay olishida namoyon bo‘ladi. Murabbiyning ziddiyatli vaziyatlarda sportchilar bilan ishchan muloqotga kirishish tajribasiga ega bo‘lishi ular orasidagi ziddiyatlarning oldini olishga yordam beradi. Bo‘lajak sport murabbiylarida bunday kasbiy sifatlarning shakllanish jaryoni bir necha bosqichda amalga oshadi. Bu bosqichlar bo‘lajak sport murabbiylarini kasbiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik vaziyatlarni o‘z ichiga oladi. Har bir bosqichda bo‘lajak sport murabbiylarida ularni “akme” sari yo‘naltiradigan bir qator kasbiy sifatlar vujudga keladi. Bunday kasbiy sifatlar birinchi navbatda sportchi o‘quvchi va talabalarni

ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish, ular orasida sog‘lom ma’naviy muhitni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tish jarayonida topshiriqlar murakkablashadi. Chunki bunday topshiriqlarni bajarish natijasida bo‘lajak pedagoglar “akme”ga intiladi. Bo‘lajak sport murabbiylarida shakllangan kasbiy sifatlar istiqbolda sportchilarning ma’naviy sifatlarini shakllantirishga asos bo‘ladi. Bo‘lajak sport murabbiylari orasida imitatsiya metodi yordamida sportchilar bilan kechadigan muloqot vaziyatlarini yaratish uchun turlicha pedagogik vaziyatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun har bir bosqichda bo‘lajak sport murabbiylari oldiga muayyan topshiriqlar qo‘yiladi va ularni bajarish usullari haqida ma’lumotlar beriladi. Bunday vaziyatlar professor-o‘qituvchilar tomonidan aniq izchillikda loyihalashtirilishi lozim.

Buning natijasida bo‘lajak sport murabbiylarida “akme”ga erishish uchun zarur bo‘lgan motivlar shakllanadi. Bunday pedagogik vaziyatlar o‘zida quyidagilarni mujassamlashtirishiga e’tibor qaratish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Ular:

– sportchilarning axloqiy tanlovga ega bo‘lishlari uchun ularga zarur bilimlarni taqdim etish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

– kasbiy dunyoqarashidan kelib chiqqan holda o‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘yish va unga erishish motivlariga ega bo‘lish;

– sportchilarning muammolarga yechimlar izlashlari va raqiblarining mavqeyini to‘g‘ri belgilashlariga ko‘maklashishga oid bilimlarga ega bo‘lish;

– o‘z guruhida sportchilarning shaxsiy yutuqlarini tahlil qilish va undan zavqlanish mahoratini egallash;

– o‘z kasbiy bilimlarining pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun muhimligini anglab yetish;

– sportchilarning yutuqlarini aniq ko‘ra olish va munosib baholash metodikalarini qo‘llay olish;

– bo‘lajak sport murabbiylarining “akme”ni egallash jarayonlari ikki bosqichni o‘z ichiga oladi. Ular:

a) bo‘lajak murabbiyni “akme”ni egallashga yo‘naltiruvchi bosqich;

b) bo‘lajak sportchilarni tahliliy faoliyatga undovchi bosqich.

Dastlabki bosqichda bo‘lajak murabbiylar sportchilar orasidagi ziddiyatlarning xarakteri, uni bartaraf etish haqidagi pedagogik-psixologik yondashuvlar bilan yaqindan tanishib, ushbu ziddiyatlarning oldini olish yo‘llari, usullari va metodlari bilan qurollanadilar. Shunga ko‘ra, birinchi bosqichni o‘z ichiga olgan pedagogik vaziyatlarda quyidagi vazifalarga yechim izlanadi:

1) bo‘lajak sport murabbiylarining sportchilar orasidagi ziddiyatlar haqidagi bilimlari va tushunchalarini boyitish, sportchilararo ziddiyatlarning o‘ziga xos jihatlari, ijobiy hamda salbiy tomonlari haqida aniq ilmiy ma’lumotlarni o‘zlashtirish, ushbu yo‘nalishdagi ilmiy manbalar ustida ishlash, sportchilararo ziddiyatlarning vujudga kelishi va uni bartaraf etish usullari haqida ilmiy-metodik tasavvurga ega bo‘lish;

2) bo‘lajak sport murabbiylarini sportchilarning yosh xususiyatlari, faoliyat turlari va ular orasida vujudga keladigan ziddiyatlarning xarakteri haqidagi ma’lumotlardan xabardor bo‘lishlariga erishish.

3) sportchilararo vujudga keladigan ziddiyatlarni ijobiy hamda salbiy ziddiyatlar sifatida guruhlarga ajratish va ularning yechimini ta’minlash usullaridan xabardor qilish;

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun bo‘lajak sportchilarni kasbiy rivojlantirish, “akme”ga undovchi vaziyatlar tanlab olindi. Sportchilar orasidagi ziddiyatlarni muvaffaqiyatli yechishda o‘yin metodi alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun bo‘lajak sport murabbiylari orasida o‘yin vaziyatlarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratishlari tavsiya etiladi. Buning uchun ziddiyatli vaziyatlar tashkil etiladi. Natijada, bo‘lajak sport murabbiylari sportchilar orasidagi ziddiyatlar haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladilar. Dastlab bo‘lajak murabbiylar ziddiyatli vaziyatlarga nis-

batan o‘z munosabatlarini bayon qiladilar. Ziddiyatning vujudga kelish sabablarini tahlil qilishga muvaffaq bo‘ladilar. Uni yechish usullarini o‘zlashtirishga intiladilar. Guruh a’zolari birgalashib ziddiyatlarga yechim topish ustida bahs munozaralarga kirishadilar. O‘yin davomida bo‘lajak murabbiylarga vaziyatlarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan mashqlar taqdim etiladi.

O‘yin yordamida bo‘lajak sport murabbiylari sportchilararo vujudga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etishning turli usullari va metodlarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilar. Natijada ular maqbul qarorlar qabul qilish, ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida sportchilar guruhi a’zolari bilan hamkorlikka kirishish, mashg‘ulotlar davomida sportchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan mahoratini egallashga harakat qiladilar.

O‘quvchilar ziddiyatning qanday vujudga kelishi, rivojlanishi, uni qanday bartaraf etish kerakligi haqida bilib olganlaridan keyin, ziddiyatli vaziyatlarni hosil qilib, undan chiqish yo‘llarini izlash metodlarini o‘zlashtiradilar. Bu jarayonda bo‘lajak sport murabbiylari hamkorlik strategiyalaridan unumli foydalanish usullarini egallashlari lozim. Shuningdek, bo‘lajak sport murabbiylarini sportchilararo ziddiyatlar, ularning kelib chiqish sabablarini qay darajada o‘rganganliklarini aniqlash maqsadida seminar mashg‘ulotlari, davra suhbatlari tashkil etish, referatlar yozdirish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sportchilar vujudga kelgan ziddiyatlarning sabablarini aniq bilib olgandan keyin unga bo‘lgan munosabatlari o‘zgaradi. Sportchilararo ziddiyatlarni bartarf etishda murabbiy sportchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish, ularda shaxslararo ijobiy munosabat tajribasini hosil qilishga yo‘naltirilgan o‘yin vaziyatlaridan samarali foydalana olishi lozim. Buning uchun murabbiy ham, sportchilar ham qadriyatli munosabat tajribasiga ega bo‘lishi, raqibini hurmat qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi talab etiladi. Natijada, sportchilararo ziddiyatlarga ijobiy yechim topish imkoniyati vujudga keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pedagogika ensiklopediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. // Toshkent. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320-b.

2. Кузьмина Н.В. Акмеологические основы развития коммуникативной культуры и творческой готовности бакалавра, магистра, специалиста: монография. –СПб.: Изд-во НУ «Центр стратегических исследований», 2015. – С 316.

3. Бодалев А.А. Акмеология. Настоящий человек. Каков он и как им становятся? / А.А. Бодалев, Н.В. Васина // Спб.: Речь, 2010. – С 224.

4. Деркач А.А., Селезнева Е.В. Акмеологическая культура личности. Содержание, закономерности, механизмы развития / Деркач А.А., Селезнева Е.В. – М.: МПСИ,МОДЭК, 2006. – С 496.

5. Safarova R.G. Akmeologik yondashuv asosida uzluksiz pedagogik ta’lim mazmunini modernizatsiyalash muammolari//“Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish strategiyalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari- FarDU, 2018 yil 20-21-aprel, 5-10-betlar.

**Abduhamid NURULLAEV,**
Buxoro davlat universiteti,
“Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi dotsenti

# JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISHGA ASOSLANGAN O‘QUV JARAYONINI LOYIHALASH BOSQICHLARI

**Annotatsiya**

Maqolada yosh sportchilarni tayyorlashning turli bosqichlarida chidamlilikni tarbiyalash vositalari va usullari tahlili taqdim etiladi, shuningdek, chidamlilik nima ekanligi batafsil muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar.** Loyiha, loyihalashtirish, chidamlilik, jismoniy sifat, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, o‘quvchi, jismoniy sifatlarni rivojlantirish

В статье представлен анализ средств и методов воспитания выносливости на разных этапах подготовки юных спортсменов, а также подробно обсуждается, что такое выносливость.

**Ключевые слова.** Проектирование, конструирование, выносливость, физическое качество, физическая культура, физическое воспитание, ученик, физическое развитие.

The article presents an analysis of the means and methods of endurance education at different stages of training of young athletes, and also discusses in detail what endurance is.

**Key words.** Design, construction, endurance, physical quality, physical culture, physical education, student, physical development.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” PF-60-son Farmonining IV bandida: jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish; respublikamiz yoshlari o‘rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish; O‘zbekistonda sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirish; barpo etiladigan har bir “Yashil hudud”da yugurish, velosipedda harakatlanish uchun “Salomatlik yo‘laklari” hamda badminton, stritbol va vorkaut maydonchalarini tashkil etish kabilar maqsad qilib belgilangan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda, ya’ni yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini yuqori darajada ushlab turish uchun yangi usul va vositalarni ishlab chiqish orqali jismoniy tarbiya sohasining uzluksiz rivojlanishini ta’minlash zarur.

Yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini samarali tashkil etishda, avvalambor, ularda jismoniy sifatlarni rivojlantirish muhim.

Jismoniy sifatlardan chidamlilik kuch, tezlik, chaqqonlik va moslashuvchanlik bilan birga eng muhim jismoniy fazilatlardan biridir. Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, umumiy chidamlilikning rivojlanishi tananing noqulay atrof-muhit sharoitlariga yanada samarali moslashishiga yordam beradi, tananing o‘ziga xos bo‘lmagan qarshiligini oshiradi.

Chidamlilikni rivojlantirish salomatlik uchun poydevor yaratishga yordam beradi - yurakni mustahkamlash va butun yurak-qon tomir tizimining faoliyatini yaxshilash, o‘pkalarni rivojlantirish va nafas olish tizimining funksiyalarini yaxshilash; jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash; metabolizmni yaxshilash, tana vaznini normallashtirish; asab tizimini mustahkamlash, optimizm va yaxshi

kayfiyat bilan to‘ldirish; faol hayotni uzaytirish va ijodiy uzoq umrga erishish.

Jismoniy tarbiya to‘g‘ri tanlangan jismoniy faoliyatni bajarishda umumiy tana harakati orqali shaxsning jismoniy, ijtimoiy, hissiy, aqliy va ma’naviy jihatdan maqbul rivojlanishiga yordam beradigan ta’lim dasturini loyihalashning ajralmas qismidir. Jismoniy tarbiya – bu harakat tajribasi orqali shaxsdagi o‘zgarishlar sodir bo‘ladigan jarayon. Jismoniy tarbiya nafaqat jismoniy rivojlanishga, balki jismoniy faoliyat orqali butun shaxsni tarbiyalashga ham qaratilgan.

Jismoniy tarbiya faol va sog‘lom turmush tarzini o‘rnatish va undan zavqlanish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma, bilim, qadriyat va munosabatlarni rivojlantiradi, shuningdek, o‘quvchilarning shaxsiy, guruhlar yoki jamoalar sifatida qiyinchiliklarga dosh berishga ishonchi va malakasini oshirish, keng ko‘lamli ta’lim faoliyatidir. Jismoniy tarbiya o‘quvchilarga inson harakati va sog‘lig‘i sohasidagi nazariyalar va ilovalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi va u shaxslar va jamiyat farovonligiga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya o‘quv fani sifatida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga muhim o‘rin tutadi.

Jismoniy tarbiya va sport inson faoliyatining mustaqil turi bo‘lib, uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati juda xilma-xildir.

Jismoniy tarbiya sog‘lom, jismonan barkamol, ijtimoiy faol, axloqiy jihatdan barqaror yosh avlodni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Jismoniy tarbiya tizimi – jismoniy tarbiyaning g‘oyaviy va ilmiy-uslubiy asoslari, shuningdek, fuqarolarning jismoniy tarbiyasini amalga oshiruvchi va nazorat qiluvchi tashkilot va muassasalar yig‘indisidir.

Jismoniy rivojlanish – bu inson tanasining individual va ijtimoiy hayoti davomida o‘zgarishi va uning tabiiy morfologik va funktsional xususiyatlariga aylanish jarayoni.

Jismoniy tarbiya vazifalarini bajarish maxsus tashkil etilgan amaliy jismoniy tarbiya darslarida amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini loyihalashtirish orqali jismoniy tarbiya vositalari, uslubiy tamoyillari va usullari amaliyotga tatbiq etiladi.

Bugungi kunga kelib, o‘qitish shakllari juda xilma-xildir. Shu bilan birga, o‘qitish shakllaridan kamida bittasini olib tashlash pedagogik jarayonning uzluksizligini buzishga olib keladi, shuningdek, jismoniy tarbiya muammolarini hal qilish sifatini pasaytiradi. Bu holat sinflar sonidan qat’iy nazar o‘quvchilar jismoniy sifatlarining barcha shakllarini har tomonlama rivojlantirish va ulardan foydalanishni taqozo etadi.

Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarga jismoniy sifat chidamlilikni rivojlantirishning muvaffaqiyatliligi va natijadorligi jismoniy tarbiya o‘qituvchisi tomonidan loyihaviy faoliyatni qanchalik o‘zlashtirib olganligiga bog‘liq, chunki bu faoliyat vaziyatga qarab texnologik yechimlarni takomillashtirishga qodir, yangi ta’lim yondashuvlari va usullarini ishlab chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ta’lim jarayoni loyihalashtirish muammosi V.S.Bezrukova, M.H. Maxmudov, B.Ma’murovlar tomonidan astroflicha o‘rganilgan.

Bezrukovaning fikricha, loyihaviy faoliyat – bu birinchi navbatda, ta’lim oluvchilar va pedagog o‘quv jarayonini tashkillashtirish faoliyatlarining asosiy qismlarini ishlab chiqishdan iborat. Har qanday loyihalash obyektining, bu pedagogik tizimmi, pedagogik jarayonmi, pedagogik vaziyatmi, uning asosiy qismi – uning ishtirokchilarining faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun, birinchi navbatda, o‘qituvchi va ta’lim oluvchining faoliyati loyihalashtiriladi. Loyihalash istalgan pedagogning (tashkilotchilik, bilish va muomala qila olish bilan bir qatorda) vazifasidir, maktabda o‘quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga imkon yaratadi.

Loyihaviy faoliyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi: muammo tahlili; maqsadning qo‘yilishi; unga erishish uchun vosita tanlash; axborotni izlash va qayta ishlash, uni tahlil qilish va umumlashtirish; olingan natijalarni baholash va xulosalar.

Predmetli faoliyat uch qismdan tashkil topadi: predmetli, faoliyatli va muloqatli. Loyihaviy faoliyat rivojlantiruvchi ta'lim uslublaridan biri bo'lib, mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmasini hosil qilishga yo'naltirilib (muammoning qo'yish, axborotlarni to'plash va uni qayta ishlash, tajriba- sinovlar o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish), ijodiy qobiliyat va mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga olib keladi, ta'lim jarayonida olingan bilimlarni birlashtiradi, hayotiy muhim muammolarni mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Loyihaviy faoliyatdan kutilayotgan natija o'quvchilar tomonidan jismoniy tarbiya o'quv predmetini o'rganish davrida mujassamlashgan bilim, mahorat va ko'nikmalarni tushunish va qo'llay olishdan iborat.

O'quv loyihasi – bu o'rganilgan mavzu yoki bo'limni yanada chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan, ta'lim jarayoniga tajriba, faoliyat asosida yondashuvga imkon beruvchi, tadqiqotchilik va izlanishga doir metodlardan foydalanishni talib etuvchi ta'limni tashkil etish shakli.

Loyiha (design - dizayn) – ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi. Loyiha (projekt) tushunchasi kengroq ma'noda ma'lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Loyihalashtirish – real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

"O'quv loyihasi" tushunchasi keng qamrovga ega bo'lib, quyidagi mazmunga ega: muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli; nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv vositalari va qurollari; rivojlantiruvchi, ta'lim va tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita.

O'quv loyihasidan foydalanish o'zida quyidagi maqsadlarni aks ettiradi: loyihaviy ta'lim jarayoni ishtirokchilarida o'z-o'ziga ishonchni qaror toptirish, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga erishish; tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish; qo'lga kiritiladigan natija uchun o'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash, ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida birgalikda hamkorlikdagi faoliyatga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.

Maktabdagi jismoniy tarbiya darsi o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda juda muhimdir. Jismoniy madaniyat nafaqat bolalar salomatligini yaxshilash, balki bolaning faolligi va muloqotchanligini oshirish uchun ham mo'ljallangan. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari mavsumga qarab maxsus jihozlangan sport zallari va ochiq maydonlarda o'tkaziladi. Sport zallarida ham, sport maydonchalarida ham standartlar va qoidalarga mos keladigan maxsus sharoitlar yaratilgan. Sport zalining maydoniga qarab, standartlar uning hududida qancha bola shug'ullanishi mumkinligini va qanday shamollatish va isitish tizimlarini ta'minlash kerakligini belgilaydi. Xonadonlar, kiyinish xonalari, yuvinish xonalari, sport anjomlari va jihozlari zalning o'zida bo'lishi kerak. Ochiq maydonlarda qoidalar futbol darvozalari, basketbol savatlari va voleybol to'rlarining joylashishini nazarda tutadi.

Jismoniy madaniyat darsi uch qismdan iborat: tayyorgarlik, asosiy, yakuniy.

Darsning tayyorgarlik qismida o'qituvchi o'quvchilarning tashqi qiyofasini tekshiradi, darsning tarbiyaviy vazifalari haqida hisobot beradi. Nazariy ma'lumotlar bo'yicha bilimlarni tekshiradi, agar kerak bo'lsa, ushbu darsda yangi mashqlarni o'rgatadi yoki ilgari o'rganilganlarni takrorlaydi. Shundan so'ng yurish va yugurish mashqlari beriladi. Ular yugurishdan yurishga o'tadilar va umumiy rivojlanish mashqlarini bajarish uchun qayta qurishni amalga oshiradilar. Buning uchun o'quvchilarni 4, 6 ustun yoki aylana shaklida qurish mumkin. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar obyektlarsiz va narsalar bilan bo'lishi mumkin. Buyum sifatida gimnastika tayoqlari, arqonlar, gantellar, to'ldirilgan voleybol, basketbol va tennis to'plari, bayroqlar, gimnastika skameykalari

va boshqalar ishlatiladi. Gimnastika devorida, skameykada alohida mashqlarni bajarish mumkin.

Darsning asosiy qismida o‘quv vazifalari hal qilinadi. Asosiy vosita harakatini o‘rgatishdan oldin oddiydan murakkabgacha bo‘lgan prinsipga asoslanib, unga tayyorgarlik va yetakchi mashqlarni bajarish lozim. O‘qituvchi yangi mashqni o‘rgatishda oldingi darslarda olgan bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanishi, boshqa mashqlarda egallagan ko‘nikma va malakalaridan foydalanishi kerak. Darsning asosiy qismida yangi harakatni o‘rgatish, ilgari o‘rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash bilan bir qatorda, harakat sifatlarini (kuch, chidamlilik, tezlik, epchillik va boshqalar) rivojlantirish uchun mashqlar berish kerak.

Dars samaradorligini oshirish maqsadida o‘qituvchi quyidagilardan foydalanishi lozim: ko‘rgazmali qo‘llanmalar (diagrammalar, plakatlar, fotosuratlar va boshqalar), texnik o‘quv qo‘llanmalari (kino proeksiyasi, ovoz yozish va ovozni qayta tiklash). O‘quvchilarni tashkil etish shakllarini, o‘qitish vositalarini, usullarini va usullarini tanlash shunday bo‘lishi kerakki, ular darsning yuqori harakatchanligini va o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash uchun maqbul sharoitlarni ta’minlaydi.

Darsning yakuniy qismi turli xil pedagogik vazifalarni hal qilishni birlashtiradi: keyingi mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni ta’minlash, darsni yakunlash, keyingi darsga qo‘yish, uy vazifasi va boshqalar. Shuning uchun darsning yakuniy qismining mazmuni mazmuniga bog‘liq. Ushbu dars va boshqa bir qator shartlar bo‘yicha.

Darsning yakuniy qismida o‘qituvchi darsni yakunlaydi, 5-6 o‘quvchiga joriy baholarni qo‘yadi, har bir baho bo‘yicha qisqacha bahs yuritadi. O‘quvchilar tanasini nisbatan tinch holatga keltirish uchun mashqlar o‘tkaziladi. Shu maqsadda musiqaga bajariladigan o‘yinlar, raqs mashqlari, burg‘ulash mashqlari berilishi mumkin.

Darsning yakuniy qismida jismoniy faollikdan so‘ng o‘quvchilar tanasi tiklanadi, dars natijalari umumlashtiriladi, uyga vazifa beriladi. Ammo ushbu qismlarning mazmunida davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqqan holda o‘zgarishlar ro‘y bermoqda (o‘qitishning muammoli va qidiruv usullari ko‘pincha qo‘llaniladi). Faoliyat yondashuvi doirasida o‘qitish darsining mazmuniga misol keltiramiz. Darsning tayyorgarlik qismida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda darsning vazifalarini tuzadi, ularni o‘quv faoliyatiga undaydi.

O‘quv faoliyati uchun motivatsiya. Bu bosqich o‘quvchining sinfdagi o‘quv faoliyati makoniga ongli ravishda kirib borishini o‘z ichiga oladi. Shu maqsadda ushbu bosqichda uning o‘quv faoliyatiga motivatsiyasi tashkil etiladi, ya’ni:

– ta’lim faoliyati tomonidan unga qo‘yiladigan talablar yangilanadi (“bu menga nima uchun kerak”);

– ta’lim faoliyatiga qo‘shilish uchun ichki ehtiyojning paydo bo‘lishi uchun sharoitlar yaratiladi (“Men mashq qilishni xohlayman”);

– tematik asos yaratiladi (“ushbu texnikani o‘zlashtirgandan keyin nima qilishim mumkin”).

Ishlab chiqilgan namunada o‘quv faoliyatida adekvat o‘zini o‘zi belgilash va unda o‘zini o‘zi tasdiqlash jarayonlari mavjud bo‘lib, ular o‘quvchining haqiqiy “men”ini “Men ideal o‘quvchiman”obrazi bilan taqqoslashni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilar tanasini bo‘lajak faoliyatga (jismoniy faollik) tayyorlash. Ushbu bosqichda o‘zgarish quyidagicha bo‘ladi: 5-sinfdan boshlab umumiy rivojlanish mashqlari o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi kerak, har bir mashqni bajarish texnikasini tushuntirib, ko‘rsatishni (oynani) to‘g‘ri bajarish kerak. Umumiy rivojlanish mashqlarini frontal ravishda bajarish shart emas, Umumiy rivojlanish mashqlarini o‘tkazishning ko‘plab qiziqarli va xilma-xil usullari mavjud, masalan, juftlikda, aylanada, chiziqda, ustunda. Jismoniy madaniyat darsining asosiy qismi didaktik, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalarni hal qiladi.

O‘quvchilarga chidamlilik sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlarni bajarish va

ushbu mashqning texnikasini his qilish. Bu bosqichda o‘quvchilar mashqni bajarishga harakat qiladilar yoki agar mashq qilish texnikasi murakkab bo‘lsa, masalan, voleybol to‘pini ikki qo‘l bilan yuqoridan qabul qilish va uzatish texnikasi bo‘lsa, o‘tish mashqlarini bajarishga harakat qiladilar: bu yerda o‘quvchilar juft bo‘lib to‘g‘ri bajaradilar. Voleybolchining turishi, barmoqlarning to‘pga to‘g‘ri joylashishi (ish to‘p bilan juft va yakka tartibda bajarilishi mumkin), voleybolni turli traektoriyalar bo‘ylab (to‘g‘ri, baland, o‘rta) uloqtirish, parallel ishlashga e’tibor berish. Qo‘llar va oyoqlar. Buning uchun o‘quvchilar:

– mashq qanday bajarilishi haqida yaxshi va aniq tasavvurga ega bo‘lish;

– bajarilayotgan mashqning nazariy xususiyatlarini bilish;

– berilgan mashqni yoki berilgan mashq texnikasini guruhlarda yoki yakka tartibda bajarish.

Xatolar va ularning sabablarini aniqlash. Ushbu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarni qiyinchilikning joyi va sababini aniqlashni tashkil qiladi. Buning uchun o‘quvchilar:

– tugallangan mashqni tiklash va ularni bosqichlarga (og‘zaki va ramziy) ajratish va qiyinchilik (xato) yuzaga kelgan bosqichni aniqlash;

– o‘z harakatlaringizni ushbu mashqni (texnikani) bajarishda qo‘llaniladigan usul bilan bog‘lang va shu asosda qiyinchilik sababini aniqlang va tuzating (bu sinf yoki turdagi boshlang‘ich vazifa va vazifalarni hal qilish uchun etishmayotgan maxsus bilim, ko‘nikma yoki ko‘nikmalar).

Misol keltiraylik, voleybol mavzusini asos qilib olib, to‘pni yuqoridan ikki qo‘l bilan qabul qilish va uzatish texnikasini bosqichlarga ajratamiz: to‘pga yetib borish, boshlang‘ich pozitsiyasini tanlash, qabul qilish momenti, to‘pni uzatish ( bir vaqtning o‘zida ishlaydigan qo‘llar va oyoqlar), bilak bo‘g‘imlarida kengayish va elastik harakatlar barmoqlar to‘p yo‘nalishiga biriktirilgan. Shundan so‘ng xatolar va ularning sabablari aniqlanadi, masalan, to‘pni qabul qilish paytida qo‘llarni to‘pga noto‘g‘ri qo‘yish yoki qo‘l va oyoqlarning bir vaqtning o‘zida ishlamasligi (oyoqlar umuman ishlamaydi, faqat qo‘llar).

Qiyinchilikdan chiqish uchun loyihani qurish (maqsad va vazifa, usul, reja, vositalar). Ushbu bosqichda o‘quvchilar kelajakdagi o‘quv faoliyati uchun loyiha ustida o‘ylashadi: ular maqsad qo‘yadilar (maqsad har doim paydo bo‘lgan xatoni bartaraf etish), usulni tanlashadi, maqsadga erishish rejasini tuzadilar va vositalarni – algoritmlarni, modellar va boshqalar. Masalan, to‘pni qabul qilish va uzatishda oyoqlarning ishini yuqoriga ko‘tarish mashqlarini bajarish yoki to‘pni qabul qilish vaqtida qo‘llarni to‘g‘ri joylashtirish uchun tayyorgarlik mashqlari. Bu jarayonga o‘qituvchi rahbarlik qiladi: dastlab kirish suhbati, so‘ngra tezkor, so‘ngra tadqiqot usullari yordamida.

Qurilgan loyihani amalga oshirish. Ushbu bosqichda qurilgan loyihani amalga oshirish amalga oshiriladi: o‘quvchilar tomonidan taklif qilingan mashqning turli xil variantlari bajariladi va eng yaxshi variant tanlanadi. O‘quvchilar tayyorgarlik va ko‘tarish mashqlarini bajaradilar va bu texnikani yoki texnikani avtomatizmga keltiradilar. Tuzilgan harakat usuli qiyinchilik tug‘dirgan asl muammoni hal qilish uchun ishlatiladi. Xulosa qilib aytganda, yangi bilimlarning umumiy tabiati oydinlashtiriladi va ilgari paydo bo‘lgan qiyinchilikni bartaraf etish belgilanadi.

Ushbu mashqni bajarish texnikasining birlamchi bosqichi. Bu bosqichda o‘quvchilar mashqning o‘rganilgan texnikasiga ko‘ra old tomondan, guruhlarda, juftlikda tipik topshiriqlarni bajaradilar, masalan, voleybol to‘pini ikki qo‘l bilan yuqoridan juft bo‘lib joyida yoki safda qabul qilish va uzatish texnikasini bajarish. harakat bilan (1 raqam – to‘plar bilan voleybol maydoni bo‘ylab bir qatorda turadi, 2 raqam sport zali bo‘ylab harakatlanadi va to‘p bilan o‘quvchining oldida to‘xtab, aniqlik uchun qabul qilish va uzatishni amalga oshiradi).

Jismoniy mashqlar texnikasini mustahkamlash va takomillashtirish. Ushbu bosqichda mashq qilish texnikasining qo‘llanilishi chegaralari aniqlanadi va bu texnika oraliq bosqich sifatida taqdim etilgan vazifalar bajariladi. Ushbu bosqichni tashkil qilishda o‘qituvchi ilgari o‘rganilgan mashq takomillashtirilgan vazifalarni tanlaydi, bu esa kelajakda ushbu mashqni bajarishning

yangi usullarini joriy qilish uchun texnik ahamiyatga ega.

Standart bo‘yicha o‘z-o‘zini tekshirish uchun mustaqil ish. Ushbu bosqichda o‘quv jarayonining individual yoki guruh shakli qo‘llaniladi: o‘quvchilar o‘zlashtirilgan yangi texnikani mustaqil ravishda bajaradilar va bosqichma-bosqich standart bilan taqqoslab, o‘z-o‘zini tekshirishni amalga oshiradilar. Oxirida o‘quv faoliyati va nazorat tartib-qoidalarining tuzilgan loyihasini amalga oshirishning ijro etuvchi aks ettirilishi tashkil etiladi.

Navbatdagi bosqichning hissiy yo‘nalishi, agar iloji bo‘lsa, har bir o‘quvchi uchun uni keyingi kognitiv faoliyatga qo‘shishga undaydigan muvaffaqiyat holatini tashkil qilishdan iborat. Darsning yakuniy bosqichida jismoniy yuklamadan so‘ng o‘quvchilar tanasi tiklanadi, dars natijalari umumlashtiriladi, mulohaza yuritiladi va uyga vazifa beriladi. Jismoniy faollikdan keyin tanani tiklash past faollik yoki diqqat va muvofiqlashtirishning ochiq o‘yinlari yordamida amalga oshiriladi, masalan, “Burun, pol, ship”, “Daraxt, buta, o‘t”, “Diqqat sinfda” va boshqalar.

Jismoniy tarbiya darslarida mulohaza yuritish turli shakllarda, masalan, burg‘ulash mashqlari yordamida tashkil etilishi mumkin: “4” - oldinga, chapga qadam; “5”- o‘ngga buriling. Turli xil jihozlardan foydalangan holda, masalan, turli rangdagi bayroqlar yoki turli shakldagi to‘plar va boshqalar.

Uy vazifasi – bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchiga uyda bajaradigan vazifani tanlash huquqini berishi kerak. Bunday uy vazifalarining maqsadi o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, o‘rganishga qiziqishini uyg‘otish va ijodiy fikrlashni shakllantirishdir. Ularning uy vazifalari boshqa bolalarning ishlaridan shaxsiy ahamiyati va shuning uchun qimmatliligi bilan farq qiladi. O‘quvchilarni uy vazifalari bilan ortiqcha yuklamaslik uchun ularni ‘‘minimal-maksimal’’ tamoyili bo‘yicha qurish tavsiya etiladi – hamma uchun majburiy va fanga qiziqadigan va unga moyil bo‘lgan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan.

O‘quvchilarda chidamlilik jismoniy sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlardan iborat tarqatma material (kartateka)larni tayyorlash ham mumkin, o‘quvchilar o‘zlari uchun qiziqarli bo‘lgan vazifani mustaqil ravishda tanlaydilar, kartotekalarda topshiriqlar quyidagi tarkibda bo‘lishi mumkin: “Voleybolchining harakat texnikasi uchun kirish mashqlari”, “Voleybolni qabul qilishda barmoqlar uchun kirish mashqlari” va boshqalar. Kartotekalar soni ro‘yxatdagi o‘quvchilardan ikki yoki uchta ko‘p bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlar shuni ko‘rsatadiki, maktab o‘quvchilarining chidamlilik jismoniy sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv loyihasi tizimli amalga oshiriladi: ta’lim maqsad va vazifalari, o‘quv jarayonini tashkil etishning mazmuni, vositalari, usullari va shakllari, o‘qituvchi-murabbiyning kasbiy mahorati, pedagogik nazorat kabilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. IV. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish. 67-maqsad.

2. Polivaev, A.G. Jismoniy madaniyat bo‘yicha elektron taraqqiyot jurnalidan ball-reyting baholashning bir qismi sifatida foydalanish. Xalqaro konf.mat. – 2013. – C. 76–84-betlar

**Erkin QURBONOV,**
O‘zbekiston Respuplikasi Xalq ta’limi vazirligi
“Xalqaro reytinglar va ta’lim tadqiqotlari” sho‘basi mudiri

# TA’LIMNI MOLIYALASHTIRISH: XALQARO MODELLAR, USULLAR, TAJRIBA VA NATIJA

**Annotatsiya**

Maqolada ta’limni moliyalashtirishda vaucher tizimidan foydalanishning xalqaro tajriba va modellari haqida bayon qilinadi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimida vaucher tizimini qo‘llashning samaradorligi va natijalari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Vaucher tizimi, ta’limni moliyalashtirish, xorijiy tajriba, tadqiqot, iqtisod, siyosat.

В статье рассказывается о международном опыте и моделях использования ваучерной системы в финансировании образования. Также проанализирована эффективность и результаты применения ваучерной системы в системе образования зарубежных стран.

**Ключевые слова.** Ваучерная система, финансирование образования, зарубежный опыт, исследования, экономика, политика.

The article describes the international experience and models of using the voucher system in the financing of education. The effectiveness and results of the voucher system application in the education system of foreign countries are also analyzed.

**Key words.** Voucher system, education financing, foreign experience, research, economics, politics.

Maktab ta’limini moliyalashtirishni takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalari sifatida byudjetga moliyaviy yukning pasayishiga olib keladigan uslubiyotlarni ilmiy asoslash va amaliyotga joriy etish muhimdir. Shu o‘rinda xorijiy tajribalardan biri maqsadli, o‘quvchi soniga qarab moliyalashtirish – vaucher tizimiga e’tibor qaratmoqchimiz.

Vaucher nima?

Ta’lim vaucherlari g‘oyasi amerikalik iqtisodchi Milton Fridman tomonidan taklif etilgan. Vaucher moliyalashtirish tamoyili bo‘lib, unda “pul o‘quvchiga ergashadi”, ya’ni, mablag‘lar ta’lim muassasasiga emas, balki bevosita o‘quvchilarga vaucher shaklida teng taqsimlanadi. O‘quvchilar va ularning ota-onalari mulkchilik shaklidan (davlat, xususiy) qat’i nazar maktabni mustaqil tanlash huquqiga ega, bunda byudjet mablag‘lari ta’lim tashkilotiga emas, balki bolaga ergashadi. O‘quvchi bir maktabdan boshqasiga o‘tishni xohlasa unga ajratilgan mablag‘ keyingi ta’lim muassasasiga o‘tkaziladi. Ta’lim muassasasi qabul qilingan vaucherlar soniga qarab ichki byudjetini shakllantiradi. Mazkur mablag‘lar doirasida har bir o‘quvchi davlat tomonidan kafolatlangan ta’lim xizmatlarini olish huquqiga ega bo‘ladi.

O‘quvchi va ularning ota-onalarida ta’lim maskanini tanlash huquqi maktablar o‘rtasida ta’lim sifati uchun sog‘lom raqobatning o‘sishini rag‘batlantiradi, moliyaviy resurslarni moliyalashtirish va sarflashning shaffofligini oshiradi. Shuningdek, ta’lim vaucherlari o‘quvchilarning ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini maqsadli qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.

Odatda vaucher miqdori har xil bo‘ladi, ammo bu deyarli har doim xususiy maktabning taxminiy o‘rtacha narxiga to‘g‘ri keladi. Agar xususiy maktabda o‘qish narxi yuqoriroq bo‘lsa,

vaucher miqdori va maktabdagi o‘qish to‘lovi o‘rtasidagi farqni ota-onalarning o‘zlari to‘laydilar.

Xorijiy mamlakatlar ta’limida vaucher tizimi

1992-1994-yillarda Shvetsiya ta’lim sohasida dunyodagi eng tub islohotlardan birini amalga oshirdi. Shvedlar davlat va xususiy maktablar orasida erkin tanlov qilish imkonini beruvchi maktab vaucherlari tizimi joriy etishdi. Vaucher mahalliy hokimiyatning davlat mablag‘lari hisobidan to‘g‘ridan-tg‘ri maktabga, faqat o‘quvchilar soniga qarab to‘lanadi. 2004-yilda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, vaucher tizimining joriy etilishi maktablar o‘rtasidagi raqobatni o‘sishiga, bu esa o‘z o‘rnida ta’lim sifatini oshishiga sabab bo‘lgan.

1981-yilda Chili boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘quvchilari uchun universal maktab vaucher tizimini joriy qildi. Buning natijasida 1000 dan ortiq xususiy maktablar ta’lim bozoriga kirdi va 1998-yilga kelib, xususiy maktablarda o‘quvchilar qamrovi 20-40 foizga, ayrim shaharlarda 50 foizdan ham oshdi. Vaucherning moliyaviy qiymati uni olgan oilaning daromadiga bog‘liq bo‘lmay, vaucher asosida o‘quvchiga xususiy maktablarni tanlash imkonini berdi, davlat maktablari esa har bir qiziqqan o‘quvchini qabul qilishi va ro‘yxatdan o‘tkazishi majburiy edi.

XXI asrning boshlarida Chilida talabalarning akademik ko‘rsatkichlari xalqaro testlar natijalariga ko‘ra, boshqa mamlakatlardagi talabalarga nisbatan past edi. Ushbu nomuvofiqlik Chili hukumatini 2008-yilda ta’lim sohasida muhim islohotlarni, shu jumladan, maktab vaucher tizimiga katta o‘zgarishlar kiritishga olib keldi. Xususan, 2008-yil yanvar oyida Chili hukumati subsidiyalangan maktab grantlari (SEP) to‘g‘risidagi qonunni qabul qildi. Qonunga muvofiq vaucher tizimiga oilaviy daromadni hisobga olgan holda o‘zgartirish kiritildi.

Oilaviy daromadi 40 foizdan kam bo‘lganlarga beriladigan vaucherlar yuqori daromadli oilalarga berilgan vaucherlardan 50 foiz qimmatroq edi. Bunday vaucherga ega bo‘lgan maktablar har bir o‘quvchi uchun nafaqa olish huquqiga ega edilar, ularning miqdori umumiy o‘quvchilar tarkibidagi tabaqalashtirilgan vaucherga ega o‘quvchilar foiziga bog‘liq edi.

Buyuk Britaniyadagi maktablarda “Ta’lim olishga yordam” (Assisted Places)deb nomlangan vaucher dasturi joriy etilgan bo‘lib, uning maqsadi kam ta’minlangan oilalardan bo‘lgan iqtidorli o‘quvchilariga sifatli ta’lim olishlari uchun ko‘proq imkoniyatlar yaratishdan iborat edi. O‘quvchilarga ta’lim va fan departametida ro‘yxatdan o‘tgan mustaqil maktablarda o‘qish uchun moliyaviy yordam ajratiladi. 1992-yilda vaucherning qiymati yiliga o‘rtacha 3500 dollarni tashkil etgan. 1995-yilda o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, 29800 nafar o‘quvchilar 294 ta mustaqil maktablarda ta’lim olganlar. Dasturdan har yili asosan 11-13 yosh atrofidagi 5000 ga yaqin o‘quvchilar foydalangan. Maktab ta’limiga joriy etilgan vaucher tizimining ijobiy natija berishi oqibatida bu tizim kasbiy ta’limga (communitu colleges) ham joriy etilgan. Lekin, 1997-yilda Toni Bler hukumat rahbari sifatida davlat mablag‘larini isrof qilish ekanligini da’vo qilib, “Ta’lim olishga yordam” dasturini bekor qildi. Hukumat bu mablag‘lar o‘rniga davlat bog‘chalaridagi guruhlardagi bolalar sonini qisqartirish uchun ishlatilishini ma’lum qildi.

Vaucher tizimini joriy etishda Gruziya tajribasi e’tiborga loyiq. Gruziyaning “Umumiy ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida vaucher tizimini joriy etish, undan foydalanish tartib va qoidalari keltirilgan. Unga ko‘ra, har bir o‘quvchining ta’lim olish huquqi Qonun bilan belgilangan bo‘lib, o‘quvchining ta’lim olishi davlat tomonidan ajratilgan vaucher tizimi asosida amalga oshiriladi. Qonunga ko‘ra, ta’lim davlat byudjeti hisobidan tegishli moliyaviy standart asosida har bir o‘quvchi uchun hisoblangan vaucher bo‘yicha moliyalashtiriladi. Vaucher umumiy ta’lim muassasasining o‘quvchi uchun joriy xarajatlarini qoplaganidan keyin qolgan summa mazkur muassasaning kapital xarajatlarini qoplash uchun ishlatilishi mumkin.

Shuningdek, Gruziyada o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish va malakasini oshirishda umumiy ta’lim muassasasining mablag‘lari, shu jumladan, vaucher bilan moliyalashtirishdan olingan daromadlar asosida ham amalga oshiriladi. Umuman olganda, 2006-yilda boshlangan maktab

ta’limiga vaucher tizimini joriy etish islohoti natijasida, Gruziyada maktablarning yuridik jihatdan mustaqillikka erishishi, ular o‘rtasida raqobatni o‘sishi, moliyaviy faoliyat shaffofligi, o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashiga motivatsiyasi oshishi va natijada ta’lim sifatini yuqorilashiga erishildi.

Qo‘shni Qirg‘izistonda ham vaucher tizimini joriy qilish haqida birinchi bor 2015-yilda birlamchi harakatlar boshlangan. Qirg‘izistonda moliyalashtirish markazlashgani, maktablarga moliyaviy mustaqillik berilishi qanday natijaga olib kelishi aniq emasligi va xorijiy tajriba tahlili, vaucher tizimining ta’lim sifatini oshirishda o‘rni borasidagi bahs-munozalar yakuniy xulosaga kelmaganligini inobatga olib, tajriba sifatida o‘tkazish rejalashtirilgan. Ta’lim vaziri A.Beyshenaliyev matbuot xodimlari bilan uchrashuvda vaucher tizimini 2023-o‘quv yilidan pilot shaklda ikkita tuman maktablarida joriy etilishi rejalashtirilganligini bildirgan. Pilot natijalaridan kelib chiqib, uni joriy etish yoki etmaslik masalalari o‘rganiladi.

Vaucher tizimini joriy etishning “+” va “-”

Har bir islohotlarning tarafdorlari bo‘lgani kabi, unga qarshi fikrlar ham bo‘ladi.

Maktablarda vaucher tizimini joriy etish tarafdorlari ta’kidlashlaricha, bu tizim ota-onalar va o‘quvchilarga vaucherlar qo‘llaniladigan maktabni tanlash imkonini berib, xususiy va davlat maktablari o‘rtasida erkin bozor raqobatini rivojlantiradi. Bu esa, maktablar rahbariyati va o‘qituvchilarining o‘z ustida ishlashlariga turtki bo‘ladi. Shuningdek, tarafdorlar fikricha, vaucher tizimi maktablar samaradorligi va hisobdorligini, uning moliyaviy faoliyati shaffofligini oshiradi, chunki u o‘quvchilar va ularning ota-onalariga tanlash imkonini berish orqali iste’molchilarning suverenitetini ta’minlaydi. Shuningdek, vaucherdan ortib qolgan pul ta’lim muassassasining joriy ta’mirlashi, moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga sarflanishi ham tarafdorlar fikricha yaxshi natijalardan biri hisoblanadi.

Maktablarda vaucher tizimini joriy etishga qarshilarning eng asosiy argumentlardan biri, bu mablag‘larning maktablar o‘rtasida teng taqsimlanmasligidadir. Bunga asos, o‘quvchi qaysi maktabni tanlasa, unda o‘quvchi soni ham, moliyalashtirish ham yuqori bo‘lishidadir. Shuningdek, tanlov huquqi o‘quvchilar tarbiyasi va maktabdagi sog‘lom muhitga salbiy ta’sir etishi ham e’tirof etiladi. Shuningdek, bu omil maktab ma’muriyatining ham o‘quvchilar sonini saqlab qolish uchun intizomga rioya etmaslikka ko‘z yumishlariga sabab bo‘lishi mumkin.

Yana bir masala, bu vaucher tizimi katta va o‘quvchi soni ko‘p bo‘lgan maktablarda kichik maktablarga qaraganda foydaliroq ekanligi haqidagi tahlillar bo‘lib, qishloq maktablari, olis va tog‘li rayonlardagi maktablarda vaucher tizimini joriy etilishi ushbu maktablarning sarf-xarajatini qoplash uchun ham yetarli bo‘lmasligi va bu maktablarni yopilishiga hamda migratsiyaga sabab bo‘lishi mumkinligi vaucher tizimini joriy etish har tomonlama tahlillar va o‘rganishlar asosida joriy etilishi kerakligini bildiradi.

Vaucher tizimi ta’lim sifatini yaxshilaydimi?

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, vaucher tizimi moliyaviy masalalar shaffofligini, maktablararo raqobatni oshiradi. Lekin, aynan ta’lim sifatining oshishida aniq tasdiqlangan tadqiqotlar mavjud emas.

Shu o‘rinda, sifatli ta’limni ta’minlashdagi eng muhim ijrochilar o‘qituvchilarning malakasini oshirish masalasiga to‘xtalib o‘tsak. Bugungi kunda, O‘zbekistonda o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish, ularning malakasini oshirish masalalari bilan A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti shug‘ullanadi. Institut tomonidan “Uzluksiz kasbiy rivojlanish” onlayn ta’lim platformasi ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘qituvchilar uchun muntazam ravishda har yili 36 soatlik kurslar shaklida taqdim etib kelinmoqda. Albatta, bu tizim avvalgi bir oylik o‘qishlardan soni va sifati bilan keskin farq qiladi. Lekin, shunga qaramasdan, o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish va malakasini oshirish masalalarida vaucher tizimini joriy etish masalasini o‘rganib chiqish taklif etiladi. Bunda, ham xuddi “pul o‘quvchiga ergashadi” tamoyili asosida “pul o‘qituvchiga ergashadi” tamoyili ishlaydi. O‘qituvchi vaucher asosida o‘z

fani bo‘yicha xorijiy universitetlar tomonidan o‘tkazilayotgan onlayn o‘quvlar, mamlakatimizdagi xususiy o‘quv kurslarida ta’lim olishlari va malaka oshirishlari mumkin bo‘ladi. O‘qituvchilarning turli ta’lim tashkilotlarida (mulkchilik shaklidan qat’i nazar) malakasini oshirish imkoniyatini berish orqali sog‘lom raqobatni oshirish va natijada ta’lim sifatini oshirishga erishish mumkin.

Shuningdek, Buyuk Britaniya tajribasidan kelib chiqib, iqtidorli o‘quvchilarga vaucher berish tizimini joriy etish mumkin. Misol sifatida, xalqaro olimpiadalarga saralab olingan o‘quvchilarga (har bir fandan 15 nafardan) qo‘shimcha tayyorgarlik ko‘rishlari uchun vaucher ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu mablag‘ hisobidan ular xalqaro olimpiadalarga ko‘proq qo‘shimcha tayyorgarlik ko‘radi. O‘zlari ma’qul ko‘rgan o‘quv markazlarida o‘qishlari mumkin. Kitob va qo‘shimcha o‘quv materiallari sotib olish imkoniyati ham yaratiladi.

Umuman olganda, ta’limni moliyalashtirishda vaucher tizimini qo‘llash yaxshi natija berishi, taklif etilayotgan yechimlar moliyalashtirishni ko‘paytirishni emas, balki mavjud mablag‘larni samarali taqsimlashga va ehtimol, byudjetni tejashga olib kelishi, eng muhimi, taklif etilayotgan yechimlar maktab ta’limi sifatining o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Полгар М.А., Угланов Р.А., Право на доступное и качественное образование для всех народов мира: опыт Грузии. Океансикий менежмент №1 С (14), 2022 г.

2. Шаруфутдинова Д.А., Приоритетные направления финансирования школьного образования в Узбекистане. International scientific and practical conference, 100-105 б, 2021 й.

3. Вахитов Д.Р., и др. Ваучерная форма как инструмент повышения качества получаемого образования. Мир науки, культуры и образования. №2 (81), 2020 г.

4. Azimov A.E., Ta’lim tizimini moliyalashtirishning xorij tajribasi. Zamonaviy ta’lim/Sovremennoe obrazovanie.№2 (17-18), 2014-y.

5. Gruziya Respublikasining “Umumiy ta'lim to‘g‘risida”gi 3528-sonli Qonuni.

**Nazira ABDUQODIROVA,**
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qtuvchisi

# BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH SHAKLLARI VA METODLARI

**Annotatsiya**

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim konsepsiyasida ham belgilangan bosh maqsad va vazifalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun yozilgan yangi dasturlar mazmunini amalga oshirishga qadar aniqlana boradi. Ushbu maqolada bolalarni maktab ta'lıimiga tayyorlash shakllari va metodları haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Musiqiy-badiiy tarbiya, jismoniy tarbiya, psixologik xususiyatlar, etnopsixologik xususiyatlar.

Главные цели и задачи, обозначенные в концепции дошкольного образования Республики Узбекистан, будут определяться вплоть до реализации содержания новых программ, написанных для дошкольных образовательных организаций. В данной статье рассматриваются формы и методы подготовки детей к школьному обучению.

**Ключевые слова.** Музыкально-художественное воспитание, физическое воспитание, психологические особенности, этнопсихологические особенности.

The main goals and objectives outlined in the concept of preschool education of the Republic of Uzbekistan will be determined up to the implementation of the content of new programs written for preschool educational organizations. This article discusses the forms and methods of preparing children for school.

**Key words.** Musical and artistic education, physical education, psychological characteristics, ethnopsychological features.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolaning o'sishidagi psixologik va etnopsixologik xususiyatlarga asoslanib, ta'lim-tarbiya tizimida odob estetik, musiqiy-badiiy, jismoniy tarbiyani birinchi o'ringa chiqarish, grammatikani bu qadar majburiy o'rgatmaslik lozim bo'ladi. Shunday yo'l bilan maqsad asosida vazifa va usullar belgilanadi va rivojlantiriladi. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarda tub islohotlarni olib bordi. Xususan, ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim sohasidagi boshqa qonunlar buning yaqqol dalilidir. Bulardan ko'zlangan maqsad yoki davlatimizga kerakli bo'lgan yetuk, har tomonlama kamol topgan barkamol shaxsni tarbiyalash va ularni jamiyatda o'z o'rnini topishga imkoniyatlar yaratib berishdan iborat qilib qo'yilgan. Albatta, bu xayrli ishlarni ta'lim-tarbiyani birinchi bugini bo'lgan oila, maktabgacha ta'lim tashkilotidan olib borish maqsadga muvofiqdir, deb ko'rsatib o'tilgan. Shunday ekan, biz birinchi navbatda maktabgacha ta'lim tizimiga e'tibor berishimiz, ularni yetuk malakali mutaxassislar bilan boyitishimiz zarurdir. Tarbiyalanayotgan bolalarni har tomonlama bilimli odob-axloqli qilib tarbiyalash bizning oliy maqsadimizdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilish va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik g'oyalariga sodiqholda voyaga yetib borishni ta'minlash, ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan

davlat talablariga muvofiq maktab ta’limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida amalga oshiriladi.

Har bir oila barkamol avlodni tarbiyalash uchun qayg‘urishi lozim. Shu bois “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun hamda ‘‘Kadrlar tayyorlash milliy dasturi’’da mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashning asosiy omili bo‘lgan kadrlarni tayyorlash borasidagi eng zarur tadbirlar tizimi belgilab berildi. Sog‘lom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor yo‘nalishidir.

Inson uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan. Maktabgacha ta’lim bola sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta’minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorladi. Maktabgacha ta’lim, bola 6-7 yoshga yetguncha oilada, hamda davlat va nodavlat (davlatga qarashli bo‘lmagan) maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’limning asosiy vazifalari quyidagilar deb belgilanadi:

– bolalarni xalqning boy milliy, madaniy tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;

– bolalarda milliy g‘urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;

– maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishdagi ta’lim jarayoniga tayyorlash;

– bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o‘zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;

– bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘ligini ta’minlash kabilarni o‘z oldiga maqsad qilib belgilaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yasli va maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalar guruhlariga bir xil yoshdagi, shuningdek, turli yoshdagi bolalar qabul qilinishi mumkin.

Guruhlardagi bolalar soni quyidagicha belgilanadi:

– 3yoshdan4-5yoshgacha – 20-25ta.

– 5-6 yoshdan 6-7yoshgacha – 25-30 ta.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hududlarining demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, MTTlarini tashkil etish va tugatish Qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ularning yo‘nalishlariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

– davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

– nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

– qo‘shma tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

– ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari turlari ota-onalar tomonidan tanlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni qabul qilish tartibi, ularni bir muassasadan ikkinchisiga ko‘chirish, muassasadan chiqarish davlat muassasalarida Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan belgilangan tartibda, davlatga qarashli bo‘lmagan Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida esa

tashkilotning Ustavi bilan belgilanadi.

Aqliy va jismoniy rivojlanishda kamchiliklari mavjud bo‘lgan bolalar uchun maxsus Maktabgacha ta’lim tashkilotlari yoki guruhlar tashkil etish ham “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risida”gi Nizomda ko‘rsatib o‘tilgan.

Har bir sohada bo‘lganidek, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tizimida ham Maktabgacha ta’lim tashkilotiga tegishli ma’lumotga, kasb tayyorgarligiga hamda yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga egadirlar. Ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolati davlat organlari tomonidan pedagogik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, kasb sifatini raqobatbardoshlik darajada saqlab turish ta’minlanadi.

Pedagogik kadrlarning o‘zaro munosabatlari hamkorlik, demokratiya, hurmat, shaxsning o‘z qadr-qimmatini bilishni e’tirof pedagogikasi asosida ko‘riladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablariga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga integral tarzda ta’lim-tarbiya berish maqsadida tayanch dasturlari taqdim etilmoqda. Bu tayanch dasturlari bugungi kunda maktabgacha ta’lim-tarbiya muassasalariga jalb etilmagan 3 milliondan ortiq bolani ham rivojlantirish va yagona davlat talablari asosida maktabga tayyorlash imkonini beradi. Ta’lim-tarbiya jarayoni yakunida mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so‘z bilan aytganda barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilandi. Bu uzluksiz ta’lim tizimining ilk turi-maktabgacha ta’limga o‘ziga xos yondoshuvni talab etar edi.

Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, davlat va jamiyat hamda ota-ona zimmasiga uni sog‘lom, aqlli, xush xulqli qilib tarbiyalash vazifasi qo‘yildi.

Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so‘ng ta’limiy faoliyatlar, o‘yinlar va boshqa faoliyatlar orqali amalga oshirildi. Bola har doim buyumlar, hodisalar orasida bo‘ladi. Doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab kuradi, nimagadir quloq soladi, shu tarzda bola dunyoni anglaydi. Tevarak- atrof buyum va narsalar bolalarining sezgi organlariga, analizatorlarga ta’sir etadi va sezgi hosil bo‘ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. Bolada aqliy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, eng oddiy faoliyat usullari predmetlarini tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratib ko‘rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

Bu ko‘nikma, malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlarga bo‘lib, bola bilimlarni chuqur egallab olishga yordam beradi.

Pedagogika, psixologiya fani aqliy tarbiya vazifalarini samarali hal etish, birinchi navbatda, bolaning imkoniyatlarini to‘g‘ri foydalanishni, ikkinchi tomondan bola organizmining charchashiga sabab bo‘ladigan ortiqcha zo‘riqish bo‘lmasligi kerak, degan fikrni ilgari suradi. To‘g‘ri tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to‘laqonli aqliy rivojlanish ro‘y beradi. Shu sababli pedagoglarning vazifasi muayyan maqsadni ko‘zlab, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish uchun kerakli sharoitni yaratish bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali so‘ng ta’limiy faoliyatlari va boshqa faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishlari, ularni aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko‘nikmalarini egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishlari uchun, bo‘lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi bilimlar tizimini ilmiy dunoqarashini shakllantirish. Bola tevarak-atrofdagi narsalar, ularning vazifasi, sifati, xossalari haqida, qaysi materiallardan foydalanganligi, tayyorlanganligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

2. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq va boshqalar. Bilimga doir nutqni rivojlantirish aqliy tarbiyaning erkin vazifasidir.

3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlning sinchkovligini rivojlantirish va shu asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

4. Aqliy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, ya’ni oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratib ko‘rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

O‘simlik va hayvonlar bilan tanishish bo‘yicha tizimli mashg‘ulotlar olib borilgandan keyin bolalar o‘simlik, yosh hayvonlar to‘g‘risidagi ma’lum bir tasavvurga ega bo‘ladilar. So‘ngra bolalardagi aqliy ko‘nikma, malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan o‘yinli ta’lim faoliyatini o‘tkazishni rejalashtirish mumkin. Bular quyidagilar:

“Sen ta’rifla, men topaman”.

Didaktik vazifa: Kattalarning savollariga narsaning xarakterli belgisini ajratib va nomini aytib javob berish.

O‘yin harakati: Kattalarga topishmoqni aytish.

O‘yin qoidasi: Ta’riflanayotgan narsaning nomini aytish mumkin emas.

Tarbiyachining savollariga aniq va to‘g‘ri javob berish.

Jihozlash : Sabzavot va mevalarni stol ustiga qo‘yiladi. Tarbiyachi stulini o‘simliklar ko‘rinmaydigan qilib qo‘yiladi.

O‘yinning borishi:Tarbiyachi bolalarga stol ustidagi sabzavotlardan bittasini tanlang. Men sizdan uning qandayligini surayman. Siz javob berasiz. Faqat uning nomini aytmang. Sizlarning javoblaringizdan men uni topishga harakat qilaman. Keyin tartib bilan tarbiyachi savol beradi: ‘‘Shakli qanday?, Hamma tomoni shardek dumaloqmi?,Chuqurchasi bormi?,Rangi qanday?,’’va boshqalar.

Bolalar savollarga to‘la javob berishadi. Bolalar narsaning xarakterli belgilari haqida gapirib berganlaridan keyin tarbiyachi topishmoqni topadi.

Ta’limiy faoliyatda, o‘yinda, tabiat burchagida va maydonchadagi mehnatda, ekskursiya va sayr vaqtida tarbiyachi bolalarga atrofdagi olamning turli-tumanligini, chiroyini ko‘rsatadi, o‘simlikning turli xususiyatlari, sifatlari bilan tanishtiradi, o‘simlik va hayvonot olami haqida elementar tushunchani shakllantiradi. Tarbiyachining hikoyasidan faolroq o‘zlashtirib olishga bolalarning jozibali munosabati imkon beradi. Ta’limiy faoliyatlarda, didaktik o‘yinlarda qo‘yilgan vazifani hal etishda bola buyum va hodisalarning ayrim xususiyatlarini ajratishga, solishtirishga, umumiy xususiyatlarga, belgilariga qarab guruhlarga ajratishga, klassifikatsiya etishga o‘rganadilar. Bolalar fikr yuritishga, xulosalar chiqarishga o‘rganadi, bolalar diqqati, xotirasi va ixtiyoriy idroki rivojlanadi. Ta’limiy faoliyatni, o‘yin vazifasini hal etishda bola o‘zining xatti-harakatini tushuntiradi. Bu esa nutqining o‘sishiga yordam beradi. Ta’limiy faoliyatlar, didaktik o‘yinlar davomida turli maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘p marotaba ta krorlashorqalibolalarbog‘chasiningta’lim-tarbiyadasturigaxosbilimlarmajmuini uzlashtiradilar. Tabiiy materiallar bilan uynaladigan o‘yinlarni tanlashtirishda tarbiyachi o‘yinning mazmuni atrof muhitdagi tabiatdagi o‘zgarishlarga mosligini unutmasligi lozim.

Masalan: “Urug‘ sotib olish” o‘yini bahorda, “Hosil yigishtirish” esa yoz yoki kuzda o‘tkazilishi kerak. Tarbiyachining o‘zi ham ta’limiy faoliyat, o‘yinning turlicha variantlarini o‘ylashi mumkin: o‘yinga, ta’limiy faoliyatlarga qo`shimcha vazifa, yangi rol, bolalarning atrofdagi tabiat haqidagi bilimlarini boyitishga va boshqalar. Ba’zi bir xil didaktik o‘yinni turli variantda, turli yoshdagi bolalar uchun tavsiya etiladi. O‘yinlar o‘simliklar, hayvonlar yoki boshqa predmetlarning soni oshishi, turlicha qoida va o‘yin harakatlarining oshishi hisobiga

murakkablashadi. Masalan: paypaslab bilish uchun sabzi, bodring, olma va boshqalar olish mumkin, keyinchalik shakli o‘xshash bo‘lgan meva va sabzavotlarni kiritish mumkin.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga barg, gullar bilan o‘ynash ko‘pincha guruh xonasini, ovqat stolini bezash, guldasta, barglarni kattalarga, kichik bolalarga sovg‘a qilishga xohishlari bilan bog‘lanadi. Bunday o‘yinlarni, ta’limiy faoliyatni o‘tkazishda bolalarni o‘simliklarga nisbatan ehtiyotkorlikka, gullarni bekordan-bekorga uzmaslikka o‘rgatish lozim. Agar bola olma yoki boshqa predmetlarning shakliga diqqatini qaratgan bo‘lsa, unga olmani dumalatib ko‘rish, koptokdek silab kurish, uning silliqligini aniqlashni taklif etish lozim. Bolalarda rang, shakl, kattalik tushunchalarini ishlatishga o‘rgatish lozim. Xilma xil tabiat hodisasi olamida bolalarning bevosita kuzatishlari uchun eng tushunarligi o‘simlik va uy hayvonlaridir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni o‘simlik va hayvonlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda tabiatga nisbatan muhabbat tarbiyalanadi, hayvonlarni parvarishlashga, o‘simliklarni o‘stirishga nisbatan istaklari tarbiyalanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida 132-sonli 9-mart 2020-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2018-yil 18-iyundagi1-mh-son buyrug‘iga ilova. https://nrm.uz.

3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Mahmudova D.T., va boshqalar. – T., 2018-yil.

4. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – T.: Ilm ziyo, 2006.

5. Mavrulov A. Ma’naviy barkamol inson tarbiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2008.

6. Khaliqnazarovna, A. N. (2019). FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY OF PRESCHOOL CHILDREN. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

**Nargiza ABDUSAMATOVA,**
Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi

# INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA

**Annotatsiya**

Maqolada integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni erta yoshdan rivojlantirishning pedagogik zaruriyati, maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari, muhim pedagogik omillari xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar.** Integratsiya, yondashuv, erta yosh, rivojlanish, maktabgacha yosh davri, omillar.

В статье рассматривается педагогическая необходимость развития детей дошкольного возраста на основе комплексного подхода, специфических психологических особенностей дошкольников и важных педагогических факторов.

**Ключевые слова.** Интеграция, подход, ранние годы, развитие, дошкольный период, факторы.

The article discusses the pedagogical necessity of developing preschool children based on an integrated approach, specific psychological characteristics of preschool children, and important pedagogical factors.

**Key words.** Integration, approach, early years, development, preschool period, factors.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich qismi hisoblanib, bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha ta’lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida maktabgacha ta’limda ham me’yoriy-huquqiy bazani tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy, innovatsion-pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining tashkil etilishi, bolalarning erta yoshdan rivojlanish infratuzilmasini yaxshilash uchun 2018-yilda 100 mln. dollardan ortiq mablag‘ ajratilishi va vazirlikning xalqaro tashkilotlar bilan ushbu masala yuzasidan yaqin hamkorligi ayni ijobiy tamoyilning yaqqol misollaridir.

Maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish vazifalarini amalga oshirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Konsepsiyada maktabgacha ta’lim – maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehti-

yojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon sifatida belgilandi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining 2-bob 3-bandida integratsiya tushunchasiga alohida to'xtalib, integratsiya-bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlovchi jarayon ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

"Integratsiya" so'zi lug'atlarda izohlanishicha lotincha "integration" so'zidan olingan bo'lib, qayta qurish, tiklash, to'ldirish ("integr" – to'liq, butun, yaxlit degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, boshqa bir lug'atlarda "integratsiya" – o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, "integrirovat" – bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq, deyilsa, sohaviy lug'atlarda "integratsiya" – o'qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish, deb izohlanadi.

Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni erta yoshdan rivojlantirish ularning yosh va individual xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin:

– birinchi davr – bu 3-4 yosh oraligida bo'lib, bola emotsional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir;

– ikkinchi davr – bu 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o'z-o'zini boshqarish;

– uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishda maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatlariga, rivojlanish sohalariga va faollik markazlariga integratsion yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki maktabgacha yosh davrida bolalarda aqliy va axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Aqliy va axloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Aqliy va axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida o'tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa, maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning erta yoshdan rivojlanishida ahamiyati juda kattadir.

Maktabgacha yoshdagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari – bu bolaning tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'yiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib, yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. O'zini namoyon qilish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu motiv, asosan, bolalarning syujetli-rolli o'yinlarda asosiy rolni egallashga, boshqalar ustidan rahbarlik qilishga, musobaqaga kirishishga qo'rqmasligida, nima bo'lganida g'olib bo'lishga harakat qilishlarida ko'rinadi.

O'quv maskanigacha maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kattalar beradigan baholari juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq me'yor va qoidalarini o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallaydilar. Bunday me'yorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirishi uchun turli (o'yinchoq, rasmlar, ko'rgazmalar, badiiy adabiyot kabilar) vositalar yordam berishi mumkin. Maktabgacha yoshning oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga mu-

nosabat bilan bog‘liq bo‘lgan kishilarga nisbatan diqqat-e’tiborli, mehribonlik kabi shaxsiy sifatlar ham shakllanadi. Katta guruh yoshidagi bolalar ko‘p hollarda o‘z hatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar. 3-3-3,5yoshlar oraligida o‘zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o‘z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat, asosan, ularning o‘zlariga beradigan baholari asosida shakllanadi. 4 yoshli bolalar esa o‘z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 yoshli bolalar xali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek, o‘zlari haqida ma’lum bir xulosani bera olmaydilar. O‘z-o‘zini anglash layoqati katta guruh yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo‘lganini va kelajakda qanday bo‘lishini fikrlab ko‘rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan “Men kichkina paytimda qanday bo‘lgan edim?”, “Men katta bo‘lganimda qanday bo‘laman?” singari savollarida ko‘rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlari ega bo‘lishiga harakat qiladilar.

Nobel mukofoti laureati va Chikago universiteti professori Jeyms Hyekman (James Heckman) iqtisodiy tizimlarning inson qobiliyati va ko‘nikmalari (human skills) bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, har qanday yirik iqtisodiyot fuqarolarning malakasi, bilimi, qobiliyati va ko‘nikmalari rivojlanishiga asoslanadi. Binobarin, jamiyat va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun inson potensialini rivojlantirish va uni ro‘yobga chiqarish kerak.

Shuni ta’kidlash joizki, jamiyatda hamma ham teng imkoniyatga ega emas va ushbu omil bolalar rivojlanishiga maktabgacha bo‘lgan davrdanoq ta’sirini ko‘rsata boshlaydi. Ijtimoiy hayotda zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalar va muvaffaqiyatga erishishga yo‘naltirilgan xarakter juda erta yoshdan shakllanadi. Bolalar uch yoshga to‘lishi bilan hayotiy ko‘nikmalari orasida farq (skills gap) paydo bo‘la boshlaydi. Uni kamaytirishda yoki butunlay yo‘q qilishda o‘rta maktablarning roli katta emas, deb yozadi Hyekman. Shu bois, davlatning asosiy vazifasi ijtimoiy ko‘nikmalarni maktabgagacha bo‘lgan davrda rivojlantirishdan iboratdir. Hyekman muvaffaqiyatga erishadigan bolalarni tarbiyalash haqida so‘z yuritar ekan, bir narsani unutmaslikni uqtiradi: genlar o‘z rolini o‘ynashi mumkin, ammo ijtimoiy va hayotiy ko‘nikmalar qotib qolgan tushunchalar emas. Bola shakllanishida oilaning ahamiyati katta, shuningdek, atrof muhit ham bunga o‘z hissasini qo‘shadi. Ijtimoiy ko‘nikmalarni bolaga o‘rgatishda va uni shaxs sifatida shakllantirishda erta yoshdagi davr juda muhim rol o‘ynaydi.

Olimning hisob-kitobiga ko‘ra, erta ta’lim uchun sarflangan xarajatlarning kamida 13 foizi kelajakda “jamiyatga qaytadi”. Bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarning erta yoshdan kognitiv qobiliyat bilan birga rivojlantirilishi kelgusida jamiyatga foyda keltiradigan fuqarolarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishning quyidagi foydali jihatlarini alohida ta’kidlash lozim bo‘ladi:

Birinchidan, turli ijtimoiy toifaga mansub bolalarning erta yoshda rivojlanishida paydo bo‘lgan farq ular kelajakda erishadigan muvaffaqiyat va yutuqlar orasidagi tafovut ortishiga sabab bo‘ladi. Ammo maktabgacha bo‘lgan davrdagi ta’lim orqali buning oldini olish mumkin. Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishga mablag‘ sarflash keyinchalik ular orasidagi rivojlanish farqi darajasini “yopish”dan ko‘ra ancha samaralidir.

Ikkinchidan, bu bolalarning sog‘lig‘iga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarda tug‘ilgan bolalar uchun erta yoshdan boshlab ta’lim olish imkoniyatlarini yaratish, ularning sog‘lom va to‘laqonli ovqatlanishiga ko‘maklashish sog‘ligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, bu kelajakda fuqarolarning daromadi oshishiga olib keladi. Bolalarni erta yoshdan rivojlanishini rag‘batlantirish orqali ularda kasb egallashga bo‘lgan ishtiyoqni erta shakllanishiga erishiladi. Natijada, kelajakda ularning jamiyatda o‘z o‘rnini muvaffaqiyatli

egallashga intilish, ish haqlarining boshqalarga nisbatan 25 foiz ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi.

To‘rtinchidan, bu “Mantiqiy chora” bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalar dasturlariga mablag‘ ajratish ahamiyatli ekani dunyoning ko‘plab mamlakatlarida e’tirof etilishi xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish va O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi.

Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni erta yoshdan rivojlantirish omillari sifatida quyidagilarni:

· bolalarning erta yoshdan rivojlanishi va ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish;

· maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘quv muhitini yaxshilash, ta’lim sifatini muntazam ravishda tekshirib baholagan holda keyingi qadamlarni belgilash va qaror qabul qilish;

· tarbiyachilar malakasini oshirish, bolalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash;

· maktabgacha ta’lim muassasalarini zarur uskunalar, texnik vositalar (kompyuterlar, printerlar), mebel va boshqa jihozlar bilan ta’minlash orqali erishish;

· ota-onalarga, shu jumladan, yosh onalarga, erta yoshdagi ta’lim va rivojlantirishning ahamiyatini keng miqyosda targ‘ib qilish;

· ilk yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish, salomatligini saqlash, sog‘lom ovqatlantirish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borish;

· ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy, psixologik rivojlanishiga yordam berishga qaratilgan maslahat xizmatlari ko‘rsatish;

· ilk yoshdagi bolalar nutq va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish;

· pedagog va ota-onalarga bolalarni erta rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko‘rsatish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, mustahkam jamiyat poydevorini qurishda, maktabgacha yoshdagi bolarning har tomonlama qobiliyatli va iste’dodli shaxs sifatida shakllanishi uchun erta yoshdan ta’lim olish imkoniyatini oshirish maktabgacha ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PQ-4312-son. 2019-yil 8-may.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti to‘g‘risida. 2020-yil 12-dekabr, 802-son.

3. Hasanboev J., To‘raqulov X. va b. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va tehnologiya, 2008-y.

4. Zaynab Muhammad-Do‘st. “Bolalar erta rivojlanishiga sarmoya kiritish qanchalik muhim?” https://www.uzanalytics.com/jamiyat. 2019-yil, 19-avgust.

5. Azimova Z.Tarbiyaviy ishlar tizimini integral diagnostik asosda takomillashtirish / monografiya. – T.: Muharrir. 2018 y. – 164-b.

6. Abdusamatova, N. (2021). Factors of integrated approach to spiritual and moral education of preschool children. Novateur Publication Journal, (10), 278-280.

7. Ф.А.Акрамова, Н.Х.Лутфуллаева, Х.Р.Хайдарова “Педагогик психология” фани (маърузалар матни). – Т.: ТДИУ, 2005 й. – 201 б.

**Maftuna USMONOVA,**
Farg'ona davlat universiteti, ''Kimyo'' kafedrasi o'qituvchisi

# TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR

**Annotatsiya**

Maqolada raqamli ta'lim transformatsiyasi sharoitida kadrlar salohiyatini raqamli ta'lim makoni talablariga moslashtirish, raqamli texnologiyalar to'lqinining rivojlanish bosqichlari, ta'lim muassalarida raqamli ta'lim muhitida o'quv mazmunini yangilanish xususiyatlari, o'quvchilarning raqamli iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirish hamda ta'lim sifati natijadorligi ta'minlash imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Raqamli ta'lim muhiti, raqamli texnologiyalar, raqamashtirish, texnik inqilob, raqamli ta'lim, transformatsiya, o'quvchi, metodika, ta'lim natijasi.

В статье рассматривается в условиях цифровой трансформации образования адаптация кадрового потенциала к требованиям цифрового образовательного пространства, этапы развития волны цифровых технологий, особенности актуализации содержания образования в цифровой образовательной среде в образовательных учреждениях, адаптация обучающихся к условиях цифровой экономики, а также возможности обеспечения эффективности качества образования.

**Ключевые слова.** Цифровая среда обучения, цифровые технологии, цифровизация, техническая революция, цифровое образование, трансформация, обучаемый, методология, образовательный результат

The article discusses in the context of the digital transformation of education, the adaptation of human resources to the requirements of the digital educational space, the stages of development of the wave of digital technologies, the features of updating the content of education in the digital educational environment in educational institutions, the adaptation of students to the conditions of the digital economy, as well as the possibility of ensuring the effectiveness of the quality of education.

**Key words.** Digital learning environment, digital technologies, digitalization, technological revolution, digital education, transformation, learner, methodology, educational result.

Dunyo ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning (RT) keng joriy etish, kadrlar salohiyatini raqamli ta'lim makoni talablariga moslashtirish, axborot-kommunikatsion muhitda faoliyat ko'rsatishga qodir raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ommaviy ta'lim tizimidan sifatli hamda har bir shaxsning barkamol rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan kasbiy faoliyatga yo'naltirishadigan ta'lim tizimiga o'tishni ta'minlash sohasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Mehnat bozoridagi raqobat bitiruvchilar tayyorlash mazmunini sifat jihatidan orttirishni talab etadi. Raqamlashtirish nafaqat ta'lim mazmuniga, balki uni tashkil etishga ham ta'sirqiladi.

Ta'limni raqamli transformatsiyalash ishiga yetakchi yuqori texnologik kompaniyalar salmoqli hissa qo'shmoqdalar. So'nggi yillarda RT liderlari (Microsoft asoschisi Bill Geyts, Facebook asoschisi Mark Sukerberg, Netflix bosh direktori Rid Xastings) bir necha marotaba o'qitish borasida yangicha yondashuvlarni yoyishga chaqirdilar,

ular rahbarlik qilayotgan jamg‘armalar esa bunday loyihalar qo‘llab-quvvatlash uchun katta mablag‘lar ajratdilar.

Misol tariqasida Facebook korproratsiyasi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Summit Learning loyihasi xizmat qilishi mumkin (The Summit Learning, 2017). Mazkur loyiha doirasida hozirgi vaqtda AQShdagi bir necha yuzlab umumta’lim maktablar Kaliforniyada jamlangan individuallashgan ta’limga o‘tish tajribasiga o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Facebook mutaxassislari mazkur maktablar individuallashgan ta’limdan foydalanishlari uchun portal yaratishga ko‘maklashdilar.

Texnologik inqilob ta’lim oldiga nafaqat yangi vazifalarni qo‘ymoqda, balki ularning yechimini topish uchun ko‘maklashadigan raqamli ta’lim (RT) xizmatini ham taqdim etmoqda. Biroq mamlakatimizda ulardan ta’lim sohasida foydalanish borasidagi sa’yi-harakatlar to‘lqinsimon tarzda o‘zgarib bormoqda.

Birinchi to‘lqin “aholi kompyuter savodxonligini ta’minlash” shiori ostida o‘tkan asrning 80-yil o‘rtalarida yuzaga keldi. 1991-yilda ta’lim muassasalarining to‘rtdan bir qismidan ko‘prog‘i hisoblash texnikasi xonalari bilan jihozlandi va kompyuter savodxonligiga o‘qitish mamlakatdagi barcha ta’lim muassasalari ta’lim dasturlarining bir qismiga aylandi. Ikkinchi to‘lqin “AKTlarini o‘quv jarayoniga joriy etish” shiori ostida 2000-yillarning o‘rtalarida boshlangan edi. Ta’lim jarayonida RTdan keng ko‘lamda foydalanish uchun poydevor solindi. Davlatning RTlardan foydalanish asosida innovatsion rivojlanish sohasidagi yangicha ustuvor yo‘nalishlari uchinchi to‘lqinning boshlanishiga sabab bo‘ldi.

Raqamli texnologiyalar tez sur’atlar bilan jadal rivojlanib, keng tarqalib yangilanib bormoqda va shu bilan birga raqamli materiallar va xizmatlarga yo‘l ochib bermoqda. Bu raqamli texnologiyalarni nostandart qo‘llab, ijodiy foydalanishga qodir bo‘lgan mutaxassislarning tadqiqot, kuzatish, loyihalash kabi faoliyatlarda muntazam operatsiyalar uchun foydalanish imkoniyatini yaratadi. O‘quvchilar va pedagoglar o‘zlarining axborot makonlarini nazorat qilish hamda undan birgalikda o‘zaro hamkorlik asosida foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Ularning o‘z-o‘zini hamda o‘zaro nazorat qilish, bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, o‘quv faoliyatini anglash (o‘quvchilar uchun) imkoniyatlari kengaydi. Virtual aniqlik (VA) texnologiyalari sun’iy intellekt texnologiyalari bilan tez birlashadi, biroq ulardan ta’limda foydalanishga doir metodik qo‘llanmalarning rivojlanish sur’atlari sekinlik bilan amalga oshmoqda. Shuning uchun, kelajakda yangi pedagogik imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladigan metodikalarning yangi-yangi toifasini yaratish lozim. Mazkur metodikalar o‘quvchilarning mustaqil ishlashi hamda kichik guruhlarda hamkorlik asosida faoliyat yuritishlariga asoslanadi. Har ikkala ish turi ham o‘qituvchi rolining o‘zgarishi, o‘quvchilarda muvofiq qobiliyatlarning shakllanishi hamda ta’lim jarayoni tarkibida mos ravishda faoliyat yuritish uchun makon va muhit yaratishni talab etadi. Ta’lim jarayonini tashkil etishning an’anaviy shakli va imkoniyatlari torayib bormoqda. Ta’lim jarayonini individual tarzda natijadorlikka qaratgan holda yo‘naltirish – RT pedagogik imkoniyatlari hamda ulardan foydalanishga asoslangan metodikalardan samarali foydalanish shartlaridan biridir.

Ta’lim sohasidagi transformatsion jarayonlar butun dunyo bo‘ylab rivojlanib bormoqda. Ular bizning mahalliy ta’limimiz uchun ham juda zarur va muhimdir. Raqamli iqtisodiyot har bir o‘quvchidan (nafaqat eng sara o‘quvchilar) 21-asr kompetensiyalariga (tanqidiy fikrlash, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari, o‘zining kundalik faoliyatida raqamli vositalar, manbalar va xizmatlardan to‘laqonli foydalana olish) ega bo‘lish, tezkor rivojlanuvchi raqamli muhitda mavjud bilimlarni ijodkorlik bilan foydalana olishni talab etadi. Ta’limning raqamli transformatsiyasi mazkur masalaning yechimini hal etishi lozim.

Ta’limning raqamli transformatsiyasi – bu rejalashtirilgan ta’lim natijalari, mazmuni, o‘quv faoliyati metodlari va tashkiliy shakllarining yangilanishi, shuningdek, har bir o‘quvchining ta’limiy natijalarini tubdan yaxshilash maqsadida tezkor rivojlanuvchi raqamli muhitda erishilgan natijalarni baholanishi demakdir. Vazifa yagona ta’lim jarayonida quyidagi omillarni uyg‘unlashtirishdan iborat:

– o‘quvchilar tomonidan oldindan tanlangan mazmunni egallashlari;

– o‘quvchilarning mustaqil tanlangan maqsadlarga erishishlari;

– o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan layoqatlarini rivojlantirish va qo‘llab quvvatlash.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini rejalashtirish va tashkil etish vositalarini takomillashtirish, o‘qitishning faol metodlaridan keng foydalanish va o‘quv jarayonini individual tarzda natijali tashkil etish orqali mazkur masala yechimini topish uchun zamin yaratadi.

Ta’limning raqamli transformatsiyasi – bu bir necha yillik ish jarayonidir. U ta’limning barcha darajalarini qamrab oladi va uning o‘quvchilar, pedagoglar, boshqaruv xodimlari, barcha steykxolderlar (manfaatdor tomonlar), ota-onalar, ish beruvchilar, siyosatchilar va jamoat vakillari ishtirokisiz amalga oshishini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Mazkur ishni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uchta katta guruhlarga bo‘lish mumkin:

– ta’limning raqamli infratuzilmasini rivojlantirish;

– raqamli o‘quv-metodik materiallar, vositalar va xizmat turlari, shu jumladan, raqamli baholashni rivojlantirish;

– o‘quv faoliyatini shakllantirishning yangicha modellarini ishlab chiqish va tarqatish.

Bularning barchasi pedagogik tadqiqotlarning mavjud amaliyotini sifatli yangilash, ularni ilmiy-metodik ta’minot vositasiga aylantirish hamda ta’limning raqamli transformatsiyasi jarayonlarini qo‘llab quvvatlashni talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Акимова О.Б., Щербин М.Д. Цифровая трансформация образования: своевременность учебно-познавательной самостоятельности обучающихся // Инновационные проекты и программы в образовании. 2018. №1. С. 27-34.

2. https://help.summitlearning.org/hc/en-us/articles/360000809287-What-is-the-Summit-Learning-Platform.

3. Подцероб М. Придется меняться [Электронный ресурс] // Ведомости. 2017. №4342. URL: https://www.vedomosti.ru/management/ articles/2017/06/15/694456-rinok-truda.

4. Козлова Н.Ш. Актуальные вопросы кадрового обеспечения IT-специалистов в период цифровой трансформации // Цифровая экономика: новая реальность: сборник статей по итогам Международной научно-практической видеоконференции, посвященной 25-летию вуза. Майкоп, 2018. – С. 45-48.

**Gulasal BERDALIYEVA,**
Sirdaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘quv va metodik ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

# UMUMIY O‘RTA TALIM MUASSASALARI O‘QITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING AXBOROT-TA’LIM MUHITINI TASHKIL ETISH STRATEGIYASI

**Annotatsiya**

Maqolada mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta’lim-tarbiya sifatining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik metod va innovatsion ta’lim modullari haqida fikr bayon etilgan. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlarida axborot-ta’lim muhitini tashkil etish yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Umumiy o‘rta ta’lim, pedagog kadrlar, innovatsion ta’lim, strategiya, uzluksiz ta’lim, axborot ta’lim.

В статье изложено мнение о широкомасштабных реформах, проводимых в системе образования нашей страны, педагогическом методе и инновационных образовательных модулях, направленных на обеспечение высокого уровня качества образования. Освещается также организация информационно-образовательной среды в приобретении руководящими и педагогическими кадрами общеобразовательных учреждений современных знаний, умений и навыков.

**Ключевые слова.** Общее среднее образование, педагогические кадры, инновационное образование, стратегия, непрерывное образование, информационное образование.

The article presents an opinion on the large-scale reforms carried out in the education system of our country, the pedagogical method and innovative educational modules aimed at ensuring a high level of education quality. The organization of the information and educational environment in the acquisition of modern knowledge, skills and abilities by the management and teaching staff of educational institutions is also highlighted.

**Key words.** General secondary education, teaching staff, innovative education, strategy, continuing education, information education.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimi pedagoglarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni yangi bilim, ko‘nikma va ma’lumotlar olishning bosh manbasi sifatida tizim xodimlariga uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar, innovatsiyalar va modernizatsiya jarayonlarining mazmun-mohiyatini yetkazadi va shu orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ta’lim sifati va samaradorligini bevosita oshirishga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ta’lim-tarbiya sifatining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omillardan biri – ta’limning innovatsion axborot-didaktik shakllarini ilmiy tadqiq qilish hisoblanadi. Bu esa Kadrlar tayyorlash milliy dasturining tarkibiy qismi bo‘lgan “Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy” tizimi oldiga barcha soha mutaxassislarining, shu jumladan, umumiy o‘rta talim

tizimi xodim (rahbar, pedagog va mutaxassis)larining kasbiy tayyorgarligi saviyasini zamon talablariga mos tarzda uzluksiz rivojlantirib borish vazifasini qo‘yadi.

Mazkur dolzarb vazifalarni bajarishda umumiy o‘rta ta’lim tizimi rahbarlari va pedagog xodimlarining funksional vazifasiga mos ravishda uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyalarni tanlash hamda malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ta’limning innovatsion axborot-didaktik shakllarini ilmiy tadqiq qilish, ishlab chiqish va ulardan tizimli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, umumiy o‘rta ta’lim tizimi xodimlari uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni, mavjud muammo va ziddiyatlarni hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash; uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonlarining o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligini ta’minlash asosida pedagogik tizimga xos xususiyatlarni o‘rganish; uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi komponentlarining o‘ziga xos xususiyatlariga mos ravishda ta’lim jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlovchi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish; pedagog kadrlar uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga androgogik yondashuvning salohiyatidan foydalanish; uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonlarida axborot-ta’lim muhitini yaratish; masofaviy ta’limni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlariga tatbiq etish va uni boshqarish; sifat va samaradorlikni ta’minlashda pedagog xodimlarning mustaqil faoliyatini muvofiqlashtirish; axborot-kommunikatsion tarmoqlar orqali malaka oshirish jarayonini sifati va samaradorligini ta’minlashning taraqqiy etgan modeli pedagogik uyushmalarni tashkil etish; axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali elektron didaktik vositalarni ishlab chiqish; baholash mexanizmlarini takomillashtirish; tinglovchilar bilimini baholashning barcha uchun qulay bo‘lgan mexanizmlarini ishlab chiqish.

Bugungi kunda barcha ta’lim muassalari shu jumladan, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimidagi an’anaviy va ommaviy ko‘rinishdagi ta’lim va tarbiya jarayonlari o‘rniga ta’lim muassasalari rivojlanishida o‘ziga xos yangilik bo‘lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda, amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ta’lim-tarbiya sifatining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omillardan biri – umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganligi hisoblanadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish sohasidagi sifat o‘zgarishlari va yuqori samaradorligi ularning jahon ta’lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o‘zlashtirgan kompetensiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog‘liq. Ta’lim-tarbiyadagi sifat o‘zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish bilan belgilanadi. Bunday yangilikni kiritish jarayoni innovatsion jarayon bo‘lib, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy qilib, ta’limda sifat va samaradorlikka erishishdan iborat bo‘ladi.

Pedagogik innovatsiya – bo‘lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo‘lib, u oldingi egallangan bilimlar asosida ta’limda sifatiy o‘zgarishlar qilib, yuqori samadorlikka erishishga yangicha yondashuv qilishdan iboratdir.

Bunday tizimning maqsadi, mazmun-mohiyati, belgilarini, imkoniyatlarini, vazifalarini, rivojlanish bosqichlari va tamoyillarining rivojlanish mexanizmlarini va ulardan foydalanishga uslubiy tavsiyalar hamda bu borada pedagoglarda shakllanadigan xislatlarni hosil qilish jarayonini ifodalovchi ta’lim-tarbiya jarayonining sifat jihatlarini takomillashtirib, bu sohada yuqori samaradorlikka erishish tushuniladi.

Pedagogik kadrlar malakasini oshirishning amaliy tajribalarini o‘rganish, bu

muammo bo‘yicha o‘tkazilgan maxsus tadqiqotlar ta’lim tizimining tezkor yangilanishi bilan yuz berayotgan o‘zgarishlarga javob berish va ulardan o‘zib ketishga yetarli tayyor bo‘lmagan amaldagi pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimi o‘rtasidagi keskinlashgan ziddiyatning mavjudligini ta’kidlashga imkon beradi.

Ushbu ziddiyatning jiddiyligi shubhasizdir – unda ta’limga, shaxsga va pedagogik kadrlar faoliyatiga bo‘lgan zamonaviy ijtimoiy talablar va bu talablarga yetarli darajada javob bermaydigan pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimining holati o‘rtasidagi tashqi nomunofiqlik aks etadi.

Ziddiyatlarni tan olish va ilmiy tahlil qilish ularni bartaraf qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, izlanishlarning mazmuni va yo‘nalishlarini hamda pedagog kadrlar malakasini oshirishning tashkiliy-didaktik tizimini ilmiy tamoyillar asosida qayta ishlab chiqishning aniq choralarini aniqlaydi.

Aniqlangan ziddiyatlar bizga tadqiqot muammosini malaka oshirishning innovatsion tashkiliy-didaktik shakllarini nazariy-metodologik asoslash, amaliy ishlab chiqish, tajribadan o‘tkazish va pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirilsh tizimi amaliyotiga tatbiq qilishdan iborat qilib belgilash imkonini berdi.

Belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda umumiy o‘rta ta’limga bo‘lgan konseptual qarashlar tizimini rivojlantirishni, pedagog kadrlar kasbiy-shaxsiy rivojlanishining psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashni talab qiladi. Fanlararo tadqiqotlarning natijalarini jamlaydigan pedagogik konsepsiyaning mohiyati uzluksiz kasbiy rivojlanishning tabiatini – ta’limning maqsadi, mazmuni, o‘qitishning metodlari va shakllari hamda ular tarkibiga kirgan aniq ta’lim texnologiyalari, pedagogning uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonining samaradorligi mezonlari, boshqaruv mexanizmlari kabi kategoriyalar orqali ochishda ko‘rinadi.

Tadqiqotning vazifalariga muvofiq, pedagogning kasbiy-shaxsiy rivojlanishi muammosini hal qilishi mumkin bo‘lgan konseptual yondashuvlar va tushunchalarni tahlil qilish zarur. Bunda “ijtimoiy institut sifatidagi ta’lim tizimining konseptual modellarining rivojlanishi va almashishi doimo uning faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi maqsadlaridagi, shuningdek, bu kabi maqsadlarga erishish yo‘llari sifatidagi ta’lim jarayonini tashkil qilish va boshqarish tamoyillarining o‘zgarishlari bilan bog‘liq”ligini ko‘zda tutish zarur.

Mazkur dolzarb vazifalarni bajarishda umumiy o‘rta ta’limi tizimi rahbarlari va pedagog xodimlarining funksional vazifasiga mos ravishda uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyalarni tanlash hamda malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ta’limning innovatsion axborot-didaktik shakllarini ishlab chiqish va ulardan tizimli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yondashuv pedagogika metodologiyasining kategoriyasi sifatida, pedagogik paradigma va ta’lim nazariyasi o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib tasavvur qilinadi va muayyan belgilarning: – ta’lim jarayonida foydalaniladigan asosiy tushunchalar; ta’lim faoliyatini amalga oshirishning tayanch qoidalari sifatidagi tamoyillar; ta’lim jarayonini qurishning usullari va metodlarining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Axborotli yondashuv axborotlarni olish, o‘zgartirish, undan foydalanish jarayonlarini ko‘rib chiqish bilan va subyektlarni bir-birlari, shuningdek, axborot-ta’lim tizimida ularning bilish obyektlari bilan o‘zaro axborotli bog‘lanish tizimini ajratib olish harakatlari bilan bog‘liq.

Umumiy ko‘rinishda axborotli yondashuv obyektni muayyan tomondan o‘rganishni, tadqiqot natijalarini u yoki bu nazariy sohaga qo‘llagan holda qilingan xulosalarni

maxsus ilmiy atamalar bilan taqdim etishni ko‘zda tutadi. Shundan kelib chiqib, uning asosiy vazifasi A.V.Slavinning ta’kidlashicha, axborot jarayonlarining umumiy tuzilmasini yoritish, axborotni sifatli o‘zgartirish usullari va amallarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Metodologik ko‘rsatma sifatidagi axborotli yondashuv, barcha jarayonlarni axborotlarni qayta ishlashning ham ketma-ket, ham parallel ravishda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Bu jarayonlarning har bir bosqichida axborot muayyan o‘zgarishlarni o‘z boshidan kechiradi, uni kodlashtirish, filtrlash, anglash, fikrlash, qaror qabul qilish, javob harakatlarini ishlab chiqish amalga oshiriladi. Bu jarayonlarning natijalari, Yu.F.Abramovning fikricha, “axborotli borliqning o‘ta abstraktli modeli, tamoyillar darajasida umumlashtirilgan nazariy-axborotli bilim tizimi”ni qurishdan iboratdir.

Hozirgi kunda axborot juda keng ma’noda tushuniladi. Axborot nazariyasi rivojlanishining yarim asrlik tarixga ega ekanligiga qaramay, fanda hozircha ushbu tushunchaga yagona tavsif mavjud emas. Axborot turlilik, noaniqlik, aks etish, energiya, tuzilma, tartiblilik va shu kabilar orqali talqin qilinadi.

Axborotli yondashuvning metodologlari axborot tushunchalari mavjud talqinlarining obyektiv asoslarini tan ola turib, shu vaqtning o‘zida ularning nisbatan haqiqiyligi to‘g‘risida fikr bildiradilar. Yagona talqin qilishning murakkabligi “klassik” fanning atamalari orqali “noklassik” fenomenni uning o‘ziga mos ravishda aks ettirishning mumkin emasligi; axborotli jarayonni tushunishda uning alohida qismlari, murakkablik darajalari va boshqalar nuqtai nazaridan qamrab olmaydigan o‘ta tor empirik asosdan foydalanish bilan tushuntiriladi.

Falsafiy adabiyotlarda axborot to‘g‘risidagi tasavvurlar atributiv (tomonli) yoki funksional-kibernetik (ko‘rinishli) yondashuvga asoslanadilar. Birinchi nuqtayi nazar axborotni harakatlanayotgan materiyaning xossasi, obyektiv reallikning xossasi sifatida talqin qiladi.

Ikkinchi nuqtayi nazar axborotni mustaqil boshqariladigan, mustaqil tashkil qilinadigan tizimlarning xossasi sifatida ko‘rib chiqish bilan bog‘liq.

Bundan tashqari, axborot o‘z mohiyatiga ko‘ra, axborotli mazmunlar va ma’nolarning o‘zaro almashuvi va o‘zaro to‘ldiruvi jarayonini aks ettiruvchi shaxslararo va guruhli kommunikatsiya va kooperatsiya asosida yotishi tan olinadi. Umuman olganda esa, axborot va samarali axborot almashinuvi, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy manbalari va resurslari bo‘lib xizmat qilishi ilmiy va amaliy darajada yagona ma’noda tan olingan.

Axborotning metodologik qiymati, fundamentalligi, universalligi undan asos bo‘luvchi g‘oya sifatida foydalanish imkonini beradi. Aynan shu yondashuv axborot jarayonlarini yagona nuqtai nazardan ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Ta’limiy faoliyat boshqa har qanday pedagogik asosdagi jarayon kabi, o‘z tabiatiga ko‘ra axborotlidir, chunki u turli xil axborotlar bilan amallar bajarishni nazarda tutadi. Bundan tashqari ta’limiy faoliyat uni qayta ishlashdan iborat bo‘lib, V.Gasparskiyning fikricha, voqelikni o‘zgartirishning axborotli tayyorgarligidir.

Fan va amaliyot rivojlanishining hozirgi sharoitlarida pedagogikaning fan sifatidagi chegaralarini aniqlash va pedagogik hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun ishonchli vositaga ega bo‘lish bilan birga har bir pedagogik tushunchani aniqlashtirish lozim Bu maqsad uchun pedagogik vosita sifatida biz tomonimizdan axborotli yondashuv tanlandi.

Shunday bo‘lsa-da, olimlarning bu muammoga yuqori darajadagi qiziqishlariga

qaramay, hozirgi kunga kelib, ta'limga axborotli yondashuvning ilmiy asoslari va uning evristik salohiyati hozircha aniqlanmagan, ilmiy izlanish metodlari ishlab chiqilmagan, hal qilinishida axborot nazariyasining qoidalari qo'llanilishi mumkin bo'lgan pedagogik muammolar doirasi aniqlanmagan.

O'qitishga bo'lgan axborotli yondashuv nuqtayi nazardan uning tashqi (o'qitishning kommunikativ tomonlarini ta'minlovchi axborotli jarayonlar) va ichki ko'rinishi (atrofning ta'sir ko'rsatishi ostida ta'lim oluvchilarning mental darajasida yuz beruvchi axborotli jarayonlar) ko'rib chiqilishi lozim.

Ta'lim jarayoni axborotli tomonining qiymati zaruriy turli-tumanlikning obyektiv qonuniyati bilan aniqlanadi, u esa, har qanday o'qitish tizimi faqat olingan axborot asosidagina maqsadli faoliyat ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini boshqarishning muammolari orasida quyidagilar ayniqsa qiziqroq: o'quv axborotlari hajmini aniqlash, o'quv mehnatining sarfi, o'quv predmetlarini o'rganishning ketma-ketligi, o'qitishga sarflanadigan vaqtni me'yorlashni asoslash.

Bundan tashqari, axborotli yondashuv, axborot jarayonining turli bosqichlarini tanlashda ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatlarini tashkil etish usullari sifatidagi o'qitish metodlari tushunchasini kengaytirish imkonini beradi.

Ta'kidlash muhimki, pedagogikada axborotlashtirishning umumiy konsepsiyasining qo'llanilishi, ta'lim jarayonini pedagogik tadqiq qilishning an'anaviy yo'nalishini uning ishtirokchilarining axborotli-ta'limiy muammolari jarayoni bilan almashtirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Орчаков О.А., Калмыков А.А. Проектирование дистанционных курсов: Пособие для преподавателей и методистов /Под ред. О.А.Орчакова. – М.: Издательство МНЭПУ, 2002. – С. 50.

2. Теслинов А.Г. Развитие систем управления: методология и концептуальные структуры. – М.: "Глобус". 1998. – С. 6.

3. Абрамов Ю.Ф. Формирование общенаучного характера понятия информации (логико-гносеологический аспект): Дис.... канд. филос. наук. – М., 1979. – С. 166.

4. Абдеев Р.Ф. Философия информационной цивилизации. – М.: ВЛАДОС, 1994. – С. 336.

5. David Reed The Law of the Pack. Harvard Business Review, February 2000 -134 p.

6. Винер Н. Кибернетика и общество. – М., 1958.

7. Семушина Л.Г., Ярошенко Н.Г., Зосимовский Л.В. и др. Проблемы учебных заведений-комплексов. – М., 1991.

8. Гаспарский В. Праксеологический анализ проектно-конструкторских разработок. – М.: Мир, 1978. – С. 172.

**Shuxratjon MAMAJONOV,**
Farg'ona davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari nomzodi, dosenti

# EKOLOGIK TARBIYA TEXNOLOGIYALARINI DIDAKTIK JARAYONGA TATBIQ ETISH

**Annotatsiya**

Maqolada ekologik tarbiya texnologiyalarini didaktik jarayonga tatbiq etish masalalari yoritilgan bo'lib, ular asosida talabalarda rivojlantiriladigan ekologik kompetensiyalar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Ekologiya, ekologik kompetensiya, pedagogik imkoniyatlar, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, atrof-muhit muhofazasi.

В статье освещаются вопросы внедрения технологий экологического воспитания в дидактический процесс, на основе которых приводятся сведения об экологических компетенциях, развиваемых у учащихся.

**Ключевые слова.** Экология, Экологическая компетентность, педагогические возможности, экологическое воспитание, экологическая культура, охрана окружающей среды.

The article highlights the issues of the introduction of environmental education technologies into the didactic process, on the basis of which information is given about the environmental competencies developed by students.

**Key words.** Ecology, Ecological competence, pedagogical capabilities, ecological education, ecological culture, environmental protection.

O'qitish sifati O'zbekistonning milliy taraqqiyoti va xavfsizligi, raqobatbardosh kadrlarga ega bo'lishining muhim shartidir. O'qitish sifatining asosiy qismini ta'lim mazmunining sifati va tarbiyaviy jarayonlarning sifati tashkil qiladi. O'qitish sifatini ta'minlashda ta'lim muassasasidagi manbalarning sifati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday muhim manbalar sirasiga ta'lim muassasasidagi pedagogik kadrlar, informatsion-metodik, ta'limiy-texnologik, moddiy-moliyaviy manbalarni kiritish mumkin.

Shu bilan bir qatorda ekologik tarbiya texnologiyalarini didaktik jarayonga tatbiq etish uchun quyidagilarni tahlil qilish talab etiladi:

– amalda qo'llanilayotgan o'quv dasturlarining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi;

– metodik hamda tashkiliy innovatsiyalar;

– mazkur innovatsiyalarning o'qitish natijalarining sifati va bitiruvchilarning bilimdonlik darajasiga ko'rsatadigan ta'siri;

– o'quv jarayonining texnologik jihatdan ta'minlanganlik darajasi;

– fanlar bo'yicha o'qitish sifati baholanishini ta'minlovchi kvalimetrik, tashxislash metodikalarining o'qituvchilar tajribasida foydalanilganligi va sinovdan o'tkazilganligi kabilar.

Ekologik tarbiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda ta'lim muassasasining metodik quvvatini tashkil etuvchi ko'rsatkichlar ham muhim o'rin egallaydi.

Xususan:

– o‘tgan o‘quv yillarida tashkil etilgan o‘quv dasturlari;

– ta’lim muassasasida tashkillashtirilgan va yaratilgan uslubiy hamda didaktik qo‘llanmalar;

– sinovdan o‘tkazilgan o‘rgatuvchi va tashxislovchi metodikalar;

– yangicha ekologik fikrlar yig‘indisi;

– uslubiy faoliyatning tashkillashtirilganligi, yetakchi tatqiqotlarni aniqlash, tanlash, umumlashtirish va ommalashtirish kabilar.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida oliy ta’lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar tahlil qilinar ekan, ekologik tarbiya texnologiyalari orqali talabalarning maxsus va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda informatsion-metodik hamda ta’limiy-texnologik manbalarni tahlil qilish ham alohida qimmatga egaligi aniqlandi. Uning asosiy ko‘rsatkichlari:

– ekspert xulosalari;

– nazorat va tekshirish natijalarini ifodalovchi materiallar;

– yig‘ilishlar, kengashlarning materiallari;

– metodik seminarlarning materiallari kabilar.

Talabalarda ekologik bilimlar sohasining kengayishida muassasaning moddiy-moliyaviy manbalarini hisobga olishni ham talab etadi. Mazkur manbalar sirasiga:

– ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan alohida tadbirlarni moliyalashtirish manbalari;

– qabul qilingan me’yorlar va talablarga mos tarzda o‘quv materiallari mazmuniga muvofiq keladigan modddiy-texnik bazaning tavsifi;

– ta’lim muassasasidagi o‘quv kabinetlarining kompyuterlar, audio, zallar, inventarlar bilan ta’minlanganligi;

– ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazani kengaytirishga yo‘naltirilgan rejasi;

– o‘qitish jarayoni sifatining o‘quv jarayoni sifati natijalari bilan mos kelishining ta’minlanganligi;

– ta’lim muassasasida masofaviy ta’limni joriy etish uchun moddiy-texnik bazaning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.

Respublikamiz akademik muhitida ta’lim oluvchilarning samarali bilim egallashlari va sifatli o‘quv-biluv faoliyati uchun zarur bo‘lgan didaktik tayyorgarligini shakllantirishning ijtimoiy mexanizmlari ta’lim jarayoniga joriy etilganligi tadqiqotlarimiz mobaynida ayon bo‘ldi. Biroq, zamonaviy ta’limda o‘qitish modellarini texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirish, xususan, innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik modellardan foydalanish uchun o‘qituvchilar mas’ulligini oshirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirishga ham alohida ahamiyat qaratish lozimligi ayon bo‘ldi.

Kuzatuvlardan aniqlanishicha, oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarda ekologik tafakkurni rivojlantirishga bo‘lgan pedagogik talablar to‘g‘ri tashkil qilinganligiga qaramasdan, ekologik tarbiya texnologiyalarini o‘quv mashg‘ulotlariga muntazam ravishda tatbiq qilish lozimligi aniqlandi.

2021-20221-o‘quv yilida Farg‘ona davlat universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Andijon davlat universitetining “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun “Orol fojiasini bartaraf etish” mavzusida tashkil qilingan auditoriyadan tashqari mashg‘ulotda “Qiziqarli muammolar va ularning yechimlarig” mualliflik texnologiyasidan foydalandi. Bunda guruh kichik guruhlarga

ajratildi va o‘qituvchi har bir guruhga oldindan tayyorlab qo‘yilgan har bir munosabat ta’rifi, bitta aniq olingan munosabatga berilgan ta’rif sharti bajarilishini tekshirish yo‘llari, berilgan topshiriq uchun munosabat qanday bo‘lishi haqidagi ma’lumotlar yozilgan kartochkalarni tarqatdi. Kichik guruhlar ma’lum muddat kerakli ma’lumotlarni olib bo‘lgach, boshqa guruhlarga bittadan tarqaldilar, natijada har bir hosil bo‘lgan yangi kichik guruhlarda Orol fojiasini hal qilish haqidagi ma’lumotlar yig‘ilishi kerak bo‘ldi, ya’ni avvalgi kichik guruhlarning har biridan albatta bitta vakil yangi tashkil etilgan kichik guruhlarda bo‘lishi shartligi aytildi. Yangidan tashkil etilgan kichik guruhlar vakillari o‘z bilimlari bilan o‘rtoqlashadilar: o‘rgangan va bajarishi kerak bo‘lgan shartni tushuntiradilar, keltirilgan misollarni sharhladilar va yozma kichik taqdimot tayyorladilar. Axborotlar muhokama qilib bo‘lingach, har bir keltirilgan aniq misol yana qanday shartlarni bajarilishi tekshirildi. Natijada, kichik taqdimotda talabalar turli ko‘rinishlarda esse yozish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shunday qilib, mazkur texnologiyaning maqsadi: talabalarning ekologik faoliyati natijalari, transformatsiyalar va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan qarorlar uchun mas’uliyat hissini rivojlantiradi. Talabalar jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, firklarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o‘quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir etishga, uni ma’qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o‘tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-oktabrdagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3956-son qarori.

2. 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5863 sonli Farmoni.

3. Андреев В.И. Концептуальная педагогическая прогностика: Монография / В.И.Андреев. Казань: Центр инновационных технологий, 2010. – С. 220.

4. Аршинова В.А. Обучение теории.- М.: Знание, 2015. – 124 С.

5. Ахлибинский Б.А. Категориальный аспект понятия интеграции/ Б.ААхлибинский // Диалектика как основа интеграции научного знания. Под ред. АА.Королькова. Л.: Изд. ЛГУ, 1984. С. 50-60

**Sherzod USANOV,**
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi,
“Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi

# O‘QUVCHI-YOSHLARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA OTA-ONALARNING PEDAGOGIK MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM JIHATLARI

**Annotatsiya**

Maqolada ota-onalar o‘quvchi-yoshlar tarbiyasi to‘g‘risida nazariy, ilmiy bilimlarga ega bo‘lishi, oila sharoitida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini tashkil qilish, to‘ldirib borish va takomillashtirishga oid tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Oila, ota-ona, moddiy, ma’naviy, ijtimoiy rivojlantirish, mas’uliyat, bilim, madaniyat, tarbiya, pedagogik, madaniyat, takomillashtirish.

В статье даны рекомендации, касающиеся приобретения родителями теоретических, научных знаний о воспитании воспитанников, организации, дополнения и совершенствования воспитательной культуры родителей в условиях семьи.

**Ключевые слова.** Семья, родители, материальное, духовное, социальное развитие, ответственность, знания, культура, воспитание, педагогика, культура, совершенствование.

The article provides recommendations for parents to have theoretical and scientifcknowledge about the upbringing of children, to organize, supplement and improvethe educational culture of parents in the family.

**Key words.** Education, education, material, spiritual, social development, responsibility, knowledge, culture, education, pedagogy, culture, improvement.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasida buyuk Imom Buxoriy hazratlarining “Al-Jome’ as-Sahih” asaridagi “Barcha ezgu amallar niyatga bog‘liq, har bir kishiga faqat niyat qilgan narsasi beriladi”[1] – degan hadis bilan boshlanishida albatta juda chuqur ma’no bor. Har bir inson, ota-onalar ham o‘z harakatlarini ezgu niyatlardan boshlab sayi-harakat qilsalar o‘z maqsadlariga yetishadilar.

Taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Bunday insonlar, avvalo, oilada va uzluksiz ta’lim tizimida tarbiyalanadi, shakllanadi. Buguni kunda jismoniy sog‘lom, aqlan ziyrak va ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash bag‘oyat dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Bugungi jamiyatimiz ta’limning bosh maqsadi o‘quvchi-yoshlarni jamiyat, davlat va oila oldida o‘zining ma’suliyatini chuqur anglaydiga, erkin fikrlovchi, faol, ilmni, axloqni, mehnatni va haqiqatni sevadigan, kamtar insonlarni o‘qitib tarbiyalashdan iborat.

Maqsadimizga erishishimizda, yangi O‘zbekistonni qurishimizda, siyosatda ham, iqtisodda ham, ma’naviyat sohasida ham barcha islohotlarning taqdiri o‘sib kelayotgan yosh avlodga bog‘liq. Haqiqatan ham ma’naviyatning asosini, poydevorini tashkil

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy majlisga murojaatnomasi. Ma’rifat gazetasi, 2018 yil, 29-dekabr, №104 (9169).

etadigan halollik, adolat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratini tashkil etadi. Chunki halollik, adolat shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy xarakterga ega. U yo‘q joyda hech qachon, hech vaqtda baxt-saodat bo‘lmaydi.

Xususan insonning ma’naviy barkamolligining tarkibini tashkil etadigan halollik, adolat kabi ma’naviy tushunchalar inson ongida, qalbida, shug‘ullanadigan ishida, xullas ijtimoiy hayotida tarkib topmas ekan, u inson komil bo‘la olmaydi. Demak, inson yetuk bo‘lishi uchun esa birinchi navbatda o‘zida halollik, adolat kabi ma’naviy tarbiya tarkiblarini, asoslarini o‘zida mujassam etmog‘i zarur.

Yetuk insonlarsiz esa o‘z navbatida insonlar, xalq, jamiyat, davlat o‘z murod maqsadiga erisha olmaydi. Ularning yagona maqsadiga erishishni esa faqat ma’naviy barkamol inson va xususan, shunday insoniy fazilatga ega bo‘lgan barcha insonlar ro‘yobga chiqarishi muqarrar. Chunki ma’naviyatsiz inson yashay olmaydi va yashay olmasligi ham kerak. Shuning uchun ham hozir ma’naviy barkamol insonni tarkib toptirish, shakllantirish ijtimoiy pedagogik vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bu haqda sharqning mashhur allomasi Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilik” dostonida “Xalol, haqgo‘y, axloq-odobli kishi har qanday qimmatbaho narsadan hamqimmatlidir”[2], – deb bildirgan fikri bag‘oyat hayotiyligini ijtimoiy hayotning o‘zi isbotlab turibdi. Chunki shunday insoniy fazilatlarni o‘zida shakllantirgan insongina oilasiga, jamiyatga, davlatga moddiy va ma’naviy foyda keltiradi. Shuning uchun ma’naviy barkamol o‘quvchilarni oilada tarbiyalash, shakllantirish jamiyat rivojlanishining obyektiv ehtiyoji bo‘lib qolmoqda.

Ma’naviy barkamol inson avvalo, oilada, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’limi, oliy ta’lim, mehnat jamoalari va ijtimoiy jamiyatda tarbiyalanadi, shakllanadi. Buning uchun inson yuqoridagi pedagogik ta’lim-tarbiya muassasalarida ma’naviyatning asosini, negizini tashkil etadigan halollik adolat, oriyat, nomus, vijdon, diyonat kabi milliy ma’naviy-axloqiy tushunchalar haqida tizimli, uzluksiz ilmiy ma’lumot olmog‘i hamda ularni hayotda qo‘llash bilan bog‘liq ko‘nikma va odatlarni tarkib toptirmog‘i shart.

Bunday ma’naviy-axloqiy tushunchalarning tarbiyada susayganligi oqibatida ko‘plab ko‘ngilsiz holatlar yuzaga kelmoqda. Natijada, ba’zan oila tarbiyasida halollik o‘rnini harom, adolat o‘rnini adolatsizlik, diyonat o‘rnini diyonatsizlik kabi tarbiyaga zid razil tushunchalar egallaydi. Shuningdek, jamiyat hayotining barcha sohalarida ma’naviy ijtimoiy inqiroz va ayniqsa, iqtisod borasida pasayish ro‘y berdi. Demak, jamiyat ijtimoiy rivojlanishini va ayniqsa, iqtisodini mo‘tadillashtirish uchun oilada o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini hozirgi zamon ruhi talabi asosida tashkil etish, yaxshilash, takomillashtirish shart. Busiz jamiyatning, davlatning ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash mushkul.

Shuning uchun oila tarbiyasidagi nuqsonlarni bartaraf etish juda muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Bunday ko‘ngilsiz holatga chek qo‘yish uchun oilada bolalarning milliy ma’naviy-axloqiy tarbiyasini maqsadga muvofiq tashkil qilish, uni yaxshilash va takomillashtirish hozirgi davrning dolzarb ijtimoiy pedagogik masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu masalani hal qilishning ilmiy va amaliy yo‘li birinchi galda keng aholi va ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, takomillashtirishdir.

Kaykovusninng “Qobusnoma” asarida ota-onalarga qarata aytgan: “Ey farzand, agar farzanding bo‘lsa, unga yaxshi ot qo‘y. Farzandni oqil va mehribon doyalarga topshir. Sunnat qilur vaqtida sunnat qilgaysan, qudratingga loyiq to‘y va tomosha

[2] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig – T.: “Fan”, 1972.– 964-b.

qilgaysan, hamda o‘qishni, hunar va kasb o‘rgatgaysan”[3] - deb bildirgan fikri bag‘oyat hayotiyligini ijtimoiy hayotning o‘zi isbotlab turibdi.

Bizningcha, mazkur rejaning ijtimoiy hayotda ota-onalar o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini amaliy tashkil qilish, yaxshilash va takomillashtirish uchun, avvalo, ota-onalarning pedagogik bilim va ma’lumotlarini, ko‘nikma va tajribalarini quyidagi ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda tashkil qilish uning samaradorligini ta’minlaydi. Buning uchun, avvalo, oilada ota-onalar o‘zlarida quyidagi tuzilish va mazmunda pedagogik ma’lumotga ega bo‘lmog‘i darkor. Bular:

– insonning ijtimoiy hayotda halol, adolatli bo‘lishi birinchi galda insonning o‘ziga, oilasiga, jamiyatga, davlatga iqtisodiy, ijtimoiy foyda keltirishini anglamog‘i va shunga mos holda ish yuritmog‘i;

– hayotda halol, adolatli bo‘lish insonni ma’naviy etib tarbiyalashning obyektiv talabi, ehtiyojiligini anglamog‘i va bolalarni ishontirmog‘i;

– hayotda insonning halol, adolatli bo‘lishi uning shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishining ma’naviy asosligiga, poydevorligiga tayanmog‘i;

– hayotda insonning halol, adolatli bo‘lishi jamiyat a’zolarining ongi bilan xulq-atvori, so‘z va ish birligini ta’minlashning tarkibligiga ishonmog‘i va shunga mos oilada ish yuritmog‘i;

– hayotda insonning halol, adolatli bo‘lishi o‘z millatiga, o‘z xalqiga, o‘z mamlakatiga sadoqatligini ifodalovchi milliy qadriyatligiga ishonmog‘i, shunga mos oilada ish yurita olmog‘i va hokazo.

Oilada ota-onalarga bola tarbiyasi haqida ma’lumot berish quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etilsa,uning samaradorligi yanada oshadi. Bular:

– bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;

– mahallalardagi “Ota-onalar universitetlari “da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash yuzasidan treninglar o‘tkazish;

– “Tarbiya maktabi” rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko‘rsatuvlar, bolalar, yoshlar uchun turli rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo‘llanmalar, multimedia mahsulotlari kabi didaktik materiallar turkumini yaratish;

– oilada ota-onalarga bola tarbiyasida to‘plangan ijobiy tajribani tarbiya amaliyotida ommalashtirish;

– “Yosh ota-ona kitobi” va boshqa metodik qo‘llanmalar asosida multimediali taqdimotlar seriyasini yaratish va ota-onalarga tarqatish mexanizmini yo‘lga qo‘yish lozim bo‘ladi.

Shunday qilib, oilada o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda, shakllantirishda ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, takomillashtirish barkamol insonni tarkib toptirishning asosiy tarkibi bo‘lmog‘i darkor.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy majlisga murojaatnomasi. Ma’rifat gazetasi, 2018-yil 29-dekabr, №104 (9169).
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – T.: Fan, 1972. 964-b.
3. Kaykovus “Qobusnoma” – T.: Istiqlol, 1994. 85-b.

[3] Kaykovus “Qobusnoma” –T.: Istiqlol, 1994. 85-b.

**Muxabbat BAKIYEVA,**
Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi,
‘‘Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari’’ kafedrasi v.b.dotsenti

# XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MILLIY AN’ANALARNING O‘RNI

**Annotatsiya**

Maqolada xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini, huquqiy va tibbiy madaniyatini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini ro‘yobga chiqarish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ijtimoiy faollik shaxs faoliyatining muhim tomonlaridan biri hisoblanishi va shaxs ijtimoiy faolligining shakllanish jihatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Ijtimoiy faollik, jamiyat boshqaruvi, samarali usullar, milliy an’ana, siyosiy-ijtimoiy va ma’naviy barqarorlik, kafolat.

В статье рассматриваются вопросы повышения общественно-политической активности женщин, правовой и медицинской культуры, реализации их прав и интересов. Также выявлено, что социальная активность является одним из важных аспектов личностной активности и аспектов формирования социальной активности человека.

**Ключевые слова.** Социальная активность, общинное управление, эффективные методы, национальная традиция, политико-социальная и духовная стабильность, гарантия.

The article deals with the issues of increasing the socio-political activity of women, legal and medical culture, the realization of their rights and interests. It was also revealed that social activity is one of the important aspects of personal activity and aspects of the formation of human social activity.

**Key words.** Social activity, community management, effective methods, national tradition, political, social and spiritual stability, guarantee.

Bugungi kunda ertangi taraqqiyotini o‘ylagan har bir davlat uchun jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish ustuvor vazifa sanaladi.

Yurtimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq yuksak bilimli, intellektual salohiyatli yigit-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatda munosib o‘rin egallashlariga ko‘maklashish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda ushbu yo‘nalishda aniq chora-tadbirlar ro‘yobga chiqarilmoqda. Natijada, yoshlarimiz xalqaro darajadagi sport, fan va boshqa bir qator yo‘nalishlardagi tanlovlarda yuqori natijalarni egallab, O‘zbekistonning rivojlangan davlatlar safidan o‘rin olishida munosib hissa qo‘shmoqda.

Ayni damda, yurtimiz yigit-qizlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ko‘lami kun sayin ortib bormoqda. Jumladan, 2021-yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” davlat dasturida ham yoshlar siyosatini amalga oshirishga oid bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Darhaqiqat, kelajak bugundan boshlanadi. Yurtimizda yoshlarning bilim olishi, har tomonlama yetuk shaxslar bo‘lib yetishishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ijtimoiy faollik shaxs faoliyatining muhim tomonlaridan biridir. U shaxsning jamiyat va jamoa

ishlaridagi ishtirokida namoyon bo‘ladi; ma’lum darajada siyosiy va axloqiy uzlikni anglashga asoslanadi.

Yurtimizda istiqlol yillarida xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi mavqeini yuksaltirish, ularning ijtimoiy-siyosiy islohotlardagi ishtirokini ta’minlash, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oila institutini qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifaga aylandi. Bu borada mustahkam huquqiy asoslar yaratildi va amaliyotga izchil yo‘naltirildi.

Bugungi kunda safdoshlarimizning 50 foizga yaqinini xotin-qizlar tashkil etadi, ular dasturiy maqsad-vazifalarimizni ro‘yobga chiqarishda o‘z salohiyati, fidoyiligi bilan faollik ko‘rsatib kelayotganligi e’tiborga molik.

Shu bilan birga, yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini, huquqiy va tibbiy madaniyatini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, ayniqsa, o‘smir qizlarni ilm-ma’rifatli, jismonan va ma’nan barkamol qilib tarbiyalash borasida oldimizda muhim hayotiy vazifalar borligi, shu maqsadda hamkorlikdagi faoliyatimizni kuchaytirish zarurligi haqida so‘z yuritiladi. Joylarda mavjud muammolarni bartaraf etish, oilalar mustahkamligini ta'minlash, komil farzandlarni voyaga yetkazish, o‘z salohiyati, qobiliyati bilan oilasi va yurt farovonligiga munosib hissa qo‘shish ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ifodalaydi, albatta. Boshqacha aytganda, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta’minlash yurt ravnaqi va jamiyat hayotida hal qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Jumladan, jamiyat hayotining barcha jabhalarida ijtimoiy adolat g‘oyalarini qaror toptirish, erkak va ayollarning teng huquqliligini, ularning mehnati uchun bir xil haq to‘lanishini qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlarning ta’lim olishi, kasbiy tayyorgarlik va moslashuvini ta’minlaydigan dasturlarni ilgari surish, ayollarning davlat organlari barcha bo‘g‘inlarida qaror qabul qilish jarayonidagi ishtirokini yanada kengaytirish, ularning tashabbus va izlanishlarini rag‘batlantirish o‘zaro hamkorlikning eng muhim yo‘nalishlari sifatida qayd etildi.

Ijtimoiy faollikni tarbiyalash – bu nafaqat jamoat ishlarida ishtirok etish darajasining oshishi, balki yoshlarning axloqiy yo‘nalganligini aniqlovchi motivlarning shakllanishi hamdir.

Ma’lumki, O‘zbekistonda mustaqillikka erishish bilan mamlakatda davlat boshqaruvi tizimini tubdan o‘zgartirishda ijodkorlik yo‘li tanlandi. Yangi, tarixiy sharoitda xalqni davlat va jamiyat boshqaruvi ishlariga jalb qilishning samarali usullaridan biri sifatida aholining ko‘pchilik qismini tashkil qiluvchi ayollarni boshqarish, ularning faolligini oshirishda milliy an’anani qaytadan tiklash siyosiy-ijtimoiy va ma’naviy barqarorlikning kafolati, deb hisoblanadi.

Shuning uchun ham Prezidentimiz siyosiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki kunidanoq xotin-qizlarning davlat va jamiyat ishlarida faolligini amalga oshirishga alohida e'tibor berdi. Bugungi jamiyatning deyarli kech bir muammosini ayollar ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Xotin-qizlarning ijtimoiy, intellektual shaxsiy imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishi muhim jarayon hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda bu masalaga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Xotin-qizlarning ijtimoiy intellekti tabiatini tadqiq etish, ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish bugungi kun talabi bo‘lib, barkamol avlod tarbiyasi, uning intellektual salohiyatini oshirish va kasbiy shakllanishida ijtimoiy intellektni aniqlash usullarini chuqur o‘rganish va dinamikasining xususiyatlarini tahlil etish muhimdir. Shuningdek, ularning teng huquqliligining kafolatlari, jamiyat hayotidagi o‘rni, davlat boshqaruv sohasidagi faoliyatlari, xotin-qizlar bandligini ta’minlash, ularni kasbiy salohiyatlarini yanada rivojlantirish, jamiyatdagi barcha sohalar doirasida xotin-qizlar faolligini oshirishga doir bosqichlarni

o‘rganish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

– jamiyatda shakllangan ayollarga xos kasblar tushinchasini muomaladan chiqarish yoki uning turlarini kengaytirish, erkin kasb tanlashga imkon yaratish;

– uy vazifalari, bola tarbiyalash kasbiy faoliyatga to‘siq bo‘lmasligi uchun masofadan turib ishlash faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

– nodavlat tashkilotlari bilan keng hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali xotin-qizlarda ijodkorlikni rag‘batlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqish. Bu orqali o‘z qobiliyatlarini yanada rivojlantirish (uy sharoitida), namoyon qilishiga imkon yaratish;

– huquqiy ta‘limda xotin-qizlar savodxonligini oshirish maqsadida loyihalarni yo‘lga qo‘yish, siyosiy karyera, davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish, ularga mos ish o‘rinlari ustida yangicha yondashuv.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iboratdir.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichi yoshlarning ijtimoiy faolligisiz amalga oshmaydi. Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovatsion asosda rivojlantirish, o‘z oldimizga qo‘ygan ko‘p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, g‘ayratshijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni ishonib topshirmoqdamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami. 2017-yil, 6-son, 70-modda.

2. Айзенко Г.Ю. Проверьте свои интелектуальные способности. / Пер. с анг. 2-е изд. – Рига, 1992. С. 176.

3. Nazarov K. Aksiologiya. – Toshkent: “Akademiya”, 2011. - B. 361.

4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 491-b

5. Кадурова З. Проблема повышения социальной активности молодежи Узбекистана в условиях всестороннего реформирования обучения. Т.: ‘‘Uzbekiston milliy ensiklopediyasi’’ 1999. – С. 10.

6. Kenjaeva X.P. Aellap ijtimoiy faolligini oshipishda cieciy paptiyalapning Upni (falcafiy tahlil). Dicceptasiya avtopefepati. –T., 2012. UDK:396,9(575,1). 11-bet.

**Dildora NAZAROVA,**
Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Maxsus pedagogika” kafedrasi dotsenti pedagogika fanlari nomzodi

# KOXLEAR IMPLANTLI BOLALAR KOMMUNIKATIV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH – INKLYUZIV TA’LIMGA JALB ETISHNING ZARURIY OMILI

**Annotatsiya**

Hozirgi kunda respublikamizda inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilishda qator muammolar mavjud. Maqolada koxlear implantli bolalar va o‘smirlar kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish ish tizimining muhim jihatlari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar.** Koxlear implantli bolalar, inklyuziv ta’lim, reabilitatsiya, kommunikativ yondashuv, moslashish, reabilitatsiya davri, maxsus tadbirlar tamoyillari.

В настоящее время в республике существует ряд проблем при внедрении системы инклюзивного образования. В статье освещаются важные аспекты системы формирования коммуникативных навыков детей и подростков с кохлеарным имплантатом.

**Ключевые слова.** Дети с кохлеарной имплантацией, инклюзивное образование, коммуникативные навыки, адаптация, реабилитационный период, принципы специальных мероприятий.

Currently, there are a number of problems in the republic when introducing a system of inclusive education. The article highlights important aspects of the system of formation of communication skills of children and adolescents with a cochlear implant.

**Key words.** Children with cochlear implantation, inclusive education, communication skills, adaptation, rehabilitation period, principles of special events.

Zamonaviy jamiyat doimiy o‘zgarishlarda ekanligi bois, uning muntazam rivojlanishi, shubhasiz, ta’lim sohasidagi an’analarga ham ta’sir qilmoqda. Ta’lim muassasalari bitiruvchilarining tez o‘zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga moslasha olishlarida tashabbuskor va muloqotga kirishuvchanlik ko‘nikma va kompetensiyalari asosiy o‘rinni egallar ekan, bu holat bevosita zamonaviy ta’lim muassalarining ham vazifalarini o‘zgartirdi. Shuni inobatga olgan holda, boshlang‘ich umumta’limining davlat ta’lim standartida asosida kommunikativ malakalar (ziddiyatlarni hal etish mahorati, guruhlardagi o‘zaro munosabat, dialogni to‘g‘ri tuzish mahorati va boshq.) bilan bog‘liq bo‘lgan kommunikativ universal o‘quv harakatlarini rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilandi.

Kommunikativ universal o‘quv harakatlari rivojlanganligining bolaning zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zaruriy shart sifatida qaralishi qator olimlarning mavzu doirasida olib borgan tadqiqot ishlarida alohida qayd etiladi. Xususan, xorij olimlaridan A.G. Asmolov, A.F. Anufrieva, G.V. Burmenskaya,I.A. Volodarskaya, O.A. Karabanova, O.A.Drozdova tadqiqotlarida boshlang‘ich sinf o‘quvlarida kuzatiladigan kommunikativ xarakterdagi qiyinchiliklar yoki kommunikativ mahoratning shakllanmaganligi o‘z navbatida nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirishda, balki bolaning shaxsiy rivojlanishida ham qiyinchiliklarga olib kelishi ko‘rsatilgan. Tadqiqotlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ mahoratni shakllantirishning asosiy shartlari bo‘lgan bolalarning kommunikatsiya haqida

insonlarning o‘zaro muloqot jarayoni sifatida bilimlarga ega bo‘lishi, kommunikatsiya va muloqot madaniyatining verbal va noverbal vositalari haqida bilishlari, insonlararo muloqot va jamoada munosabatlarni qurish mahoratiga qaratilgan o‘yinli faoliyatga kirisha olish, muloqot qilishga intilishni oshirish va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirish ustida ishlash muhimligi isbotlandi.

Surdopedagogikada kommunikativ malakalarni rivojlantirish olimlar tomonidan rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarning kelajakdagi mustaqil hayotga tayyorlashda eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida o‘rganiladi.

Tadqiqotchilar eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarning eshitadigan bolalar bilan muloqotini kengaytirish zaruriyatini ta’kidlab, pedagoglar e’tiborini o‘quvchilar kommunikativ malakasini tabiiy hamda maxsus yaratilgan sharoitlarda amalga oshirilishi kerakligiga qaratadilar hamda mazkur masala kun tartibida hamon dolzarb ekanligini ko‘rsatib o‘tadilar.

Milliy surdopedagogikada G.A.Abdullaeva, F.J.Alimxodjaeva, N.Sh.Bekmurodov, X.M.Gaynutdinov, N.H.Dadaxo‘jaeva, Z.N.Mamarajabova, D.A.Nazarova, X.S.Rahimova, R.R.Rustamova, U.Yu.Fayziyeva, D.B.Yakubjanova, F.U.Qodirova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda eshitishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasi jarayonini takomillashtirish orqali ularning ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko‘tarishning yo‘l va vositalari asoslab berilgan.

Maxsus adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelishimiz uchun asos bo‘ladi. Hozirgi kunda Maxsus va inklyuziv ta’lim sharoitida eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar talaffuzi va eshitish qoldig‘ini rivojlantirish, so‘zlashuv nutqini rivojlantirish zamirida kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish, faol va nofaol lug‘atini kengaytirish va aniqlashga, grammatik tuzilishdagi xatolarni to‘g‘irlashga, ravon nutqni rivojlantirishga, o‘qish va yozishdagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu, shubhasiz, muhim, ammo, ta’lim sohasidagi mamlakatimizdagi bo‘layotgan o‘zgarishlarni inobatga olsak, umumta’lim maktablari negizidagi integratsiyalashgan o‘qitish jarayonida eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantiruvchi sharoitlar va vositalarni ko‘rib chiqish muhimdir.

Eshitish analizatorining asosiy vazifasi nutqni idrok qilishdan iborat bo‘lib, u nutq shakllanishining omili sanaladi. Nutq insonning so‘z-mantiqiy tafakkuri, muloqotning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bola eshitish idrokining buzilishi oqibatida o‘zgalar bilan muloqotga kirisha olmasligi oqibatida nutqni egallay olmasligi hamda jamiyat a’zolaridan yakkalanib qolishi natijasida ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishida qator muammolarni yuzaga keltiradi.

So‘nggi yillarda tibbiyot sohasidagi ko‘pgina yutuqlar ta’lim tizimi, xususan, kar va zaif eshituvchilar ta’limida ham yangi yo‘nalishdagi tadbirlarning yuzaga kelishiga turtki berdi. Fizika hamda tibbiyot sohasining birlashuvi eshitishni tiklash maqsadida koxlear implantatsiya jarrohlik amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Bunday amaliyot nafaqat tibbiyot, balki ta’lim tizimi uchun muvaffaqiyatli texnologiyalardan biri sanalmoqda. Koxlear implantatsiya – eshitish sezgilarini tiklash maqsadida jarrohlik yo‘li bilan ichki quloqda joylashgan eshitish nervlarining afferent tolalariga bevosita elektr qo‘zg‘atuvchilik vazifasini bajaruvchi elektrod tizimlarni ulashni amalga oshiruvchi jarayon hisoblanadi. Biroq, implantatsiya qilish muvaffaqiyatning yarmi hisoblanib, ikkinchi yarmi uzoq reabilitatsiya va mashg‘ulotlar jarayonida amalga oshiriladi. Ya’ni eshitishi koxlear implant yordamida tiklangan bemorlarning eshituvchilar jamiyatiga uyg‘unlashuvida nafaqat tibbiyot sohasi vakillari, balki operatsiyadan keyingi davrda asosiy yuklama maxsus pedagogika sohasi vakillariga tushishi sir emas. Lekin mamlakatimizda jarrohlik amaliyotining amalga oshirila boshlanganiga o‘n yildan oshgan bo‘lishiga qaramay, mazkur toifa bolalari bilan nutq ustida olib borilishi lozim bo‘lgan tadbirlar yetarli darajada

nazariy va metodik jihatdan asoslab berilmagani bois, bolalar abilitatsiyasi va reabilitatsiyasi darajasining muvaffaqiyatiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois maxsus ta’lim sohasi pedagoglari: surdopedagog va logopedlarni koxlear implantli bolalar reabilitatsiyasi ish tizimi mazmuni bilan tanishtirib borish muhim sanaladi.

Operatsiyadan keyin dastlabki sozlamalar amalga oshirilsada, bolalarda sezish qobiliyatlari, tovushlarni farqlash, fonematik tahlil va sintez yo‘q yoki yosh me'yoridan sezilarli darajada orqada qolishi kuzatilishi boisular reabilitatsiya jarayonidan o‘tishlari lozimdir. Ya’ni bu davrda bolaga eshitish imkoniyatini berishning o‘zi yetarli bo‘lmay, unga tinglashni, nutqni idrok etishni va muloqot qilishni o‘rgatish lozim. Nutqni rivojlantirish jarayoni barcha kerakli bosqichlar: ovozga javob berishdan tortib, nutq va muloqot qobiliyatlarini o‘z-o‘zidan shakllantirishgacha o‘tishi kerak.

Koxlear implantatsiyadan keyingi reabilitatsiya tarkibi quyidagi bosqichlardan iborat:

– nutq protsessorini sozlash;

– 4 tarkibiy qismdan iborat bo‘lgan eshitish va nutqni rivojlantirish;

– eshitish diqqati va xotirani faollashtirish;

– ovoz faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ishlar;

– faol va nofaol so‘z boyligini kengay tirish;

– jumlali nutqni shakllantirish.

Ushbu jarayonning jadallashuviga xizmat qiluvchi omillardan biri bolalar nutqini ilk, maktabgacha yoshda bo‘lgan davrda ota-onalar bilan hamkorlikda faoliyatga jalb etish asosida yuzaga keluvchi kommunikatsiya jarayonida shakllantirish sanaladi.

Madomiki, bolani jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvining asosiy omili uning kommunikativ malakasi sanalar ekan, kommunikativ universal o‘quv harakatlarini rivojlantirish koxlear implantli bolalar ta’limining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. Kommunikativ universal o‘quv harakatlarini rivojlantirish koxlear implantli bolaning inklyuziv ta’lim muhitiga muvaffaqiyatli uyg‘unlashuvi uchun zarurdir.

Kommunikativ rivojlanish o‘z ichiga quyidagi tarkibiy tuzilmadan iborat muloqotdagi kompetentlikni: o‘zgalarga nisbatan muloqotdagi va hamkorlikdagi faoliyat sherik sifatida munosabatda bo‘lish; eshita olish va muloqotning maqsad va vazifalariga mos ravishda dialog olib borish mahorati; jamoaviy muaamolarni hal etish va qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish; kattalar va tengdoshlari bilan samarali hamkorlikni o‘rnatish, va bunda erkin muloqotni ta’minlovchi kommunikatsiyaning verbal va noverbal vositalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Koxlear implant amaliyotini o‘tkazgan, nutqiy reabilitatsiya davridan muvaffaqiyatli o‘ta boshlagan hamda o‘quv-tarbiya jarayoniga jalb etilgan tarbiyalanuvchining ota-onasiga va tengdoshlariga bo‘lgan ijobiy munosabati ko‘rsatgichlari asosida uning muassasadagi va undan tashqaridagi xulqi, shuningdek, fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi uchun asos bo‘ladi. “Bola – pedagog” munosabati tizimi o‘quvchi hayotining ajralmas bir qismiga aylanib, uning keyingi hayotida o‘chmas iz qoldiradi. Shundan kelib chiqadiki, bolaning rivojlanishi jarayonidagi asosiy e’tiborni kommunikatsiyaga qaratish lozim. Zero, aynan bolaning ota-onasi, o‘qituvchisi, tengdoshlari bilan muloqoti shaxsiy faoliyatini boshqarishning shakllanishiga ko‘mak beradi. Muloqot jarayoni, yo‘llari, tarkibi o‘quvchida atrof-olamni tushunishni, atrofida bo‘layotgan voqea-hodisalarga hamda o‘ziga munosabatni shakllantiradi. Shunday qilib, muassasada kuzatiladigan eshitish tajribasi katta bo‘lmagan bola kommunikativ mahoratining shakllanmaganligi, kommunikativ xarakterdagi qiyinchiliklar nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirishida, balki uning shaxsiy rivojlanishida ham qiyinchiliklarga olib keladi.

“Kommunikativ mahorat” deganda o‘z fikrini to‘g‘ri, savodli, tushunarli yetkazib berish,

o‘z harakatlarini to‘g‘ri tuzish mahorati, inson psixologiyasini to‘g‘ri tushunish: kerakli intonnatsiyani, qo‘l harakatini tanlash mahorati, boshqa insonlarni to‘g‘ri ajrata olish mahorati; suhbatdoshni qo‘llab-quvvatlash: uning o‘rniga o‘zini qo‘yish, uning harakatlarini taxmin qilish, har bir suhbatdoshga mos ravishda eng samarali muloqot turini tanlash mahoratlari tushuniladi. Masalan, suhbat mavzusini qo‘llab-quvvatlash, uning asosiy mavzusini ochib berish, boshqalar nutqidagi mavzu va asosiy g‘oyani aniqlash, o‘zi fikrini isbotlashda biror-bir dalillar va isbotlarni keltirish malakasi shular jumlasidandir.

Koxlear implantli o‘quvchilarda kommunikativ ko‘nikmaning paydo bo‘lishi kechikib, muassasaga endi kelgan bolalar atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatga kirisha olmaydilar, o‘quv hamkorligi ko‘nikmalariga ega emasliklari tufayli ularni muassasa ta’limiga tayyorlash vazifasi o‘ta dolzarb masala hisoblanadi. Bunda, shubhasiz, bolaning kommunikativ ko‘nikma va malakasi shaxsining rivojlanishiga bog‘liq ekanligi omiliga alohida e’tibor berish muhim.

O‘quvchilarda kommunikativ mahoratni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar o‘zida:

– fikrlarini to‘g‘ri, savodli tushunarli qilib yetkazish;

– muloqotdagi sherigidan axborotni tushunarli (ongli)qabul qilish;

– xulqini to‘g‘ri tashkil etishga qaratilgan mahoratlar;

– muloqotdoshlarining psixologiyasini tushuna olish;

zaruriy bo‘lgan qo‘l harakati va ishoralari, ohang (intonnatsiya)ni qo‘llay olish, suhbatdoshiga nisbatan tolerant, hamdardbo‘lish, suhbatdoshining reaksiyasini payqay olish kabilarni mujassamlagan bo‘lishi kerak.

Alohida qayd etish lozimki, kommunikativ mahoratni shakllantirish jarayonining samaradorligi pedagog tomonidan o‘quvchilar bilan ishlashning o‘ziga xos bo‘lgan shakllarini tanlashga bog‘liq. O‘quvchilar muvaffaqiyatli muloqotga kirishishlariga erishish uchun pedagog kommunikativ yondashuvning asosiy xususiyati bo‘lgan “muloqot qilib muloqotga o‘rgatish” tamoyiliga rioya qilishi muhimdir.

Kommunikativ ko‘nikmani rivojlantirish muntazam pedagogik jarayon hisoblanib, tarbiyalanuvchi va pedagogning o‘zaro birgalikdagi faoliyatga intilishini talab qiladi. Shakllantirilgan kommunikativ mahorat shaxsning yangi xususiyatlari bo‘lib, ular shaxs tomonidan o‘zlashtiriladi va uning yutuqlariga aylanadi. Muloqotchan bola eshitish va tinglay olish qobiliyatiga ega hamda suhbatdoshini eshita olish bilan birga uni tushunadi va unga hamdard ham bo‘la oladi.

Bolada atrofdagilar bilan muloqot qilish istagini tug‘diruvchi, atrofdagilar bilan muloqot o‘rnatish uchun zaruriy sanalgan va uni tashkil etishda muhim bo‘lgan me’yor hamda qoidalarni bilishga qiziqish uyg‘otuvchi kommunikativ mahoratni shakllantirish uchun zamin hozirlovchi sharoitlarni yaratish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. –T., 2019-yil 29-aprel,PF-5712-son.

2. Оброзование 2030. Инчхонская декларация и рамочная программа действий./ ООН. ЮНЕСКО. Инчхон. 2015.

3. Переосмысленное оброзование. Оброзование как kak всеобщее благо/ ООН. ЮНЕСКО. 2015.

4. Дроздова О.А. Истории становления коммуникативных и универсальных учебных действий // Современные проблемы науки и обазования. – 2016.

**Go'zal DAVUROVA,**
Jizzax davlat pedagogika universiteti, "Pedagogika ta'limi nazariyasi" kafedrasi o'qituvchisi

# HARBIY XIZMATCHI AYOLLARDA QAROR QABUL QILISH JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada tadqiqot obyektining qaror qabul qilishiga ta'sir etuvchi omillarining tahlili va tahlil natijalariga ko'ra, harbiy xizmatchi ayollarda qaror qabul qilishning maqsadga muvofiq yondashuvi aniqlandi.

**Kalit so'zlar.** Qaror qabul qilish, harbiy xizmatchi ayol, kasbiy faoliyat, psixologik xususiyat, tanlov, muammo.

В данной статье были проанализированы факторы, влияющие на принятие решения по объекту исследования, и по результатам анализа определен адекватный подход к принятию решения у женщин-военнослужащих.

**Ключевые слова.** Принятие решения, военнослужащая, профессиональная деятельность, психологические особенности, выбор, проблема.

In this article, the factors affecting the decision-making of the research object were analyzed, and according to the results of the analysis, an appropriate approach to decision-making was determined for female military servicemen.

**Key words.** Decision-making, military service woman, professional activity, psychological characteristics, choice, problem.

Harbiy xizmatda xizmatchi ayollarning kasbiy faoliyati shunday faoliyat turtki, unda shaxs nafaqat kasbiy bilimlari orqali balki, qator o'ziga xos shakllangan shaxslilik sifatlari bilan doimiy harakat qiladi. Bundan tashqari, biror faoliyatda qaror qabul qilishning psixologik o'ziga xosliklari, har doim mutaxassislar tomonidan bahsbop tarzda o'rganib kelingan. Harbiy faoliyatga xos qarorlarning inson imkoniyatlari va uning kognitiv sohasi bilan aloqadorligi masalalariga oid o'ziga xos konseptual nazariyalar mavjud. Ana shunday nazariyalardan biri bu, psixologik qarorlar nazariyasi sanalib, unda qaror qabul qilishni ta'minlovchi kognitiv jarayonlar haqida so'z boradi. Harbiy psixologiya bo'yicha yetakchi olim sanalgan, A.G.Karayani bu borada shunday deydi: "Harbiy xizmatchilarda qaror qabul qilish hodisasi bu aqliy harakatlarga asoslangan jarayon sanalib, unda insonning qisqa muddatli va uzoq muddatli xotirasi, ijtimoiy vaziyatlarni idrok qilish tajribasi hamda axborotlarni qayta ishlash qobiliyati kabilar farqlanadi"[1]. Ya'ni qaror qabul qilishda insonning bir qator kognitiv jarayonlari faollashadi. Ko'pchilik psixologlar, qaror qabul qiluvchi vaziyatlarni ayrim muqobil variantlar yoki ularning oqibatlarini unutish yoki e'tiborsiz qoldirish orqali soddalashtirish mumkinligini aniqlashganlar. Mazkur yondoshuvga muvofiq, insonlar yuzaga kelishi mumkin bo'lmagan voqealar ehtimolini yuqori va juda ishonarli voqe'alarning ehtimolini esa, kam deb hisoblashadi.

Kanadaning Monreal universiteti professori P.Kisekning ta'kidlashicha, qaror qabul qilishning yana bir o'ziga xosligi shundaki, unda biror shaxs yoki xodim o'z xulq-atvor

[1] Караяни А.Г., Сыромятников И.В. Прикладная военная психология. -СПб.: Питер, 2006. – С.58.

strategiyasini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi[2]. Bunda vaziyatlarning foydalilik tomoni hamda ular to‘g‘risidagi ko‘plab ma’lumotlar tahlil qilinadi. Mazkur ushbu tanlov orqali ko‘pchilik insonlar oddiy vaziyatlarda boshqalarning ko‘magini his etishlarini ham aniq ko‘rsatib o‘tganlar.

Kasbiy faoliyatda qaror qabul qilishning psixologik o‘ziga xosliklarini tushuntiruvchi axborotlar konsepsiyasi mavjud bo‘lib, unga ko‘ra inson, tashqi axborotlar ta’siriga faol javob qaytaruvchi a’zosi deb tavsiflanadi. Y.V.Romanovskayaning ta’kidicha, inson muntazam axborot tizimi qurshovida yashaydi. Ya’ni u axborotlarning mazmuniga qarab o‘z xatti-harakatlarini rejalashtiradi va qarorlar qabul qiladi[3]. Bunda axborotlarga bo‘lgan xatti-harakatlar maqsadga muvofiqdir, chunki unda vaziyatlar va muammoli holatlarning yechimi ya’ni yakuniy qaror mavjud.

S.A.Susiyevning ta’kidicha, harbiy xizmatchi ayollarda qaror qabul qilish jarayonining o‘ziga xosliklari, quyidagi psixologik xususiyatlar bilan ham tushuntiriladi[4]:

– tabiiy va zururiy ehtiyojlar asosida ishlab chiqiladigan qarorlar;

– turli ma’lumotlarni inson tomonidan idrok etish va qayta ishlash asosida ishlab chiqiladigan qarorlar;

– qaror qabul qilish orqali biror tashkilot yoki insonning taqdiri hal etiladi. Ya’ni biror subyektning ijtimoiy ahvoli yoki hayot mamot yo‘li belgilanadi. Demak, qaror qabul qilishning psixologik o‘ziga xosliklari keng ma’noda, inson yoki biror tashkilotning butun bir taqdirini belgilovchi rejalar, maqsadlar, ijtimoiy baholashlar kabilar bilan ham xarakterlanadi. Yuqoridagi yondashuvlardan farqli o‘laroq, qaror qabul qilish jarayonining mantiqiy fikrlash, faollik, taqqoslash, yangilikka intilish kabi xususiyatlar bilan bog‘liq holda, o‘rganilganlik holatlarini ham uchratish mumkin. Y.V.Makarenkovning aytishicha, harbiy-kasbiy faoliyatga tegishli har qanday qarorlar ya’ni u strategik qarorlar bo‘lsin yoki oddiy qarorlar bo‘lsin, albatta unda mantiqiy fikrlash, muammo bilan kurashish, yangi vaziyatlarni o‘ylash kabi sifatlar mujassamdir. Bunda, o‘xshashlik tamoyili insonga yangi muammoning yechimini, ilgari o‘zlashtirgan bilimlar bilan bog‘lashga keng imkon beradi[5].

– qaror qabul qilish – insonning ixtiyoriy harakat sifatida, qaror qabul qilishda insonning asosiy maqsadi bu, uning aqliy harakati bo‘lib, unga erishish xavfli jarayondir. Chunki ushbu jarayonda yo‘qotish va muvaffaqqiyatizliklar mavjud[6];

– qaror qabul qilish – ko‘plab xavfli vaziyatlar va turli natijalarni qamrab olgan holatlar sifatida, ya’ni bir tomondan qarorlar muafaqqiyatlarga olib kelsa, ikkinchi tomondan xavf-xatarga yo‘liqtirish mumkin[7];

– qaror qabul qilish – fikrlash jarayoni sifatida, ya’ni har bir shaxs yoki rahbar shaxs muammoli vaziyatlarda, ma’lum bir maqsad va vazifalarni bajarish chog‘ida turli mazmundagi qarorlar qabul qilishga majbur bo‘ladi va hokazo. Muallifning ushbu

---

[2] Cisek P. Making decisions through a distributed consensus //Current opinion in neurobiology. – 2012. – Т. 22. – №. 6. – С. 927-936.

[3] Романовская Е. В. Особенности процесса принятия управленческих решений на предприятии //Вестник Мининского университета. – 2015. – №. 3 (11). – С. 7.

[4] Цуцыев С.А. «Проблема женщина и Армия» в современных ВС России.- СПб.:ВМедА.- Матер.Всеармейской научной конфереиции (2526 февраля), 1999. – С.231-240

[5] Макаренков Е.В. Военно-политические решения: подготовка, принятие, проблемы реализации: дисс. . .докт. воен. наук / ВУ. М., 1999. – С.78.

[6] Вербовая К. А. Женщины на войне: феномен XX века. Текст. М.: Совершенство, 1998. – С. 35-72.

[7] Гаах Н. А. Социальная самореализация военнослужащих—женщин Вооруженных Сил Российской Федерации (социально-философский анализ): Дис. канд. философ, наук. Электронный ресурс. – М., 2000. – С.78.

tasnifidan shuni anglash mumkinki, qaror qabul qilish jarayoni shunchaki vaziyatdan chiqish yo‘li emas, balki unda muammoli vaziyatlarning yechimi, inson tafakkurining o‘ziga xos imkoniyatlari, ijtimoiy intellekt va uning dinamikasi aks etuvchi jarayondir. Qaror qabul qilish jarayonida harbiy xizmatchi tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlari ham muhim sanalib, mazkur sifatlar samarali qarorlar ishlab chiqishni ta’minlovchi tafakkur xususiyatlari hisoblanadi. Rus tadqiqotchilari S.V.Karpuxin, V.M.Goloshenko va A.A.Golovinlarning so‘zlariga ko‘ra, harbiy xizmatchi ayollar uchun qaror qabul qilishda muhim sanalgan tafakkur sifatlariga quyidagilar kiritiladi[8]:

– tafakkurning chuqurligi – bu yuzaga kelgan va mavjud sabab-oqibatlarning mohiyatini anglashga, korxona va tashkilotning taqdirini oldindan ko‘ra olishga xizmat qiladi[9];

– tafakkurning kengligi – bir-biriga bog‘liq bo‘lgan hodisalar va ularga tegishli muammolarni ajratmasdan anglashga, mehnat natijalarini baholashga va imkoniyatlarni aniqlashga xizmat qiladi;

– fikrlashdagi moslashuvchanlik – bir xil vaziyatlardan chiqish, qadriyatlarga asoslangan fikrlashdan uzoqroq bo‘lish, aniq vaziyatlarga tayanib original yechimlarga kelish kabilarga xizmat qiladi;

– fikrlashdagi tezlik – muammoni hal qilish va yechimlarni shakllantirishdagi topqirlik, sezgirlik bilan tavsiflanadi. Bunda inson xotirasining individual – tipik xususiyatlari ham e’tiborga olinib, u xotiraning ko‘plab o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Ayrim tadqiqotlarda qayd etilishicha, qaror qabul qilish jarayoni bu – idrok qilish jarayonining mahsulidir. E.I.Vilkasning fikricha, inson hayotiy qarorlarni qabul qilishda va muammoli vaziyatlardan chiqishda kognitiv yondashuvga amal qiladi. Ya’ni inson nimaniki bilsa u idrok jarayoni orqali amalga oshadi deb ta’kidlaydi[10]. Muallif tomonidan qaror qabul qilish jarayonining bunday ta’riflanishi, inson o‘z muammolarini zarur bo‘lgan bilimlarga tayanib, tajribada mavjud bo‘lgan voqealar bilan taqqoslab hal etishini nazarda tutadi.

Tadqiqotchi R.Heller “Asosiy boshqaruvchilar” nomli kitobida keltirishicha, qaror qabul qilishda nafaqat hayotiy bilimlarga, balki mukammal xatti-harakatlarning xotirada saqlanishiga, ularni intellektual baholanishiga, tajribada bo‘lgan ma’lumotlarini to‘g‘ri tushunishga, hamda shaxsning individual hayotiy tajribasiga asoslaniladi[11]. Bundan tashqari, qaror qabul qilish jarayonini o‘rganishda insondagi mas’uliyat hissining roli ham o‘rganilib, bu borada Finlandiyaning Menejment tadqiqotlar maktabi mutaxassisi T.Gallen shunday deydi: “Hayotiy muhim qarorlar shaxsiy mas’uliyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mas’uliyatni qabul qilmaslik ishonchsizlik belgisidir, boshqacha aytganda, insonning har qanday qarorni qabul qilishdan qochish uchun ma’naviy tayyorgarligidir”[12]. Demak, qaror qabul qilish hayotiy shaxsiy tajriba, yoshlikdan shakllangan va rivojlangan qobiliyat ko‘rinishi bo‘lib, u inson qadr-qimmatining yuksalishiga yoki yomonlashuviga olib keladigan ijtimoiy-psixologik hodisadir. M.A.Lamzin boshqalardan farqli ravishda, harbiy xizmatchi ayollar qaror qabul qilish jarayonini eng avvalo, shaxsning axloqiy sohasi, uning ma’naviyati, dunyoqarash xususiyatlari, ideallari, hayot mazmuni va qad-

[8] Карпухин С.В. Социальная ответственность как фактор профессиональной деятельности личности офицера: автореф. дис. . канд. филос. наук / С.В. Карпухин. СПб., 1995. –С.56.

[9] Жуковский В.П. Теория и практика формирования военно-профессиональной направленности учащейся молодежи / В.П. Жуковский. – Саратов: Изд-во Сарат. ун-та, 1998. – С.74.

[10] Вилкас Э.И., Майминас Е.З. Решение: теория, информация, моделирование.- М.: ВЛАДОСЬ, вт.изд. 2009. – С.35.

[11] Heller R. DK Essential Managers: Making Decisions. – Penguin, 1999. – P. 213.

[12] Gallén T. Managers and strategic decisions: does the cognitive style matter? //Journal of Management Development. – 2006. – P. 86-97.

riyatlar tizimi bilan bog‘lashga harakat qilgan. Muallifning ta’rificha, qaror qabul qilish faqat aql va tuyg‘u doirasida emas, balki shaxsning yuqori psixik vazifalarini ham o‘z ichiga oladi[13]. Darhaqiqat, qarorlar qaysi turda bo‘lmasin u insonning aqliy faoliyati mahsuli bo‘lib, u yoki bu xatti-harakatni amalga oshirishga olib keladigan yakuniy xulosadir. Qarorlar muayyan maqsadga qaratilgan bo‘lib, biror qisqa yoki uzoq muddatli vazifani amalga oshirishga, sodir bo‘layotgan jarayonni davom ettirishga yoxud, uni to‘xtatishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

V.G.Senchaning yozishicha, harbiy xizmatchi ayollar kasbiy qaror qabul qilish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi[14]:

– muammoning qo‘yilishi – yangi shart-sharoit, muammoning paydo bo‘lishi, vaziyat, muammoga aloqador ma’lumotlarning to‘planishi hamda muammoga ta’rif berish[15];

– muammoning yechimini izlash – ish mezonlariga oid talablar va to‘siqlarni belgilab olish, vaziyat, muammoga aloqador ma’lumotlarni to‘planish hamda masalaning ilg‘or yechimini topish va hokazo[16];

– tashkiliy masala yuzasidan ma’lum bir qarorga kelish – muammoning yechimini turli variantlar ichidan tanlab olish, mezonlarni ishlab chiqilish, qabul qilingan qarorning natijalarini baholash va yakuniy qarorni qabul qilish;

– qarorning ijro etilishini ta’minlash va ish jarayoniga baho berish – qabul qilingan qarorning ijro etish rejasini tuzish, reja ustidan nazorat o‘rnatish, yalpi jarayonga baho berish, yangicha shart-sharoitlarni yuzaga keltirish.

Qaror qabul qilishda “tanlov” erkinligi masalasi, nemis psixologi K.Levinning “maydon” nazariyasida aks etgan bo‘lib, unda muallif insonning yashash maydonining o‘ziga xos tomonlarini tushuntirib beradi. Muallifning aytishicha, hayotiy makon bu – nazariyaning asosiy tushunchasi bo‘lib, u insonning o‘ziga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi ya’ni u bugun, o‘tmish va kelajakdagi voqealarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, nazariyaga muvofiq insonlar talabchan, mehnatsevar, tirishqoq, yalqov, fidoiy, mustaqil fikrlovchi, haqiqiy maqsadlarga intiluvchi hamda befarq kishilar kabi tiplarga bo‘linadi. Ushbu yondoshuvdan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, tirishqoq va mehnatsevar insonlar doim yangi maqsad va qarorlar bilan yashaydi, boshqalar esa, bundan mustasno. Ayrim xorij tadqiqotchilari ishlarida, qaror qabul qilish jarayoni inson ongining mahsuli va uning ijodkorligi namunasi sifatida talqin etiladi. Misol uchun, R.Uestning qarashlariga ko‘ra, qaror qabul qilish usullarini tahlil qilishda, avvalambor, vaziyatlarning noaniqligini kamaytirish, impulsivlik va ijodkorlik orqali individual erkinlik darajasini oshirish, turli muqobillarning ahamiyatini baholashni emas, balki to‘siqlarni yengib o‘tish imkoniyatlari hisobga olinishi kerak[17]. Ya’ni inson ongining tarkibiy qismi bo‘lgan ijodkorlik, fikrlash qobiliyati kabilar, hayotiy qarorlarni qabul qilishdagi yuqori moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Tadqiqotchi I.Ajzenning aytishicha, qaror qabul qilish o‘zida eng yaxshi alternativ tanlov o‘rtasini tartibga solish natijasini tashkil qiladi. Qaror qabul qilish nafaqat aqliy soha, balki subyektning hissiy

[13]Лямзин М.А. Военно-педагогическая подготовка курсантов (слушателей) вузов: история, теория, практика / М.А. Лямзин. М.: ВПА, 1997. –С.56.

[14] Сенча В.Г. Педагогические условия формирования дисциплинированности у военнослужащих: автореф. дис. канд. пед. наук / В.Г. Сенча. СПб., 2000. – 20 с.

[15] Гончаров С.В. Управление морально-психологическим обеспечением боевых действий: вопросы теории и практики / С.В. Гончаров // Военная мысль. 2004. - № 5. – С. 53 - 80.

[16] Петров А.Н. Психологические факторы эффективности управления воинским коллективом (подразделением) ВВ МВД России: автореф. дис. канд. психол. наук/ А.Н.Петров. СПб., 2003. – С.63.

[17] West R. The psychology of security //Communications of the ACM. – 2008. – Т. 51. – №. 4. – С. 34-40.

sohasi bilan ham uzviy bog‘liq[18]. Ta’rifga muvofiq, qaror qabul qilish jarayoni ongli jarayon bo‘lib, unda maqsadlarni oldindan aniqlab olish, dastlabki muammoli vaziyatlarni tuzish, eng yaxshi alternativ variantlarni ishlab chiqish hamda ilg‘or, innovatsion usullardan foydalanish kabilar bajariladi. S.L.Rikovning xulosalariga ko‘ra, harbiy xizmatchi ayollar kasbiy faoliyat jarayonida motivatsiyani belgilash bu – insonning nizoli vaziyatlarni yengib o‘tishi va ma’lum darajada qarorlar qabul qilishga intilishdir. Qaror qabul qilish insonga qanday qilib o‘z-o‘zini anglash kerakligini va qanday harakatlarni amalga oshirishi kerakligi masalasiga oydinlik kiritishga keng imkon beradi. Bunda ish-harakat bir vaqtda sifatli aks etmaydi, balki uning bajarilishi ikki bosqichda amalga oshiriladi[19]:

1.Tayyorlov bosqichi – ish-harakat aksiyasini va uning oqibatlarini psixologik modellashtirish bosqichi;

2. Ish –harakat jarayoni. Ya’ni inson ish-harakatni rejalashtirmaydi, balki undagi aniq o‘zgarishlarni rejalashtiradi, shuningdek, aniq maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan hamda o‘z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan qaror qabul qiladi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan farqli o‘laroq, A.D.Burkin o‘zining tadqiqotlarida, shaxsning xohish-irodasi va uning qaror qabul qilish jarayonidagi roliga alohida ahamiyat qaratadi. Shaxsning xohish-irodasi zamirida, insonning ongli, maqsadga qaratilgan harakatlari kabi psixik unsurlarni tushunadi. Muallifning fikricha, insonning xohish-irodasi har doim erkin va mavjud sharoitlardan mustaqildir, ya’ni u vaziyatga faol aralashish asosida amalga oshiriladi. Inson ongli ravishda qaror qabul qilishi natijasida, ichki erkinlikni boshdan kechiradi. Inson tomonidan qaror qabul qilish ongli va xohish-irodaga asoslangan jarayoni bo‘lib, u subyektning eng yuqori aqliy darajasini namoyon etishga xizmat qiladi[20]. Mazkur yondoshuvga muvofiq, inson kechinmalari erkin iroda jarayonidan, ixtiyoriy harakatlarni ajratib turadi. Shuningdek, mustahkam iroda bilan shaxs har qanday qarorlarini qabul qila olmaydi yoki ba’zi talablarga zid bo‘lgan xatti-harakatni amalga oshirishi mumkin emas. A.V.Belousovning aytishicha, harbiy psixologiya fanida qaror qabul qilish sharoitida odamlarning xulq-atvorini tavsiflovchi va izohlaydigan vaziyatlar modeli ishlab chiqilgan. Ushbu modelni ko‘rib chiqishda, unga oid to‘plangan barcha ma’lumotlarni, psixologik asoslarni hamda ichki va tashqi sabablarni tahlil etish zarur[21]. Aynan shu jihat, qaror qabul qilish muammosiga oid turli xil yondashuvlarning mavjudligini nazarda tutadi.

A.Tebekin o‘zining “Kasbiy qarorlarini qabul qilish metodlari” nomli darsligida, qaror qabul qilish jarayonining o‘ziga xosligi haqida alohida to‘xtalib shunday deydi: “qaror qabul qilish murakkab jarayon bo‘lib, u mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni aniqlash uchun axborotni izlash va ularni qayta ishlash, yangi yoki kreativ yechimlarni topish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oluvchi, besh ko‘nikmani ham qamrab oladi[22]:

– harakatlarning alternativ variantini aniqlash;

– variantlarni ko‘rib chiqish uchun mos keluvchi mezonlarni aniqlash;

---

[18] Ajzen I. The social psychology of decision making //Social psychology: Handbook of basic principles. – 1996. – С. 297-325.

[19] Рыков С.Л. Без женщин нельзя не только жить, но и воевать // Международная жизнь. - 2002. - № 2. - С.90-102.

[20] Бурыкин А. Д. Принятие управленческого решения: синергетический подход //Вестник евразийской науки. – 2016. – Т. 8. – №. 3 (34). – С. 84.

[21] Белоусов А.В. Психодиагностика волевых качеств офицеров при принятии кадровых решений: Дисс. . канд. психол. наук. -М., 2006. – С.28.

[22] Тебекин А. Методы принятия управленческих решений. Учебник для академического бакалавриата. – Litres, 2022. – С. 98.

– mezonlar bo‘yicha yo‘nalishlarni baholash;

– variantlar haqida axborotni izohlash;

– qaror qabul qilish jarayoni natijasini baholash va hokazo.

Bundan tashqari, muallif qaror qabul qilish jarayonida ochiq va yopiq muammoli vaziyatlarning rolini alohida ta’kidlab o‘tib, uning so‘zlariga ko‘ra, ochiq vaziyatlar gipotezani shakllantirish va muammolarni hal qilish sharoitida aniqlasa, yopiq vaziyatlar muammo yuzasidan chuqqurroq mulohaza yuritish zaruratini yanada oshiradi. Shu munosabat bilan, qaror qabul qilish orqali shaxs, noma’lum obyektning holati haqida ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Qaror qabul qilish va tanlov erkinligi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar borasida A.Yu.Mironkina izlanishlar olib borib, insonga xos tanlovning uchta turini ajratib ko‘rsatadi[23]:

– sodda tanlov bu – eng oddiy tanlov ko‘rinishi sifatida qaralib, subyektga tanish bo‘lgan alternativ vaziyatlarni taqqoslaydi, biroq bu mezon amaliyotda hali aniq shakllanmagan. Mazkur tanlovning ma’nosi shundaki, unda insonning ma’lum bir natijaga erishishi bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirishining optimal usuli tavsiflangan. Ushbu holatda subyektning vazifasi, berilgan mezonga mos keladigan eng mos alternativalarni aniqlashdir;

– semantik tanlov bu – eng murakkab tanlov turi bo‘lib, muqobil variant mezonlarini taqqoslash uchun, dastlab berilmagan va sinluvchining o‘zi hal etishi lozim bo‘lgan qarorlardir. Ya’ni kasb tanlash, turmush o‘rtog‘ tanlash, tovar tanlash va boshqalar. Bunda inson turli muqobil variantlarni solishtirish uchun, umumiy asoslarni topishi va ularni baholash uchun ma’lum bir mezonlarni ishlab chiqishi lozim;

– shaxsiy yoki ekzistensial tanlov – bunda so‘z jiddiy vaziyatlar va muhim hayotiy tanlov haqida boradi. Bunday sharoitda sub’ektga na alternativalar, na uni taqqoslash mezonlari ham berilmaydi. Yuqorida tahlil etilgan yondashuvlardan farqli o‘laroq, F.S.Lunenburg qaror qabul jarayonini inson faolligining mahsuli sifatida tavsiflashga harakat qilgan[24]. Muallif faollikning beshta turini ajratib ko‘rsatadi, ya’ni mukammal qarorlar uchun, shaxsda yoki yetakchida subyektiv tajriba, kuch, ratsionallik, impulslilik va javobgarlik kabi xususiyatlar yaxshi rivojlangan bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchi ayollar faolligining asosini emotsional, irodaviy, intellektual jarayonlar, shuningdek, murakkab sharoitlarga qaratilgan mukammal strategiyalari hamda oqilona qabul qilgan qarorlari tashkil etadi. Shu bois, ayol harbiy xizmatchilarning qaror qabul qilish sohasini tadqiq etishda, ularga xos feminim sifatlar, motivatsion daraja va irodaviy sohasi imkoniyatlarini hisobga olish, maqsadga muvofiq yondoshuvlardan biri sanaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Караяни А.Г., Сыромятников И.В. Прикладная военная психология. -СПб.: Питер, 2006. – С.58.

2. Cisek P. Making decisions through a distributed consensus //Current opinion in neurobiology. – 2012. – Т. 22. – №. 6. – С. 927-936.

[23] Миронкина А. Ю. Концепция системы поддержки принятия управленческих решений //Сборник научных трудов по материалам XV международной научно-практической конференции" Инновационные направления развития АПК и повышение конкурентоспособности предприятий, отраслей и комплексов-вклад молодых ученых". – 2012. – С. 235-241.

[24] Lunenburg F. C. The decision making process //National Forum of Educational Administration & Supervision Journal. – 2010. – Т. 27. – №. 4. – P. 56-66.

**Akmal RADJABOV,**
Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, “Psixologiya” kafedrasi tadqiqotchisi

# STRESS HOLATINING MAMLAKATIMIZ PSIXOLOGLARI TOMONIDAN YORITILISHI

**Annotatsiya**

Maqolada sportchi faoliyatiga ta’sir etadigan stresslarning kelib chiqish sabablari, ta’sir doiralari va ularning psixologik xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Sportchi, stress, stressorlar, nerv sistemasi, musobaqa jarayoni va boshqalar.

В статье описаны причины стресса, сферы влияния и их психологические особенности, влияющие на результативность спортсменов.

**Ключевые слова.** Спортсмен, стресс, стрессоры, нервная система, соревновательный процесс и др.

The article describes the causes of stress, the spheres of influence and their psychological characteristics that affect the performance of athletes.

**Key words.** Athlete, stress, stressors, nervous system, competition process and more.

Bugungi kunda tub islohatlar ta’sirida shiddat bilan rivojlanayotgan yangi O‘zbekistonni rivojlangan davlatlar safidan munosib o‘rin topishi uchun mamlakatimizda yashayotgan har bir ongli fuqaro zimmasida, jumladan, jismoniy madaniyat xodimlari hamda sportchilar zimmasida ham mas’uliyatli va sharafli vazifalar turibdi. Mamlakatimiz sportchilarining jahon miqyosida o‘tkazilayotgan yirik musobaqalar va olimpiada o‘yinlarida qatnashib, nufuzli o‘rinlarni qo‘lga kiritayotganligi ular bu mas’uliyatli vazifani bajarishga astoydil kirishganligidan dalolatdir. Albatta, nufuzli musobaqalarda ishtirok etish o‘z-o‘zidan bo‘lmasligi hammaga ayon. Buning uchun sportchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasini yanada oshirish, ularda vatanparvarlik hissini kamol toptirish Vatanimiz sportini qisqa muddat ichida jahondagi yirik va yuksak taraqqiy etgan davlatlar sporti darajasiga ko‘tarish lozim.

Sport turlari har xil bo‘lganidek, sportchilarning musobaqaga tayyorligi va ularda musobaqa jarayonida paydo bo‘ladigan hissiy-emotsional ta’sirlanish darajalari ham turlicha bo‘ladi. Ba’zi bir sportchilarda muvafaqqiyatga qiyinchilik bilan erishsalarda, boshqalarida esa kuchli hissiy ta’sirlanish, xavotirlanish, vahimaga tushish; uchinchisida esa asab tizimining zaifligi; to‘rtinchisida hissiyotlarning tez o‘zgaruvchanligi va stressli kechinmalarning mavjudligi sababli sport musobaqalarida yuqori ko‘rsatkichlarga erishishi juda og‘ir kechadi. Shunga ko‘ra, sportchilar bilan psixologik tayyorgarlik ishlari olib borilmas ekan, sport musobaqalari muvofaqqiyatsiz va samarasiz bo‘lishi kuzatiladi.

Mamlakatimiz psixolog olimlari (E.G‘.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova, N.S.Safoyev, D.G‘.Muxamedova, R.S.Samarov, Z.G.Gapparov, R.Z.Gaynutdinov, R.A.Abdurasulov, F.G.Gaziyeva, Z.H.Fayziyev, A.Nazarov va boshq.) tomonidan sport faoliyatida stressli kechinmalarni yuzaga kelish sabablari, stresslarni chaqiruvchi omillar, stressli kechinmalarni psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi hamda psixoprofilaktik chora-tadbirlar tizimi sohasida bir qator nazariy va amaliy masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan tadqiqot ishlari olib borilganligini e'tirof etishimiz mumkin.

Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan yetakchi psixolog olimlarning sport faoliyatida stressli kechinmalarni psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasiga doir ilmiy-nazariy qarashlari yoshlarni sport faoliyati bilan shug‘ullanishlarini ilmiy asosda tashkil etishda, ularni hayotga to‘g‘ri yo‘nalganligi va jismonan barkamolligini ta’minlashda, sportchi psixologiyasiga xos qadriyatlarni e’tiborga olishda, sport turi va sohalari bilan bog‘liq milliylik va milliy mentalitetimizni saqlash hamda avaylab asrashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, G‘.B.Shoumarov o‘z tadqiqotlarida yoshlar kamolotida jismoniy va psixologik taraqqiyotning uyg‘un kechishiga, sportchining jismoniy sog‘lom, ruhiy baquvvat, sport faoliyatida muvafaqqiyatga erishishda emotsional kechinmalarni boshqarish va ularni bartaraf etish hamda sportda yengish masalasini ijobiy hal qilish mumkinligiga alohida e’tibor bilan qaraganligini ko‘ramiz. U sportchilarni tayyorlab beradigan o‘quv muassasalarida psixologik xizmat masalasini tadqiq etish asosida sportchining individual xususiyatlari bilan emotsional-hissiy kechinmalari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda ro‘y berishini ilmiy o‘rganib, yuzaga keladigan salbiy hissiyotlarni yengish va bartaraf etishning muhim jihatlarini mahalliy misollar yordamida tahlil qilgan. Shuningdek, muallifning sportchi faoliyati va emotsional holati o‘zgarishi muammosiga doir sobiq ittifoq va xorijiy mamlakatlar psixologiyasidagi turli qarashlar, yondashuvlarga tahliliy va tanqidiy yondoshuvlarini ham kuzatamiz.

V.M.Karimova yoshlarni oilaga tayyorlashda jismoniy tarbiyaning o‘rni, balog‘atga yetgan qizni yangi oilaga tayyorlash bosqichidagi yoki yangi oila muhitiga borganda stressli holatlar va strossogen omillarga tarbiyaviy-psixologik bardoshliligi, sog‘lom oila konsepsiyasi, sog‘lom ona-sog‘lom bola g‘oyalari hamda shaxsning o‘zaro munosabatlar doirasida emotsional muloqotni nazorat qilish muammolari bilan atroflicha shug‘ullanganligini hamda zarur ilmiy xulosa, tavsiya va yechimlarni ilgar surganligini guvohi bo‘lamiz.

A.M.Jabborov tadqiqotlarida milliy sport o‘yinlarining jamiyat taraqqiyotidagi nufuzi va sportda shaxs takomillashuvidagi muhim xususiyatlarning psixologik mohiyatini yoritishdagi ilmiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy sport turlari millat yoshlari hayotida, faoliyatida, kamol topishi va rivojlanishida zarur jismoniy hamda tarbiyaviy psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Muallifning ilmiy izlanishlarida hissiy kechinmalarning metodologik asoslari, ilmiy nazariy jihatlari, chet el va mamlakatimiz psixologlarining stressli kechinmalar namoyon bo‘lishiga nisbatan yondashuvlari, uning sport faoliyatida o‘rganilishi, muayyan mezonlarga ko‘ra tasniflanishi, tatbiqiy jihatlariga doir ilmiy-nazariy fikrlari va tahlillarini uchratamiz. Ayniqsa, sportchilarni musobaqaga tayyorlash bosqichlarida va sport faoliyatida stressli kechinmalarni psixodiagnostika qilish, stresslarni tasniflash va psixokorreksiyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini yaratish zarurat sifatida muhimligini ko‘rsatib o‘tganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Sh.R.Barotov sport jamoalari va jamiyatda psixologik xizmat ko‘rsatishni tashkil etishning ilmiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari sohasida qator tadqiqotlar olib borish bilan birga, sport faoliyatining o‘ziga xos jihatlari va sportchi kamoloti bilan bog‘liq sog‘lom turmush tarzining muhim tomonlarini ilmiy asoslashga harakat qilgan. Shuningdek, u sport jamoalaridagi psixologik muhitni mo‘tadillashtirish, sportchi-murabbiy munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, emotsional zo‘riqishni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, tasniflash, oldini olish va bartaraf etish bilan bog‘liq chora-tadbirlarda psixologik xizmatning o‘rni va ahamiyati ancha muhim ekanligini yetarlicha ilmiy dalillar bilan asoslaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Z.T.Nishonova ilmiy izlanishlarida sportga qiziqqan va sport muassasalarida tahsil olayotgan sportchilarning turli tashqi ta'sirlar hamda kutilmagan vaziyatlarda emotsional kechinmalari o'zgarganda korreksiya qilishning ilmiy-metodik jihatlari haqida to'xtalib, psixologik yordam amaliyotida emotsional buzilishlarni korreksiya qilishda turli xildagi terapiya ya'ni kognitiv terapiya, geshtalt terapiya va boshqa psixoterapevtik yo'nalishlarga xos milliy-madaniy qadriyatli usullardan foydalanish ahamiyatli ekanligini e'tirof etadi. U sport faoliyatida samarali hisoblangan ijtimoiy-psixologik trening dasturlarini ishlab chiqqan va sport faoliyatida stressli kechinmalarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga yo'naltirilgan mashqlar tizimini yaratgan: shaxsning o'zini-o'zi va o'z his-tuyg'ularini anglash, o'z shaxsini qayta baholash, hissiyotlar ustida ishlash va ular keltirib chiqaruvchi oqibatlarni anglash, shaxslararo munosabatdagi qiyinchiliklar, kognitiv jarayonlarni rivojlantirish, barkamollikka intilish, sport jamoasi va murabbiylar bilan ishlash dasturlari yaratilgan va uni amaliyotga keng joriy qilish mumkinligi asoslab berilgan.

N.S.Safoyev talaba-yoshlarda o'zligini anglashning psixologik xususiyatlari haqida D.G'.Muxamedova boshqarish menejmentining muhim zamonaviy xususiyatlari haqida to'xtalib, sport faoliyati tizimining funksional psixologik modeliga asoslangan holda boshqarishga xos muhim tavsiya va yechimlarni izohlaydi. Muallif sport faoliyatidagi stressli kechinmalarni, sport faoliyatini boshqarish va tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, ularning dasturlari, shakllari, bosqichlari to'g'risida kengroq to'xtalib, sport menejmenti faoliyatiga doir sportchilarni musobaqaga tayyorlash, o'yin jarayonidagi stresslarni aniqlash va unga qarshi kurashish usullariga zarur ilmiy tavsiya va xulosalarni ilgari sura olgan.

R.S.Samarov o'z tadqiqotlarida turli faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarda, xususan sport faoliyati bilan shug'ullanuvchi sportchilarning yolg'on axborotlar qabul qilish jarayonida ularning axborot xavfsizligini ta'minlashga doir zarur mulohazalar bildirgan. Muallif sportchi faoliyatida yuzaga keladigan stressli kechinmalar, sport faoliyatini muayyan tizimga solish, sportchilarni to'g'ri yo'naltirish, murakkab vaziyatlarda to'g'ri karor qabul qilish va emotsional o'zini o'zi boshqarish va nazorat qilib borish zarur ekanligini asoslab berishga erishgan.

Yetakchi psixolog olim E.G'.G'oziyevning mamlakatimiz psixologiya fanida hissiy-emotsional va irodaviy holat muammolarini tadqiq etish hamda uning psixologik mohiyatini yoritishdagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Sport faoliyatida stressli kechinmalar inson hayotida, u bajarayotgan faoliyatida va kamol topishida zarur psixologik omil sifatida ta'sir ko'rsatishi keng izohlab bergan. Muallifning ilmiy izlanishlarida hissiy kechinmalarni metodologik asoslari, ilmiy-nazariy jihatlari, chet el va mamlakatimiz psixologlarining hissiy emotsional holatga nisbatan yondashuvlari, uning sport faoliyati va sporchi shaxsida namayon bo'lishini o'ziga xos jihatlari o'rganilgan, muayyan mezonlarga asoslangan holda tasniflab, tatbiqiy jihatlariga oid ilmiy-nazariy fikrlar bildirilgan.

Muallif emotsiyani biror bir hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iborat deb qaraydi. Qo'rqinch, dahshat kuchli hissiy kechinma sifatida obyektlarga shaxsning munosabatini aks ettirib, turlicha shaklda namoyon bo'lishi mumkin: odam dahshatdan qotadi, qo'rquvdan angrayib qoladi, o'zini idora qila olmay har tomonga uradi, hatto xavf-xatarga o'zini tashlashi ham mumkin.

Stress holatida shaxsning psixologik xususiyatlari, turmush tajribasi, shakllangan malakasi muhim rol o'ynaydi. Keskinlikning oldini olishda shaxsning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Undagi yuksak his-

tuyg‘ular (mas’uliyat, burch, javobgarlik, vatanparvarlik, sadoqat va boshq.) stress holatida xatti-harakat buzilishining oldini olishga xizmat qiladi deb ta’kidlaydi.

Z.G.Gapparov olib borgan tadqiqotlarida sport faoliyatida yuzaga keladigan stressda jismoniy va psixologik bog‘liqlikni ilmiy asoslashga harakat qilgan. Sport musobaqalarida sportchilarning hissiy holatini o‘rganish asnosida start oldi hayajoni va uni nazorat qilish hamda boshqarish usullari to‘g‘risida atroflicha ma’lumot bergan.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda sportchilarni psixologik holatini o‘rganish borasida R.Abdurasulovning olib borgan tadqiqot ishlari ham nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. U shaxs shakllanishida sportning o‘rni va roli haqida alohida to‘xtalib, sportchilarning musobaqadan oldin va musobaqadan keyingi stressli kechinmalarini oldini olish, boshqarish va bartaraf etish usullari to‘g‘risida keng mulohazalar bildirgan.

Muallif sportchilarning musobaqaga psixologik-fiziologik tayyorgarlik jarayonida nerv tizimining muvozanatlashganligi va nafas olish tizimi faoliyatining boshqarish usullarini ham tadqiq etgan. Sportchilarni psixologik tayyorgarligi jarayoni yakunida psixolog-psixoterapevt yoki sport psixologi va murabbiy yordamida sportchi o‘zi uchun zarur bo‘lgan xarakter xislatlari hamda shaxsiy sifatlarini tarbiyalash uchun yakka tartibdagi rejani tuzishda psixoprofilaktik yordam olishlari muhim ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Yosh olima F.Gaziyeva sportda guruhiy jipslik shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari to‘g‘risida to‘xtalib, futbol jamoasining ijtimoiy va faoliyat jarayonidagi jipsligini muayyan mezonlar asosida o‘lchash, ularga ta’sir etuvchi umumiy bog‘liqlikni aniqlash, ijtimoiy jihatdan jamoa a’zolarini yaqinlashtirish, komandani jipsligini ta’minlashga qaratilgan mexanizmlar haqida batafsil ma’lumotlar berib o‘tgan. Shu bilan birgalikda muallif sport faoliyatida jamoaviy jipslikdan qochishning asosiy sababi stressga moyil sportchilarning mavjud ekanligi bilan bog‘lab tushuntirgan. Demak sport faoliyatida stressli kechinmalarni oldini olish va uni bartaraf etish jamoaviy jipslikning asosiy manbai hisoblanishini ta’kidlaydi.

A.Nazarov sport sohasida olib borgan tadqiqot natijalariga tayanib, sportchilardagi psixologik muhofazani o‘rganishga imkon beruvchi psixodiagnostik metodikalarni qo‘llashning samarali imkoniyatlarini aniqlashga erishgan. Sportchilardagi psixologik muhofaza omillarini rivojlantirish modelini yaratgan va sportchi talabalar faoliyatida qo‘llagan. Mualliy tadqiqotlariga asoslanib, sportchilarning psixologik muhofaza omillarini rivojlantirishga mo‘ljallangan psixologik trening dasturini ishlab chiqqan va shu asosida amaliy tavsiyalar bergan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev M.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.; “O‘zbekiston”, 2017. – 488-b.

2. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. –T.: 2010. – 54-b.

3. G‘oziyev E. G‘., Jabborov A. M. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. – T.; 2003. – 124-b.

4. Gaziyeva F.E, Sportda guruhiy jipslik shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari:.Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. –T.; 2019. –55 bet.

5. Jabborov A. M. O‘qituvchi etnopsixologiyasi. – Qarshi.: “Nasaf”. – 2015. –180 b.

**Dilfuza XO‘JAMBERDIYEVA,**
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

# O‘QUVCHILARNING AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTLIGI TA’LIMNING ASOSIY MEZONI

**Annotatsiya**

Usbu maqolada bugungi kunda o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetenligini shakllantirish, axborotlar bilash ishlash bosqichlari, axborotlar bilan ishlashni tashkil etish yo‘llari, axborotlar bilan ishlash texnologiyalari va axborotlar bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish usullari haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Axborotlar, texnologiya, qobiliyat, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim, ta’lim sifati, ta’lim jarayoni.

В данной статье рассказывается о формировании компетентности учащихся в работе с информацией на сегодняшний день, этапах информационно-познавательной работы, путях организации работы с информацией, технологиях работы с информацией и методах развития навыков работы с информацией.

**Ключевые слова.** Информация, технология, способности, компетентность, компетентностный подход, образование, качество образования, образовательный процесс.

This article describes the formation of students' competence in working with information today, the stages of information and cognitive work, ways of organizing work with information, technologies of working with information and methods of developing skills of working with information.

**Key words.** Information, technology, abilities, competence, competence approach, education, quality of education, educational process.

Mamlakatimizning ta’lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohatlar ilg‘or xorijiy ta’lim tajribasini o‘rganish, tahlil etish hamda ta’lim muassasalari sharoitlariga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik va didaktik xususiyatlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Hozirgi jamiyatni taraqqiy ettirish bosqichida “bilimli” ta’lim kompetensiyasidan kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga o‘tish hamda o‘quvchilarning egallanishi ko‘zda tutilayotgan axborotlar bilan ishlash kompetentligini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son farmonida ta’kidlab o‘tilganidek, “O‘quvchilarning ichki motivatsiyasi fanlarni o‘zlashtirishga qiziqishi, ular orqali tabiiy va ijtimoiy muhit holatini tushunishi, atrof-muhit va inson muammolarini anglashi, ularning yechimini topishda qarorlarni qabul qila olishida muhim o‘rin egallaydi”[1].

Bugungi kunda maktab ta’limi tizimida fanlar asosida o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantirilmoqda, bu esa kompetensiya tushunchasini anglatadi. “Kompetensiya” – u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik ya’ni o‘z bilim mahorat va amaliy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son farmoni

tajribalarini qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushuniladi[2]. “Kompetensiyaviy” yondoshuvga asoslangan ta’lim tizimida o‘qituvchi va o‘quvchining alohida o‘rni bor. Chunki, “Kompetensiyaviy” yondoshuvda o‘quvchi faol ishtirokchiga aylanadi, chunki uning ta’lim olish faoliyati ko‘proq mustaqil, individual topshiriqlarni bajarish va uning natijasini himoya qilishga, kreativ amaliy mashg‘ulotlarda doimiy ravishda savollarga javob berish va individual tadqiqot ishlarini olib borishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘qituvchi va o‘quvchi kompetensiyasi va kompetentligi asosida o‘quvchilarda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llay olish, axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarning o‘quvchilarda shakllantirilishi o‘quvchilarning aqlan va ruhan kamol topishiga, kelajak hayotda dadil va mustahkam qadam tashlashiga zamin hozirlaydi

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyati jamiyatda olib boriladigan o‘qituvchilarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga munosabatni tubdan o‘zgartirish zaruratini keltirib chiqarganligi sababli, hozirgi kunda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llashga va yanada rivojlantirishga g‘oyat muhim e’tibor qaratilmoqda.

Ma’lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm- fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta’kidlagan fikrlarga asoslanib, uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, xalq ta’limi tizimini rivojlantirishda o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish maqsadida hamda qiziqishlari va talablarini e’tiborga olgan holda yuqori sinflarda majburiy va tanlov asosidagi fanlarni joriy qilish, maktab o‘quvchilarining ijtimoiylashuvga, iqtidor va kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan o‘quvchilarning kasbiy o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirgan holda ta’lim berishni rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlar konsepsiyada belgilangan[3].

Ta’lim jarayonida axborot bilan ishlash kompetentligiga asoslanib, o‘quvchi yoshlarni axborot bilan ishlashga to‘g‘ri yo‘naltira bilish lozim. Bu muammo bugungi kun pedagoglari zimmasiga katta va e’tiborli mas’uliyat yuklaydi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi mavjud axborot manbalarining (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) ayrimlaridan foydalanishning boshlang‘ich darajasidagi bilimga ega bo‘lishi, media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni ko‘mak yordamida izlab topishga intilishi, kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan qisman ishlay olishi (oddiy tabriknomalar yoza olishi, anketalarni to‘ldirishi va boshq.) e’tiborga olinadi.

1. O‘quvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetentligini shakllantirish to‘g‘ri tashkil etilsa.

2. O‘quvchilar axborotlar bilan ishlash natijasida nazariy bilimlar va amaliy mahoratga ega bo‘ladilar.

3. Axborotlar bilan ishlash jarayonida kutilayotgan natijalar.

4. Axborotlar bilan ishlashda ishonchlilik.

---

[2] Ochilova G.O. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo ‘llanma.- T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2021 -yil. 6 bet

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish” to’g’risidagi PF-5712-sonli farmoni.

5. Axborotlar bilan ishlashda innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

6. Axborotlar bilan ishlashga ehtiyojining oshishi.

7. Zarur bo‘lgan axborotlar haqida tasavvurga ega bo‘lish.

8. Axborotlarning mohiyatini tushunish, ularni bilim sifatida o‘zlashtirish va kengaytirishi.

9. Mavjud muammolarni hal qilish, muammoli vaziyatlardan chiqa olish va baholashni o‘rganadilar.

Axborot bilan ishlash – ketma-ketlikda bajariladigan bosqichlardir (garchi har bir bosqich boshqalar bilan parallel ravishda amalga oshirilishi mumkin). Ammo asosiy narsa bosqichlarning mavjudligi. Buning uchun nimalarni bilish lozim?

1. Axborotlar bilan ishlash bosqichlarini.
2. Har bir bosqichni bajarish usullarini bilishi lozim.

Bu esa axborotlar bilan ishlash texnologiyalaridir. Umumiy ko‘rinishdagi bosqichlariga: qidirish va yig‘ish → qayta ishlash (tizimlashtirish, tahlil qilish, kodifikatsiya) → foydalanish → saqlash kiradi.

Axborotlarni qidirish va yig‘ish – agar maqsad, vazifa, muammo bo‘lsa, unda axborotlarni izlash va to‘plashdan boshlanadi.

Qayta ishlash – bu keying bosqich bo‘lib, axborotlarni tizimlashtiriladi, masalan, nomlanishi bo‘yicha, so‘ngra esa tahlil qilinadi ya’ni shaklga aylantiriladi, xulosalar berilib, tavsiyalar beriladi.

Axborotlardan foydalanish – bu bosqichda axborotlarga ishlov berish orqali amaliyotda foydalanishi mumkin.

Axborotlarni saqlash – bu bosqichda ma’lumotlar qanday saqlanishi aniqlanadi, chunki ma’lumotlarni topish osonlashadi[4].

Bugungi kunda axborot kompetentligining shakllanish muammosi zamonaviy axborotli jamiyatining rivojlanishida axborot hajmning tobora ko‘payib borishi eng dolzarb bo‘lib bormoqda.

O‘quvchining shaxsiy muvaffaqiyati shundaki uning axborotlar bilan ishlashga tayyor bo‘lishi, vaziyatni tahliliy va tanqidiy baholashni, strategik qarorlar qabul qilishni o‘rganishi, axborot bilan ijodiy ishlash qobiliyati orqali raqobatbardosh shaxs bo‘lib rivojlanadi. Axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasini shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlari rivojlanib, ularning raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Kun sayin rivojlanib borayotgan jamiyatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun inson yuqori darajadagi axborotlar bilan ishlash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak, bu esa quyidagilarni anglatadi:

► axborotlarga bo‘lgan ehtiyojlarni to‘g‘ri aniqlash va uni shakllantirish;

► turli xil axborotlar bilan ishlash, kerakli axborotni topish va tanlash, tasniflash, umumlashtirish, tanqidiy munosabatda bo‘lish;

► axborotlat bilan ishlash jarayonida texnologiyalardan samarali foydalanish;

► to‘plangan bilim asosida har qanday axborot muammosini aniq va samarali hal qilish qoliliyatlariga ega bo‘ladilar.

Axborot kompetentligi:

* axborot manbalari bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish: kitoblar, darsliklar, ma’lumotnomalar, atlaslar, xaritalar, ensiklopediyalar, kataloglar, lug‘atlar, Internet;

* muammolarini hal qilish uchun ma’lumotni mustaqil ravishda qidirish, olish,

[4] https://multiurok.ru/index.php/files/soobshchenie-formirovanie-informatsionnoi-kompeten.html-elektron manba

tizimlashtirish, tahlil qilish va tanlash, uni tashkil qilish, o‘zgartirish, saqlash va uzatish;

* axborotlar bilan ishlashda qurilmalaridan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish: kompyuter, televizor, magnitafon, mobil telefon, faks, printer, modem, kopirayter;

* axborot oqimlarida harakat qilish, ulardagi asosiy va zarur bo‘lgan axborotlarni ajrata olish; ommaviy axborot kanallari orqali tarqatiladigan ma’lumotlarni ongli ravishda idrok eta olish.

Axborotlashgan jamiyatda ta’limning vazifasi axborot qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘quvchini tarbiyalashdir, axborotni qidirish, o‘zgartirish, ulardan foydalanish bilan bog‘liq turli xil muammolarni hal qilishdir. Maktab ta’limining birinchi bosqichida axborot bilan ishlash o‘rgatiladi bu esa kelajakda o‘qitishning muvaffaqiyatli kalitiga aylanadi.

Axborotlashgan jamiyatda o‘quv jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchilarning axborotta’lim muhitida birgalikda rivojlanib borishi maqsadli faoliyatiga aylanadi.

Bilimlar miqdorini birgalikda uzatilishi o‘quvchi shaxsini rivojlanishi uning faoliyat usullariga bog‘liq. O‘quvchilarda o‘quv jarayonida axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarni shakllantirish kompetensiyaga asoslangan yondashuv deb ataladi. Ushbu yondashuvni joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim shartidir va yondashuvning asosiy kompetensiyalaridan biri bu axborot kompetensiyasi. Boshqacha qilib aytganda, axborot kompetentsiyasi bu shaxsning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, u ma‘lumotni turli shakllarda (og‘zaki, grafik, ramziy, raqamli) qidirish, saqlash va qo‘llash qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Katta hajmdagi axborotlar bilan ishlashda o‘quvchilar tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va ko‘nikmalarini, tanlovni amalga oshirish va u uchun javobgar bo‘lish qobiliyatini shakllantiradilar, axborot izlash samaradorligini baholaydilar, taqdim etilgan axborotlarning to‘g‘ri hajmini aniqlaydilar, matnni, grafikalarni, diagrammalarni, rasmlarni tez, mazmunli o‘qiydilar, fikrlarni yozma ravishda ifoda etadilar tahlil qilish, taqqoslash, tasniflaydilar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchilarga zamon talablari darajasida bilim beruvchi pedagog, avvalo, o‘zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi va ularni amaliyotda tatbiq eta olishi zarur. Maktab ta’limida o‘quvchi shaxsni fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Buning uchun o‘quvchilarni axborot bilan ishlash kompetentligini shakllantirish uchun yuqori darajada axborotlarga bo‘lgan ehjitojlarini qondirishdan iboratdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: O‘zbekiston, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli farmoni

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi “2022-2026- yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son farmoni.

**Зульфизар КАРИМОВА,**
Старший преподаватель, филиал МГУ имени М.В. Ломоносова в городе Ташкенте

# РАЗВИТИЕ ЯЗЫКОВОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

**Annotatsiya**

Ta'lim stereotiplarining o'zgarishi davrida hayotiy voqealarning rivojlanishini bashorat qila oladigan, muammoni shakllantiradigan, murakkab pedagogik qarorlar qabul qiladigan va ularning to'g'riligiga ishontira oladigan o'qituvchilarni tayyorlashga ehtiyoj ortadi. Shuning uchun kelajakdagi o'qituvchida "ijodiy faoliyat" umumiy tushunchasi bilan aniqlanishi mumkin bo'lgan kasbiy va shaxsiy fazilatlar to'plamini rivojlantirish vazifasi bugungi kunda alohida ahamiyatga ega. Talabalar faoliyatining an'anaviy shakllarini rivojlantirishning mumkin bo'lgan yo'nalishlaridan biri bu ijtimoiy-pedagogik faoliyat bo'lib, uning doirasida talabalarning ijodiy til faolligini shakllantirishni rag'batlantiradigan maxsus rivojlanish muhiti yaratilishi mumkin.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim stereotiplari, o'qituvchilarni tayyorlash, pedagogik qarorlar, bo'lajak o'qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlari, talabalarning ijodiy faoliyati.

В период изменения образовательных стереотипов возникает повышенная потребность в подготовке педагогов, способных прогнозировать развитие жизненных событий, формулировать проблему, принимать сложные педагогические решение, уметь убеждать в своей правоте. Вот почему задача развития у будущего учителя набора профессиональных и личностных качеств, которые могут быть определены общим понятием «творческая активность», приобретает на сегодняшний день особую актуальность. Одним из возможных направлений развития традиционных форм деятельности студентов является общественно-педагогическая деятельность, в рамках которой может быть создана особая развивающая среда, стимулирующая формирование у студентов творческой языковой активности.

**Ключевые слова.** Образовательные стереотипы, подготовки педагогов, педагогические решение, профессиональные и личностные качества будущего педагога, творческая активность студентов.

During the period of changing educational stereotypes, there is an increased need for the training of teachers who are able to predict the development of life events, formulate a problem, make complex pedagogical decisions, and be able to convince them that they are right. That is why the task of developing a set of professional and personal qualities in a future teacher, which can be defined by the general concept of "creative activity", is of particular relevance today. One of the possible directions for the development of traditional forms of student activity is social and pedagogical activity, within which a special developmental environment can be created that stimulates the formation of students' creative language activity.

**Key words.** Educational stereotypes, teacher training, pedagogical decision, professional and personal qualities of the future teacher, students' creative activity.

Известно, что одной из важнейших задач высшего образования всегда была подготовка педагогов, обладающих высоким уровнем профессиональной, социальной, творческой активности, умеющих комплексно, нестандартно оценивать педагогическую ситуацию на разных уровнях, способных к гибкому, творческому сочетанию традиционного и инновационного подходов в обучении и воспитании.

В период изменения образовательных стереотипов возникает повышенная потребность в подготовке педагогов, способных прогнозировать развитие жизненных событий, формулировать проблему, принимать сложные педагогические решения, уметь убеждать в своей правоте. Вот почему задача развития у будущего учителя набора профессиональных и личностных качеств, которые могут быть определены общим понятием ‘‘творческая активность’’, приобретает на сегодняшний день особую актуальность.

Это тем более важно, что происходящие общественно-политические и социально- экономические преобразования привели к вхождению человека в мировое сообщество. Стирание языкового барьера, прямое межличностное общение становятся насущной потребностью выпускника гуманитарного вуза. Современные требования к активному иноязычному общению предполагают функциональные умения понимать взгляды и мнения представителей культуры другой страны, преодолевать конфликты в процессе коммуникации, признавать право на существование ценностей и норм поведения. Отсюда чрезвычайно важны педагогические условия, способствующие развитию творческой языковой активности студентов- будущих учителей любого предмета (не только иностранного языка), что и стало предметом нашего исследования.

Проблема развития творческой активности вообще и творческой языковой активности в частности является чрезвычайно важной в теории творчества и раскрывается через такие категории, как ‘‘творческая деятельность’’, ‘‘творческий процесс’’, ‘‘творческое самовыражение’’, ‘‘творческая самореализация’’, ‘‘языковая творческая активность’’ и др.

Признавая конструктивность подхода основанного на признании продуктивности процесса развития творческих качеств личности, мы сконцентрировали свое внимание на изучении общих принципов творчества как процесса развития творческой активности студентов на основе навыков организации и управления творческими процессами в общем смысле безотносительно к конкретной предметной области.

Согласно многочисленным исследованиям, феномен ‘‘творчество’’ рассматривается как форма деятельности человека, направленной не только на создание новых ценностей, идей, не только как открытие принципиально нового, но и как усовершенствование решения той или иной задачи. Это в то же время и процесс достижения результата в котором личность реализует свои потенциальные силы и способности некоторые она сама развивается.

Многими учеными высказывается предположение о возможности развития творческих способностей личности и снятия барьеров, препятствующих творчеству, посредством правильно организованного творческого процесса. Рассмотрим такие возможности применительно к задаче развитие творческой языковой активности студентов

В психолого-педагогической литературе выделяются следующие компоненты творческой языковой активности:

– интеллектуальный, обеспечивающий реализацию интеллектуальных умений в процессе решения учебно-педагогических задач;

– мотивационный, стимулирующий студента к саморазвитию и самореализации;

– коммуникативный, создающий предпосылки самоактуализации личности в процессе общения;

– собственно креативный, который мы понимаем как способность к дивергентному мышлению, ориентированному на поиск и генерирование новых информационных объектов.

Возможная структурная модель творческой языковой активности отражена в рис. 1.





***Рис 1. Структурная модель творческой языковой активности***

Анализ содержания требований к педагогической деятельности как особому виду творческой деятельности позволяет сделать вывод о необходимости развития творческой языковой активности будущих педагогов. В этом плане необходимо «задействовать» возможности учебных и внеучебных форм деятельности со студентами и эффективно использовать такие возможности для решения поставленной задачи.

Аудиторная и неаудиторная работа совокупность преобразующих действии, совершаемых в учебно-воспитательном процессе факультета. Не вызывают сомнений такие качества этих видов деятельности студентов, важные для развития творческой языковой активности, как их большая гибкость и подвижность, целенаправленность профессионализацию и гуманизацию.

Нами исследован и обобщен опыт организации разных видов деятельности студентов. Рассматривались традиционные формы, различающиеся по широте охвата студентов (индивидуальная, групповая и массовая) и по направленности (ориентация на профессиональное становление, нравственное и эстетическое воспитание).

Кроме того, формы деятельности студентов относились либо к общим, приобретающим конкретную направленность в зависимости от цели и содержания, или к специальным, отражающим специфику только одного какого-то направления работы и его задачу.

Отметим, что одним из возможных направлений развития традиционных форм деятельности студентов является общественно-педагогическая, в рамках которой может быть создана особая развивающая среда, стимулирующая формирование у студентов творческой языковой активности.

Для диагностики составляющих языковую творческую активность студентов является нами применялся набор тестов, позволяющих определить уровни отдельных её компонентов по шкале ‘‘низкий’’, ‘‘средний’’, ‘‘высокой’’. При его

разработке и составление мы опирались на уже известные методики изучения отдельных свойств личности, а также на такие методы исследования, как наблюдение за студентами в естественных условиях и в специально созданных ситуациях, беседы с ними, анкетирование, интервьюирование

Апробация диагностических методик проводилась эксперимента на базе факультета математики и информатики.

Этот эксперимент проводился с целью развития личностных и социальных качеств будущего педагога, составляющих основу его самостоятельной творческой деятельности. В ходе эксперимента проверялась гипотеза о том, что развитие творческой языковой активности личности протекает более успешно в рамках специально разработанного учебно-воспитательного процесса, реализующего систему последовательных учебно-педагогических воздействий. В результате происходит развитие творческой языковой активности студентов (на репродуктивном, имитирующем, конструктивном и творческом уровнях).

В эксперименте участвовали 45 студентов.

Было проведено два комплексных среза на этапах констатирующего и формирующего экспериментов. Анализ итогов эксперимента выполнялся путем оценки ряда параметров, в частности:

– уровней сформированности отдельных компонентов творческой языковой активности;

– уровня сформированности творческой языковой активности на основе комплексного оценивания составляющих ее компонентов.

Полученные результаты представлены в табл. 1. Как видно из этой таблицы, уровни сформированности каждого компонента превысили на выходе (формирующий эксперимент) свои входные значения (констатирующий эксперимент).

**Таблица 1.**

***Уровень сформированности компонентов творческой активности***

| Уровень | Мотивация % | | Коммуникативность % | | Интеллект % | | Креативность % | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Конс. экс | Форм. экс | Конс. экс | Форм. экс | Конс. экс | Форм. экс | Конс. экс | Форм. экс |
| Низкий | 15,5 | 6,7 | 8,9 | 2,2 | 15,6 | 4,5 | 53,3 | 28,9 |
| Средний | 46,7 | 48,9 | 42,2 | 42,2 | 73,3 | 82,2 | 40,0 | 60,0 |
| Высокий | 37,8 | 44,4 | 48,9 | 55,6 | 11,1 | 13,3 | 6,7 | 11,1 |

В ходе опытной работы распределение студентов по уровням сформированности всех компонентов претерпели сходные качественные изменения. Удельный вес студентов с низким уровнем развития этих компонентов существенно сократился, а с высоким – возрос. Что касается креативной составляющей, то следует отметить, что, как видно из таб. 1, результаты опытной работы подтвердили продуктивность учебно-педагогического воздействия на процессы его активизации и развития. В тоже время развитие интеллекта явилось, на наш взгляд, положительным побочным эффектом, производным от развития креативности. Том более что эксперимент по развитию творческой языковой активности не ставил своей прямой целью развитие её интеллектуальной составляющей.

Анализ уровня сформированности творческой языковой активности был проведен методом комплексного экспертного оценивания с использованием матриц

свертки (результаты оценивания представлены в табл. 2. При этом выявлена ведущая роль личной составляющей творческой языковой активности, а в ее составе - креативности.

Анализ результатов эксперимента позволяет сделать следующие выводы.

Подходы к развитию творческой языковой активности с учетом ее модели и возможности педагогического воздействия на отдельные компоненты оказались весьма продуктивными. Как и ожидалось, наиболее результативным стало воздействие на креативные составляющие творческой языковой активности.

Относительно небольшое повышение уровня сформированности коммуникативного компонента объясняется тем, что он был изначально высоким. Повышение мотивированности явилось, на наш взгляд, результатом запланированного педагогического воздействия (социальный и учебный контекст, стремление к самореализации в данном контексте). А некоторый рост уровня интеллектуальных компонентов расценивается нами как результат развития остальных составляющих, особенно креативности.

Результатом исследования явились научно-обоснованные методические рекомендации и апробированная система занятий со студентами факультета математики и информатики по развитию творческой языковой активности, включающая себя спецкурсы "Развитие творческой языковой активности личности" и "Практикум по технологии обучения английскому языку", разработанные на основе:

**Таблица 2.**

***Уровень сформированности творческой языковой активности студентов***

| Уровень | Констатирующий эксперимент% | Формирующий эксперимент% |
|---|---|---|
| *Низкий* | 46,7 | 8,9 |
| *Средний* | 48,9 | 73,3 |
| *Высокий* | 4,4 | 17,8 |

– уточненного и дополненного содержания понятия «языковая творческая активность»;

– выявленных в результате анализа результатов входного тестирования (констатирующий эксперимент) и ранжирования компонентов творческой языковой активности учебно-педагогических задач и адекватных форм и методов их решения (формирующий эксперимент);

– сформулированных требований к социально-педагогической среде, оптимальной с точки зрения развития;

– определенных в исследовании требований к составу и структуре системных занятий студентов.

**Использованная литература:**

1. Комарова М.Ю. Развитие творческого творческой потенциала будущих учителем во внеаудиторной деятельности. – Иркутск, 2002.

2. Сидорова Т.Б. Педагогическое содействие развитию у студентов-лингвистов способности к межкультурному принятию. – Хабаровск, 2010.

3. Ситникова М.И. Педагогические условия творческой самореализации личности молодого учителя. – Белгород, 1995.

**Bosh muharrir:**
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

**Mas’ul kotib:**
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

**Bosh dizayner – badiiy muharrir:**
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

**TAHRIR HAY’ATI:**
Baxtiyor SAIDOV, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV,
G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA,
Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Ravil IS’YANOV, Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV, Yashin ISMANDIYAROV,
Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Shukurullo MARDONOV,
Ulfat MAHKAMOV.

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV,
Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

**Tahririyat manzili:**

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Shamsiyeva Maftuna Muxiddin qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2022.